

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UO‘K 811.512.133’367.625

ALIJONOVA DURDONA FARXODJON QIZI

**O‘ZBEK TILI TOVUSH FE‘LLARINING LEKSIK-SEMANTIK,
GRAMMATIK TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: Uluqov Nosirjon Muhammadaliyevich,
filologiya fanlari doktori, professor**

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. FE'LLAR SEMANTIKASINING NAZARIY MASALALARI	10
1.1-§. Tilshunoslikda semantik maydon nazariyasi va fe'llarning semantik talqini	10
1.2-§. Tovush fe'llarining lisoniy tavsifi.....	30
Birinchi bob bo'yicha xulosalar	41
II BOB. TOVUSH FE'LLARINING GRAMMATIK TAVSIFI VA NARSA-BUYUM HAMDA TABIAT HODISALARIGA XOS TOVUSH FE'LLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI	43
2.1-§. O'zbek tilidagi tovush fe'llarining grammatik xususiyatlari	43
2.2-§. Tovush fe'llarining yasalishi.....	54
2.3-§. Tabiat hodisalariga xos tovush fe'llarining leksik-semantik xususiyatlari	62
2.4-§. Narsa-buyumga xos tovush fe'llarining leksik-semantik tahlili	65
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	72
III BOB. INSON VA HAYVONLARGA XOS TOVUSH FE'LLARINING LEKSIK-SEMANTIK TASNIFI HAMDA TAHLILI	74
3.1-§. Insonga xos ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe'llari	74
3.2-§. Insonning muayyan holatdagi ovoz bilan bog'liq harakatini ifodalovchi tovush fe'llari.....	85
3.2.1-§. Insonning tabiiy holati, jismoniy zo'riqish natijasida ovoz holatini ifodalaydigan tovush fe'llari.....	86
3.2.2-§. Insonning ruhiy-psixologik holatini tashqi ovoz chiqarish orqali ifodalaydigan tovush fe'llari.....	92
3.3-§. Hayvonlarning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe'llarining leksik-semantik tahlili.....	98
3.3.1-§. Uy va yovvoyi hayvonlarning ovoz harakatini ifodalayigan tovush fe'llarining leksik-semantik tahlili.....	102
3.3.2-§. Hasharotlarning tovushlari bilan bog'liq harakatlarini ifodalovchi tovush fe'llarining leksik-semantik tahlili	108
3.3.3-§. Qushlarning tovushlari bilan bog'liq harakatlarini ifodalovchi tovush fe'llarining leksik-semantik tahlili.....	110
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	115
XULOSA	117
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	119
ILOVA.....	130

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida soʻz turkumlarini, jumladan, feʼl turkumining leksik-semantik, yasalish, grammatik jihatlarini oʻrganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egaligi eʼtirof etilgan. Shu jihatdan feʼl turkumi turli lingvistik paradigma va aspektlarda fanlararo integratsiya tamoyillari asosida izchil oʻrganilmoqda.

Dunyo tilshunosligida leksikologiya, morfologiya, semantika sohalari ilmiy-nazariy jihatdan rivojlangan va mukammallikka erishgan ilmiy yoʻnalishlar hisoblanadi. Hozirda til va nutqda faol qoʻllanuvchi eng boy, eng murakkab, serqirra, faol qoʻllanuvchi feʼl semantik maydoni va uning leksik-semantik guruhlariga doir tadqiqotlar koʻlami, doirasi yanada kengayib, ortib bormoqda. Shu bois ham feʼllarning, jumladan, uning barcha leksik-semantik guruhlarini zamonaviy tilshunoslik aspektlarida oʻrganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Oʻzbek tilshunosligining leksikologiya, semantika sohalari muayyan yutuq va natijalarga erishgan boʻlsa-da, soʻz turkumlarining semantik jihatlarini, jumladan, feʼllar semantik maydoni va uning barcha leksik-semantik guruhlarini monografik aspektda mukammal oʻrganilmagan. “Bugungi globallashtirish davrida har bir mustaqil davlat oʻz milliy manfaatini taʼminlash, bu borada avvalo oʻz madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”¹. Shu jihatdan barcha soʻz turkumlarining mukammal leksik-semantik tasnifini yaratish va funksional xususiyatlarini ochib berish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Feʼllar, jumladan, tovush feʼllarining leksik-semantik, grammatik va yasallish xususiyatlari tadqiqi ham muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan mazkur dissertatsiya dolzarblik kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan “Davlat tili haqida”gi Qonuni, mazkur hujjatdagi vazifalarni amalga oshirish boʻyicha Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentyabrdagi 311-son qarori talablari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сон “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz

13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni va 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”, 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida fe’llarning leksik-semantik, morfologik, sintaktik jihatlari, jumladan, semantik tasnifi B.Levin, M.Aronoff, J.L.Bybee, V.Pagliuka, R.D.Perkins, A.M.Klark, R.A.Klose, Sh.Fries, P.Hill, R.Huddleston, J.K.Pullum, O.Jespersen, M.Joos, S.Kemmer, M.Nevings, F.R.Palmer, D.Osten, H.A.Pousta, John E.Varriner, M.Svan, K.Valter, M.Haspelmath, R.Nordquist, K.Beare va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.²

² Levin. B. English verb classes and alternations. University of Chicago Press, 1993. – 366 p. Aronoff M. Morphology now. – Albany, New York: Sunnyside Press, 1992. – 36 p.; Bybee J. The Evolution of Grammar: tense, aspect and modality in the languages of the world / Bybee Joan, Revere Perkins and William Pagliuca. – Chicago & London: The University of Chicago Press, 1994. – 398 p.; Clark A.M. Spoken English. – London: Oliver & Boyd, 1947. – 115 p.; Close R.A. A Reference Grammar for Students of English. – M., 1979. – 372 p.; Fries Ch. The Structure of English.

O'zbek tilshunosligida fe'l so'z turkumi, uning turlari, yasalishi va grammatik kategoriyalari doir A.N.Kononov, A.M.Sherbak, A.G'.G'ulomov, A.P.Hojiyev kabi taniqli olimlarning ilmiy ishlari³ fe'l nazariyasi yuzasidan izlanishlarning rivojlanishiga asos bo'lgan. Fe'llarning ayrim semantik turlari (nutq, holat, yumush, sezish, yo'nalma, obyektli va obyeksiz harakat fe'llari), valentlik ko'rinishlari hamda ularning semantik xususiyatlari I.K.Qo'chqortoyev, R.Rasulov, S.H.Muhamedova, M.K.Abuzalova, O'.Sharipova, D.Abdullayeva, Z.U.Siddiqov, T.T.Musayev, G.A.Narimova, V.A.Karimjonova va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan⁴, biroq X.Muhiddinovaning dissertatsiyasini e'tiborga olmaganida tovush fe'llarining leksik-semantik, grammatik xususiyatlari monografik tadqiq etilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2021-2025-yillarga mo'ljallangan "O'zbek tilining sistem-struktur va antroposentrik tadqiqi" mavzusidagi istiqbolli ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

– London, 1963. – 214 p.; Hill P. An Instant Approach to English Grammar. – Hong-Kong, 2002. – 241 p.; Huddleston R., Pullum J.K. Grammar of the English Language. – New York: Cambridge University Press, 2002. – 292 p.; Jespersen O. Essentials of English Grammar. – London: Allen & Unwin, 1933. – 210 p.; Joos M. The English Verb: Form and Meaning. – Madison: University of Wisconsin Press, 1964. – 262 p.; Kemmer S. The middle voice // Typological Studies in Language, – Amsterdam: John Benjamin's Publishing company, 1993. – 155 p.; Newings M. Advanced Grammar in Use. – New York: Cambridge University Press, 2002. – 240 p.; Osten Dahl. Tense and aspect systems. – Oxford: B. Blackwell, 1985. – 213 p.; Palmer F.R. A Linguistic Study of the English Verb. – London: Longmans, 1965. – 199 p.; Poustma H.A. Grammar of Late Modern English. Part II. – Groningen: P. Noordhoff, 1926. – 260 p.; Warriner John.E. English Grammar and Composition. – The USA: Harcourt, Brace and Company. Inc. 1958, – 655 p.; Swan M., Walter K. English Grammar. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.; Haspelmath Martin. Understanding morphology. – Oxford: Arnolds Publishers, 2002. – 252 p. <http://grammar.about.com/od/tz/g/verbterm.htm>; <https://www.thought.com/verb-definition>.

³ Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1960. – 187 с.; Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1962. – С.151–180; Гуломов А.Ғ. Феъл. – Тошкент: Фан, 1954. – 88 б.; Ҳожиёв А.П. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – 192 б.

⁴ Кучкартаев И.К. Семантика глаголов речи в узбекском языке (компонентный и валентный анализ): Дисс. ... д-ра. филол. наук. – Ташкент, 1977. – 168 с.; Расулов Р. Глаголы состояния в узбекском языке и их валентность: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – Ташкент, 1989. – 34 с.; Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги: Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2007. – 325 б.; Абузалова М.К. Субстанциал морфология, валентлик ва синтактик қурилма: Филол. фан. док. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – 32 б.; Шарипова Ў. Ўзбек тилидаги юмш феълларининг маъно валентликлари: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1996. – 152 б.; Абдуллаева Д. Семантик-синтактик валентлик ва ўзга гапли қурилмалар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд: СамДУ, 2002. – 22 б.; Сиддиқов З.У. Ўзбек ва турк тилларида қўрув лексемалари семантикаси: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 27 б.; Мусаев Т.Т. Ўзбек тилидаги сезги феъллари: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1992. – 145 б.; Наримова Г.А. Ўзбек тилида феълларнинг объект аргументи: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. Каримжонова В.А. Ўзбек тилида ўрин келишкли бирикмалар семантикаси: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 24 б.; Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида йўналма ҳаракат феълларининг предикативлиги ва валентлиги: Филол. фан. ном. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 22 б.

Tadqiqotning maqsadi tovush fe'llarining leksik-semantik va grammatik jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tovush fe'llarining ingliz, rus va o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi va talqinini yoritish;

“tovush fe'llari” terminini izohlash va lisoniy tavsifini ochib berish;

tovush fe'llarining semantik tasnifini berish;

tovush fe'llarining yasalish xususiyatlarini tahlil qilish;

tovush fe'llarining grammatik xususiyatlarni yoritish;

tovush fe'llarining uslubiy xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek tilining izohli va imlo lug'atlari, badiiy asarlarda qo'llangan tovush fe'llari olindi.

Tadqiqot predmetini tovush fe'llarining leksik-semantik va grammatik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, leksik-semantik, derivatsion, etimologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fe'l turkumining leksik-semantik talqini va tasnifi, tasniflashdagi ayrim muammolar, chalkashliklar, fe'lning ma'noviy guruhlari va unda tovush fe'llarining o'rni hamda boshqa fe'llar bilan munosabati tavsiflangan;

tovush va uning turlari, fizik va nutq tovushlarining farqli jihatlarini, munosabati; tovush fe'llari terminining qo'llanishi, ta'rif-tavsifi, ma'nomundariyasi, leksik-semantik va grammatik hamda derivatsion jihatlarini ochib berilgan;

tovush fe'llarining semantik tasnifi, inson va narsa-buyumlarning tovushi bilan bog'liq harakatini ifodalovchi fe'llarning lug'aviy-ma'noviy va uslubiy qirralari yoritilgan;

hayvon, parranda va hasharotlarning tovushlari bilan bog'liq harakatlarini ifodalovchi fe'llarning semantik tasnifi berilgan, leksik-semantik, qo'llanish va uslubiy jihatlarini ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tovush fe'llari tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosa hamda talqinlar o'zbek tili leksikologiyasi, grammatikasi, xususan, morfologiyasini yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishi, tilshunoslikning so'z yasalishi, leksikologiya, morfologiya sohalari bo'yicha yaratiladigan yangi darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

o'zbek tili tovush fe'llarining leksik-semantik, yasalishi, hosil bo'lishini o'rgatish hamda o'rganishda, tovush fe'llariga doir izohli lug'atlar tuzishda manba bo'lishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlilga tortilgan materiallar o'zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda, xulosalar qilish imkonini berganligi, asosiligi, metodologik mukammalligi, qo'yilgan masalalarning aniqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiya materiallari va ilmiy natijalari jahon, jumladan, o'zbek tilshunosligini tovush fe'llarining leksik-semantik va grammatik xususiyatlari haqidagi yangi ilmiy qarashlar bilan boyitishda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning materiallari, natija va xulosalari o'zbek tili fe'llariga oid darslik va qo'llanmalar yozishda, oliy o'quv yurtlarida fe'l turkumi bo'yicha maxsus kurslar o'tishda, izohli lug'atlar tuzishda manba vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tovush fe'llari tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

fe'l turkumining leksik-semantik talqini va tasnifi, tasniflashdagi ayrim muammolar, chalkashliklar, fe'lning ma'noviy guruhlari va unda tovush fe'llarining o'rni hamda boshqa fe'llar bilan munosabati tavsifi; qo'llanishi, ta'rif-tavsifi, ma'no-mundariyasi, leksik-semantik va grammatik hamda derivatsion xususiyatlariga doir tahlil va xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2024-yillarda bajarilgan IL-402104209 raqamli "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy

vositasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihasida o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori ma’lumotlar bazasini yaratishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 30-sentyabrdagi 01/4-4617-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori ma’lumotlar bazasida tovush fe’llariga doir izoh hamda talqinlar takomillashgan;

tovush fe’llarining semantik tasnifi, inson, hayvon, parranda, hasharot va narsa-buyumlarning tovushi bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe’llarning lug‘aviy-ma’noviy va uslubiy xususiyatlariga doir tahlil va xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2023-2024-yillarda bajarilgan AL-662205561 raqamli “Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish” (“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi g‘azallar asosida) mavzusidagi amaliy loyihada mualliflik korpusi nazariy ma’lumotlar bazasini shakllantirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 30-sentyabrdagi 01/4-4616-son ma’lumotnomasi). Natijada, mualliflik korpusi nazariy ma’lumotlar bazasidagi tovush fe’llariga doir izoh hamda talqinlar mukammallashgan;

hayvon, parranda va hasharotlarning tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe’llarning semantik tasnifi, leksik-semantik, qo‘llanish va uslubiy jihatlariga doir ilmiy qarashlari va ilmiy xulosalardan O‘zMTRK “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanalida 2024-2025-yillarda efirga uzatilgan “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari”, “Bolalar va biz” eshittirishlarining ssenariysini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston – 24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 31-oktyabrdagi 05-09-1713-son ma’lumotnomasi). Natijada, tinglovchilarning o‘zbek tilining fe’l turkumiga, xususan, tovush fe’llariga doir bilim va tasavvurlarini boyishida ahamiyatga ega bo‘ldi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 8 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta (3 ta respublika hamda 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilova tarzida berilgan o'zbek tilidagi tovush fe'llari lug'atidan iborat bo'lib, 163 sahifani tashkil etadi.

I BOB. FE'LLAR SEMANTIKASINING NAZARIY MASALALARI

1.1-§. Tilshunoslikda semantik maydon nazariyasi va fe'llarning semantik talqini

Tilning belgilar tizimi, sistema ekanligi F.de Sossyur tomonidan ilmiy dalillangan. Uning til belgisining qiymati haqidagi g'oyasi til birliklarining semantik jihatlarini anglash va tasniflash uchun asos bo'lgan. U har bir butunlik bo'linuvchanlik xususiyatiga ega ekanini ta'kidlaydi. Til yaxlit butunlikni tashkil qiluvchi elementlar sistemasi. Har bir elementning ma'nosi bir paytning o'zida shu sistemani tashkil qiluvchi boshqa elementlarning mavjudligiga asoslanadi. Har qanday butunlikda quyidagilar aks etadi:

- 1) ko'plab elementlardan iborat butunlik;
- 2) yaxlitlikni tashkil etuvchi elementlar;
- 3) elementlar orasidagi barqaror munosabatlar.⁵

Semantik maydon alohida til sistemasi sifatida murakkab lisoniy strukturaga ega. Maydonning struktur o'zagini barcha paradigmatic guruhlar yig'indisi hosil qiladi. Paradigmatic munosabatlar turli xarakterda, u yoki bu mazmuniy belgilar bilan yaqin bo'lgan leksik birliklarning har xil sinflari bilan namoyon etilishi mumkin.

So'zlarning semantik maydonini nazariy jihatdan tadqiq qilish nemis tilshunosi Y.Trir tomonidan amalga oshirilgan. U nemis tilidagi so'z boyligini semantik maydonlarda o'rganish jarayonida so'z ma'nosini tushunchalarga bog'lab tadqiq qilgan⁶. Shunga ko'ra, til leksikasi *semantik maydon*, *leksik-semantik guruh*, *mazmuniy guruh*, *sinonimik qatorlar* va *onomasiologik guruhlardan* iborat bo'ladi.

Rus tilshunosligida semantik maydonlar nazariyasi F.P.Filin narsa va voqeliklarning o'ziga xos tasniflariga yondashgan holda semantik maydonlarni ishlab chiqdi⁷. Shu usulni ideografik lug'atlar tuzishda qo'lladi.

⁵ Соссюр. Ф. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс. 1977. – С.147.

⁶ Trier J. Einleitung // Der deutsche wortschatz im sinnbezirk des Verstandes. – Heidelberg. 1931. – P. 417-425.

⁷ Филин Ф.П. О лексико-семантических группах слов // Языковедские исследования в честь на акад. Стефин Младенов. – София, 1957. – С.525.

L.Yelmslev semantik maydonlar nazariyasida yangi davrni boshlab berdi. U qarindosh-urug‘chilik, harbiy terminlar semantik maydonini komponent tahlil qildi va so‘zlar semantikasida bir maydonga birlashtiruvchi semalar borligini isbotladi.⁸

Tadqiqotlarda semantik maydon nazariyasi arxisemaning birlashtiruvchi va farqlovchi semalarga ajratilishini tahlil qilish jarayonida komponent tahlil usuli vujudga keldi.

O‘zbek tilshunosligida maydon nazariyasining vujudga kelishi sistem-struktur metodlarning qo‘llanilishi bilan bog‘liq. Jumladan, Sh.Rahmatullayev (semema va frazema)⁹, E.Begmatov (leksik qatlamlar)¹⁰, N.Mahmudov (semantik-sintaktik assimetriya)¹¹ tadqiqotlari o‘zbek tili leksikologiyasini yangi bosqichga olib chiqdi.

O‘zbek tilshunosligiga paradigma va maydonning farqlari ilk marta T.Mirzaqulov tomonidan o‘rganildi. U paradigmanning tilning ma’lum bir sathiga tegishli birliklar yig‘indisi ekanligini, maydonda esa sathlararo chegaraga chek qo‘yilishini qayd etdi. Uningcha, “Maydon nuqtai nazaridan yondashilganda, u tilning bir necha sath hodisalarini tutashtirib, sathlararo farqqa chek qo‘yadi, paradigma esa bir sath doirasida bo‘lib, sathlararo chegarani saqlaydi”.¹²

Lingvistik lug‘atlarda *maydon* termini shunday izohlanadi: “Ma‘no (mazmun) umumiyliги bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy (funksional) o‘xshashligini aks ettiruvchi til birliklari (asosan, leksik birliklar) yig‘indisi maydon deb nomlanadi”.¹³

A.Nurmonovning fikricha, semantik maydon: turli sathga mansub geterogen birliklarning bir umumiy belgi asosida xotirada muayyan guruhlariga birlashuvidir¹⁴, degan.

⁸ Елмьслев Л. Прологомены к теории языка // Новое в лингвистике. – Вып. I. – М., 1960.

⁹ Раҳматуллаев Ш. Лексика ва фразема маъноси компоненти таҳлилининг баъзи натижалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1979. – №2 – Б.19-24.

¹⁰ Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан. 1985. – 345 б.

¹¹ Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик ассиметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 148 б.

¹² Мирзакулов Т.Ў. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси: Филол. фанл. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – Б.18-19.

¹³ Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: СЭ, 1990. – С. 380.

¹⁴ Нурмонов А. Ўзбек тили назарий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 63.

O'zbek tilshunosligida til birliklarini maydon nazariyasi asosida o'rganishda Sh.Iskandarova, A.Sobirov, G.Ne'matova, H.Hojiyeva, N.Nishonova, F.Safarov, M.Hakimova, D.Voqqosova, B.Qurbonova, M.Ergashova, L.Elmuradova tadqiqotlari alohida o'rin tutadi.¹⁵

Sh.Iskandarova shaxs nomlarini ifodalovchi birliklar misolida o'zbek tilshunosligida mazmuniy maydon nazariyasini monografik asosda tadqiq etdi.¹⁶ Olima shaxs mikromaydoni mansub yuzga yaqin leksik-semantik guruhni tahlil qildi, nom va diskurs orasidagi munosabatlarni aniqlashtirdi. U leksik sistemani tadqiq qilish orqali leksemalarning markaziy va chegara semalarini farqladi¹⁷.

A.Sobirov paradigma hamda maydon tushunchalarini farqlab, leksemalarning o'zida qanday g'oya tashiyotganiga qarab alohida semantik maydonlarni hosil qilishini ta'kidlaydi va semantik maydon hosil qilishda so'z tashiyotgan g'oyaga urg'u beradi. U so'zning fizik, semantik, tarixiy, geografik xususiyatlari leksik sathni sistema sifatida tadqiq qilish uchun e'tiborda qolishi zarur bo'lgan jihatlar ekanini ilmiy asoslaydi.¹⁸

Muallif ana shu nazariy qarashga asoslanib, *soch, peshona, quloq, qosh, ko'z, kiprik, burun, yonoq, ensa* so'zlari bosh; *til, tish, milk, lakluk, tanglay* so'zlari og'iz;

¹⁵ Iskandarova Sh. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон асосида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси таъйини асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004; Воққосова Д. В. Ўзбек тилидаги анимонимларнинг семантик таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс.автореф. – Фарғона, 2005; Жабборов Х. Ўзбек тилининг деҳқончилик лексикаси: Филол. фан. докт.... дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек тилида жараён англатувчи терминларнинг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент, 2017; Неъматова Г.Х. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва баъдий қўлланилиши: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Нишоновна Н.Р. Ўзбек тилида “хайвон” архисемали семемалар майдонининг мазмуний тадқиқи: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Норбаева Ш.Х. Хоразм шевааридаги кийим-кечак номларининг структур-семантик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент, 2017; Пазлиддинова Н.З. Ўзбек тили фитонимларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс. автореф. – Фарғона, 2018; Уракова З.С. Маскан отларининг луғавий-маъновий гуруҳи ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Элмурадова Л.Н. Ўзбек тилида даража функционал-семантик майдони (белги даражаси микромайдони): Филол.фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Эргашова М.В. Ўзбек тилида локум ва локализация муносабати: Филол.фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Ўринова О.Т. Ўзбек тилидаги қорамолчилик терминларининг лексиксемантик тадқиқи. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2007; Курбонова Б.Қ. Локалик ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007; Ҳакимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий birlikлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари: Фил. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2004 ва бошқалар.

¹⁶ Iskandarova Sh. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон асосида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999.

¹⁷Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний маъно сифатида ўрганиш (шахс микромайдони) Фил. фан. дис. –Тошкент 1999. – Б. 266

¹⁸ Собиров А. Ш. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – Б.11.

ichak, buyrak, yo'g'onichak, jigar soʻzlari qorin; *tirnoq, panja, bilak, tirsak, barmoq* soʻzlari *qo'l* soʻzi bilan bogʻliq paradigmatic qatorlarni hosil qilgan holda oʻzaro birikib, tana semantik maydoniga birlashishini izohlar ekan, maydon tushunchasining paradigmadan farqlash, yaʼni maydon paradigmaga nisbatan kengroq tushuncha anglatishini qayd etadi.

Olim maydon tushunchasini toʻla va aniq belgilash uchun soʻzning denotativ, signifikativ maʼnolarini ham nazardan qochirmaslik zarurligini taʼkidlaydi. Shuningdek, oʻzbek tilshunosligida maydonning ayrim turlari boʻyicha maxsus tadqiqotlar olib borilgan.¹⁹

Tilshunoslikda feʼl turkumiga doir koʻplab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ular, asosan, feʼllarning grammatik tadqiqiga, qisman, leksik-semantik tasnifi: maʼnoviy guruhlari, denotativ va konnotativ maʼnolari, uslubiy xususiyatlar va leksikografik izohi hamda talqiniga bagʻishlangan. Bugungi kunda feʼllarning leksik-semantik jihatlarini zamonaviy tilshunoslik yutuqlari va paradigmalari asosida oʻrganish davrning dolzarb vazifasiga aylandi.

Rus tilshunosligida L.M.Vasilev feʼllarni semantik jihatdan tasniflashda quyidagi uch tamoyilga asoslanish lozimligini taʼkidlaydi:

Denotativ yoki mavzuiy tamoyil – soʻzlar semantik va mavzuiy sinflarga boʻlinadi: turli jonivorlar, qushlar, baliqlar, oʻsimliklar nomlari; kasblar, marosimlar, qarindoshlikka oid terminlar kabi. Shu tamoyil orqali leksemalar leksik-semantik guruhlarga ajratiladi.

Paradigmatic tamoyilda leksemalar maʼnosidagi integral va differensial komponentlar aniqlanadi. Bunda feʼllarning aspektual, yaʼni harakatning turli usullarini ifodalovchi kauzativ, modal maʼnoli feʼllarga boʻlinadi. Shuningdek, tematik tamoyildan farqli ravishda tasniflanayotgan sememalarning nafaqat denotative, signifikativ aspektlari ham hisobga olinadi.

¹⁹ Абдувалиев М. Тўсиқсизлик майдони ва уни ташкил этувчи синтактик бирликлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998. – №4. – Б.62-66; Мирзакулов Т.Ў. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол. фан. докт. ... диссер. автореф. – Тошкент, 1994; Нишоновна Н.Р. Ўзбек тилида “хайвон” архисемали лексемалар майдонининг мазмуний таҳлили: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Ҳожиёва Ҳ. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 2001; Сафаров Ф.С. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004; Воққосова Д.В. Ўзбек тилидаги анемонимларнинг семантик таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2005 ва бошқалар.

Sintagmatik tamoyilda fe'ning sintaktik va semantik valentliklari hisobga olinadi. Olimning fikricha, fe'llarni LSG ga ajratishda dastlab birinchi tamoyilga, keyin ikkinchi va uchinchi tamoyillarga asoslanish kerak.²⁰ U yuqoridagi tamoyillarga asoslangan holda, fe'llarni semantik jihatdan 4 katta guruhga ajratib o'rganadi. Ushbu tasnif ancha mukammal bo'lib, keyingi tadqiqotlar uchun muayyan darajada asos vazifasini bajargan.

1. Sezish fe'llari.
2. Intellektual faoliyat fe'llari.
3. Nutq fe'llari.
4. Xulq-atvor fe'llari.²¹

N.K.Dmitriyevning monografik ishlarida turkiy tillardagi fe'llar to'rtta semantik guruhga bo'lingan:

1. Nutq fe'llari.
2. Sezgi fe'llari.
3. Faoliyat fe'llari.
4. Harakat fe'llari.²²

Bu tasnif turkiy tilshunoslikda fe'llarning semantik tasnifi uchun asos vazifasini bajargan. Fe'llar til leksikasida eng salmoqli o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham eng qadimgi tilshunoslikka oid asarlarda ham fe'l alohida turkum sifatida qayd etilgan.

R.Rasulov qayd etganidek, fe'l boshqa so'z turkumlariga nisbatan eng amaliy, eng murakkab va ayni vaqtda, semantik jihatdan rang-barang grammatik kategoriyadir.²³ Haqiqatdan, fe'llar boshqa so'z turkumlariga nisbatan grammatik shakl va kategoriyalarga boyligi, murakkabligi, paradigmatic jihatdan serqirraligi, sintagmatik jihatdan keng qamrovligi bilan tavsiflanadi. Fe'ning serqirraligi uning semantik xususiyatlari va tasnifida yaqqol ko'rinadi.

²⁰ Васильев Л.М. Семантика русского глагола. – М., 1981. – С.41.

²¹ Васильев Л.М. Семантические классы русского глагола: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – М., 1971.; Васильев Л.М. Семантические классы глаголов чувства, мысли и речи. В кн.: "Очерки по семантике русского глагола". – Уфа, 1971. – С.123.

²² Н.К.Дмитриев. Строй тюркских языков. – М., 1962. – С. 570-598.

²³ Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент, 1989.

O‘zbek tilshunosligida fe’llar semantikasi A.G‘ulomov, A.Hojiyev va boshqa taniqli olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ayniqsa, R.Rasulov, I.Qo‘chqortoyev, Y.Tojiyevning fe’l semantikasi, valentligi, fe’lning yasalishi, undagi grammatik kategoriyalar va ularning o‘zaro munosabati masalasiga doir tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi.²⁴

A.Hojiyev fe’l va ko‘makchi fe’l, to‘liqsiz fe’l shakllarini monografik tadqiq etgan. U fe’lni harakat ma’nosini bildiruvchi so‘zlar sifatida talqin qilinishini, “nima qilmoq?” so‘rog‘iga javob bo‘lishini ta’kidlaydi. O‘zbek tilidagi fe’llarni leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra mustaqil fe’llar va yordamchi fe’llarga ajratgan. Mustaqil fe’llar va yordamchi fe’llarning lisoniy tavofutlarini batafsil izohlagan²⁵.

M.Sodiqova fe’l stilistikasiga bag‘ishlangan ishida fe’llarni 3 semantik guruhga ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

1. Harakat fe’llari.
2. Holat fe’llari.
3. Munosabat fe’llari.

Harakat fe’llarini esa quyidagi guruhlarga ajratadi:

- 1) oyoq harakati fe’llari (15 kichik guruhdan iborat);
- 2) qo‘l harakati fe’llari (5 kichik guruhdan iborat);
- 3) xatti-harakat fe’llari (bosh, kalla va hokazo);
- 4) gapirish harakati fe’llari.

Holat fe’llari 2 guruhdan iborat:

- 1) ruhiy-psixologik holat fe’llari;
- 2) ichki kechinma va umuman ruhiyat bilan bog‘liq ekspressivemotsional holatni ifodalovchi fe’llar.

Munosabat fe’llari esa 3 guruhdan iborat holda ko‘rsatiladi:

- 1) ijobiy munosabatni ifodalovchi fe’llar;
- 2) salbiy munosabatni ifodalovchi fe’llar;

²⁴ Кўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари асосида). – Тошкент: Фан, 1977. – 168 б.; Rasulov R. Ўзбек тилида ҳолат феъли ва унинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989. – 142 б.; Миртожиев М. Ўзбек тилидаги феъл валентликлари. – Тошкент, 2007.

²⁵ Ҳожиёв А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. – Тошкент: Фан, 1966. – 190 б.; Ўша муаллиф. Ўзбек тилида тўлиқсиз феъл. – Тошкент: Фан, 1966. – 226 б.; Ҳожиёв А. Ўзбек тилида феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – 190 б.

3) neytral munosabatni ifodalovchi fe'llar.²⁶

Mazkur tasnif birmuncha umumiy bo'lib, fe'lning barcha murakkab qirralarini qamrab ololmagan. Harakat fe'llari doirasida *gapirmoq* fe'li izohlangan. Bu talqinga ko'ra, fe'l og'iz bo'shlig'i hamda tovush obyektlari natijasida vujudga keladi. Gapirish harakati nutq fe'llari sifatida voqelanadi. *Bidirlamoq, bijirlamoq, to'ng'illamoq, do'ng'illamoq, po'ng'illamoq, g'o'ldiramoq* kabilar gapirish harakatini ifodalovchi nutq fe'llarining fonetik variantlaridir.

Ovozning past va baland chiqishi natijasida vujudga keluvchi gapirish harakatiga oid: *ming'irlamoq, shivirlamoq, pichirlamoq* fe'llari gapirish harakatida ovozning past darajasini ifodalaydi. *Baqirmoq, bo'kirmoq, qichqirmoq* fe'llari ovozning balandlik darajasini ifodalashda qo'llanilishini qayd etgan. Shuningdek, nutq va tovushni ifodalaydigan analitik vositalar ham mavjud: *bag'illab bermoq, bobillab bermoq* kabilar emotsional-ekspressiv munosabatlarni ifodalashda qo'llanadi.

Olima og'iz+tovush vositasida bajariladigan harakatlarga *o'qish, kuylash, hushtak chalish* kabi fe'llar, og'iz va nafas vositasida hosil bo'ladigan harakatni bildiruvchi fe'llarga *puflash, tuflash, esnash, aksirish, yo'talish* kabilarni kiritilgan²⁷. Ushbu tadqiqotlar ta'sirida fe'l semantikasining ma'lum guruhlariga oid izlanishlar olib borildi.

I. Madrahimov esa fe'llarning quyidagi ma'no turlarini ajratadi:

1. Natijali o'timli fe'llar: *yozmoq, ochmoq, kesmoq, bo'lmoq*;
2. Natijasiz o'timli fe'llar: *olmoq, sotmoq*;
3. O'zlashma o'timli fe'llar: *yemoq, ichmoq, o'rganmoq*;
4. Holat o'timsiz fe'llari: *qurimoq, qizarmoq* kabi;
5. Harakat o'timsiz fe'llari: *yurmoq, bormoq, kelmoq* kabi;
6. Makon o'timsiz fe'llari: *o'tirmoq, yotmoq*;
7. Taqlid o'timsiz fe'llari: *yiltillamoq, vovullamoq, ma'ramoq* kabi.²⁸

²⁶ Содиқова М. Феъл стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.61.

²⁷ Содиқова М. Ўша асар, 78-б.

²⁸ Мадрахимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серкирралиги ва уни таснифлаш асослари: Филол. фан. ... диссер. автореф. – Бухоро, 1994. – Б.78.

O'tgan asrning 60-yillaridan keyin fe'l semantikasi, sintagmatikasiga oid tadqiqotlar doirasi kengaydi. M.Sodiqova, R.Rasulov, I.Qo'chqortoyev, S.Muhammedova, K.Rahmonberdiyevlar tomonidan o'zbek tilidagi fe'llar semantikasiga doir muhim tadqiqotlar amalga oshirildi va fe'llarning semantik tasniflari yuzaga keldi, biroq fe'llarning mukammal semantik tasnifi yaratilmadi.

Fe'llarning semantik tasnifi murakkab masala bo'lib, tilshunoslikda bu borada yagona, izchil va mushtarak fikr yo'q. Odatda, bu turkumga mansub so'zlarni *harakat va holat fe'llariga; harakat, holat va munosabat fe'llariga; harakat, holat, munosabat va xususiyat fe'llariga* ajratish an'anasi kuzatiladi. Mazkur guruhlar o'z ichida ham bir qancha leksik-semantik guruhlariga ajratishni taqozo etadi. Har bir leksik-semantik guruhdagi fe'llarning semantik, paradigmatic va sintagmatic jihatlarini tahlil qilish esa alohida tadqiqotlarni talab etadi.

Zamonaviy tilshunoslikka oid darsliklarda quyidagi tahlillarni uchratish mumkin. H.Ne'matov, R.Sayfullayeva va boshqalar qayd etganlaridek, fe'l semantikasida lug'aviy-ma'noviy jihatdan harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish, so'zlash, sezish, yo'naltirish, holatga xos ruhiy-psixologik, tafakkur bilan bog'liq fe'llar farqlanadi²⁹. Ular fe'llarni quyidagicha guruhlaydilar:

1. Harakat fe'li.
2. Nutq fe'li.
3. Holat fe'li.
4. Natijali faoliyat fe'li.
5. Tafakkur fe'li.
6. Munosabat fe'li.

R.Sayfullayeva, B.Mengliyevlar fe'llarni oltita semantik guruhini shakllantirgan: *harakat fe'llari, nutq fe'llari, holat fe'llari, natijali faoliyat fe'llari, tafakkur fe'llari, munosabat fe'llari*. Yuqoridagi tansifning ayni davomi desak bo'ladi³⁰. Fe'lning umumiy semantikasi shakllantirilgach, ma'lum semantik maydonlar haqida ilmiy qarashlar vujudga kelgan.

²⁹ Замонавий ўзбек тили. Морфология / Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2008. – 468 б. Б. 397-398.

³⁰ Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Курбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, Фан ва технология, 2009. – Б.187-189.

R.Rasulov, S.Atiyazovlar holat fe'llarining to'qqizta leksik-semantik guruhini ajratganlar:

1. Davomli holat fe'llari.
2. Harakat natijasi bo'lgan holat fe'llari.
3. Ijro holat fe'llari.
4. Harakatning holati fe'llari.
5. Malaka holati fe'llari.
6. Obrazli holat fe'llari.
7. Biologik holat fe'llar.
8. Fiziologik holat fe'llari.
9. Psixik holat fe'llari.

Holat semasi ushbu tasniflashda integral sema sifatida talqin qilinganiga qaramay, ularda harakat ifodalash xususiyatlari mavjudligi qayd etilgan³¹.

Harakat-holatni ifodalovchi birliklarga semantik yondashuv asosida ilk tahlil I.Qo'chqortoyev tomonidan amalga oshirildi. Uning fikricha, fe'l doirasidagi leksik-semantik mikrosistemalarni aniqlash, ularning ichki tuzilishini va boshqa semantik munosabatlarni o'rganish, shu tariqa har bir sememaning umumiy lug'at sistemasida tutgan o'rnini belgilash kabi o'zbek semasiologiyasining eng muhim vazifalarini hal qilishda komponent usulidan foydalanish zarurligini tushuntirdi. Nutq fe'llarining denotativ va konnotativ ma'nolari, frazeologik iboralar tarkibidagi holatlarini ham tahlil qildi. Shuningdek, borliqdagi turli harakatlar sirasiga nafas-tovush chiqarish va nutqiy faoliyat ham kirishini aniqlagan. Mazkur harakatlar subyektning o'zida kechishi, o'timsizligi bilan farqlangan. Chunonchi, nutq fe'llari uchun agents, mazmun va adresat valentliklari zaruriy ahamiyat kasb etishini, komponent tahlil usuli orqali so'z valentligi nazariyalariga asoslanib yoritib berilgan³².

S.Muhammedovaning harakat fe'llari semantikasiga oid tadqiqot ishida *faol harakat* arxisemasiga birlashadigan fe'llarni sinxron usulda komponent va valentlik

³¹ Rasulov R., Atiyazov S. Ўзбек тили феълларининг маъно тўзилиши. Тошкент. 2012. Б. – 7.

³² Кучкортов И. Семантика глаголов речи в узбекском языке (компонентный и валентный анализ): Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Ташкент. 1978. – С. 40.

tomonlarini tahlil qilgan. Olima harakat fe'llarini obyektli va obyeksiz harakat fe'llariga ajratgan. Obyeksiz harakat fe'llari quyidagicha guruhlangan:

1. Gorizontal harakat fe'llari.
2. Vertikal harakat fe'llari.
3. Aylanma harakat fe'llari.
4. Tebranma harakat fe'llari.
5. Nafas va tovush chiqarish harakatini ifodalovchi fe'llar;
6. Predmetning tik holatdan boshqa holatga o'tishini bildiruvchi harakat fe'llari.

Obyeksiz harakat fe'llari harakatni bajaruvchi shaxs yoki predmet faolligini ifodalovchi, biroq uning ta'siri hech bir bevosita obyektga qaratilmagan fe'llardir. Bunday fe'llar semantikasida harakatning ichki jarayonini, yo'nalishsiz yoki natijasiz sodir bo'lishini bildiradi. Misol, *bormoq, yurmoq, uchmoq, sakramoq, ketmoq* kabi fe'llar subyektning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan, lekin boshqa predmetga yo'naltirilmagan harakatni ifodalaydi. Obyeksiz harakat fe'llarda ish-harakatning o'zi maqsad emas, jarayonning mavjudligi asosiy ma'no markazidir. Ular odatda to'ldiruvchisiz keladi va hol, payt, usul kabi ikkinchi darajali gap bo'laklari bilan kengayadi: *bola baqirdi, qush sayradi, kutubxonachi ketdi*. Demak, obyektli fe'llardan farqli tarzda, bu turdagi fe'llar transitiv emas, balki intransitiv fe'llar sifatida grammatik tizimda ajralib turadi.

Obyektli harakat fe'llari uch guruhga ajratilgan:

1. Natijali ijro ifodalovchi harakat fe'llari.
2. Natijasiz mavhum bo'lgan ijro ifodalovchi fe'llar.
3. Og'iz bo'shlig'idagi harakatni ifodalovchi fe'llar.

Nafas tovush chiqarish harakatini ifodalovchi fe'llarda subyekt aktanti asosiy ekanligi ta'kidlanadi va ularni uch guruhdan iborat ekanligi yoritilgan: *nutq fe'llari, nafas chiqarish harakatini ifodalovchi fe'llar, tovush (ovoz) chiqarish harakatini ifodalovchi fe'llar*³³. Harakat natijasida ovoz vujudga keladi. Obyeksiz harakat

³³Муҳамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2007. – В.102.

fe'llarining tarkibiga kiritilgan nafas va tovush chiqarish fe'llari guruhida aynan tovushni bildiradigan fe'llar keltirilgan. Har qanday tovush fe'lida obyekt va subyekt munosabati mavjud. Ikki jismning fizik ta'siri, harakati natijasida tovush fe'llari shakllanadi.

Fe'lning semantik tasnifiga oid salmoqli va atroflicha fikrlar A. Nurmonov va A. Sobirov ishlarida uchraydi. Jumladan, A. Nurmonov harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish, so'zlash, sezish, yo'naltirish, holatga xos ruhiy-psixologik, iqtisodiy tafakkur bilan bog'liq jihatlar e'tiborga olinadi. Shunga ko'ra fe'llar quyidagi semantik guruhlarga ajratiladi:

1. Jismoniy harakat fe'llari. Mazkur fe'llar yaratish, buzish, o'zgartirish, ta'sir etish, zarb berish, jamlash harakati fe'llaridan iborat.

2. Nutq fe'llari. Mazkur fe'llar so'zlashuv, axborot anglatish, nutqiy aloqa, nutqiy undash, nutqqa xos baholash, talaffuz darajasi bilan bog'liq fe'llardan iborat.

3. Sezgi fe'llari. Mazkur fe'llar ko'rish, eshitish, ta'm-maza, hid bilish sezgisi bilan bog'liq fe'llardan iborat.

4. Tafakkur fe'llari. Mazkur fe'llar fikr yuritish, xotirlash, anglash bilan bog'liq fe'llardan iborat.

5. Hayvonot dunyosi bilan bog'liq fe'llar. Mazkur fe'llar hayvonlar, qushlar harakati bilan bog'liq fe'llarni qamrab oladi.

6. Tabiat hodisalari bilan bog'liq fe'llar. Mazkur fe'llar o'simlik va ob-havo o'zgarishlari bilan bog'liq fe'llardan iborat.

7. Umumiy holat fe'llari. Mazkur fe'llar organik va noorganik dunyodagi jismoniy holatni ifodalovchi fe'llardan iborat.

8. Ruhiy holat fe'llari. Mazkur fe'llar quvonch, qayg'u va shu kabi emotsional holat bilan bog'liq fe'llardan iborat.

9. Iqtisodiy holat fe'llari.

10. Munosabat fe'llari. Mazkur fe'llar ijobiy yoki salbiy baholashni ifoda etuvchi fe'llarni o'z ichiga oladi.³⁴

³⁴ Нурмонов А. Ўзбек тили назарий грамматикаси. – Тошкент, 2010. – Б.63.

Ma'lumki, fe'l subyektiga ko'ra inson, hayvon va narsa-buyumlarga xos harakat hamda holatni ifodalaydi. Shu bois A.Sobirov dastlab fe'llarni ikki yirik guruhga ajratadi:

1. Harakatni ifodalovchi leksemlar.
2. Holatni ifodalovchi fe'l leksemalar.

Fe'llarni ish-harakat va holat subyektiga ko'ra 4 guruhga ajratadi:

1. Tirik organizmlarning barchasi uchun umumiy bo'lgan harakat va holatni ifodalovchi fe'llar.

2. Insonga xos harakat va holatni ifodalovchi fe'llar.

3. Hayvonlar va qushlarga xos harakat va holatni ifodalovchi fe'llar.

4. Tabiat jismlari va predmetlar harakati va holatini ifodalovchi fe'llar.³⁵

I. Qo'chqortoyev esa nutq fe'llarini 8 semantik guruhni qayd etadi:

1. Demoq fe'li.
2. Gapiruv fe'llari.
3. Ifodalov fe'llari.
4. Talaffuz fe'llari.
5. Subyektiv hukm fe'llari.
6. Nutqiy da'vat fe'llari.
7. Simmetrik nutq fe'llari.
8. Sukut fe'llari.³⁶

A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupovalar fe'l qanday harakat va holatni ifodalashiga ko'ra sakkizta guruhga ajratganlar:

1. Yumush fe'llari: *ishlamoq, mehnat qilmoq, ter to'kmoq* kabi.
2. Tafakkur fe'llari: *o'ylamoq, tushunmoq, anglamoq, tafakkur qilmoq* kabi.
3. Sezgi fe'llari: *sezmoq, his qilmoq, teginmoq* kabi.
4. Ruhiy holat fe'llari: *xafa bo'lmoq, quvonmoq, achinmoq, kulmoq* kabi.
5. Ishora fe'llari: *ko'zini qismoq, qoshini chimirmoq, labini burmoq* kabi.
6. Jismoniy holat fe'llari: *istimplamoq, kasallanmoq, charchamoq* kabi.

³⁵ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фан. док. ... диссер. автореф. – Тошкент, 2005. – Б.24.

³⁶ Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977.

7. Tabiiy holat fe'llari: *erimoq, muzlamoq, qotmoq, uxlamoq* kabi.

8. Ko'rish fe'llari: *qaramoq, ko'rmoq, nazar solmoq, boqmoq* kabi ³⁷.

Fe'ning UGMsi har bir tadqiqotda umumiylikka ega bo'lsa ham, semantik tasnif tamoyillari turlicha talqin qilinadi.

L.N.Xaritonova yoqut tilidagi fe'llarni uch semantik guruhga ajratib tadqiq qilgan:

1. Harakat va holat fe'llari.
2. Tovush ifodalovchi fe'llar.
3. Obrazli fe'llar.³⁸

Tadqiqotda ilk bor *tovush ifodalovchi fe'llar* guruhi haqida so'z boradi. U tovush fe'llarini akustik tabiatiga ko'ra tahlil qilib, quyidagi to'rtta leksik-semantik guruhlarini izohlagan:

- tabiat hodisalariga xos tovush fe'llari,
- hayvon va qushlarning ovoz harakatiga xos tovush fe'llari,
- mexanik tovush fe'llari,
- insonga xos tovush fe'llari kabi³⁹.

G.Kuliyev fe'l boshqaruviga oid nomzodlik ishida fe'llarni o'nta semantik guruhga ajratib, chuqur tahlil qilgan:

1. Ish-faoliyat fe'llari.
2. Sezgi fe'llari.
3. Nutq fe'llari.
4. Ko'rish fe'llari.
5. Tafakkur fe'llari.
6. Harakat fe'llari.
7. Ruhiy holatni ifodalovchi fe'llar.
8. Tovush ifodalovchi fe'llar.
9. Obrazli fe'llar;
10. Tabiat hodisalarini ifodalovchi fe'llar⁴⁰.

³⁷Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: ILM ZIYO, 2015. –B.332.

³⁸ Харитонов Л.Н. Типы глагольной основы в якутском языке. – М.: Наука, 1954. – С.15.

³⁹ Харитонов Л.Н. Звукоподражательные глаголы якутского языка. – М.: Наука, 1982. – С.128.

⁴⁰ Кулиев Г. Глагольное управление в азербайджанском и туркменском языках. – Баку, 1968. – С.9-13.

G.Kuliyev turkiy tildagi tovushga taqlid (onomatopeik) va tasviriy (imitativ) soʻzlar, xususan, feʼllar tizimini turkman tili materiallari asosida tadqiq qilgan. Uning fikricha, tovush feʼllari inson sezgi tajribasini tilda ifodalovchi tabiiy asosli birliklar boʻlib, ularning fonetik shakli va semantik maʼnosi orasida motivatsion uygʻunlik mavjud boʻladi⁴¹.

A.I.Karimova rus va tojik tillaridagi ayrim feʼl guruhlarining leksik-semantik tasnifini qiyosiy usulda tahlil qilgan. Feʼllarni tasniflashda “pastdan yuqoriga” va “yuqoridan pastga” yondashuvdan foydalangan hamda feʼllarni toʻrtta LSG: *mavjudlik, nutq va ovoz chiqarish, tafakkur va harakat feʼllariga* boʻlgan. Tovush feʼllari alohida guruh sifatida ajratilmagan boʻlsa ham, ularning tasnifi mavjud. Ular insonlar tomonidan chiqariladigan tovushlar, hayvonlar chiqaradigan tovushlar, tabiiy hodisalar tomonidan chiqaradigan tovushlar, tabiiy hodisalar tomonidan chiqaradigan tovushlar, buyum va predmetlar tomonidan chiqaradigan tovushlarni bildiruvchi feʼllar guruhini koʻrish mumkin⁴².

M.Orazov qozoq tilidagi feʼllarni quyidagicha guruhlagan:

1. Harakat feʼllari.
2. Harakatlanish feʼllari.
3. Munosabat bildiruvchi feʼllar.
4. Subyektiv baho feʼllari.
5. Tabiat hodisalariga xos feʼllar.
6. Emotsional feʼllar.
7. Sezgi feʼllari.
8. Tugʻilish va paydo boʻlish feʼllari.
9. Tafakkur feʼllari.
10. Nutq feʼllari.
11. Tovush feʼllari.
12. Statik feʼllar.

⁴¹ Кулиев Г. Звукоподражательные и изобразительные слова в туркменском языке. – Ашхабад: Ылым, 1969. – С. 37-45.

⁴² Каримова Н.И. Лексико-семантическая классификация некоторых глагольных групп в русском и таджикском языках. Автореф. Дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе 2006. – С. 12-13.

Uning fikricha, fe'llarning leksik-semantik tizimini paradigmatic va sintagmatik aloqalar bilan birgalikda o'rganilishi lozim, chunki fe'lning ma'nosi nafaqat uning o'zida, balki u bog'lanadigan so'zlarda ham namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra olim semantik tasnifda fe'llarning valentligiga ham e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi. Olim tovush fe'llari tasnifida ularni manbasiga ko'ra tabiiy va ijtimoiy tovush harakatiga asoslanish lozimligini aytadi.

M.Orazov talqinicha, tovush fe'llari – harakat bilan bog'liq bo'lib, biror tovush chiqarish yoki eshitiladigan hodisani ifodalaydigan fe'llardir⁴³. Ularning guruhlanishi tovush manbasi, akustik jihatlari hamda semantikasi bilan bog'liq bo'ladi.

Zamonaviy rus tilshunosligida tovush fe'llarning semantik jihatlari Y.V.Golubeva, Sh.D.Ismoilov, Y.Y.Balalayeva, S.A.Avakovlar tomonidan alohida o'rganilgan.

Y.V.Golubeva, Sh.D.Ismoilovlar rus, turkman, mo'g'ul va ingliz tillaridagi tovush fe'llarini inson tomonidan amalga oshiriladigan va tovush bilan bog'liq harakatlarni ifodalovchi fe'llar sifatida tadqiq qilganlar. Tovush fe'llari leksikografik manbalar asosida o'rganilgan. Bu orqali tovush fe'llarining semantik-struktur xususiyatlari aniqlangan.

Tasniflashda esa harakatning tabiati hamda tovushning xususiyatlari inobatga olinib, tovush fe'llarini *urilish*, *cho'zilish*, *qarsillash*, *shovqinlash* kabi guruhlariga ajratilgan⁴⁴. Masalan, *shilqillamoq*, *sho'lqillamoq* kabi tovush fe'llari silkinish harakati natijasida; *chapillamoq*, *bilchillamoq*, *shalpillamoq* kabilar esa suyuqlik urilishi natijasida yuzaga keluvchi ovoz harakatini ifodalaydi.

Y.Y.Balalayeva tovush fe'llarining dastlabki fonetik motivatsiyasi vaqt o'tishi bilan zaiflashishini va ular asta-sekin semantik jihatdan boshqa qatlamga o'tishini ta'kidlaydi. Bu jarayon deetimologizatsiya deb yuritiladi va tovush fe'llarining semantik tahlilida muhim nazariy mezon hisoblanadi.

⁴³ Оразов М. Семантика казахского глагола (Опыт семантической классификации). Дисс. ... докт. филол. наук. – Алма-Ата, 1983. – С. 213–218.

⁴⁴ Голубева Е.В., Исмаилов Ш.Д. Звукоподражательные глаголы в языках разных групп // Молодой ученый, 2017. – №47 (181),

Tovush fe'llarining semantik o'zgaruvchanligi va etimologik asosdan uzoqlashuviga e'tibor qaratadi. Shunga ko'ra, ba'zi tovush fe'llari dastlab tovushga yaqinlashish asosida yuzaga kelgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan bu motivatsiya yo'qola boshlaydi. Bu jarayonda so'zning o'z tovush manbasiga bog'liqligi so'nadi. Y.Y.Balalayevaning fikricha, tildagi o'zgarishlar semantik tizimda dinamiklik mavjudligidan dalolat beradi va tovush fe'llari kognitiv jarayonlar, ya'ni insonning tovush va harakatni bog'lashdagi ongli faoliyatlari bilan chambarchas aloqadorligini ko'rsatadi⁴⁵. Masalan, o'zbek tilida *chopmoq*, *tepmoq*, *cho'qimoq* kabi fe'llari boshida tovush harakatini bildirgan bo'lsa, hozirda ularning semantikasi ko'proq harakatni bildiradi.

S.A.Avakov rus tilidagi tovush fe'llarini mustaqil semantik toifa sifatida tahlil qiladi. U fe'llar faqat tovushni emas, harakat va holatni ham ifodalashi mumkinligini izohlagan. Olimning fikricha, tovush fe'llari tovushning sifatini, manbasini (kim yoki nima tovush chiqaryotganini), davomiyligini (uzluksiz yoki bir martalik jihatini) bildiradi⁴⁶. *Akillamoq* tovush manbasiga ko'ra, hayvonga xos ovoz harakatini ifodalaydi. Insonga nisbatan qo'llanganda, *javramoq*, *vaysamoq* fe'llari bilan sinonimlik hosil qiladi, salbiy ma'no bildiradi. Tovush chiqarishning davomiyligini ham ifodalaydi.

Ingliz tilshunosligida tovush fe'llari semantika, fonosemantika, psixolingvistika va kognitiv lingvistika sohalari doirasida o'rganilgan. N.A.Gunina ingliz tilidagi tovush fe'llarining kategoriyalashuvi masalasini maxsus tadqiq qilgan. Uning talqinicha, tovush fe'llari prototipik tamoyil asosda tashkil topgan kategoriya hisoblanadi, bu esa ularning tizimli va funksional kategoriyalashuvida namoyon bo'ladi. Tizimli kategoriyalashning kognitiv asosi "obyektga mansublik" tamoyilidir.

N.A.Gunina tovush fe'llarini quyidagicha tasniflaydi:

1. Insonning tovush chiqarish harakatini ifodalovchi fe'llar.

⁴⁵ Балалаева Е.Ю. Лингвистические причины деэтимологизации звукоподражательных глаголов // Современные исследования социальных проблем. – 2020. – № 3(31). ???

⁴⁶ Аваков С.А. Семантические особенности звукоподражательных глаголов в русском языке // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2011. – № 2. – С.12–14.

2. Hayvonlar tovushini ifodalovchi fe'llar.

3. Jonsiz narsalar yoki tabiiy hodisalarning tovushini bildiruvchi fe'llar⁴⁷.

Olima tovush fe'llarining prototipik modeli haqida ilmiy talqin beradi. Uning fikricha, "tovush konseptual belgisi muntazam ifodalanishi zarur: markaziy nuqtaga inson va hayvonga xos tovush fe'llari kiritiladi. Olamni antroposentrik tamoyil asosda talqin qilish nazariyasiga ko'ra, insonga xos tovush fe'llari markazda turadi, keyin hayvonlarga, qushlarga va tabiat hodisalariga xos tovush fe'llari keltiriladi.

A.S.Virenkova ingliz tilidagi hayvonlarga xos tovush fe'llarini semantik xususiyatlarini o'rgangan. Olima tovush fe'llari deganda, hayvonlarning ovoz harakatiga xos fe'llarni nazarda tutgan. U uy hayvonlari (it, mushuk); chorva mollari (sigir, qo'y, echki, ot, eshak); yovvoyi hayvonlar (bo'ri, yo'lbars, tulki, sher), shuningdek, qushlar va hasharotlarga xos tovush fe'llarini alohida mustaqil guruhlariga ajratgan va metaforik kengayishlari asosida ularning konversiyasi, ya'ni o'zaro ko'chish, hayvonga xos tovushlarni insonga, insonga xos tovushlarni tabiat hodisalariga yoki narsa-buyumga ko'chishi haqida fikr yuritilgan.

A.S.Virenkovaning tasnifida tovushlarning tabiati, manbasi va ijtimoiy konnotatsiyasini hisobga olinishi ishning ilmiy ahamiyatini oshirgan⁴⁸. Bizningcha ham, tovush fe'llarini semantik guruhlashda tovushning manbasiga asoslanish maqsadga muvofiq. Bu yondashuv tovush fe'llarini obyektga mansublik tamoyili asosida tizimlashtirishga xizmat qiladi.

Ingliz tilshunosi F.Pulvermyuller kognitiv neyrolingvistika sohasida faoliyat yuritadi. U *grounded cognition* nazariyasini rivojlantirib, so'zlar, xususan tovush fe'llarini sensorimotor tajribalar orqali miyada qayta ishlanishini izohlagan⁴⁹. Uning nazariyasi o'zbek tilidagi tovush fe'llarini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega. Chunki o'zbek tilida tovush fe'llari ko'pincha eshitish, nutqiy harakat va emotsional qatlamlarni birlashtiradi. Masalan, *baqirmoq* tovush fe'li tovushning fiziologik jarayonini ifodalash bilan birga kuchli emotsional holatni ham bildiradi. Ushbu

⁴⁷ Гунина Н.А. Системная и функциональная категоризация английских глаголов с общим значением "звучание": Диссер. ... кандидат филолог. наук. – Тбилиси, 2000. – С.7-11.

⁴⁸ Выренкова А.С. Звуки животных в английском языке. – М.: ЯСК, 2015. – С.37-45.

⁴⁹ Pulvermyuller, F. Brain mechanisms linking language and action. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – B. 310.

tadqiqot nafaqat semantik tahlilda, balki tovush fe'llarining kognitiv va emotsional asoslarini ham yoritishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

M.Kiefer psixolingvistika yo'nalishida tadqiqot olib borib, semantik jarayonlarni FMRI (funksional magnit-rezonans tomografiya) yordamida o'rgangan. U tilni o'rganishda tovush fe'llari yuqori va o'rta chakka girusidagi eshituv sohalarini kuchliroq faollashtirishini aniqlagan. Tushunchaviy xususiyat baholari tovush fe'llarida harakat va eshitish ma'lumotlari yuqori darajada mavjudligini ko'rsatgan. Bundan tashqari, harakat-ovoz bog'liqligi, ya'ni tovushlar odatda harakatlar natijasi sifatida yuzaga chiqadi. Bu yondashuv orqali til va tafakkur jarayonlarining neyrofiziologik asoslarini tadqiq qilishga imkon beradi⁵⁰.

I.Qo'chqortoyev nutq fe'llari semantik maydonini monografik tadqiq etdi va hozirgi o'zbek tilidagi nutq fe'llarining sakkizta semantik guruhini aniqladi⁵¹. Bunda gapiruv va talaffuz fe'llari semantik jihatdan yaqin. Talaffuz fe'llari nutqning tashqi tovush-talaffuz xususiyatlari asosida nomlaydigan so'zlar bo'lsa, gapiruv fe'llari nutqni ichki xususiyatlari asosida nomlaydigan so'zlardir. Talaffuz fe'llarining ma'nosida nutq amalining tovush-talaffuz xususiyatlarini ifodalash birinchi navbatda tursa, gapiruv fe'llarida bu amalning davomiyligini, kechish usuli, jarayon tomonini ifodalash birinchi navbatda turadi.

Gapiruv fe'llari tarkibida ovoz chiqarish ma'nosini bildiruvchi *un chiqarmoq*, *un bermoq*, *tovush chiqarmoq*, *ovoz chiqarmoq* kabilarni kam qo'llanadigan fe'llar⁵² sifatida talqin etiladi. Aslida, esa ovoz chiqarish arxisemasi atrofida birlashuvchi fe'llar anchagina.

Talaffuz fe'llari nutqning ovoz tomonini bildiradigan fe'llar hisoblanadi. Olim nutqning aynan tovush-talaffuz xususiyatlarini umumiy tarzda ifodalaydigan fe'l yo'qligini va *talaffuz qilmoq* fe'li talaffuz fe'llari uchun asos bo'la olmasligini ta'kidlagan. Ushbu nazariyalar asosida tovush fe'llariga ilk monografik tadqiqot yuzaga keldi.

⁵⁰ Kiefer M., Sim E.-J, Herrnberger B., Grothe J., Hoenig K. The sound of concepts: Four markers for for a link between auditory and conseptual brain systems// The Journal of Neuroscience, 2008. – Vol.28. – № 47. – P. 12224-12230.

⁵¹ Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977. – Б.89.

⁵² Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977. – Б.95.

X.S.Muhitdinova o'zbek tilidagi tovush fe'llarini diaxron tarzda taqdiq qilgan. Uning fikricha, tovush fe'llari turli tovush jarayonlarini harakat-holat sifatida ifoda etadigan so'zlar ekanligi haqida yozadi. Tovush fe'llari sof harakat, holatni emas, balki harakat aspektida namoyon bo'luvchi tovush hodisalarini bildiradi. Ular tovushga taqlid so'zlar va qisman undovlardan ifodalanadi. Tovush fe'llari diaxron tahlillariga (ularning kelib chiqishi, vaqt davomida o'zgarishlarga uchrashi mumkinligi, tovush va tushuncha orasidagi aloqaning yo'qolishi, grammatik xususiyatlari) e'tibor qaratilgan. Masalan, o'zbek tilida ot turkumi sifatida keng qo'llaniladigan *to'qmoq* leksemasining asosi to'q – taqlid so'zidir. *To'qmoq taqillatib ura ketibdi* ("Urto'qmoq" ertagidan). Yoki *cho'qimoq* fe'li etimologiyasida *cho'q* taqlid so'zi mavjud, bunda parrandalarning tumshug'ini biror qattiq predmetga ketma-ket urishidan chiqadigan tovush jarayonini ifodalashda qo'llanilgan⁵³.

O'zbek tilidagi tovush fe'llari umumturkiy til qatlamiga kiradi. Ular qadimgi tabiiy va insonga xos tovushga taqlid so'zlardan kelib chiqqan bo'lib, ko'pincha o'zining morfologik tarkibi va semantik xususiyatlariga ko'ra oraliq shaklli so'zlar qatoriga kiradi. Bu so'zlarning tuzilishi turkiy tillardagi tovushdan yasalgan so'zlarning til imkoniyatlaridan dalolat beradi. Tovush fe'llarining boshqa tillardan kirib kelishi kamdan kam holda uchraydi⁵⁴. Ushbu tadqiqot tilni diaxron tahlil qilish, fe'llar etimologiyasini yoritishda muhim manba bo'lsa-da, keyingi davr darsliklarida o'z aksini topmagan. Tovush fe'llari fe'lning semantik maydoniga nazariy asos bilan kiritilmagan.

Fe'l sof turkiy so'zlardan tarkib topgan turkum hisoblanadi. E.A.Begmatov monografiyasida tarixiy-etimologik jihatdan tilning o'z qatlamga mansub so'zlarning yigirma sakkizta mavzuviy guruhleri ajratilgan. Tovush xususiyatini anglatuvchi so'zlar guruhiga *chirilloq, parilloq, gurillagan, porillagan, po'killagan* kabi fe'llarni ham kiritilgan.⁵⁵

⁵³ Мухитдинова Х. Таклид сўзлар ва ундовдан ясалган феъллар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. – №3. – Б.52-54.

⁵⁴ Мухитдинова Х.С. Глаголы звучания в узбекском языке: Диссер. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1979. – С.40-41.

⁵⁵Бегматов Э. Ҳозирги Ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан. 1985. – Б.124. 200 б.

Tovush fe'llari tovush va harakat ma'nosi bilan birga psixik holatlarni ham ifodalaydi. Shuningdek, tovush fe'llari faqat insonlarga emas, ularning katta qismi hayvonlarning tovush chiqarish harakatiga xos leksemalardan iborat.

T.Musayev *eshitish sezgisi fe'llari* tarkibida *tovushi kelmoq, jaranglamoq, yangramoq* kabi fe'llarini keltirib, ularni eshitish amaliga aloqadorligi, lekin tovushni ifodalovchi so'z tushib qolganligi bois bu masalaga to'xtalmaganligini, o'rganmaganligini ta'kidlaydi.

U *kelmoq* fe'li bir qator otlar bilan birikib, *eshitilmoq* ma'nosini ifodalashi qayd etgan: ...*ayvon tomondan qaynonasining shang'illagan **tovushi keldi*** (O'.Hoshimov).

Misolda *shang'illagan – tovush fe'llari* sirasiga kiritiladi, ***tovushi keldi*** esa sezgi fe'llarining eshitish sezgisiga oid fe'l hisoblanadi⁵⁶. Tovush fe'llari ham ovoz chiqarish, ham harakat, ham eshitish, ham so'zlash tizimlariga xos. Aynan tovush fe'llari eshitish tizimiga bog'liqligi bois, neyrolingvistika, psixolingvistika kabi fan tarmoqlarining obyekti bo'lib xizmat qiladi.

A.Sobirov "Inson va olam" makromaydonini to'rtta qismga ajratgan. Ulardan ikkinchisi insonning ruhiy olamini ifodalovchi leksemalarning semantik maydoni o'n beshta bo'lib, o'n beshinchisi *nutq-ovoz mikromaydoni* sifatida belgilangan. Bunga nutq va ovozni ifodalovchi til tarkibidagi barcha leksemalar kiritilishi ta'kidlangan. Fe'lning semantik maydoni ikkita mikromaydon: harakat va holat mikromaydonlaridan iborat. Ular to'rtta mavzuviy guruhlardan iborat:

1. Tirik organizmlarning barchasi uchun umumiy bo'lgan leksemalarning mavzu to'dalari: *yugurmoq, chopmoq, o'tmoq, suvsamoq, to'xtamoq, ushlamoq, oziqlanmoq, o'smoq, oziqlanmoq, yashamoq, yotmoq, kasallanmoq, ozmoq, semirmoq, o'lmoq*.

2. Insonga xos harakat-holatni ifodalovchi leksik birliklarning mavzu to'dalari: *gapirmoq, o'ylanmoq, yarashmoq, qadrlamoq, tushuntirmoq, uqtirmoq, barpo etmoq, davolamoq, g'ijinmoq, orzulamoq, ko'zlammoq, sevmmoq* kabi.

⁵⁶ Мусаев Т. Ўзбек тилида сезги феъллари: Филол.фан.номз. ... дисс. – Тошкент, 1992. – Б. 31.

3. Hayvonlarga xos harakat va holatni ifodalovchi leksemalarning mavzu toʻdalari: a) xonaki hayvonlarga xos harakat va holatni ifodalovchi leksemalar: *qoʻzilamoq, maʼramoq, kishnamoq, hangramoq, egarlanmoq, qulunlamoq, boʻkmoq, sut bermoq, qoqolamoq*; b) yovvoyi hayvonlarga xos harakat va holatni ifodalovchi leksemalar: *tashlanmoq, panja urmoq, gʻajimoq, kemirmoq, ulimoq, tirmashmoq, izgʻimoq, chovut solmoq*.

4. Narsa va jismlarning harakat va holatini ifodalovchi leksemalarning mavzu toʻdalari ikki guruh: a) daraxtlar va oʻsimliklarga xos harakat va holatni ifodalovchi leksemalar: *unmoq, oʻsmoq, koʻkarmoq, kurtak yozmoq, gullamoq, meva tugmoq, shoxlanmoq, barg chiqarmoq, tomir otmoq, qovjiramoq, soʻlimoq, qurimoq*; b) tabiiy jismlarga xos harakat va holatni ifodalovchi leksemalar: *choʻkmoq, uvoqlanmoq, erimoq, qayrilmoq, qotmoq, aralashmoq, oqmoq, yogʻmoq, sinmoq, porlamoq, chaqnamoq, yaltiramoq, darz ketmoq*⁵⁷.

Obyektiv borliqdagi narsa-predmetlar, insonlar va hayvonlarning turli xil harakat-holatlarini ifodalovchi feʼllar oʻzlarining nutqiy faolligi hamda murakkab semantik qurilishga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi.

Bizningcha, tovush feʼllari sof lingvistik hodisa hisoblanadi. Xorijiy tadqiqot natijalari oʻzbek tilidagi tovush feʼllarining semantik xususiyatlarini oʻrganishda nazariy asos boʻla oladi. Zero, oʻzbek tilida ham *gʻirillatmoq, shiqillatmoq, gumburlamoq* kabi tovush feʼllari shaklan tovushga taqlid qilgani kabi ularning idrokda tasviri ham aynan eshitish sezgisi bilan bogʻliq holda shakllanadi.

1.2-§. Tovush feʼllarining lisoniy tavsifi

Tilshunoslik fanida tovushga taqlid nazariyasi mavjud boʻlib, uning vujudga kelishi qadimgi yunon faylasufi Demokritning falsafiy qarashlari bilan bogʻliq. Unga koʻra, ibtidoiy odamlar ongli yoki ongsiz ravishda hayvonlar, qushlar, tabiat hodisalarining ovozigacha taqlidan tovushlar chiqargan, bular keyinchalik soʻzlarning hosil boʻlishida muhim vazifa bajargan. Zamonaviy tilshunoslikda ham ushbu

⁵⁷ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б.25.

nazariyaga doir *onomatopiya* sohasi ham mavjud. Onomatopiya muayyan ovoz taqlididan hosil bo'lgan birliklarni o'rganuvchi bo'lim hisoblanadi.

Tovushga taqlid nazariyasi tilning paydo bo'lishi haqidagi qadimgi nazariyalardan biri. Bu nazariyaga ko'ra, inson tabiatdagi turli tovushlarga taqlid qilgan va shu yo'l bilan til paydo bo'lgan.⁵⁸

Tovush so'zi tarixiy-etimologik jihatdan turkiycha bo'lib, *sado*, *ovoz* ma'nosini anglatadi. Etimologik jihatdan qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot *tavush*, *tavish* tarzida talaffuz qilingan⁵⁹; o'zbek tilida *a* unlisi *â* unlisiga almashgan: *tavush* > *tâvush* (so'zlashuv nutqida *tavish* > *tâvish* tarzida ham talaffuz qilinadi; bunda *î* unlisining qattqlik belgisi ham yo'qoladi).⁶⁰ O'zbek tilida *tovush* so'zi ko'p ma'noli bo'lib, o'z va ko'chma ma'nolarda hamda tilshunoslik, fiziologiya, musiqa, fizika fanlarida termin sifatida qo'llanadi va quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1. Gapirish, kuylash, qichqirish, yig'lash va shu kabilar vaqtida yuzaga keladigan va eshitish a'zolari qabul qilib oladigan hodisa; ovoz, sado, sas. *Mungli tovush. Yig'i tovushi. Shamolli kun qichqirma, tovushing zoye ketadi.* (Maqol).

2. Ma'lum sifatlarga ega bo'lgan ovoz. *Baland tovush. Musiqiy tovush.* – *Odamlar jonlandi. Ba'zilari chindan, ba'zilari esa hazil-mutoyiba bilan Oxunning tovushini maqtashdi.* (Oybek, Tanlangan asarlar).

3. Mexanik tebranishlar natijasida yuzaga keladigan va quloq eshitadigan har qanday ovoz, sado. *Oyoq tovushi. Tasir-tusir o'q tovushi. Gudok tovushi. Karnay-surnay tovushi.*

4. Shovqin; shovqin-suron. *Tovush qilma, o'lasan! Mana shu chuqur sening uchun qazildi.* (Hamza, Paranja sirlari).

5. *fiziologik* Havo yoki boshqa bir muhit zarralarining to'liqinsimon tebranma harakatlari. *Quloq eshitmaydigan tovushlar. Tovush tezligi. Tovush nazariyasi.*

6. *tilsh.* Nutq a'zolari artikulyatsiyasi bilan hosil bo'ladigan eng kichik til birligi.

⁵⁸ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 109.

⁵⁹ Древнетюркский словарь. – Л., 1969. – С. 542-543.

⁶⁰ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 344.

7. *mus.* Musiqaning ifoda kuchiga ega eng kichik tarkibiy qismi.

8. *ko'chma kam qo'll.* Saylovlarda yoki biror masalani hal etishda o'z fikrini bildirish huquqi va usuli; ovoz.⁶¹

Kundalik turmushda *tovush* atamasini havoda tarqaluvchi va odam eshita oladigan to'lqinlarga nisbatan qo'llashadi. Biroq fizikada tovush deb har qanday materiyada tarqaluvchi mexanik to'lqinlarga aytiladi. Tovush va u bilan bog'liq hodisalarni o'rganuvchi fan bo'limi *akustika* deyiladi.

Tovush fizikada termin sifatida keng va tor ma'nolarda qo'llanadi. Keng ma'noda – *gazsimon, suyuq yoki qattiq muhitda to'lqin shaklida tarqaladigan elastik muhit zarralarining tebranma harakati*. Tor ma'noda – *odam va hayvonlarning maxsus sezgi organlari orqali qabul qilish eshitish hodisasi*. Eshitiladigan va eshitilmaydigan tovushlar bor.⁶²

Tovush haqidagi ta'limot *akustika* deb ataladi. Inson va hayvonlarning tovushni sezishning asosiy sababi havo yoki boshqa elastik muhitda tarqalyotgan to'lqinlarning eshitish organlariga ta'siridir. Bu elastik to'lqinlar manbai tebranyotgan jismlardir. Tebranyotgan jism o'z atrofida tebranyotgan muhit zarrachalarining siyraklashishi yoki quyuqlashishini hosil qiladi⁶³. Tovush deganda quloqlarimizga ta'sir qiluvchi fizikaviy hodisa, ya'ni ko'ndalang to'lqinlarni tushunamiz. Insonlar qabul qilgan tovushlarni ularning yuksakligi, tembri va qattiqligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Ana shu har bir subyektiv bahoga tovush to'lqinining aniq fizik xarakteristikasi mos keladi.

Tovush tushunchasiga o'ndan ortiq ta'riflarni keltirdik. Tilshunoslikda: tovush – nutq tovushi⁶⁴; bizning tadqiqotimizda tovush tushunchasining keng ma'nolari ham hisobga olindi.

Fe'l – harakat bildiruvchi so'zlar turkumi. Grammatikada harakat juda keng tushunchaga ega bo'lib, u *yugurmoq, uxlamq, yig'lamoq, sevmq, sovimoq* va shu kabi fe'llar bildiradigan harakat-hodisalarni nazarda tutadi⁶⁵.

⁶¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – V j. – B. 370.

⁶² Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – 8-ж. – Б.461.

⁶³ Abdurahmonov Q., Xamidov V., Axmedova N. Fizika. Darslik. – Toshkent, 2017. – B. 364.

⁶⁴ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 109.

⁶⁵ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 120.

Tovush fe'llari jonli mavjudotlar, jonsiz narsalarning ovoz chiqarish harakati, holatini ifodalovchi; "ovoz chiqarmoq" arxisemasi bilan birlashuvchi; tovush manbasiga ko'ra ma'lum guruhlariga farqlanuvchi fe'l guruhi hisoblanadi. *Tovush* so'zi aynan keng va tor ma'nolarda qo'llanadi. Inson, hayvon, jonzot, qushlar va borliqdagi turli narsa-buyumlarning ovoz harakati va holatini ifodalovchi mustaqil so'zlar **tovush fe'llaridir**. Masalan, *taqillamoq* – "taq" etgan davomli ovoz chiqarmoq. *Eshik taqiladi*; *tiqirlamoq* – "tiqirrr" etgan davomli ovoz chiqarmoq: *Xayol surish bilan tongotardagina endi ko'zim tingan ekan, ko'cha eshik tiqirlab qoldi*. (A.Muhiddin. Chap cho'ntak); *uvullamoq* – cho'ziq "uvvv" degan ovoz chiqarmoq; *uv tortmoq*. *Bo'ri uvilladi*. *It uvilladi*; *vovullamoq* – "vov-vov" degan ovoz chiqarmoq; *hurmoq*. *G'azablangan kuchuklarning vovullashi, tomoshabinlarning qiyqirig'i ko'kni qoplaydi*. (Oybek, Tanlangan asarlar.)⁶⁶

Keltirilgan misollardagi *taqillamoq*, *tiqirlamoq* inson harakati bilan bog'liq ovoz harakatini; *uvullamoq*, *vovullamoq* fe'llari hayvonlarga xos ovoz harakatini ifodalagan. Shu nuqtai nazardan mazkur so'zlar semantik va grammatik jihatdan fe'l turkumiga, xususan, tovush fe'llari guruhiga mansubdir.

Tovush fe'llari quyidagi lisoniy xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

1. Tovush fe'llari tarixiy-etimologik jihatdan boshqa fe'llar kabi tilning o'z qatlamiga, xususan, turkiy va o'zbekcha so'zlar qatlamiga mansub. Boshqa tillardan o'zalashmalar olinmaydi. Tovushga taqlid so'zlardan yasalgani uchun, ya'ni tovush va tasvir mutanosibligi mavjud, etimologik tahlil qilish nisbatan oson. Masalan, *akillamoq*, *arillamoq*, *apshurmoq*, *bilchillamoq*, *biqirlamoq*, *bitbildamoq*, *biyovbiyovlamoq* kabi.

2. Tovush fe'llari semantik jihatdan insonlar, hayvon va parrandalar hamda narsa-buyumlarga xos ovoz harakatni ifodalaydi hamda quyidagi ma'noviy guruhlarga bo'linadi:

- 1) insonlarga xos ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari;
- 2) hayvonlarga xos ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari;

⁶⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – V j. – B. 283. 610, 714.

3) narsa-buyumlarga xos ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari;

4) tabiat hodisalariga xos ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari.

Har bir LSGda ovoz harakati ifodalanadi. Ovoz+harakat tushunchasi tovush fe'llarida mavjud bo'ladi. Ularda harakat faqrlanishi ham kuzatiladi. K.Saidrahimov fikricha, harakat fe'llarini semantik jihatdan insonlar va hayvonlarga xos guruhlariga bo'lish mumkin:

a) harakati farqlanmaydigan fe'llar: *yurmoq, yemoq, ichmoq, yotmoq*;

b) harakatlari farqlanadigan fe'llar: *sayramoq, sudralmoq, hangramoq*.⁶⁷

Bizning tadqiqot ishimizda tovush fe'llardagi harakat faqrlanishi emas, balki ovoz harakatining manbasi ularni ma'lum LSGlarga bo'lib tahlil qilishga asos bo'ldi.

3. Tovush fe'llari nutqda bir guruhdan ikkinchisiga o'tishi, ya'ni odamga xos tovush fe'llari hayvonga va aksincha, jonzotlar, qushlarga xos tovush fe'llari odamga nisbatan qo'llanishi mumkin. Bunday ma'no ko'chisi metafora usulida yuz beradi va uslubiy maqsadlarga xizmat qiladi. Masalan, *hangramoq* tovush fe'li tovush manbasiga ko'ra, hayvonga xos tovush fe'lini bildiradi. Aynan birinchi ma'nosi – bosh ma'nosi hisoblanadi: hang-hang ovoz chiqarmoq (eshak haqida). Ovozga taqlid qilish ma'nosi insonga xos bo'lib, bunda taqlid qilish, salbiylik kabi ma'nolar vujudga keladi: eshak ovoziga taqlid qilmoq (inson haqida); *baqirmoq, qichqirmoq* leksemalari bilan sinonim bo'la oladi; metafora orqali ma'no ko'chadi. *Vovullamoq* itning hurishini ifodalashda qo'llanilib, bu uning denotativ ma'nosidir: *it vovulladi*. Badiiy matnda esa konnotativ ma'no yuzaga chiqishi, metafora usulida ma'no ko'chishi mumkin. *Rashid vovullab yaxmalak o'ynab yurgan bolalarni qiyqiratib quvib qoldi* (X.To'xtaboyev).

4. Tovush fe'llari, asosan, taqlid so'zlardan *-illa* affiksi vositasida yasaladi: *akillamoq, vizillamoq, g'izillamoq, chirqillamoq, shivillamoq, qarsillamoq* kabi. Demak, tovush fe'llari yasaladi. Ayrim yasama fe'llarda *-illa* affiksi *-ulla* fonetik variantida qo'llanadi. Masalan, "bosiq, cho'ziq *uvv tovushini chiqarmoq*

⁶⁷ Саидрахимов К. Хайвон ҳаракатини ифодаловчи феъллар семантикаси // Тилшунослик ва адабиётшуносликнинг долзарб масалалари. – Андижон: АндУ, 2002. – Б. 183-185.

ma'nosidagi *uvulla* fe'li *uvv* tovushga taqlid so'zidan *-ulla* qo'shimchasi bilan yasalgan⁶⁸; qo'shimcha qo'shilgandan keyin bir *v* harfi tashlab yozilgan, i unlisi u unlisiga almashgan: *uvv + illa = uvulla < uvulla*.⁶⁹

5. Tovush fe'llari tuzillishiga ko'ra sodda va qo'shma tarkibli bo'ladi. Masalan, sodda tarkibli tovush fe'llari: *gursullamoq, potirlamoq, hihilamoq, hangramoq, shitirlamoq, qultullatmoq, qurquramoq*. Qo'shma tarkibli tovush fe'llari: *qars etmoq, qah-qah urmoq, chars etmoq, ho'ngurak otmoq, sharr etmoq* kabi. Ho'ngurak otmoq yig'lamoq. [Sultonxon] *Umriniso bibining darchasidan hatlar-hatlamas ho'ngurak otib yig'lab yuborgan edi*. (Cho'lpon, Kecha va kunduz).

6. Tovush fe'llari fe'llar kabi zamon, shaxs-son, nisbat, mayl va daraja kategoriyalariga ega bo'lib, ularning boshqa fe'l turlari bilan morfologik jihatdan umumiy xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Ular gapda kesim vazifasini ham bajaradi. *Barcha baravar uvvos soldi* (S.Siyoyev, Avaz). *Shamol goh bo'riday uvullar edi* (A.Qahhor, Daxshat).

7. Tovush fe'llari, asosan, fe'lning vazifa shakllarida qo'llanib, matndagi uslubiy, obrazli va emotsional ifoda vositasi vazifalarini ham bajaradi. *Yigitcha uyga to'pillab kirib keldi-da, hech narsadan hech narsa yo'q, stol ustiga kichkina bir tugunchani qo'ydi*. (Y.Xaimov, M.Rahmon. Hayot-mamot). *Hammalari kulishib, ayniqsa, Xolmirza akaning xixilashdan ichagi uzilayozdi* (A.Qodiriy, Obid ketmon).

Tovush fe'llari tovushning o'zini emas, tovush chiqaruvchining faol harakati hamda tovush hosil qilish qobiliyatini ham ifodalaydi. Shuning uchun ham, ular harakat fe'llari, nutq va tafakkur fe'llaridan ajralib turadi⁷⁰.

Tovush fe'llari – jonli va jonsiz narsalarning mexanik tebranma harakati natijasida: insonlarning gapirish, kuylash, qichqirish, yig'lash jarayonida; hayvonlarga hamda parrandalarga xos tovushlarni ifodalashda; shuningdek, tabiat hodisalari natijasida vujudga keladigan har qanday quloq eshitadigan ovoz harakatini bildiruvchi, “ovoz chiqarish” xususiyatiga ega fe'llardir.

⁶⁸ Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М., 1974. – I т. – С. 595.

⁶⁹ Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – Б.380.

⁷⁰ Юлдашев А.А. Лексикографирование звукоподражательных и образных слов. – М.: Наука. 1972 стр. 163.

Tovush fe'llarida shakl va mazmun muvofiqligi mavjud: *arrillamoq* – *ar-ar* *tovush chiqarmoq*: yig'lash holatini, ya'ni insonlarga xos, shuningdek, hayvonlarga xos ovoz chiqarish jarayonini ham ifodalashi mumkin. Tovush fe'llari o'z semantikasida xilma-xildir, jumladan, *aksirmoq*, *aksa urmoq*, *chuchkurmoq* insonning dimog'i qichishi sababli istalmagan tarzda burun bo'shlig'idan havoning zarb bilan chiqarilish harakatidan vujudga keladi. Odatda, og'zaki nutqda *chuchkurmoq* leksemasi qo'llaniladi⁷¹. Semantik qatorlari ularni ma'lum guruhga kiritishga asos bo'ladi.

Tovush fe'llari maydonining shakllanishida eng muhim omillardan biri akustik komponentdir. Shuningdek, vosita, tana va hissiy omillar ham kiradi. Tovush fe'llari semantikasida “ovoz chiqarish” arxisemasi mavjud bo'ladi. Aynan nominativ vazifasi ularning ifodaliligi va obrazlilikini neytrallashtirishga olib keladi. Predmetning in'ikosi inson ongida tabiiy ravishda ro'y beradi. Predmet belgilarning umumlashmasi sifatida predmet obrazi gavdalanadi. Tovush kompleksi va reallikdagi predmet o'rtasida dastlab hech qanday aloqa mavjud bo'lmaydi. Bu yerda aks ettirish deb nomlanishi mumkin bo'lgan hodisa yo'q.... bunda ifodalovchi va ifodalanmish o'rtasida motivatsiyaning borligi yoki yo'qligi masalasi bugungi kungacha turli bahslarga sabab bo'lmoqda⁷². Tovush fe'llarida ifodalovchi va ifodalanmish o'zaro motivatsiyaga ega bo'ladi.

Tovush fe'llarida “ovoz chiqarish” ma'nosi muntazam ifodalanadi. Tovush fe'llari semantik maydonida motivlovchi komponent sifatida tovush chiqarish jarayoni muhim hisoblanadi. Ularning prototipik xususiyati, ya'ni universal belgisi dunyoni antroposentrik tamoyil asosida bo'lishga oid prinsip bilan tasdiqlanadi. Inson va uning faoliyat sohalari borliq markazida turadi. Hayvonlar hayoti faoliyatining ba'zi tomonlari insonlarga o'xshash bo'lgani tufayli ularning tovushlarini bildiruvchi fe'llar keyingi o'rinda turadi. Keyingi o'rinlarda esa tovushli effektlar bilan sodir bo'ladigan harakat va jarayonlarni ifodalovchi fe'llar joylashadi. Ularning markazdan uzoqligi “tovush” belgisi “harakat” belgisi bilan

⁷¹Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

⁷²Нурмонов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – I ж. – Б. 56.

bog'liqligida bilinadi. Bu kabi fe'llarning semantik maydonida motivlovchi komponent tovushning yuzaga kelish sababi hisoblanadi.

Tovush fe'llari kategoriyasining prototipik tuzilishi tovush sememasini anglatuvchi fe'llar semantik jihatdan bir guruhga birlashadi va ushbu guruh ichida prototipik struktura vujudga keladi. Bu guruhga kiruvchi fe'llarning asosiy belgisi – ularning tovushni bevosita yoki bilvosita eshittiruvchi hodisalarni ifodalashidir. Ushbu fe'llarning semantik markazi inson yoki hayvonlarning tovush chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ular orqali signal berish, chaqirish, gapirish, baqirish, yig'lash kabilar ifodalanadi. Demak, ushbu guruhga kiruvchi fe'llarning prototipik xususiyati – tovushning faol ishtiroki bilan kechuvchi harakatni bildirishi hisoblanadi.

Fe'ning prototipik modelini belgilovchi omillardan biri – uning aksional xususiyatlaridir. Bular fe'ning qanday harakatni anglatishini, u jarayonmi, holatmi yoki sababli harakatmi – shular orqali aniqlanadi.

Tovush fe'llari, odatda, jarayonli (harakat davomiyligini bildiruvchi) va kausativ (boshqa shaxs yoki omil sababli yuzaga keladigan) fe'llar qatorida talqin qilinadi. Ularning semantik doirasi keng bo'lib, bu guruhga inson va hayvon harakati bilan bog'liq fe'llar, shuningdek, ba'zi predmetlar tomonidan tabiiy tarzda yuzaga keladigan tovush ifodalari ham kiradi.

Mazkur guruhdagi fe'llarning grammatik shakllanishi ham ularning prototipik holatini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Jumladan, ular o'ziga xos morfologik ko'rsatkichlar bilan harakatning shakli va davomiyligini bildiradi. Shuningdek, ularning funksional-nutqiy darajadagi ishlatilishi ham ushbu kategorianing faol, ommaviy qo'llanadigan guruhlardan biri ekanini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, tovush fe'llari kategoriyasi qat'iy chegaralangan emas, balki yadro va periferik zonalardan iborat uzluksiz struktura tarzida tasvirlanadi. Bu esa ularning prototipik tuzilmasi ko'p omilli va murakkab model asosida shakllanishini anglatadi.

Tovush fe'llarining semantik maydonlari tahlilida paradigmatic munosabatlar bir sathga mansub til birliklarining umumiy belgisi asosida muayyan guruhlarga,

semantik va grammatik turlarga birlashishini aks etadi. Inson xotirasidan o‘rin olgan paradigmatic munosabatdagi guruhlar har bir til egasining xotirasida saqlanadi. Paradigmatik aloqalar asosida leksik tizimga kiritilgan birliklar ma’lum paradigmatic o‘qqa nisbatan guruhlanadi. Bunda arxisemalarga tayaniladi.

D.Lutfullayeva “Tovush va uning egasi munosabati” assotsiatsiyasiga ko‘ra, inson ongida eshitilgan tovush va uning egasi haqidagi ma’lumotlar ham birga mavjud bo‘ladi. Bu holat tovush va uni hosil qilgan predmet, jonivor, shaxs, tovushni yuzaga keltirgan voqelik kabilarning verbal ifodasi inson xotirasida birgalikda jonlanishidan dalolat berishini qayd etadi.⁷³ *Biyovbiyovlamoq* tovush fe’li. *Bir sayroqqush o‘rik tepasiga qo‘nvolib, shu biyovbiyovlayapti, laqovlaqovlayapti!* (M.Mansur, Judolik diyori). *Biyovbiyovlamoq* tovush fe’lini eshitganimizda quyidagi obrazlar paydo bo‘ladi: qush, tabiat va daraxtlar, yoqimli ovoz va harakat.

Bizillamoq tovush fe’li. *Na bir qush sayraydi, na bir bizildoq bizillaydi* (S.Nurov, Narvon). Ushbu fe’lning assotsiativ tahlilidagicha namoyon bo‘ladi: hasharot, tabiat, quloqqa yoqimsiz ovoz va harakat.

Jaranglamoq va *ingramoq* tovush fe’llari.

Qadahlar jaranglar, qahqaha yangrar,

Tilni tiya olmaslik bunday payt yomon.

Parvo qilmay ichaverasan sharob

Ko‘ksing ingrab tursa hamki

yolg‘on deb, yolg‘on!.. (M.Yusuf, Quyoshga qarab oqqan suv, 62-b.)

Jaranglamoq: qattiq jism yoki qadah, tanatana, insonlar davrasi, bazm, tabiiy tovush harakati; *ingramoq*: inson, og‘riq, ichki ovoz, ovoz holati kabi tushunchalar bilan assotsiatsiya hosil qilishi mumkin. Tovush fe’llarini ma’lum guruhlariga ajratishda assotsiativ tahlil usullaridan foydalansak, har bir guruh tarkibidagi leksemalarni komponent tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Leksik ma’noning kombinatorligi hozirgi kunda deyarli barcha tilshunoslar tomonidan e’tirof etildi va leksemaning ma’no komponentlarini ajratishga qaratilgan

⁷³Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – Б.53-54.

komponent tahlil metodi lingvistik tadqiqotning eng universal va keng tarqalgan metodiga aylangan⁷⁴. Komponent tahlil leksik birliklarning semantik tuzilishini aniqlashda qo'llaniladigan samarali metod bo'lib, u so'z ma'nosini minimal mazmuniy qismlarga, semalarga ajratish orqali mazmunning ichki qatlamlarini yoritadi. Mazkur usul tovush fe'llarining denotativ ma'nosini, konnotativ xususiyatlarini hamda ularning paradigmatic aloqalarini tizimli ravishda ochib beradi.

Ingalamoq fe'li asosan inson, xususan, bola yig'isini bildiruvchi cho'ziq ovoz harakatini ifodalaydi. Morfemik tahlil: *inga* (yetakchi morfema) + *la* (yasovchi morfema) *moq* (harakat nomi shakli); uning semantik tarkibida [+bolaga xoslik], [+cho'ziq ovoz], [+salbiy emosional holat], [+so'zlashuv uslubi] kabi semalar ajraladi. Semantik qatorlar hosil qilishda ishtirok etadi. Bunda *yig'lamoq* (giperonim): *big'illamoq* – *ingalamoq* – *bo'zlamog* – *ho'ngillamoq* – *ho'ngramog* – *ho'ngurak otmog* – *uvvos solmog* – *o'kirmog* kabilar giponim sifatida belgilanadi.

Qarsillamoq tovush fe'li tahlili. *Qars* (yetakchi morfema) + *illa* (yasovchi morfema) *moq* (harakat nomi shakli). Sememaning semik tarkibi:

[+predmet] daraxtlar, obyektlar;

[+urilish/sinish] fizik hodisa;

[+kuchli ovoz] rezonans hodisasi;

[+ovoz harakati] lingvistik hodisa bo'lib, *gursillamoq*, *tarsillamoq* kabi fe'llar bilan sinonimik qatorda turadi.

Vovullamoq itning instinktiv ovoz chiqarishini bildiradi. *Vov* (yetakchi morfema) + *illa* (yasovchi morfema) *moq* (harakat nomi shakli); yetkachi morfema tarkibida *o* va *v* tovushlari tufayli yasovchi morfema –ulla shaklida ifodalanadi: *vovullamoq*. Uning tarkibida [+hayvon], [+uzluksiz ovoz], [+ogohlantirish / tashvish] hamda [+baland ovoz harakati] semalari mavjud. Paradigmatik jihatdan *akillamoq*, *uvlamog*, *hurmog* fe'llari bilan semantik yaqinlik hosil qiladi. Semantik maydonlarga ajratish jarayonida shakliy o'xshashlik muhim ahamiyatga ega emas, balki ularning qanday ma'no bildiriyotgani, ketma-ketlik munosabati ahamiyatlidir.

⁷⁴ Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 150.

Gradual munosabatlar orqali sinonimik qatorlarda turuvchi leksemalar darajalanish ko'rsatkichi bilan o'zaro farqlanadi. Fe'llarda darajalanish harakat yoki holatdan anglashilgan bir necha ma'nolar yuzasidan graduonimik qatorlar hosil qilinadi. Nutqiy vaziyat egalari nutqiy vaziyatning maqsadiga mos tarzda so'z tanlashadi. Bunda ular ijobiy yoki salbiy ma'noli so'zlar bo'lishi mumkin. Ularning emotsional-ekspressivlik darajasi so'zlovchining lisoniy bilimiga bog'liqdir.

Y.Isaqova fe'l so'z turkumining gapda tutgan mavqeini emotsional-ekspressivlik jihatidan tadqiq qilgan. Fe'l semantikasida nutqiy fe'llar, aqliy faoliyat fe'llari, jismoniy faoliyat fe'llari, holat fe'llarini ijobiylik-salbiylik ma'nolariga ko'ra tahlil qilish usullari belgilangan⁷⁵. Emotsional-ekspressivlik asosan, sinonimlar, polisemiya, variantlar, dubletlar ishtirokida fonetik, leksik, grammatik aspektlarda amalga oshirildi. Tovush fe'llarida ovoz chiqarish arxisemasiga ko'ra baland ovoz chiqarish salbiy ma'noni ifodalaydi.

Fe'lning daraja qatorlarini tuzishda M.Otaboyeva o'zbek va ingliz tiliga mansub fe'l leksemalarining darajalanish xususiyatlarini 1523 ta fe'l leksemalari misolida hosil qilgan. Nutq va muloqot fe'llarining darajalanish qatorlaridagi fe'llar tasnifini uch guruhga ajratib tahlil qilgan. Birinchisi, ovozning pasayib borishiga ko'ra: *bo'kirmoq, shang'illamoq, baqirmoq, shovqinlamoq, gapirmoq, pichirlamoq, shivirlamoq*; ikkinchisi, ovozning ko'tarilib borishiga ko'ra: *shivirlamoq, pichirlamoq, gapirmoq, shovqinlamoq, baqirmoq, shang'illamoq, bo'kirmoq*; uchinchisi esa tovushning tushunarli eshutilishiga ko'ra: *g'o'ng'illamoq, ming'irlamoq, pichirlamoq, shivirlamoq, gapirmoq*⁷⁶. Fe'llar ma'nosiga qarab, ma'lum qatorlarni hosil qiladi, darajalanadi. Ma'noning kuchayishi yoki torayishi sinonimik qatorlarda o'z aksini topadi.

O'zbek tilida birgina shamol va uning turlariga xos ovozni ifodalovchi *chiyillamoq, g'uvillamoq, vishillamoq, uf tortmoq, uvillamoq, pixillamoq, vag'ilamoq, guvillamoq* kabi tovush fe'llari mavjud: Yaqin ikki haftadan beri ko'z

⁷⁵ Исакова Ю.З. Ўзбек тилининг эмоционал сўзлари ва унинг бадиий-эстетик функциялари: Филол. фан. ... дисс. – Наманган, 2021.

⁷⁶ Отабоева М. Ўзбек ва инглиз тилларида феъллар градуонимияси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Андижон, 2022. – Б.76.

ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida *chiyillaydi, g'uvillaydi*, tomlarda *vishillaydi*, yopiq eshik va darchalarga bosh urib *uf tortadi*. (A.Qahhor. Dahshat).

Shamol goh och bo'riday *uvillar*, goh o'lim changaliga tushgan mushukday *pixillar, vag'illar*, hech narsa-hech narsa ko'rinmasdi (A.Qahhor. Dahshat). Shamol hamon *guvillar*, yaydoq daraxtlarning shoxida *chiyillar, g'uvillar* edi (A.Qahhor. Dahshat).

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Fe'llar semantik jihatdan harakat va holatni ifodalaydi, subyektiv jihatdan inson, hayvon, tabiat va narsa-buyumlarga xos guruhlarga bo'linadi. Harakat va holatning manbasi, turi va boshqa belgi-xususiyatlariga ko'ra leksik-semantik guruhlarga hamda ular o'z ichida yana muayyan guruhchalarga ajratiladi. Bu fe'l turkumining leksik-semantik jihatdan boyligi, serqatlamligi, grammatik murakkabligi bilan izohlanadi.

2. Harakat va holat fe'llari semantik tasnifida hayvon, parranda, tabiat va narsa-buyumlarga ovoz harakati va holatini ifodalovchi mustaqil so'zlar alohida guruhni tashkil etadi. Xorij, rus tilshunosligi, turkiyshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida fe'llarning semantik tasnifiga doir talqinlar ham buni dalilidir.

3. *Tovush fe'llari* insonlar, hayvonlar, jonzorlar, qushlar va turli narsa-buyumlarning ovoz bilan bog'liq harakati va holatini ifodalovchi mustaqil so'zlardir. Tovush fe'llari nominatsion-motivatsion jihatdan *harakat > ovoz, holat > ovoz* modelida yuzaga keladi, harakat va holat mahsuli bo'lgan keng ma'nodagi tovushni ifodalaydi. Tovush fe'llari fe'l turkumiga xos leksik-semantik, grammatik, derivatsion xususiyatlarga egaligi bilan tavsiflanadi.

4. Xorij, rus tilshunosligi, turkiyshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida tovush fe'llari semantik jihatdan *nutq fe'llari, gapirish harakati fe'llari, talaffuz fe'llari* leksik-semantik guruhida *akustik fe'llar, tovush ifodalovchi fe'llar, ovoz fe'llari, tovush harakat fe'llari* kabi turli terminlari ostida o'rganilgan. Bizningcha, ularga nisbatan *tovush fe'llari* terminini qo'llanishi maqsadga muvofiq.

5. Tovush fe'llari semantik maydonining prototipida insonlar, keyin hayvonlarga xos tovush fe'llari kiritilsa; tovush fe'llari periferiyasida (markazdan uzoqlashgan) jonsiz obyektlar chiqaradigan tovushlar, fiziologik jarayonlarni ifodalovchi fe'llar kiritilishi mumkin.

II BOB. TOVUSH FE'LLARINING GRAMMATIK TAVSIFI VA NARSA-BUYUM HAMDA TABIAT HODISALARIGA XOS TOVUSH FE'LLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

2.1-§. O'zbek tilidagi tovush fe'llarining grammatik xususiyatlari

Ferdinand de Sossyur talqinicha, ifodalovchi va ifodalanmish o'rtasidagi bog'lanish tabiiy emas, balki shartli va ijtimoiy xarakterga ega. So'zning tovush shakli ma'noni ifodalash uchun jamiyat tomonidan tanlab olingan belgidir. Shu bois tildagi har bir so'zning tovushi va ma'nosi o'rtasidagi aloqa kelishuv asosida vujudga kelgan ijtimoiy hodisadir.

Shunga qaramay, tovush va ma'no o'rtasidagi aloqadorlikni butunlay rad etib bo'lmaydi. Ko'plab tillarda ayrim tovushlar yoki tovush birikmalari ma'noga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi, ya'ni emotsional, tasviriy yoki semantik qiymatga ega bo'ladi. Masalan, taqlidiy (onomatopoeik) so'zlar tovush va ma'no o'rtasidagi tabiiy bog'lanishning eng yaqqol dalilidir: *gumbur, taq-taq, shovur-shuvir, g'uvur, shitir, g'ijir* kabi.

Tovush va ma'no o'rtasidagi bog'lanish masalasi ko'p jihatdan fonetik ekspressivlik va tovush ramziyligi hodisalari orqali ham izohlanadi. Tildagi har bir tovush yoki tovush birikmasi ma'noga bevosita yoki bilvosita semantik ohang bag'ishlaydi. Bu hodisa nafaqat taqlidiy so'zlarda, balki oddiy leksik birliklarda ham uchraydi. Masalan, ko'pchilik tillarda *i* tovushi mayinlik, noziklik, kichiklik, yumshoqlikni bildiradi, *a* tovushi esa kenglik, kuchlilik yoki yiriklik ma'nolarini beradi. Shu bois, tovushlarning psixologik va estetik ta'siri ma'noda sezilarli darajada aks etadi.

Arqiramoq tovush fe'li folklorda *qudratli tovush chiqarmoq, na'ra tortmoq, pishqirmoq* ma'nolarini bildiradi: *Arqiragan erday bo'lib bordi devlarning ustiga*. ("Malikai ayyor")

Ayqirmoq fe'li esa *shiddatli hayqiriq chiqarmoq* (suvning oqishi) ma'nosini ifodalaydi: *Sho'xsoy qishloqning qoq belidan ayqirib oqadi*. (H.Nazir, So'nmas chaqmoqlar)

Ihramoq fe'li *og'riq* va *alamdan ovoz chiqarmoq* ma'nosini bildiradi: *Ikki yigit o'q yedi, shekilli, ihrab quladi.* (H.G'ulom, Mash'al.)

Inqillamoq kasallik va zaiflikdan qiynalib ovoz chiqarmoq. *Toshpo'latning dadasi yotgan joyida inqillab belini changalladi* (O'.Hoshimov, Sirli yulduz, 189-b.)

Bizning fikrimizcha, bu tovush fe'llarining semantik ekspressivligi bo'lb, ayrim tovushlar so'z tarkibida muayyan emotsional "yuk" tashiydi, estetik ta'sirni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tovush ramziyligi (sound symbolism) tilda tabiiy tovush – ma'no (shakl va ma'no) uyg'unligining ifodasidir. Bu shundan dalolat beradiki, so'zning tovush tarkibi, ma'no bilan birgalikda, inson idrokida shakllanadi. Masalan, turkiy tillarda *g'uvullamoq*, *shovullamoq*, *taqillamoq* kabi fe'llar tovush harakatining fizik xususiyatiga muvofiq shakllangan.

Demak, tovush bo'lmasa, ma'no ifodasiz qoladi; ma'no bo'lmasa, tovush mazmunsiz tovushlarga aylanadi. Tildagi tovush – ma'no munosabati bir vaqtning o'zida tabiiy (psixologik) va ijtimoiy (konvensional) hodisadir. Tovush va ma'no o'rtasidagi munosabat tilda belgining ikki qirradi sifatida mavjud. Bu ikki qirra bir-biriga zid emas, balki o'zaro to'ldiruvchi hodisalardir. Har bir tilda tovush tizimi ma'noni tashuvchi va uni farqlovchi vosita bo'lsa, ma'no esa tovushga mazmun baxsh etadi. Shu tarzda, tovush va ma'no bir butun belgining ikki jihatini tashkil etadi. Buni quyidagi misollar ham tasdiqlaydi.

Povullamoq tovush fe'li *shiddatli jarayon* yoki *tez yonish natijasida kuchli ovoz chiqarmoq* ma'nosini ifodalaydi: *Sut chelakka povullab tushmoqda.* – *Primusning tinmay povullashi uning [Shirmonxonning] xayoliga qanot berganday, u atrofdagi hamma narsani unutganday edi.* (S.Zunnunova, Olov.)

Qarsillamoq "qars" etgan ovoz chiqarmoq. *Uzoq yoqda muz qarsillar...* (A.Oripov, Yillar armoni) *Ular sug'urib olingan ildiz singari qarsillardi* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 147-b.)

Tapillamoq "tap" degan davomli ovoz chiqarmoq. *Tun sukunatini faqat vodokachkaning tapillashigina buzmoqda.* (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari)

Vang‘illamoq fe‘li harakatdagi narsalarning shovqinli ovoz chiqarishini ifodalaydi. *Xuddi shu payt pastda, qasrning ichida nimadir portlab bo‘sh xonalar vang‘illab ketdi.* (O.Yoqubov, Izlayman.)

Voshillamoq vosh-vosh ovoz chiqarmoq. 1. Anhor ovozi. *Bo‘rijar dod solib voshillayapti* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 18-b.). 2. Traktor ovozi: *Birov o‘ldirib ketgan – o‘ldirmagan, – Olimjon voshillab bug‘ ko‘tarilib turgan traktorga suv quyarkan, yana iljaydi.* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 297-b.) Bu kabi misollar shuni ko‘rsatadiki, so‘zning tovush shakli ma‘nodan mustaqil emas.

Tovush ma‘noni ifodalash jarayonida psixologik rezonans hosil qiladi, ya‘ni so‘zning tovush tomoni eshituvchida muayyan hissiy tasavvur uyg‘otadi. Bu jarayonni inson idrokining tovush asosidagi semantik mexanizmi hisoblanadi. Jumladan, har bir tilda tovush tizimi tarixan shakllangan semantik an‘anaga ega bo‘ladi. Bu an‘analar orqali tovushlar ma‘lum ijtimoiy va madaniy qiymat orttiradi. Masalan, turkiy tillarda *-la, -illa, -irla, -urla, -ir (-ur, -ar)* affikslari ko‘pincha tovush chiqishini yoki uning kuchayishini bildiradi: *shovulla, g‘uvulla, qichqir, gumburla* kabi. Bu hol tovush va ma‘no o‘rtasidagi ichki qonuniyatni tasdiqlaydi.

Tovush fe‘llarining umumiy grammatik ma‘nosi harakat va holat jarayonini ovoz xususiyatiga ko‘ra ifodalashdir. Ovoz, tovushni boshqa turkumlar ham ifodalaydi, lekin tovush fe‘llarida ovoz harakati va holati voqelanadi. Masalan, *taq-taq* (taqlid so‘z); *taq-taq etmoq* (tovush fe‘li) kabi. Birida ovoz, birida ovoz harakati ifodalanadi.

O‘zbek tilidagi tovush fe‘llarining asosida quyidagi leksik-semantik hamda grammatik umumiyliklar yotadi:

- a) tovush manbasining mavjudligi;
- b) akustik hodisaning idroki;
- c) ovoz harakatining davomiyligi va kuchi;
- d) subyektning hissiy ta‘siri, holatining ovoz harakati bilan ifodalanishi;
- e) leksik-grammatik jihatiga ko‘ra mustaqil fe‘l ekanligi.

Mazkur xususiyatlar tovush fe‘llarini leksik tizimida alohida leksik-semantik guruh sifatida ajratishga asos bo‘ladi. Tovush fe‘llari mustaqil fe‘l bo‘lgani bois quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Leksik jihatdan harakat-holat tushunchasini bildiradi, gapda biror bo‘lak vazifasida keladi: *Kalla chirsillab yorilib, mayda suyaklar har tomonga uchib ketardi* (Ch.Aytmatov, Oq kema, 146-b.) Kontekstdagi *chirsillab yorilmoq* birikmasida *chirsillab* tovush fe‘li *qay holda?* so‘rog‘iga javob bo‘lib, tarz holi sintaktik vazifasida qo‘llangan. Asosan, ikkinchi darajali bo‘laklar vazifasini bajaradi.

2. Tovush fe‘llari biror so‘zni boshqarib (*signalni bibiblatmoq*) yoki biror so‘z tomonidan boshqarilib (*shovullayotgan daryo*) keladi;

3. Harakatning obyektga munosabatiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

a) o‘timli fe‘l;

b) o‘timsiz fe‘l.

O‘timli fe‘l bildirgan harakat tushunchasi bilan bog‘lanadi va bunda obyektning ifodalovchi birlik tushum kelishigidagi so‘z bo‘ladi: *ol, o‘qi, boshqar*⁷⁷.

Tovush fe‘llari subyekt yoki obyektning ovoz harakati, holatini ifodalaydi: *bola big‘illadi, devor gursulladi* kabi. Deyarli barcha tovush fe‘llari o‘timsiz fe‘l hisoblanadi. Lekin tovush fe‘llari orttirma nisbatda qo‘llanganda, o‘timli fe‘lga aylanadi: *eshikni taqillatmoq, tangani sharaqlatmoq* kabi.

4. Fe‘l ifodalagan harakat yoki holat obyektiv borliq hodisasi bo‘lib, uni tilda ifodalashda bevosita inson, so‘zlovchi ishtirok etadi, ya‘ni inson munosabati mavjud bo‘ladi. Bu hodisa fe‘l mayllarida ifodalanadi.

Tovush fe‘llari ma‘no xususiyatiga ko‘ra xabar, shart maylida qo‘llanadi. Bunda ovoz harakati yoki holati haqida aniq xabar mavjud bo‘ladi: *Zalda yana qarsak guvulladi* (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi, 454-b.) Xabar maylidagi *guvulladi* fe‘lida biror shaklga ega bo‘lmaydi, uning ma‘nosi zamon ko‘rsatkichi orqali yuzaga chiqadi. Xabar va zamon ma‘nosi yig‘iq ifodalanadi.

Harakat yoki holat tovush fe‘llarida real yoki irreal bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra, bo‘lishli va bo‘lishsiz tovush fe‘llari farqlanadi. Tovush fe‘llari nutqda yo bo‘lishli, yo bo‘lishsiz shaklda qo‘llanadi, ularda harakat yoki holatning sodir

⁷⁷ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – 542 b.

bo‘lish/bo‘lmasligi ifodalanadi. Tilda bo‘lishlilik nol shakl bilan, bo‘lishsizlik *-ma*, *-may*, *-maslik* morfologik shakllari; *na...*, *na...* nomustaqil so‘zi; *yo‘q*, *emas* inkor so‘zlari bilan hosil qilinadi.

Tovush fe‘llarida real ovoz harakati ifodalangani bois, ular deyarli bo‘lishli shaklda qo‘llanadi. Masalan, *shiqirlamoq* (“shiqir” degan ovoz chiqarmoq): *Nihoyat kimdir g‘arch-g‘urch qor bosib, eshikka yaqin keldi. Zanjir shiqirladi.* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 435-b.)

Shitirlamoq, *shovullamoq* tovush fe‘llarida “*shitir*”, “*shovvv*” degan ovoz chiqarmoq ma‘nolari ifodalanadi: *Tashqarida teraklar shitirlaydi. Qayerdadir yaqin joyda daryo shovullaydi.* (O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari, 9-b.).

Inson ta‘siri bilan ovoz chiqartirmaslik ma‘nosi ifodalansa: *tiqillatma*, *shiqillatma*, *chiqillatma*; *taqillatganim yo‘q*, *ping‘illagani yo‘q* kabi shakllarda, asosan, og‘zaki nutqda namoyon bo‘ladi.

6. Har qanday harakat bajaruvchi bilan bog‘lanadi. Bajaruvchi aniq, noaniq, bitta yoki bir nechta bo‘lishi mumkin. Ish-harakatning bajaruvchiga munosabati nuqtayi nazaridan tavsifi fe‘l nisbatlari hisoblanadi.

Tovush fe‘llari aniq, birgalik hamda orttirma nisbat shakllarida qo‘llanadi. O‘zlik va majhul nisbatlarda qo‘llanmaydi. Ba‘zan inson fiziologiyasi bilan bog‘liq holatlar ovoz harakati bilan ifodalanganda, tovush fe‘llari o‘zlik nisbatda qo‘llanishi mumkin. *Ihra+n<ihranmoq. Jo‘ravoy og‘riq va horg‘inlikdan ihranib-ihranib, g‘uslxonada yuvindi.* (“Yoshlik” jurnalidan)

Inson, hayvon, qush, parranda, hasharot, narsa-buyum, tabiat hodisalarining ovoz harakatini ifodalovchi barcha tovush fe‘llari aniq nisbatda qo‘llanadi. *Uvlamoq* tovush fe‘lida “*uvvv*” degan ovoz chiqarmoq ma‘nosi, ya‘ni itning ovoz harakati aniq nisbatda ifodalagan: *It qayrilib qaramadi...uvlayverdi* (O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar 121-b.)

Orttirma nisbatda asli o‘timsiz bo‘lgan tovush fe‘llarini o‘timli fe‘lga aylanadi. Inson hamda insonning ta‘siri bilan bo‘ladigan ovoz harakatlari ushbu nisbat shakllarida ifodalanadi. *Tiqillatmoq* (“*tiq-tiq*” davomli ovoz chiqarmoq) tovush fe‘li orttirma nisbatda qo‘llangan. Orttirma nisbatdagi tovush fe‘llari ham

lugʻatlarda bosh soʻz sifatida berilgan: *U boʻlsa, tuflisini tiqillatib atir taratib yursa* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 71-b.)

Insonlar, hayvonlar, qushlarning birgalikdagi ovoz harakatini ifodalovchi tovush feʼllari birgalik nisbat shaklida qoʻllanadi. *Chuvullashmoq* (“*chuvvv*” degan palapartish shovqinli ovozlar chiqarishmoq) tovush feʼli birgalik nisbat shaklida: *Bolalar togʻamning nonidan yeymiz deb chuvullashdi* (S.Ahmad, Jimjitlik 56-b.)

7. Tilda zamondan tashqarida harakat yoʻq: *akillamoq, babalamoq, bobillamoq, biqillamoq* tovush feʼllarida zamon ifodalanmagan. Lekin ularni matn ichida qoʻllasak, zamon ifodalanadi:

a) hozirgi zamonda – jarayonning davom etyotgani ifodalanadi: *shovullayapti, gʻuvullayapti, chakillayapti, qureylayapti*;

Osmoni zaminda qaychiga oʻxshab turna karvoni qoʻy haydagan choʻpondek qureylayapti (S.Ahmad, Ufq, 234-b.)

b) oʻtgan zamonda – tovush harakatining yakunlanganligini ifodalaydi: *shitirladi, taqilladi, qars etdi, churulladi*;

Hushtak churulladi. Ismoil melisaning ovozi eshitildi (Oʻ.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 140-b.)

d) kelasi zamonda – tovush harakatining kutilayotgan holatini bildiradi: *maʼraydi, gumburlaydi, chaqmoq chaqadi, signal beradi*;

Mashinalar nuqul signal berardi (Ch.Aytmatov. Oq kema, 115-b.)

Demak, har qanday feʼlda yo grammatik, yo mantiqiy zamon ifodalanadi. Zamon shakllari orqali tovush feʼllari voqelikning vaqtga bogʻliqligini namoyon qiladi.

8. Borliqda harakat bajaruvchi bilan bogʻlanadi. Shaxs-son kategoriyasi gap kesimini shakllantirishda ishtirok etadi.

Insonlarning ovoz harakati va holatini ifodalovchi tovush feʼllari barcha shaxs-son shakllarida qoʻllanilishi mumkin: *apshur+di+m, apshur+di+ng, apshur+di; aksa ur+di+m, aksa ur+di+ng, aksa ur+di*:

Ermon buva tirnoqlari qiyshayib ketgan barmoqlarini hidlagan boʻladi-da, ataylab aksa uradi (Oʻ.Hoshimov, Dunyoning ishlari, 67-b.)

Hayvonlar, qushlar, parrandalar, hasharotlar, narsa-buyumlar, tabiat hodisalarining ovoz harakatini ifodalashda III birlik shaxs-son shaklida qoʻllanadi, ushbu shakl orqali koʻplik maʼnosi ham ifodalanadi: *Chumchuqlar zoʻr berib chugʻurlardi* (A.Qahhor. Qoʻshchinor chiroqlari 32-b.)

Tovush feʼllarining grammatik xususiyatlari harakat feʼllariga yaqinligida boʻlsa, semantik markazida ovoz chiqarish, ovoz harakati, holatini ifodalashi bilan barcha feʼlning leksik-semantik guruhlaridan farqlidir. Ularning grammatik shakllari tilda boshqa feʼllar singari shaxs, son, zamon, mayl, nisbat kategoriyalarida ifodalanadi, ammo semantik jihatdan tovush jarayonining intensivligini aks ettiradi.

Tovush feʼllarining morfologik tizimida -la, -illa, -ra kabi affikslari muhim oʻrin tutadi. Ular tovush jarayonining takroriyligi, kuchayishi yoki uzluksizligini bildiradi. Masalan, *shovullamoq* – davomli va tinimsiz tovush harakati; *taqillamoq* – ketma-ket urilishdan hosil boʻlgan tovush harakati; *hangramoq* – davomli baland ovoz chiqarish harakatini ifodalaydi. Ushbu affikslarning qoʻllanilishi taqlidiy (onomatopoeik) tabiatga ega boʻlib, ular tovush va harakat oʻrtasidagi tabiiy uygʻunlikni saqlab qoladi.

Tovush feʼllari sintaktik jihatdan predikativ markaz vazifasini bajaradi, yaʼni gapning asosiy mazmunliy markazida boʻladi: *Pastak eshikni oyogʻi bilan tepib, hovli ichkarisiga gʻazabnok chinqirdi*. (Oʻ.Hoshimov, Ikki eshik orasi, 46-b.)

Shamol shovulladi. Temir taqilladi. Bu gaplarda tovush feʼli harakatning natijasi emas, asosiy semantik markazdir.

Tovush feʼllari aniqlovchi vazifasini ham bajaradi: *Churullagan hushtak tovushi havoni titratdi*. (Oʻ.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar, 45-b.)

Tovush feʼllari sintaktik jihatdan turli birikmalarini hosil qiladi:

a) ot + feʼl: *barglar shitirladi, shamol gʻuvulladi*. Ushbu birikuvda gap hosil boʻladi. feʼl+ot birikuvida soʻz birikmalari: *churullagan hushtak, vangillagan kuchuk, shivalab oʻtgan yomgʻir, qisirlagan qor*;

b) ravish + feʼl: *toʻsatdan jarangladi, sekin taqilladi*;

c) sifat + feʼl: *past jiringladi, qattiq gumburladi*;

d) feʼl+feʼl: *gursillab yiqildi, sharaqlab qaynadi, chirsillab yondi*.

Bu soʻz birikmalarida ovoz harakati kuch, balandlik, tezlik kabi semantik komponentlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. *Feʼl + feʼl* qolipli birikish tovush feʼllarida koʻp uchraydi, chunki ularda harakat natijasidagi ovoz ifodalanadi. Yetakchi feʼl (tovush feʼli) + koʻmakchi feʼl birikuvi kuzatiladi: *inqillab yubordi, taqillatib ketdi, vangillab yotibdi* kabilar. Bunda tovush feʼlidan ifodalangan harakat yoki holatning koʻmakchi feʼllar orqali davomiyligi, tugallanganligi kabi jarayonlar ifodalanadi.

Tilshunoslikda valentlik maʼlum leksik birlikning boshqasi bilan bogʻlanish imkoniyatini, bogʻlanish tipini koʻrsatadi. Valentlik oʻzaro sintaktik munosabatga kirishayotgan leksemalarning mazmuniy muvofiqligi qonuniyatiga asoslanadi⁷⁸. Oʻzbek tilida valentliklarning turlari haqida S.Muhammedovanning monografiyasida quyidagilar aniqlangan: 1) leksik-semantik valentlik; 2) grammatik shakl semantikasi valentligi; 3) vositali semantik valentlik⁷⁹. Biz tovush feʼllarining valentlik imkoniyatlarini quyidagicha tadqiq qildik:

1. Tovush feʼllarining semantik valentliklari. Bularga oʻrin, obyekt, qurol, vosita, holat, adresat (fakultativ) kabi valentliklar kiradi. Semantik valentlikda leksik maʼno semema semalariga asoslanadi. *Chakillamoq, chak-chak etmoq, shaloplamoq* (suvga urilish, shoʻngʻish); *shitirlamoq, shuvalamoq, shigʻalamoq, shovullamoq* (yomgʻir yogʻishi) kabi tovush feʼllari vertikal harakat natijasida ovoz chiqarishni bildiradi. Ularning oʻrin valentligi reallashmaydi, balki mantiqan anglashiladi. *Tashqari chiqsak, yomgʻir shivalayotgan ekan* (Oʻ.Hoshimov, Ikki eshik orasi, 258-b.). Oʻrin valentligi aktanti uning maʼnosiga koʻra namoyon boʻladi.

Tovush feʼllarining obyekt valentligi aktanti gapda deyarli vositasiz toʻldiruvchi vazifasida keladi. Bunda feʼl harakatning vositasiz toʻldiruvchi ifodalaydigan obyektga yoʻnalishini bildiradi. *Shapatilamoq, shappalamoq, shapaloqlamoq, shapillatmoq* tovush feʼllarida obyekt aktanti jonli mavjudotlar tanasini ifodalovchi soʻzlarda namoyon boʻladi. *Nurmat togʻa shapillatib urib, gandraklagancha chiqib ketdi* (S.Ahmad, Jimjitlik, 38-b.).

⁷⁸ Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б. 156.

⁷⁹ Мухамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феъллари семантикаси ва валентлиги. – Тошкент: ФАН, 2013. – Б. 64.

Do 'qillatmoq, taqillatmoq; depsamoq, tepsamoq, tepmoq, tapillatmoq tovush fe'llarida obyekt aktanti jismlarni ifodalovchi so'zlarda reallashadi, chunki ularda qattiq jismga zarba berish harakati bo'ladi. Shuningdek, harakatning aynan qayerga yo'nalgani ham ifodalanishi kuzatiladi. *U boshini bir yonga tashlagancha elakni tapillatdi* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi, 21-b.). *Ot yerga nag'alini taqillatib urib, pishqirib borardi* (Ch.Aytmatov, Oq kema, 89-b.)

2. Tovush fe'llarining emotiv valentligi. O'zbek tilshunosligida ilk bor emotiv valentlik S.Muhammedovaning tadqiqot ishida yoritib berilgan. Emotiv valentlik so'z figural ma'nosining boyishi hamda emotsional-ekspressiv o'ttenkasiga asoslanadi⁸⁰. So'zning emotsional semalari imkoniyat tarzida saqlangan bo'lib, ular zaruriy nutqiy sharoitda yuzaga chiqishi mumkin. Ba'zan ayrim lingvistik me'yorlar nutqda buzilishi mumkin. Ko'chma ma'noning vujudga kelishi, obrazli tasvir kabi hodisalar sof nutqiy jarayonning mahsulidir. Demak, semantik valentlikda so'zlar denotativ ma'nolariga ko'ra birikish hosil qiladi: *eshik taqilladi, it akilladi, o'rik shoxi qarsillab sindi, chaqmoq charsilladi* kabi.

Tovush fe'llarining sintaktik tizimi valentlik tamoyiliga asoslanadi, ya'ni har bir fe'l bir yoki bir nechta argument (bog'lanadigan so'zlar) talab qiladi. Masalan, *shamol shovulladi* (bir valentli); *yomg'ir tomchilab shivaladi* (ikki valentli); *qiz qiqirlab qichqirdi* (uch valentli). Valentlik orqali fe'lning grammatik struktura bilan semantik mazmuni o'zaro uyg'unlashadi.

Emotiv valentlikda ko'chma ma'nolar birikuvi kuzatiladi. O'zbek tilidagi tovush fe'llari tarixiy jihatdan tilning o'z qatlamiga xosligi va sof nutqiy aktlarda faol qo'llanishiga ko'ra emotiv valentlik quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

1. Hayvonga xos tovush fe'llari insonga nisbatan qo'llanganda:

Akillamoq itning ovoz harakatini ifodalaganda semantik valentlik yuzaga keladi. *Hovli etagida yotgan buzoqdek ovcharka vahshatli akillab darvozaga yugurdi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 232-b.).

Insonning ovoz harakati ifodalanganda, ko'chma ma'no < emotiv valentlik. – *E – e, akillay berasanda. Safar, dedi buqoq, biz nima deyapmiz-ki, sen nima deyapsan?* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon).

⁸⁰ Мухамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феъллари семантикаси ва валентлиги. – Тошкент: ФАН, 2013. – Б. 78.

Hangramoq hang-hang ovoz chiqarmoq (eshak ovozi). *Uzoqdan eshak hangragani eshitiladi.* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 48-b.) < semantik valentlik.

Eshak ovoziga taqlid qilmoq, baqirmoq; ko‘chma ma’no. *Bir kuni boyvachchalar menga, emaklab hangra, deyishdi.* (H.Tursunqulov, Hayotim qisqasi) < emotiv valentlik.

2. Tabiat hodisasiga xos tovush insonga nisbatan qo‘llanganda: *gulduramoq.*

1) *momaqalldiroq* ovoz harakatini ifodalaydi. *Momaqalldiroq guldurlaydi.*

2) *momaqalldiroqqa* o‘xshash ovoz chiqarmoq. *Oqsoqolning ovozi gulduradi.*

(O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 153-b.).

3. Hayvonga xos tovush fe’li holat, jarayonni ifodalaganda:

Hangillamoq eshakning “hang-hang” ovoz chiqarishini ifodalaydi: *Bobomning eshagi ilgari boshqacha edi. Ko‘cha boshiga yetishi bilan “eshitib qo‘yinglar, biz kelyapmiz” degandek, ovozini baralla qo‘yib hangillard.* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 130-b.) < semantik valentlik.

Bo‘shab qolmoq, ship-shiydon bo‘lmoq; ko‘chma ma’no. *Uy o‘g‘ri tushgandek hangillab qolibdi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 186-b.) < emotiv valentlik.

Misollardan ayonki, emotiv valentlikni, asosan, badiiy adabiyotda uchratish mumkin. Yozuvchi-shoirlart turli tovush fe’llarini boshqa so‘zlar bilan birikuvga kiritar ekan, uning me’yoriy birikuvini inobatga olmaydilar. Chunonchi, badiiy nutqda fe’lning faqat denotativ semalaridan foydalanilsa, badiiy asarni o‘qish zerikarli bo‘lib qoladi. Tovush fe’llarining deyarli barchasida emosemalar mavjud bo‘lib, ular nutqning ta’sirchanligini oshiradi.

Bizning fikrimizcha, tovush fe’llarida bog‘lanish ikki turli bo‘ladi:

1. Tovushdan ma’noga, ya’ni tovush shakli ma’noni yuzaga keltiradi: *akillamoq, babalamoq, daranglamoq, guvullamoq, huhulamoq, tarillamoq, shovullamoq* kabilar. Kishi ongida o‘z ifodalanmishi bilan birga saqlanadi. Misol, *babalamoq* – qo‘y; *huhulamoq* – musicha; *kakkulamoq* – kakku.

2. Ma’nodan tovushga, ya’ni ma’no o‘z ifodasini tovush harakati orqali topadi: *baqirmoq, chaqirmoq, hayqirmoq, tepmoq, tommoq, chopmoq, cho‘qimoq*

kabi. Bularda shakldan ifodalanadigan ma'no, sememada "ovoz chiqarmoq"ni bildiradi.

Tovush fe'llarining grammatik shakllari faqat formal vosita bo'lib qolmay, balki semantik modifikatsiya ham hosil qiladi. Masalan, *guvullab turibdi* – davomiylik; *guvullab ketdi* – yakunlovchi harakat; *guvullab yubordi* – kuchaytiruvchi harakatlarni ifodalaydi. Misollar tovush fe'llarida tovush intensivligi va davomiyligi grammatik vositalar orqali ifodalanishini ko'rsatadi.

Tovush fe'llari semantik tizimda inson idrokining sensor darajasini ifodalaydi. Chunki har bir tovush fe'li – bu nafaqat akustik hodisani, balki insonning unga munosabatini ham bildiradi: *jaranglamoq* – yoqimli, musiqiy ohangni bildiradi; *g'ijirlamoq* – yoqimsiz, keskin tovushni bildiradi; *taqillamoq* – keskin, qisqa akustik hodisani bildiradi. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, tovush fe'llari fizik va psixologik ma'nolarni o'zida birlashtiradi. Tovush fe'llarining markazida harakat va tovushning birligi yotadi. Ya'ni, tovush harakat natijasida hosil bo'ladi va shu harakat tilda tovush orqali ifodalanadi. Shu sababli, tovush fe'llari harakat fe'llarining semantik tarmog'ida joylashgan bo'lsa-da, ular akustik komponent bilan ajralib turadi. Akustik komponent tovush fe'llarining ma'nosini aniqlovchi asosiy omildir. U quyidagi xususiyatlar orqali namoyon bo'ladi:

- a) balandlik – tovush kuchining darajasi (baqirmoq, gumburlamoq);
- b) davomiylik – tovushning uzluksizligi (shovullamoq, g'uvillamoq);
- c) tiniqlik – tovushning ohangdorligi (jaranglamoq);

d) qo'pol yoki yumshoqlik – tovushning eshitishtidagi hissiy bahosi (*g'ijirlamoq, shitirlab esmoq*). Bu komponentlar orqali tovush fe'llari inson idrokida tovush manzarasini ko'p qatlamli semantik model sifatida ifodalaydi.

Tovush fe'llari inson tafakkurida idrokning kognitiv bosqichini bildiradi. Chunki inson tovush orqali voqelikni anglaydi, baholaydi va unga javob qaytaradi. Shu bois tovush fe'llari tilda kognitiv birliklar sifatida ham qaratiladi. Shuningdek, tovush fe'llarining madaniy-estetik ahamiyati ham mavjud. Har bir xalq tili o'zining tabiatiga, hayot tarziga va madaniy qadriyatlariga mos tarzda tovush fe'llarini shakllantiradi. Masalan, xalq og'zaki ijodida tovush fe'llari ko'pincha obrazli ifoda vositasi sifatida ishlatiladi:

Dovul qoqmoq folk. qattiq dahshatli ovoz chiqarmoq. *Ixtiyorim hech bir kasga bermadim, Dovul qoqib, shunqorimni chuymadim.* (“Erali va Sherali” dostonidan).

Dovushlamoq folk. qichqirmoq, tovush chiqarmoq, chaqirmoq ma’nolarida qo‘llanadi. – *To‘xta, zolim! – dedi ham dovushladi* (“Erali va Sherali”). Shunday qilib, tovush fe’llari tilda nafaqat akustik hodisani, balki estetik, emotsional va madaniy idrokni ham ifodalaydi.

Tovush fe’llari tildagi boshqa semantik guruhlar bilan quyidagicha bog‘lanadi:

1. Nutq fe’llari bilan – tovushning kommunikativ xususiyati orqali.
2. Holat fe’llari bilan – tovush orqali his-tuyg‘u, holat ifodalanishi orqali.
3. Harakat fe’llari bilan – tovushning chiqarilish harakati orqali.

Bu munosabatlar tovush fe’llarini til tizimida ko‘p yo‘nalishli semantik maydon sifatida ko‘rsatadi. Tadqiqot ishimizda tovush fe’llarining semantik maydoni chegaralanib, mushtarak sema, birlashtiruvchi va farqlovchi semalar orqali fe’llarning asosiy ma’no xususiyatlari aniqlandi.

2.2-§. Tovush fe’llarining yasalishi

Tilning har bir sathi, sistemasi shu sath, shu sistemani shakllantiruvchi til birligiga ega bo‘ladi. So‘z yasalishi deganda, yasovchi asosga yasovchi affiks yordamida yasalma, yangi leksema hosil qilish jarayoni tushuniladi. So‘z yasash hodisasi “leksema yasash” hodisasi⁸¹ sifatida ham talqin qilinadi.

Tovush fe’llari tuzilishiga ko‘ra tub va yasama tovush fe’llariga bo‘linadi. Tub tovush fe’llari tovush harakatini bevosita ifodalaydigan, yasovchi affikssiz, morfem jihatdan ajralmas fe’llar hisoblanadi. Masalan, *tepmoq, chopmoq, tommoq, cho‘qimoq*. Ular kam bo‘lishiga qaramay, shakllanishi va qo‘llanilishi turkiy tilning tarixiy ildizlariga borib taqaladi.

Yasama tovush fe’llari ikki usul orqali hosil qilinadi:

1. Sintetik usul orqali yasalgan tovush fe’llari.
2. Analitik usul bilan yasalgan tovush fe’llari.

⁸¹ Раҳматуллаев Ш. Тил курилишининг асосий бирликлари. – Тошкент: Университет, 2002.

O'zbek tilida fe'l yasovchi affikslarning soni kam, biroq oz sonli bu affikslar yordamida ko'p miqdorda tovush fe'llari hosil qilinadi. Boshqa fe'llar yasalishi kabi tovush fe'llari yasalishida affiksatsiya usuli eng mahsuldor usul hisoblanadi.

-la affiksi. Bu affiks fe'l yasovchilar ichida eng mahsuldor bo'lib, fe'ldan boshqa barcha turkumga oid so'zlardan fe'l yasay oladi. A.Hojiyev *-la* affiksining sakkizta xususiyatini tavsiflaydi. Undov so'zlardan fe'l yasaganda his-hayajon, buyruq-hitobning birdan ortiqqligini ifodalaydi hamda takroriylik ma'nosini ham bildiradi, *demoq* fe'li bilan sinonimlik ham hosil qiladi. Taqlidiy so'zlardan fe'l yasalganda esa *etmoq* fe'lining ma'nosiga yaqinligi (*shitirlamoq* – *shitir etmoq*, *gumburlamoq* – *gumbur etmoq*) hamda tovush va obraz ma'nolarini ifodalashini qayd etgan.⁸²

-la affiksi taqlid so'zlar va undovlarga qo'shilib fe'l yasaydi. Bu affiks tovushga taqlidni ifodalovchi so'zlar va undovlarga qo'shilib, tovush fe'llarini hosil qiladi. Bunday fe'llar quyidagi ma'noni ham anglatadi: tovush chiqarish harakati, bu tovushga taqlid qilib va uni biron bir harakat yoki predmetga yo'naltiradi⁸³. Masalan: *babalamoq*, *gumburlamoq*, *daranglamoq*, *shitirlamoq*, *xaxalamoq* va hokazo.

-la affiksi tub taqlid va undov so'zga qo'shilsa, bir martalik harakatni ifodalaydi: *dodlamoq*, *tislamoq*, *charslamoq*, *shuvlamoq*, *uhlamoq* kabilar. Bu semantik va fonetik xususiyatlarga bog'liqdir. Ularning ayrimlari faqat takroriy shaklda, ba'zilar esa oddiy shaklda ishlatiladi. Lekin shundaylari ham borki, ular har ikki shaklda ham (semantik farq bilan) qo'llaniladi: *voylamoq* – *voy-voylamoq*, *puflamoq* – *puf-puflamoq*, *guvlamoq* – *guv-guvlamoq* kabi.

-la affiksi bilan yasalgan tovush fe'llari o'timsiz fe'llar sirasiga kiradi.

-la affiksining *-da* va *-ta* allomorflari ham mavjud. Bu shakllar turkiy tillarga xos affikslardir. Masalan, *siqtamoq*, *haydamoq* (*hay-hay*), *undamoq*, *toptamoq* (*tap-tap*), *siqtamoq* (*yig'i-sig'i qilmoq*) kabi.

⁸² Хожиев А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.5-7.

⁸³ Мухитдинова Х. Глаголы звучания в узбекском языке: Диссер. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1979. – С. 42-43.

-i affiksi ham ayrim tovush fe'llarini hosil qiladi, -la affiksi bilan aynan sinonim hisoblanadi: *ulimoq – uvlamoq: Qaydadir bo'ri ulidi* (S.Ahmad, Jimjitlik, 48-b.). *It qayrilib qaramadi... uvlayverdi.* (O'.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar, 121-b.).

-si va -sa affikslari diaxron so'z yasovchilar hisoblanib, bugungi kunda kam qo'llanadi. Masalan, *depsimoq*. Bu tovush fe'li quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1. Dup-dup ovoz chiqarmoq; yer tepib turmoq. *Tagidagi ot suvliq chaynab depsiyladi.* (Y.Shamsharov, Toshqin)

2. Ot yoki eshakni depsib tezlatmoq. *Hasan ovchi tez borib eshakni yechdi-yu, unga mindi-da, ikki oyoqlab depsidi.* (Sh.Toshmatov, Erk qushi).

3. Tepmoq, urmoq (yurak, qon-tomir haqida). *Hayajondan yuragi depsib ura boshladi.* (H.Shayxov, Rene jumbog'i).

Depsamoq aynan *depsimoq* fe'lining fonetik varianti hisoblanadi. *Xalq tarqalganda Juman pismiqlning ezilgan murdasi depsalgan qorga qorishib yotar edi.* (M.Ismoilov, Farg'ona tong otguncha)

-ir, -ur, -ar affikslari ovoz chiqarish bilan bog'liq harakatni ifodalovchi tovush fe'llarini hosil qiladi: *shopirmoq, tupurmoq, aksirmoq, chuchkirmoq, chushkirmoq* kabi. Ushbu affikslar ayrim tovush fe'llarida arxaik shakl sifatida saqlanib qolgan hamda unumsiz so'z yasovchi affikslarga aylangan:

Aksirmoq fiziologik jarayonni ifodalaydi. *Mavlono Shahobiddin aksirib, rutubatdan shikoyatlandi.* (Oybek, Navoiy)

Shopirmoq uchirmoq, yo'qotmoq ma'nosida. *Dashnobod bog'ida barglar sarg'ayib bo'lgan, kuz shamollari ularni shopirib ketgan.* (S.Ahmad, O'ylar)

Chushkirmoq ayni *aksirmoq* (shevada). *Bilinar-bilinmas chushkirdi.* (P.Tursun, O'qituvchi)

Chuchkurmoq ayni *aksirmoq* (shevada). *Ilgari Ahmadali ustma-ust chuchkursi, "go'za gullayapti", deb bashorat qilardi.* ("Yoshlik" jurnali)

-sha affiksi tarixiy so'z yasovchi hisoblanadi. Bugungi kunda ayrim tovush fe'llari tarkibida yaxlitlangan holda uchraydi: *qaqshamoq*. *Affiksning -shi* fonetik varianti mavjud bo'lib, Qashqadaryo shevasida bugungi kunda ham mavjud.

Shuningdek, adabiy tilda *shipshimoq*, *g'ingshimoq* kabi tovush fe'llari tarkibida uchratishimiz mumkin:

Shipshimoq tovush fe'li quyidagi ma'nolarda qo'llanadi: 1. Past ovoz bilan nimadir demoq; pichirlamoq. *Bas! – shipshidi Tohir juvozkash yigitga.* (P.Qodirov, Yulduzli tunlar). 2. Hech kimga bildirmay aytmoq, bildirib qo'ymoq. *Vohidovga shipshib qo'yishni men bo'ynimga olaman.* (S.Zunnunova, Yangi direktor).

Tarixan *-na* affiksi *-la* affiksining fonetik varianti hisoblanadi. Tovush fe'llari sof turkiy qatlamga mansubligi uchun ham ayrim affikslar ularning tarkibida yaxlitlanib qolgan: *kishnamoq*, *tirnamoq*, *chaqnamoq* kabi:

Kishnamoq tovush fe'li otning ovoz chiqarishini bildiradi. *Kechada otlarni kishnatmas lik uchun "sunbulo't toyyib" degan giyohdan askarlarga tarqatgan edimki, lozim vaqtda otlarning burniga shul giyohdan hidlatib qo'yilsa, ot kishnamas edi* (Muhammad Tursun, Dunyoni tebratgan yetti buyuk, 345-b)

-illa murakkab affiks hisoblanib, tovushga taqlid so'zlardan tovush fe'llarini yasaydi. Affiksning *-ulla* fonetik varianti mavjud bo'lib, asos tarkibida *u* yoki *v* tovushlari bo'lsa, qo'llanadi.

Baqillamoq tovush fe'li qaynash harakati natijasida past ovoz chiqarmoq. *Hovlida samovar baqillab qaynab turganini ko'rib, u o'zida yo'q xursand bo'lib ketgan edi.* (O'.Umarbekov, Ota va o'g'il)

Bangillamoq tovush fe'lida urilish natijasida qattiq ovoz chiqarmoq. *Urushda ham bunchalik bangillagan tovushni eshitmagandik.* (T.Eshbek, Ostonaqul buvaning daftari)

Bang'illamoq urilish natijasida qattiq ovoz chiqarmoq. *G'art-g'urt... Nuqul bang'illaydi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 45-b.).

Gupullamoq urilish natijasida past ovoz chiqarmoq. *Qirqkokil sochining yarmisi yelkasidan oshib yerga tegay-tegay deb turibdi. Yuzini aniq ko'rmasam ham yuragim gupullab ketdi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 239-b.). *Ko'chma ma'noda anqimoq, isi kelmoq. Yaqinroq kelgan kishi og'zidan arzon vino hidi gupillayotganini sezadi.* (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 219-b.).

-la affiksi barcha turkumdan fe'l yasay oladi, lekin fe'lga qo'shilganda, shakl yasovchilik vazifasini bajaradi: *savala*, *turtkila*, *tepkila*. Shuningdek, ayrim fe'l

yasovchi affikslar va leksemalar bilan sinonimlik xususiyatiga ham egaligi bilan ahamiyatga molik. Har qanday yasama soʻzning maʼnosi soʻz yasash asosi va soʻz yasovchining maʼnosi asosida yuzaga keladi. Garchi soʻz yasash asoslari bir leksik-semantik guruhni tashkil etmasa-da, ularning barchasida umumiy belgi mavjud boʻladi. Tovush feʼllarining yasashidagi umumiy jihat shuki, “ovoz chiqarish jarayonini ifodalash” semasidir.

Feʼl turkumiga xos yasovchi affikslarning maʼno imkoniyati umumiy soʻz yasovchi affikslarning uslubiy xususiyatlari bilan bogʻliq. Feʼl yasashga xizmat qiluvchi qoʻshimcha shakllar, ularning grammatik tabiati borasida tadqiqotchilar tomonidan bir qator fikrlar aytilgan. Biz bu oʻrinda faol feʼl yasovchi affikslarning qoʻshimcha maʼno imkoniyatlari borasida toʻxtalishni maqsad qildik.

A.Hojiyevning taʼkidlashicha, feʼl yasovchi boshqa affikslar oʻz vazifasini toʻxtatib, mahsulsiz affikslarga aylangan. Bu kabi (jumladan, *-a: guldura; -i: boyi, tinchi; -a(r): oqar, koʻkar; -a(y): sargʻay, koʻpay*) affikslarning mahsulsiz boʻlishiga sabablar bor. Tilning taraqqiyoti davomida ushbu affikslarning soʻz yasashdagi ifoda imkoniyatlari kengaygan. Yasama tovush feʼllari tarkiban bir necha guruhlariga ajratilishi hamda affikslar natijasida maʼnosida oʻzgarish kuzatiladi.

Analitik usul bilan hosil qilinadigan tovush feʼllari murakkab tovush feʼllari, deb ham yuritiladi. Ular tarkibiga koʻra *ot + feʼl* hamda *tovushga taqlid + feʼl* tuzilishida boʻladi.

Ot + feʼlli birikmalarda birinchi komponent *ot* soʻz turkumidan iborat boʻladi. Ikkinchi qismda *bermoq, solmoq, chalmoq* kabi yordamchi feʼllar qoʻllanadi. Bunday murakkab soʻz va barqaror birikmalar hech qanday qoʻshimchasiz tuziladi: *gudok bermoq, uvvos solmoq, dod solmoq, qarsak chalmoq* kabi:

Gudok bermoq signal chiqarish, ovoz chiqarib, ogohlantirish kabi maʼnolarda qoʻllanadi. *Parovoz uzoq gudok berib joyidan qoʻzgʻaldi.* (M.Muhamedov, Qahramon izidan, 67-b.)

Qarsak chalmoq chapak chalmoq, qoʻllarning bir-biriga urilishi natijasida “chap-chap” ovoz chiqarmoq. *Odamlar stul tagiga qoʻllarini tiqib qarsak chaldilar.* (S.Ahmad, Jimjitlik, 10-b.)

Tovushga *taqlid so‘z + fe‘l* qolipida hosil qilingan tovush fe‘llari tovush harakatini bevosita ifodalaydi. Fe‘lning birinchi komponenti harakatning asosiy leksik ma‘nosini bildiradi: *taq etmoq, shiq-shiq qilmoq, qars-qurs qilmoq* kabi. Yordamchi fe‘l grammatik vazifani bajaradi. Boshqacha aytganda, butun grammatik yuklama yordamchi fe‘lga tushadi, biroq ularda ham ayrim semantik ottenkalar mavjud. Masalan, murakkab tovush fe‘llari tuzilishida taqlidiy so‘z (asosiy komponent)ning o‘rni turlicha bo‘lib, ular tezkorlik yoki takroriylikni ifodalaydi:

Do‘q etmoq zarb bilan urish natijasida ovoz chiqarmoq. *Choynakni ko‘tarib chiqdi-da, do‘q etib qo‘ydi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 278-b.)

Gurs etmoq yiqilish natijasida ovoz chiqarmoq. *U muvozanatini yo‘qotib yonboshga gurs etib yiqildi.* (S.Ahmad. Jimjitlik 51-b.)

Hurq-hurq qilmoq “hurq-hurq” ovoz chiqarmoq (hayvon). *Shundoq yotoqxonaning o‘ziga olib kirilgan megajin hurq-hurq qilib, kechasi bilan uyqu bermaydi.* (O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar, 53-b.)

Yasama tovush fe‘llari davomiylik, harakatning uzluksizligi ma‘nosini ifodalaydi. Har doim ham yasama tovush fe‘lni murakkab tovush fe‘li o‘rnida ishlatib bo‘lmaydi; ular har doim ham bir-birini to‘ldira olmaydi. Masalan, *hingirlamoq* tovush fe‘li *hingir etmoq* tarzida qo‘llanmaydi. *Do‘q etmoq* tovush fe‘lida bir martalik harakat, *do‘qillamoq*da davomli ovoz harakati ifodalanadi.

Murakkab tovush fe‘llari, asosan, o‘timsiz fe‘llar bilan qo‘llanadi. Bu fe‘llar o‘timsiz fe‘llar bilan uyg‘unlashadi. Masalan: *tiqirlamoq, g‘uvullamoq, chiqillamoq* va boshqalar. Birinchi turdagi murakkab tovush fe‘llarini hosil qilishda yordamchi fe‘llar: *qilmoq, etmoq, urmoq, tortmoq* va boshqalar faol ishtirok etadi. Ikkinchi turdagi fe‘llarni hosil qilishda esa yordamchi fe‘llar sifatida *bo‘lmoq, ketmoq, turmoq, chiqmoq, qolmoq, bermoq, etmoq, boshlamoq, olmoq* va hokazolar, shuningdek, to‘liqsiz fe‘l *emoq* ishlatiladi.

Murakkab tovush fe‘llarining birinchi komponenti sodda yoki kengaytirilgan shaklda bo‘lishi mumkin. Masalan, *shaq etdi, tip etdi, bilq etdi* kabi.

Viz *etmoq* hasharotning uchish harakati natijasida ovoz chiqarishini ifodalaydi. *[Asalarilar] Ko‘z ilg‘amas xartumchalari bilan shira emib oladilar-da, yana viz etgancha kelib uylariga kirib ketadilar.* (H.Nazir, So‘nmas chaqmoqlar.)

G'iyech etmoq mexanik ishqalanish natijasida ovoz chiqarmoq. *Eshik oldin asta-asta taqilladi, keyin g'iyech etib ochildi.* (H.Ziyoxonova, Qishloqi.)

Tovush fe'llarida reduplikatsiya hodisasida tovushga taqlid so'z takror qo'llanilishi va bu jarayonda tovush+harakatning davomiylik miqdorini aniqlash mumkin. Misol, *do'q etmoq* – bir martalik ovoz+harakat; *do'qillamoq* – davomli ovoz+harakat; *do'q-do'q etmoq* – ikki marta ovoz+harakatni ifodalaydi. Geminatsiya hodisasida so'z oxiridagi undoshlarning qo'shilishi, undoshlarning cho'ziq talaffuzi yoki so'z ichidagi intonatsiya harakati oddiy taqlidiy so'zlarning ma'nosini o'zgartirishi va ularga qo'shimcha ma'no yuklashi mumkin, ya'ni harakatning keskinligi, davomiyligi yoki kuchliligini bildiradi. Masalan: *tarr etmoq, shirrr etmoq, hammm demoq, shirrq etmoq, tsss etmoq, psss etmoq* va boshqalar, asosan, so'zlashuvda qo'llanadi.

Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilining orfografik me'yorlariga ko'ra, bunday hollarda so'z oxirida bitta harf yoziladi (*taq etdi*), biroq fonetik jihatdan ikkita undosh fonema (*taqq*) mavjudligi ravshan seziladi. Bu esa taqlidiy so'zlarning va tovush ifodalaydigan birliklarning tuzilish xususiyatini ko'rsatadi.

Yuqoridagi jihatlar tovush va ma'no o'rtasidagi munosabat tildagi semantik strukturaning muhim qismidir. Bu bog'lanishning xarakteri har bir tilda o'ziga xos, ammo ularning barchasida inson idrokining akustik-mantiqiy asoslarini aks ettiradi. Bizning fikrimizcha, tovush ma'noga ta'sir qiluvchi asosiy omil sifatida inson eshituv sezgisi va ruhiy reaksiyasi bilan bog'liq. Shuning uchun tovush-ma'no aloqasi har doim sensor (sezgi) va psixologik asosga ega bo'ladi. Masalan, ayrim so'zlar o'zining tovush shakli orqali eshituvchida yoqimli yoki yoqimsiz taassurot uyg'otadi. So'zning ma'nosi esa ana shu hissiy ta'sirni mustahkamlaydi yoki kuchaytiradi:

Vijillamoq 1 sayramoq (qaldirg'och). *G'ir-g'ir shabada yuzni siypaydi. Qaldirg'ochlar vijillaydi.* (N.Yoqubov, Xayolimdagi qiz)

Vijirlamoq 1 chug'urlamoq (qaldirg'och). *So'ri yog'ochida turib olib vijirlab sayrayotgan qaldirg'och jimib qoldi.* (M.Mansurov, Yombi)

Agar ushbu tovush fe'llari inson nutqiga nisbatan ishlatilsa, *yoqimsiz, behuda gaplarni davomli so'zlam*oq ma'nosida ayollar nutqini ifodalashda qo'llanadi: *Vijillamang qizim, uyingizga qayting.*

Shu tarzda, tovushning fizik shakli bilan ma'noning mazmuni o'rtasida rezonansli uyg'unlik paydo bo'ladi. *Rezonans* termini lotincha *resonantia* ("jaranglash", "aks sado") so'zidan olingan bo'lib, dastlab akustika sohasida, xususan, musiqa asboblardagi simpatik rezonans hodisasini ifodalash uchun qo'llanilgan. Fizikada rezonans keng qamrovli tushuncha hisoblanib, tebranish, kuchlanish va elektr toklarida ham kuzatiladi. Masalan, elektr tebranish konturida tok kuchi faza jihatdan tashqi elektr yurituvchi kuch bilan tenglashgan vaqtda rezonans ro'y beradi. Rezonans hodisasi tabiat va texnikada keng tarqalgan⁸⁴.

Tabiat hodisalari hamda texnika asboblarning mexanik harakati natijasida ovoz chiqariladi va bu jarayon ma'lum tovush fe'llari bilan ifodalanadi. Ularda uch muhim jihatni inobatga olish kerak: tovush manbai, tovushning uzatilishi, tovushning qulog'imiz yoki asboblardan orqali qayd qilinishi.

Bu hodisa tilda akustik semantika deb ataluvchi alohida qatlamni vujudga keltiradi. Akustik semantika – so'zning ma'nosini shakllantirishda tovushning hissiy va idrokiy rolini o'rganuvchi tilshunoslik yo'nalishidir. Misol uchun, cho'zilgan unlilar jarayonning davomiyligini, keskin undoshlar esa harakatning kuchini bildiradi: *qaldiramoq* qaldir-quldur ovoz chiqarmoq (jonsiz jism), bunda "qaldir" so'zi tarkibidagi jarangsiz-jarangli, portlovchi-sirg'aluvchi tovushlar birikib, titrash harakatining ovozini yaqqol ifodalagan. *Oyog'imiz tagida yotgan uzum temir quvur qaldirar edi*. (Sh.G'ulomov, Inson qo'li gul).

2.2.1-jadval

O'zbek tili tovush fe'llarining yasash xususiyatiga ko'ra statistik tahlili

T/r	So'z yasovchi affiks	Tovush fe'llari soni	Tovush fe'llarining yasashida foiz ko'rsatkichi	Yasovchi affikslarning mahsuldorlik darajasi
1.	-la (-da, -ta, -sa, -si, -shi, -sha)	355 ta tovush fe'li	67 %	Eng mahsuldor affiks
2.	-illa (-ulla)	96 ta tovush fe'li	23 %	O'rta mahsuldor
3.	-ir (-ur, -ar), -ira	58 ta tovush fe'li	12 %	Kammahsul yasash
4.	Analitik usul	19 ta tovush fe'li	7 %	Eng kammahsul

⁸⁴ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/rezonans>

O'zbek tilida tovush fe'llarining statistik tahlili ularning yasalaish imkoniyatlariga ko'ra tuzildi (ilovaga qarang). Foiz ko'rsatkichlari tovush fe'llarining umumiy miqdoriga nisbatan hisoblandi. Statistik tahlil natijalariga ko'ra, tovush fe'llari yasallishida -la affiksi ustunlikka ega bo'lib, umumiy birliklarning uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Mazkur affiksning fonosemantik asoslar bilan birikish xususiyatiga egaligini bildiradi. -illa va -ir affikslari o'rta mahsuldor bo'lib, tovushning davomiyligi hamda emotsional-ekspressiv holatini ifodalaydi.

2.3-§. Tabiat hodisalariga xos tovush fe'llarining leksik-semantik xususiyatlari

Fizika tabiat hodisalarining kechish qonuniyatlari va turli hodisalar orasidagi bog'lanishlarni o'rganuvchi fanidir. Inson aralashuviz, tabiatdagi tabiiy jarayonlarni: *yomg'ir yog'ishi, shamolning esishi, bo'ronning sodir bo'lishi, qorning g'ichirlashi, chaqmoq chalishi, momaqalldiroq gumburlashi, suvning oqishi* kabilar tilda fe'llar vositasida ifodalanadi.

2.3.1-jadval

Tabiat hodisalariga xos ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llarining semantik tahlili

T/n	Tabiat hodisalari	Izohi	Tovush fe'llari
1.	Shamol	Havo massalarining harakatlanishi	<i>Guvullamoq, shovullamoq, uvullamoq 2, uf tortmoq 2, chiyillamoq 2.</i>
2.	Bo'ron	Tez, keskin havo oqimining harakati	<i>Guvullamoq, shovullamoq, uvullamoq.</i>
3.	Yomg'ir	Atmosferadan suv tomchilarining yog'ilishi jarayoni	<i>Tomchilamoq, tommoq, shivalamoq, shig'alamoq, shuvalamoq, shuvullamoq, shaldiramoq, shirillamoq.</i>
4.	Momaqalldiroq	Atmosferadagi elektr razryadi oqimi	<i>Gumburlamoq, gulduramoq, gursullamoq 2, qarsillamoq, charsillamoq.</i>
5.	Suv	Suvning oqishi, tebranishi harakatlari	<i>Shovullamoq, sharillamoq, shovullamoq, sharqiramoq, shildiramoq.</i>
6.	O'simliklar	Tabiiy jarayonlarning mexanik ta'siri natijasida ovoz chiqarilishi	<i>Shitirlamoq (barglar), qars etmoq, gurs etmoq (daraxtlarning qulashi).</i>
7.	Chaqmoq	Atmosferadagi elektr uchqunlari harakati	<i>Chaqmoq (ot) + chaqmoq (fe'l)=chaqmoq chaqmoq, yashin chaqmoq, charsillamoq, chars etmoq kabilar.</i>

O'zbek tilida tabiat hodisalarining ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llarining leksik-semantik guruhlari to'rtga bo'lindi:

1. Shamolning harakatini ifodalovchi tovush fe'llari.
2. Chaqmoqning harakatini ifodalovchi tovush fe'llari.
3. Yog'ingarchilik jarayonidagi harakatlarni ifodalovchi tovush fe'llari.
4. Suvning harakatini ifodalovchi tovush fe'llari.

Havoning yer sathi bo'ylab, gorizontal hamda vertikal harakati natijasida sodir bo'ladigan tabiat hodisasi shamol deyiladi. *Shamol, bod, bo'ron, to'fon, dovul, duvalang* so'zlari bir sinonimik qatorni hosil qiladi, bunda *shamol* so'I dominant hisoblanadi. Tabiatda shamol, bo'ron va izg'irin hodisalari tabiiy ravishda sodir bo'ladi. Shamolning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari: *guvullamoq, izillamoq, uvullamoq 2, uf tortmoq 2, voshillamoq, vishillamoq, g'uvullamoq, shovullamoq, chiyillamoq* kabi tovush fe'llaridan iborat.

Chiyillamoq, guvullamoq, vishillamoq, uf tortmoq shamol esishi natijasida yuzaga keladigan cho'ziq, davomli, shiddatli tovush harakatini ifodalab, kontekstual sinonimik qatorlarni yuzaga keltiradi. Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida *chiyillaydi, guvullaydi*; tomlarda *vishillaydi*, yopiq eshik va darchalardan bosh urib *uf tortadi* (A.Qahhor, Daxshat, 3-b.).

Guvullamoq tovush fe'lida *tashqaridagi shamolning davomli esishi natijasida guvullagan* ovoz chiqarishini ifodalaydi: *Shamol guvullar, tashqarida havo ochilib ketgan edi* (O'.Hoshimov. Nur borki soya bor, 31-b.).

G'urillamoq tovush fe'lida *shamol oqimi ichkariga kirishi natijasida g'urillagan* ovoz *chiqishi* ifodalanadi: *Klubga yaqin orada odam kirmagani uchun zax bosib ketgan, katta-katta derazalarning siniq oynasidan shamol g'urillaydi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 197-b.).

Uvullamoq fe'li esa *cho'ziq "uvvv" degan ovoz chiqarmoq* ma'nosi bilan shamol va bo'ronning ovoz harakatini ifodalaydi: *Sovuq shamol muzlagan daryo ustida uvullab, qor supuradi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 461-b.).

Tashqarida bo'ron uvullar, pastak derazani qor uchqunlari ayovsiz savalar edi. (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar, 55-b.).

Chaqmoq atmosferada bulutlar bilan yer yuzasi orasida sodir bo'luvchi juda kuchli soniyaviy elektr uchquni hisoblanib, *momaqalldiroq*, *chaqin*, *yashin* leksemalari bilan sinonimik qatorni yuzaga keltiradi.

Gumburlamoq fe'li aynan chaqmoqqa xos portlashga o'xshash kuchli va davomli ovoz harakatini ifodalaydi: *Momaqalldiroq tag'in gumburladi* (O'.Hoshimov. Shamol esaveradi, 217-b.). *O'sha zahoti yer-u ko'kni titratib, momaqalldiroq gumburladi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 207-b.)

Gulduramoq fe'li quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1. *Momaqalldiroq* ovoz harakatini ifodalaydi. *Momaqalldiroq guldurlaydi.*
2. *Momaqalldiroqqa* o'xshash ovoz chiqarmoq. *Oqsoqolning ovozi guldiradi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 153-b.).

Qarsillamoq fe'li ham aynan chaqmoq, momaqalldiroqqa xos ovoz harakatini bildiradi: *Momaqalldiroq dahshatli qarsillaganida, osmon chok-chokidan sitilib ketadiganday tuyulardi.* (Q.Kenja, Ko'ktoy)

Charsillamoq fe'li ham aynan chaqmoqqa xos ovoz harakatini anglatadi: *Tag'in chaqmoq charsilladi. Ust-boshi jiqqa suv bo'lib ketgan Olimjonning yig'idan titrab turgan lablarini aniq ko'rdim.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 208-b.)

Yomg'ir, qorning yog'ishi, tabiiy ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe'llari: *qisirlamoq*, *shig'alamoq*, *shivalamoq*, *shovullamoq* kabi.

Qisirlamoq qorning ezilishi natijasida ovoz chiqarishni bildiradi. *Bobom quloqchini qiyshayib ketgan telpagini bostirganicha eshak jilovidan tutib borar, arava g'ildiragi ostida kechki sovuqda qaytadan muzlagan qor qisirlar, havo ochilib ketgan, qop-qora chuqur osmonda bodroqdek yulduzlar porlar edi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 202-b.).

Shig'alamoq bir maromda yog'moq. *Yomg'irlar shig'alab yog'ar bag'rimga.*

Shivalamoq bir maromda yog'moq (*yomg'ir* haqida). *Tashqari chiqsak yomg'ir shivalayotgan ekan.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 258-b.)

Shovullamoq baland ovozda davomli *yomg'ir* yog'ishini bildiradi. *Chindan ham Alvastiko'prik shiddatli taraqlar, o'tib boryotgan yuk poyezdi bo'lsa kerak, chiroqlari ko'rinmas, biroq shovullab turgan yomg'irni ham, momaqalldiroq ovozi*

ham bosib ketgudek shodon shovqin solar, oldinga – urush bo‘lyotgan tomonga yelar edi. (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 213-b.)

Shuvalamoq ayni shivalamoq. Yaqindagina shuvalab o‘tgan yomg‘irdan keyin havo musaffo. (S.Anorboyev, Oqsoy)

Shuvullamoq “shuv-shuv” ovoz chiqarmoq. Ustimga shuvullab qor yog‘ila boshladi (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 147-b.).

Suvning oqishdagi tabiiy ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe’llari:

Shaldiramoq. Ariq ixcham, uning suvi shaldirab oqar. (S.Karomatov, Oltin qum)

Sharillamoq suyuqliklarning quyilishi, oqishi, pastga tushishi natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Soy bir tekis sharillardi.* (S.Anorboyev, Oqsoy)

Sharillatmoq 1. *Sharillamoq fl.ort.nisb. U darhol kiyimlarini yechib jo‘mrakdan suvni sharillatib yuvindi.* (Mirmuhsin, Umid) 2. *Ko‘chma tez va tutilmay bajarmoq. Qani endi, men ham o‘rischani sharillatib o‘qiydigan bo‘lsam.* (S.Ahmad, Hukm)

Sharqiramoq aynan *sharillamoq*. *Eshigim oldida bir tup terak bor, yonidan o‘tadi ariq sharqirab.* (Shuhrat)

Shatirlatmoq “shatir-shutur” ovoz chiqartirmoq. Jimjit xonada tarnovlardan tushayotgan suvning shatirlashi eshitilib turardi. (P.Qodirov, Uch ildiz)

2.4-§. Narsa-buyumga xos tovush fe’llarining leksik-semantik tahlili

O‘zbek tilida tovush fe’llarining leksik-semantik guruhleri manbasiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Tabiiy tovush fe’llari.
2. Ijtimoiy tovush fe’llari.

Tovush fe’llarining bunday guruhlanishi ularning tovush manbai, akustik va semantik xususiyatlari bilan belgilanadi. Tabiiy hodisalar, fizik jarayonlar bilan bog‘liq ovoz harakatini ifodalovchi mustaqil so‘zlar tabiiy tovush fe’llaridir. Masalan, *shovullamoq* (shamolning eshishi bilan bog‘liq tovush harakati),

gumburlamoq (momaqaldiraq yoki portlash bilan bog‘liq tovush harakati), *shitirlamoq* (daraxt barglari, suv va yomg‘irning tovush harakatlari), *g‘uvullamoq* (havoning kuchli oqimi yoki yirik jismning tovush harakati), *chiq-chiqllamoq* (soat, suyuqlik: yomg‘ir, qon tomishi bilan bog‘liq ovoz harakati) kabi.

Aksariyat tabiiy tovush fe‘llarida tabiat akustikasining lisoniy ifodasi namoyon bo‘ladi. Ularda muayyan ovoz, tovushning davomiylik, baland-pastlik, takrorlanish xususiyatlar ifodalanadi. Masalan, *guvullamoq* – davomli, tinimsiz; *qarsillamoq* – qisqa, kuchli tovush harakatini bildiradi.

Narsa-buyum akustikasini ifodalovchi tovush fe‘llari ham muayyan darajada inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan ovoz harakatlarini ifodalaydi. Ular nominatsion-motivatsion jihatdan *inson > narsa-buyum > harakat > ovoz (tovush)*, *narsa-buyum > harakat > ovoz (tovush)* modelida shakllanadi. Mazkur tovush fe‘llarining leksik-semantik guruhleri o‘ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Masalan, soat, qo‘ng‘iroq va boshqa signal ifodalovchi vositalarning ovozini ifodalovchi tovush fe‘llari: *chiqillamoq*, *jiringlamoq* kabi.

Darvoza tomonda bir nima jiringlayaptimi. (O‘.Hoshimov, Hotam-xasisning xazinasini, 66-b.)

Payshanba kuni eshik oldida qo‘ng‘iroq jiringlaydi: “jiring-jiring”. (O‘.Hoshimov, Hotam-xasisning xazinasini, 68-b.)

Narsa-buyumlar akustikasini ifodalovchi tovush fe‘llarini quyidagicha guruhlash va tavsiflash mumkin:

1. Suyuq narsalarning qaynashi natijasidagi ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe‘llari. Bunday fe‘llarda suyuqlik: suyuq taom; suv, mevali sharbat kabilarning qaynashi jarayonida paydo bo‘ladigan ovoz harakatlari ifodalanadi. Bu harakatlar qozon, choynak, qumg‘on, samovar kabi narsa-buyumlar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Masalan, *Baqirlamoq* fe‘li *baqir-buqur* ovoz *chiqarib qattiq qaynamoq* (choydish) ma‘nosini anglatadi: *Choydish baqirlab qaynab ketdi.* (P.Qodirov, Qora ko‘zlar)

Bilqillamoq fe‘li esa *qaynab “bilq-bilq”* tovush *chiqarmoq* (dekcha): *Bilqillab qaynayotgan dekchadan xushbo‘y hid dimog‘iga gup etib urdi* (H.Nazir,

Soʻnmas chaqmoqlar). Mazkur feʼl *semiz, toʻlishgan holda boʻlmoq* koʻchma maʼnosini ham ifodalaydi: *Yoʻllardagi tizza boʻyli tuproq bilqillab qaynaydi.* (J.Sharipov, Xorazm)

Biqillamoq tovush feʼli *uzuq-uzuq va boʻgʻiq* tovush chiqarmoq, *biqillagan* ovoz chiqarmoq (qaynab turgan quyuq narsalar haqida): *Biqillab qaynayotgan buloqqa uning chetlaridagi mayin oʻtlarga tikilib xayolga toldim.* (O.Yoqubov, Ayamajuz)

Biqirlamoq ayni *biqillamoq* (taom). *Qozon qattiqroq biqiray boshladi* (Oʻ.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 134-b.).

Shaqillamoq feʼli qattiq qaynashdan chiqadigan tovush harakatini bildiradi: *Hali ham shaqillab qaynab yotgan samovar yonidan ot choptirib oʻtganida tashqariga otilib chiqqanlar... cholgʻa bir gap boʻlganini fahmlashdi.* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 87-b.).

Shaqirlamoq feʼli ham suyuqlik qaynashi jarayonidagi tovush harakatini bildiradi: *Oshxonada sariq samovar shaqirlab qaynab turibdi.* (A.Muhiddin, H.Tojiboyev, Otash qalbli qiz)

Mazkur tovush feʼllarining dialektal variantlari ham mavjud. Shevalarda *bulkullamoq* ovqatning sekin, mildirab qaynashini, *sharaqlamoq, shaqirlamoq* qattiq ovoz chiqarib qaynashni ifodalaydi.

2. Narsa-buyumlarda inson taʼsiri natijasida yuzaga kelgan ovoz harakatini ifodalovchi tovush feʼllari. *bibiblatmoq, dudulamoq, dudutlamoq, dididlamok, gudok bermoq (chalmoq), signal bermoq (chalmoq)*da signal, gudok, mashina, telefon kabi narsa-buyumlardan inson taʼsiri bilan ovoz chiqarmoq maʼnosi ifodalanishi bilan bir sinonimik qatorni hosil qiladi.

Bibiblatmoq “bib-bib” ovoz chiqartirmoq (signal). *U navbatdagi mashinani quvib oʻtarkan, signalni bibiblatdi.* (Oʻ.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar, 178-b.)

Dudulamoq soʻzlashuv nutqida “*dud-dud*” degan ovoz chiqarmoq maʼnosida qoʻllanadi: *Mashina sayrgohga kirib bordi va dudulaganicha odamlarni oralab daryo tomon yoʻnaldi.* (A.Qahhor, Qoʻshchinor chiroqlari.)⁸⁵

⁸⁵ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 1-j. – B.924.

Bu fe'llar Namangan shevalarida *pipiplatmoq, diditlamoq // diditlatmoq* variantlarida aynan shu ma'noda qo'llanadi.

3. Narsa-buyumlarning urilishi natijasida yuzaga kelgan ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari. Masalan, *daranglamoq, dang'illamoq // dangillamoq, dupullamoq // dupurlamoq, dursillamoq, do'pillamoq, gursullamoq // gurs etmoq, taqillamoq, tapillamoq, tiqillatmoq, to'qillatmoq* kabi:

Darang'lamoq ayni *daranglamoq* (devoriy soat). Devoriy soat *darang'lab o'n birga jom urganda, Saidiy o'rnidan turdi.* (A.Qahhor, Sarob.)

Dupurlamoq “dupur-dupur” ovoz bermoq; *dukurlamoq: Pol birdan dupurladi.* (S.Nurov, Narvon.)⁸⁶

Do'qillatmoq “do'q” degan davomli ovoz chiqarmoq: *Tog'am qo'ltiqtayog'ini do'qillatib kirib keladi* (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 93-b.)

Bu guruhga mansub fe'llarning ayrimlari izohli lug'atlarga kiritilmagan. Masalan, *dang'illamoq* fe'li muayyan jismning urilish natijasida “*dang'-dung''*” ovoz chiqarmoq (devoriy soat) ma'nosini anglatadi: *Daxmazali devoriy soat ikki marta dang'illadi.* (A.Qahhor, Tanish basharalar.)

4. Narsa-buyumlarning yiqilishi, tushishi natijasida yuzaga kelgan ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari. Bunday fe'llarda ham muayyan narsa-buyumlar bilan bog'liq ovoz harakatlari ifodalanadi. Masalan, *gurs etmoq, qars etmoq, tars etmoq, sho'lp etmoq* qo'shma tovush fe'llari *birdaniga baland ovoz chiqarmoq; sho'ldiratmoq, sho'ltillamoq, chakillamoq* fe'llari esa davomli ovoz chiqarmoq ma'nosini anglatadi:

Gursilamoq gurs-gurs ovoz chiqarmoq. *Nimadir gursillab yerga tushdi, nimadir sindi.* (A.Qahhor, Mayiz yemagan xotin)⁸⁷

Sho'lp etmoq “sho'lp” degan ovoz chiqarmoq. Qattiq jismning suyuqlikka tushgandagi hosil bo'ladigan tovush harakatini bildiradi: *Bu lan'ati kalamushlar bochkaga sho'lp etib tushadi-da, yog'ga belanib oladi.* (S.Mahkamov, Shogird)⁸⁸

⁸⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 1-j. – B.939.

⁸⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 2-j. – B.267.

⁸⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 6-j. – B.695.

Sho'ldiratmoq sho'ldir degan ovoz chiqarmoq. *Lekin piyolaga sho'ldiratib choy quyishidan, o'qtin-o'qtin xo'rsinib qo'yishidan hammasini bilib yotdim* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi, 470-b.).

Chakillamoq tomchining tushishi bilan bog'liq ovoz harakatini bildiradi: *Sumalaklar chakillab, xayolni buzishyapti.* (B.Nuriddinov, Alvado bahor)

5. Narsa-buyumlarning ishqalanishi natijasida yuzaga kelgan ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari. Bunday fe'llar ikki jismning ishqalanishidan paydo bo'ladigan yoqimsiz, davomli ovoz harakatini bildiradi. Masalan, *g'ijirlamoq*. "g'ijir-g'ijir" degan tovush chiqarmoq, g'ijir-g'ijir qilmoq. *Aravaga go'ng rosa tepkilab bosilgan, g'ildiraklar yuk zo'rligidan g'ijirlardi.* (H.G'ulom, Feruza) *U yonboshda turgan sumkaning zanjirini g'ijirlatib ochdi.* (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 196-b.)

G'irchillamoq. "G'irch-g'irch" etgan tovush chiqarmoq, g'irchirlamoq. *Beshik muttasil g'irchillaydi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 170-b.).

G'itillamoq. "G'it" etgan ovoz chiqarmoq, g'iytillamoq. *Eshikning g'itillab, ochilganini eshitib qaradi.* (M.Ismoilov, Farg'ona t.o.) *Ko'cha eshik g'iytillab ochildi.* (P.Tursun, O'qituvchi)

G'iyqillamoq "g'iyq" etgan ovoz chiqarmoq, "g'iyq-g'iyt" qilmoq, "g'iyt" etmoq: *G'iyqillab borayotgan arava ustida tevaragi ufqqa tutashgan cho'lni tomosha qilib boraman.* (S.Ahmad, Cho'l burguti.)

G'iych etmoq "g'iych" deb ovoz chiqarmoq. *Eshik oldin asta-asta taqilladi, keyin g'iych etib ochildi.* (H.Ziyoxonova, Qishloqi)

G'ichillamoq aynan *g'ichirlamoq*. "Nima qilib o'tiribsan?" deb g'azabli alam bilan o'rnidan turganida ko'cha eshigi *g'ichilladi.* (A.Muxtor, Chinor.)

G'ichirlamoq shu kabi ovoz chiqarmoq. *Beshik g'ichirlaydi. Ukam yig'lay boshlaydi.* (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 17-b.). Ko'chma ma'noda: *Butun qish bo'yi o'rmon daryo ortida shamoldan g'ichirlab ingrab chiqadi* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 39-b.)

Narsa-buyumga xos tovush fe'llari guruhiga musiqa asboblarning ovoz harakatini ifodalovchi fe'llar ham mansubdir.

O'zbek xalqining musiqiy madaniyati milliy cholg'ularga boy hisoblanib, tanbur, dutor, g'ijjak, nay, qo'shnay, sunray, karnay, chang, qonun, ud, rubob, doira va nog'ora kabi asboblarning mohir ijrochilar tomonidan foydalaniladi, kuy ijro etiladi. Childirma, dutor, rubob va boshqa musiqa asboblari tortilgan teri tebranishi natijasida havoda tovush to'lqinlarini hosil qiladi. Haqiqatda, tovush havoda tarqaladi, havo quvurimizning tovush pardalari bilan kontaktda bo'ladi va ularni tebratadi⁸⁹.

Tovush – musiqaning ifoda kuchiga ega eng kichik tarkibiy qismi. Musiqiy tovushlar ma'lum musiqiy tizimni tashkil etib, muayyan baland-pastlik ([lad](#)), uzun-qisqalik ([ritm](#) va [metr](#)), [dinamika](#) va [tembrga](#) ega bo'ladi.⁹⁰

G'azzoliy tovush va ohanglarning inson eshitish a'zolariga ta'siri haqida muhim fikrlarni bayon etgan. Mutafakkir yozadi: "Qushlar va hayvonotning xush sadolarini eshitmoq ham quvvai somi'ani (eshitish organlarini) tarbiya qilib, lazzatlantirur. Yaxshi ovoz yaxshilik vajhidan ani eshitmak harom bo'lishi durust emas, balki haloldur. Chunki, inson aqlining yonida yana besh havosi mudrika (besh idrok) bordurki, ularning har qaysilari o'zi lazzatlanadigan narsalari bilan tarbiya topadir.

Chunonchi, yashillik, oqin suv va chiroylik ranglardan – ko'z, xushbo'yliklardan – burun, shirin va nordonlardan – og'iz, muloyim, yumshoq narsalardan – badan, ilm va ma'rifatdan – aql, yaxshi ovoz, yoqimlik musiqa va bulbul sadolaridan quloq tarbiyalanur"⁹¹.

Imom G'azzoliy yaxshi ovozlar chiqadigan o'rinlariga qarab uch turga bo'linadi deydi: "Agar ovoz jonsiz narsalardan chiqsa ular setor, chang, do'mbira va boshqa shunga o'xshashlardir. Agar jonlik mavjudotlar bo'g'zidan chiqsa u yo odam ovozi yoki bulbullar, qumrilar va boshqa shularga o'xshab kelishtirib sayraydigan qushlarning ovozidir. Bular yaxshilik bilan barobar ko'ngilga yoqimli va xush kelur. Shuning uchun ularni eshitmoq lazzatlik bo'lur, lekin, setorlarning ovozi

⁸⁹ Abdurahmonov Q., Xamidov V., Axmedova N. Fizika. Darslik. – Toshkent, 2017. B. – 364.

⁹⁰ [https://uz.wikipedia.org/wiki/Tovush_\(musiqi\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Tovush_(musiqi))

⁹¹ Имом Абу Хомид Фаззолий. Ихёул-улум. – Тошкент: Ф.Фулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2014. – 512 б.

jonivorlarning ovozig a o'xshatib chiqarmoqlari sun'iy bo'lub, tabiiyg a o'xshatmoqdir.⁹²

Ana shu musiqa asboblariyg a xos ovoz harakatlari tovush fe'llari orqali ifodalanadi: *bakabanglamoq, bakabanglatmoq, bangillamoq, ding'irlamoq, dutdutlamoq, gijbanglatmoq, jaranglamoq, qarsillamoq, qarsillatmoq, ting'irlamoq, vadavanglatmoq, vat-vatlamoq, vangillatmoq* kabilardan iborat. Ovoz chiqishi manbasig a ko'ra quyidagicha guruhlanadi:

1. Damli cholg'u asboblariyg a ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari.
2. Torli cholg'u asboblariyg a ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari.
3. Urma cholg'u asboblariyg a ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari.

Damli cholg'u asboblari: sunray, nay, qo'shnay, karnay⁹³ kabi musiqa asboblariyg a o'z ichig a oladi. Ulariyg a ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe'llarida baland, shovqinli, davomli ovoz chiqarishni ifodalovchi fe'llardan iborat bo'ladi. O'zbek xalqiniyg a tantanali bayram va marosimlariyg a boshlanishi ushbu cholg'u asboblari bilan o'tkaziladi.

Bang'illamoq (karnay). *G'art-g'urt... Nuqul bang'illaydi.* (O'.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar 45-b.)

G'artillamoq (karnay). *Karnaylar quloqlarni batang qilib g'artillardi.* (G'.Rasul, Adolat. 21-b.)

G'artillatmoq (karnay). *Shundoq deraza tagida bittasi ikki quloch keladigan mis trubani g'artillatyapti.* (O'.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar 46-b.)

G'irillamoq (radiokarnay). *Radiokarnay g'irillab turib, birdan gapira boshladi.* (S.Ahmad, Ufq. 192-b.)

G'iyt-g'iyt qilmoq (karnay). – *Voy-voy ovoziyg a xunukligi. G'iyt-g'iyt qiladi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 47-b.).

Torli cholg'u asboblariyg a ud, qobiz, chang, rubob, tanbur, dutor, do'mbira⁹⁴ kabilar kiritiladi. Ulariyg a ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llariyg a

⁹² Имом Абу Хомид Газзолий. Ихёул-улум. – Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2014. – 512 б.

⁹³ Rahmatov Q. Cholg'u ijrochiligi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Namangan, 2014. – 183 b.

⁹⁴ Rahmatov Q. O'sha asar. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Namangan. 2014. 183 b.

ding‘illamoq, ting‘illamoq, ding‘illatmoq, ting‘illatmoq, ding‘ir-ding‘ir qilmoq, ding‘ etmoq kabi fe’llardan iborat.

Ding‘illamoq (do‘mbira). *Do‘mbirani chalganimda, undan ding‘illab oqqan ovoz go‘yo yuragimdan chirqirab chiqqan kuy singari sezildi.* (Gazetadan)

Ting‘illatmoq (dutor). *Muxtorxon tokchadagi dutorni olib ting‘illatdi.* (H.G‘ulom, Mash‘al 23-b.)

Urma cholg‘u asboblari daf, doira, childirma, nog‘ora⁹⁵ kabilar kiritiladi. Ularning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe’llari: *gijbanglamoq, gijbanglatmoq, bakabanglatmoq, baka-bumlamoq, vadavanglatmoq, vadavang qilmoq, gumburaqars qilmoq* – tantanavor baland ovoz chiqarilishi, *g‘iyqillamoq* tovush fe’lida uyg‘un tarzda sokin ovoz chiqarilishi ifodalanadi.

Gijbanglatmoq baralla yangratib chalmoq (childirma). *Childirmani gijbanglatib o‘ynayman.*

Vadavanglatmoq baralla chalmoq (chirmanda). *Bodomxon chirmandasini vadavanglatib yubordi. Shakarxon “Yaxshi bor” qo‘shig‘ini boshladi.* (I.Rahim, Chin muhabbat, 41-b.)

G‘ijbanglamoq childirma shiqildoqlarini shiqirlatib chalmoq (childirma). *Qayerdadir childirma g‘ijbanglamoqda.* (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari, 23-b.)

G‘iyqillamoq g‘iyqillagan ovoz chiqarmoq (garmon). *Muttasil garmon g‘iyqillarmish.* (O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar, 96-b.)

O‘zbek tilining lug‘at tarkibida musiqa asboblari chiqadigan ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe’llarini yuqorida tahlil qildik. Ularda musiqa asboblari qanday ovoz chiqarishi ifodalanadi. Shunisi ahamiyatliki, barcha musiqa asboblari *chalmoq* fe’li bilan birikib, ana shu musiqa asbobining ovozini chiqarish, kuy ijro etish ma’nolarini ifodalaydi. Misol, *dutor chalmoq, nay chalmoq, doira chalmoq* kabi.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Tildagi har bir tovush yoki tovush birikmasi ma’noga bevosita yoki bilvosita semantik ohang bag‘ishlaydi. Bu hodisa nafaqat taqlidiy so‘zlarda, balki

⁹⁵ Rahmatov Q. O‘sha asar. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Namangan. 2014. 183 b.

oddiy leksik birliklarda ham uchraydi. Masalan, ko'pchilik tillarda *i* tovushi mayinlik, noziklik, kichiklik, yumshoqlikni bildiradi, *a* tovushi esa kenglik, kuchlilik yoki yiriklik ma'nolarini beradi. Shu bois, tovushlarning psixologik va estetik ta'siri ma'noda sezilarli darajada aks etadi.

2. Tildagi tovush – ma'no munosabati bir vaqtning o'zida tabiiy (psixologik) va ijtimoiy (konvensional) hodisadir. Tovush va ma'no o'rtasidagi munosabat tilda belgining ikki qirradi sifatida mavjud. Bu ikki qirra bir-biriga zid emas, balki o'zaro to'ldiruvchi hodisalardir.

3. Har bir tilda tovush tizimi ma'noni tashuvchi va uni farqlovchi vosita bo'lsa, ma'no esa tovushga mazmun baxsh etadi. Shu tarzda, tovush va ma'no bir butun belgining ikki jihatini tashkil etadi.

4. Tovush fe'llarining umumiy grammatik ma'nosi harakat va holat jarayonini ovoz xususiyatiga ko'ra ifodalashdir. Ovoz, tovushni boshqa turkumlar ham ifodalaydi, lekin tovush fe'llarida ovoz harakati va holati voqelanadi. Masalan, *taq-taq* (taqlid so'z); *taq-taq etmoq* (tovush fe'li) kabi. Birida ovoz, birida ovoz harakati ifodalanadi.

5. Narsa-buyum akustikasini ifodalovchi tovush fe'llari ham muayyan darajada inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan ovoz harakatlarini ifodalaydi. Ular nominatsion-motivatsion jihatdan *inson > narsa-buyum > harakat > ovoz (tovush)*, *narsa-buyum > harakat > ovoz (tovush)* modelida shakllanadi. Mazkur tovush fe'llarining leksik-semantik guruhlarini o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

III BOB. INSON VA HAYVONLARGA XOS TOVUSH FE'LLARINING LEKSIK-SEMANTIK TASNIFI HAMDA TAHLILI

O'zbek tilshunosligida insonga xos harakat va holatni ifodalaydigan tovush fe'llari haqida ayrim manbalarda qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. O'zbek tilshunosligida dastlab, M.Sodiqova tomonidan *ovoz fe'llari* termini qo'llangan bo'lib, ularda ikki tomonlama ma'no mavjudligi *pichirla (shivirla)* fe'li misolida qisqacha izohlangan⁹⁶, ya'ni *gapirmoq* va *past ovoz chiqarish* ma'nosini anglatishi qayd etilgan. Bu so'z harakat fe'llarining *gapirish harakatiga xos fe'llar* semantik guruhi tarkibida keltirilgan. I.Qo'chqortoyev *gapiruv* va *talaffuz fe'llari* tarkibida tadqiq qilgan⁹⁷.

X.Muhitdinova tovush fe'llarinining diaxron tahlilida inson fiziologiyasi natijasida hosil bo'ladigan fe'llar sirasiga *aksirmoq, chuchkirmoq, chushkirmoq* kabi fe'llarni kiritgan⁹⁸.

Insonga xos tovush fe'llarini semantik jihatdan ikki guruhga ajratiladi:

1. Insonga xos ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari.
2. Insonga xos ovoz holatni ifodalovchi tovush fe'llari.

3.1-§. Insonga xos ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari

Til tizimida harakat fe'llari dominant semantik guruhni tashkil etadi. Ular fe'lning boshqa turlariga nisbatan semantik yadro vazifasini bajaradi, ko'pincha boshqa fe'larning ma'nosi ham harakat konsepsiyasiga bog'liq bo'ladi. Shu bois, ularni semantik tizimda bazaviy fe'llar, deb atash mumkin.

Insonga xos ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe'llari semantik jihatdan *insonning ovoz harakati* arxisemasi ostida birlashadi, tarixiy-etimologik jihatdan sof turkiy qatlamga mansubligi bilan tavsiflanadi.

Insonga xos ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe'llari faol subyekt tomonidan amalga oshirilgan real ovoz harakatini ifodalaydi, insonning tashqi va

⁹⁶ Содикова М. Фейл стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.96.

⁹⁷ Қўчқортөев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977. – Б.190.

⁹⁸ Мухитдинова Х.С. Глаголы звучания в узбекском языке: Диссер. ... кандидат фил. наук. – Ташкент, 1979. – С. 40-41.

ichki ovoz harakati natijasida shakllanadi. Shuningdek, ular faqat ovoz harakatini emas, balki insonning holatini, emotsiyasini, fiziologik jarayonlarini (sogʻlom yoki betob), nutqiy imkoniyatlarini oʻz ichiga oladi. Ular insonning tana aʼzolari, nutq aʼzolari harakati natijasida sodir boʻladigan *talaffuz qilish, ovoz chiqarish, gapirish, urish, tepish, zarb berish* va boshqa jarayonlar mahsuli sifatida yuzaga keladi. Ularda ham nutq, ham nutqdan tashqari harakatlar ifodalanadi. Har bir leksik-semantik guruh oʻz ichida maʼlum guruhchalarga ajratiladi. Ammo har biri “insonning ovoz harakati” arxisemasi ostida birlashadi. Ularning asosiy xususiyatlaridan biri qoʻllanilishi faolligidir. Ularda faol subyekt tomonidan amalga oshiriladigan real ovoz harakati ifodalanadi. Insonga xos ovoz harakatini ifodalaydigan tovush feʼllari semantik jihatdan quyidagi guruhlarga boʻlinadi:

1. Insonning nutqiy jarayoniga xos tovush feʼllari
2. Insonning ogʻiz boʻshligʻi harakatiga xos tovush feʼllari.
3. Insonning qoʻl harakatini ifodalovchi tovush feʼllari.
4. Insonning oyoq harakatini ifodalovchi tovush feʼllari.

Insonning nutqiy jarayoniga xos tovush feʼllari. Tovush feʼllari semantik maydonida insonning tovush-talaffuz faoliyatini ifodalaydigan feʼllar va frazeologik birliklar talaygina. Nutqning tovush-talaffuz tomoni nutqning muhim aspektlaridan biri hisoblanadi. I.Qoʻchqortoyev fikricha, nutq – inson faoliyati turlaridan biri hisoblanib, u faoliyat substansiya, holat yoki xususiyat emas, balki protsessdir⁹⁹. Nutqiy jarayonda gapirish, fikrni ifodalash, talaffuz qilish, hukm, daʼvat, sukut hamda suhbat qurish kabilar namoyon boʻladi.

Insonning nutqiy jarayoniga xos tovush feʼllari semantik jihatdan toʻrt guruhga ajratiladi:

- 1) “baland ovoz chiqarmoq” semali tovush feʼllari;
- 2) “past ovoz chiqarmoq” semali tovush feʼllari;
- 3) “doʻq urish” semali tovush feʼllari;
- 4) “yordamga chaqirish” semali tovush feʼllari;
- 5) “janjal qilmoq” semali tovush feʼllari.

⁹⁹ Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977. – Б.78.

“Baland ovoz chiqarmoq” semali tovush fe’llar guruhiga o’ndan ortiq fe’llar mansub bo’lib, ular uchun *baqirmoq* dominant fe’l hisoblanadi. Bu fe’llar nutq tembrining balandligi, ovoz chiqarishning me’yordan ortiqqligini anglatadi. Masalan, *shang’illamoq, bag’illamoq, qichqirmoq, hayqirmoq, arillamoq, hangramoq 2, chinqirmoq, chiyillamoq* kabi.

Bu sinonim fe’llar guruhi genderologik tabiatga ham ega: *shang’illamoq, bag’illamoq* baland ovoz chiqarish ma’nosi bilan ayollar nutqiga; *baqirmoq, hayqirmoq, bo’kirmoq* kuchli ovoz chiqarmoq ma’nosi bilan erkaklar nutqiga xos; *arillamoq, chinqirmoq, chiyillamoq, qiyqirmoq* bolalar nutqiga xoslanganligi bilan tavsiflanadi.

Mazkur sinonimik qatorga mansub *baqirmoq, qichqirmoq, qiyqirmoq, chinqirmoq, bo’kirmoq* fe’llari juda kuchli tovush bilan ovoz chiqarmoq ma’nosini ifodalaydi. *Chinqirmoq, bo’kirmoq* tovush fe’llarida *qichqirmoq, qiyqirmoq, baqirmoqqa* nisbatan *baland ovoz chiqarish* ma’nosi kuchli¹⁰⁰. Ular uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlarga nisbatan qo’llanganda, *xavf-xatar, ogohlantirish* ma’nolarini ham ifodalaydi:

Baqirmoq baland ovoz chiqarmoq, chaqirmoq. *Ikki haftadan keyin xabar olgani kirsam, janjal ustidan chiqib qoldim. O’zi baqirgan, xotini dodlagan.* (O’.Hoshimov, Oyog’ing yerdan uzilmasin) *Yomg’irdamas, do’lda! – deydi, “Tuya” amaki baqirib.* (O’.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 16-b.)

Bo’kirmoq juda baland ovoz chiqarmoq; erkak nutqiga xos.. *Tog’amiz alam-iztirob bilan bo’kirib yubordi. Bo’lmasa, kelib mendan ko’radi-da, jiyan!* (E.A’zam, Bizning tog’a)

Qiyqirmoq baland ovoz chiqarmoq; bola nutqiga xos. *Bolalar qiyqirdi, oq ko’ylaklarin bandi oqqushlarday silkitib boshda.* (Sh.Rahmon, Amudaryo qirg’oqlari)

Qichqirmoq tovush fe’li beshta semasiga ko’ra farqlanadi.

1. Baland ovozda *baqirmoq*, jarangdor ovoz chiqarmoq (poyezd). *Poyezd qichqirganini eshitib yuragim orziqib ketdi.* (Shuhrat, Shinelli yillar)

¹⁰⁰ O’zbek tili sinonimlarining katta izohli lug’ati. 1-jild. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.467.

2. Qattiq ovoz bilan chaqirmoq (inson). *“Kvazar!” dermish u qichqirib, “kvaza-a-r!” dermish yana qichqirib* (O‘.Hoshimov Shamol esaveradi).

3. Chaqirmoq (xo‘roz). *Qo‘ndoqdagi xo‘roz cho‘zib-cho‘zib qichqirdi* (O‘.Hoshimov, Qalbingga quloq sol).

4. Ko‘chma ma’noda: hamma yoqqa jar solmoq. *Mas’ul ishchilarning shu chiqishlari to‘g‘risida gazetalar bir necha haftagacha qichqirdi.* (A.Qahhor, Sarob).

5. Frazema sifatida: *Xo‘roz hamma joyda bir xil qichqiradi.*

Demak, *baland ovoz chiqarmoq* semasi bilan birlashadigan tovush fe’llari ovoz chiqarishning me’yordan baland ifodalanishi jihati bilan salbiy emotsional bo‘yoqqa ega. Jumladan, *arillamoq, shang‘illamoq, hangramoq* kabilarda salbiy ma’no yuqori hisoblanadi. *Hayqirmoq, xitob qilmoq* tovush fe’llarida ko‘tarinkilik, badiiy uslubga xoslik ma’nolari mavjud.

Insonga xos past ovoz chiqarmoq semali tovush fe’llari guruhiga *past ovoz chiqarish* ma’nosini ifodalovchi *shivirlamoq, pichirlamoq, shipshimoq, shipshitmoq, pichir-pichir qilmoq, shivir-shivir qilmoq* kabi fe’llar mansub.

Pichirlamoq, shivirlamoq, pichir-pichir qilmoq, shivir-shivir qilmoq fe’llari *past ovozda gapirmoq*¹⁰¹ ma’nosi bilan bir sinonimik qatorni hosil qiladi:

Pichirlamoq past ovozda gapirmoq. *Abduvali o‘n so‘mlik, besh so‘mlik, uch so‘mlik pullarni olib, pichirlab sanay boshladi* (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi).

Pichir-pichir qilmoq past ovozda qisqa gapirmoq. *Klara bilan “Oq kaptar” nimanidir pichir-pichir qilib oshxona tomon chiqadi.* (E.A’zam, Jannat o‘zi qaydadir)

Shivir-shivir qilmoq past ovozda sirli gapirmoq. *Boya koridorda muncha shivir-shivir qildilaring?* (A.A’zam, Soyasini yo‘qotgan odam)

Shivirlamoq past ovozda gapirmoq. *Ko‘rpani ko‘tarib qaradi-yu, Muqaddamga o‘girilib, shivirladi. – Uxlab qolibdi-ku... – Mayli, – dedi pichirlab* (O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi).

Shivirlamoq, pichirlamoq tovush fe’llarida nutqdagi, suhbat jarayonidagi *sirlilik, g‘iybat, chaqimchilik* kabi semalari bilan birga suhbatdoshlarning ham o‘zaro sirdosh ekanligi ifodalanadi.

¹⁰¹ O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 502 b.

“Do‘q urish” semali tovush fe’llarida ovoz chiqarish jarayoni *do‘q, dag‘dag‘a qilish, shovqin-suron ko‘tarish* ma’nolari bilan tavsiflanadi. Bunday fe’llar guruhiga *bobillamoq, dag‘dag‘a qilmoq, o‘shqirmoq* kabilar kiradi:

Bobillamoq javramoq ma’nosida. *Nasibani uyg‘otsammi, uyam bobillaydi* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 506-b.). *Endi ko‘rishmoqchi bo‘lib quchog‘ini yozgan edi, ammam bobillab berdi* (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 166-b.).

O‘shqirmoq baqirish, do‘q qilish ma’nosida. *Biroq chol hech kimga quloq solmasdan dadamga o‘shqirdi* (A.Qahhor II, 56-b.).

“Yordamga chaqirmoq” semali tovush fe’llarida *baland ovozda baqirish, yordamga chaqirish, chorlash* kabi ma’nolarni ifodalaydigan fe’llardan mansubdir. Mazkur leksik-semantik guruhga *ayyuhannos solmoq, ayhaylamoq, dodlamoq, dod solmoq, voydodlamoq, faryod qilmoq, nido qilmoq* kabi fe’llar mansubdir.

Mazkur sinonimik qatorga mansub *dodlamoq, dod solmoq, dod-faryod qilmoq, dod-faryod solmoq, dod-voy qilmoq* fe’llarida *ruhiy azoblanish, jismoniy zo‘riqish natijasida qattiq tovush chiqarish* ma’nolari ham ifodalanadi:

Dodlamoq baqirmoq, *dod deb yordamga chaqirmoq. Dastgohdan so‘ra, dodlab beradi aytib, “Non-non” deya sulayib...* (H.Xudoyberdiyeva, Qamal qishida)

Dod solmoq ibora: *dodlamoq. Ey hazilmi, uxlab yotsangiz-da, eshigingizdan dabdurustdan dod solib qolishsa.* (A.A’zam. Quroq)

Dod-voy qilmoq murakkab tovush fe’li; nola qilib baqirmoq. *Momom o‘rtaga tushib, bolasini jalloddan himoya qilishga uringan onaday dod-voy qildi.* (M.Jumayev, Arilar ko‘zyoshi)

Shuningdek, *voyvoylamoq, voylamoq, oh-vohlamoq* tovush fe’llarida *ruhiy-jismoniy og‘riqqa chiday olmay faryod chekish, yordamga chaqirib baland ovoz chiqarish* ma’nolari ifodalanadi.

Voyvoylamoq. Menday ko‘sa ko‘chada voyvoyladi, Kuyganidan necha alvon so‘yladi. (“Ravshan” dostoni)

Voylamoq. Kipriging charxlanib, “shir-shir” shu oqshom menga yoylansin, Menga o‘q tegsin-u, dushmanim unda “voy”lansin. (A.Obidjon, Bezgakshamol)

Oh-voh qilmoq. Qaysi gunohim uchun, deb oh-voh qildi-yu, hushini yo'qotdi.
(N.Bozorboy, Chiroq yoqib, o'zini ham yoqqanlar)

“Janjal qilmoq” semali tovush fe'llarida ovoz chiqarish jarayonida *shovqin qilish, shovqin-suron ko'tarish* kabi ma'nolar ifodalanadi. Hozirgi o'zbek tilida mazkur guruhga *vag'irlamoq, shovqinlamoq, g'ovur ko'tarmoq, chuvvos solmoq, shov-shuv qilmoq, boshiga ko'tarmoq, suron qilmoq, qiychuvlamoq, qiy-chuv qilmoq, dod-voy solmoq* fe'llari mansub bo'lib, ular, asosan, og'zaki nutqda qo'llanadi. Ushbu guruh uchun *shovqin solmoq* fe'l iborasi dominantdir. Uning semantikasida *baland ovoz chiqarish, janjal qilish* semalari mavjud. Mazkur sinonimik qatorga *shovqin solmoq, shovqin qilmoq, ayuhannos solmoq, qiy-chuv qilmoq (ko'tarmoq), g'avg'o qilmoq* fe'llari *birovga qarata ovoz bilan baqirib gapirmoq*¹⁰² ma'nosini ifodalaydi:

Shovqin solmoq. Odamlar guras-guras o'tadi. Chiroyli kiyingan bolalar shovqin solib yugurishadi. (O'.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar)

Ayuhannos solmoq. Qaynonasi ayuhannos solib kirdi. Dod solib yig'layverdi.
(T.Murod, Murdalar gapirmaydilar)

Qiychuvlamoq, qiy-chuv qilmoq, chuvvos solmoq tovush fe'llari subyekt birdan ortiqligi hamda bolalarga xos ovoz chiqarishni ifodalaydi: *Tomoshabinlar [bolalar] bunisi irg'ishlab, unisi gijinglab, qiy-chuv ko'tarishdi.* (A.Obidjon, Mo'ttivoymisan, Mittivoymisan?) kabi.

Inson nutqning ravonligi, tushunarli yoki tushunarsizligi, g'alizligi, qo'polligi jihatidan farqlanishlarga ega. Bunda erkak, ayol va bolalar nutqining talaffuz imkoniyatlari ham o'z aksini topadi.

Bunday fe'llarga nisbatan o'zbek tilshunosligida I.Qo'chqortoyev tomonidan *talaffuz fe'llari* termini qo'llangan. Olimning fikricha, *talaffuz fe'llari* nutqning tovush-talaffuz tomonini ifodalaydi, bu guruhga mansub fe'llarning yadrosida *talaffuz qilmoq* fe'li turadi¹⁰³. Ularda “ovoz chiqarmoq” semasidan ko'ra turli ohanglarda gapirish, fikr ifodalash ma'nolari ifodalanadi.

¹⁰² O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 487 b.

¹⁰³ Кўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан. 1977. – Б.166.

Biz I.Qo'chqortoyevning tasniflash tamoyillarini o'rgandik. Insonning ovoz chiqarish harakatiga xos tovush fe'llarining periferik maydoniga *do'ng'illamoq*, *guvranmoq*, *guldiramoq* 2, *po'ng'illamoq*, *to'ng'illamoq*, *g'o'ng'illamoq* 2, *g'o'ldiramoq*, *g'udranmoq*, *ming'illamoq*, *ming'irlamoq*, *ping'illamoq*, *ping'irlamoq*, *g'iringlamoq* kabi fe'llarni kiritdik. Ularda noaniq tovushda gapirish, *talaffuz qilish* ma'nolarini ifodalanadi. Umumiy tovush ma'nosiga ega bo'lgan fe'llar tilshunoslikda tovush fe'llari maydonining periferiyasiga mansub birliklar sifatida izohlanadi. Periferik fe'llar markazdagi tovush fe'llaridan farqli ravishda tovushning o'zini bevosita ifodalamaydi, balki tovush hosil bo'lish jarayoni hamda harakatni bildiradi:

Guldiramoq. Oqsoqolning ovozi guldiradi, zaldagilar sukut saqladi. (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 153-b.). Bu fe'l *momaqaldiroqqa o'xshash*, *baland zalvorli ovoz chiqarib*, *nutq ifodalashni* bildiradi.

Guvranmoq tovush fe'li insonning noaniq, tushunib bo'lmaydigan ovoz chiqarishini bildiradi: *Uchi to'ziq dumini tagiga yig'ib olgach: "Ha, jinqarchaxon, taxtga o'tirgilari kepqoldimi?" – deb guvrandi.* (A.Obidjon, Kezorgan Boychechak).

Do'rillamoq yo'g'on, titroq, biroz bo'g'iq ovoz chiqarmoq, shu kabi ovoz bilan gapirmoq ma'nolari mavjud. *Qodirjonning ovozi do'rillab qoldi.* (S.Zunnunova, Go'dak hidi). Ushbu misoldan ayonki, *do'rillamoq* tovush fe'li balog'atga yetgan o'smirlarga (erkak jinsi) nisbatan qo'llanadi, chunki bu davrda ovoz tembri ham o'zgaradi.

Mana, urish! – dedi Zebi xola do'rillab. (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 180-b.). Yo'g'on, baland ovozda gapirish ma'nosi qahramonning xarakterini ham erkakka xos ekanligini ifodalagan.

G'udurlamoq tushunarsiz ovozda nimalardir gapirmoq. *Zag'cha ko'z nimadir g'udurlab, Qur'on kalimasini takrorladi.* (P.Tursun, O'qituvchi)

G'udranmoq tushunarsiz ovozda gapiravermoq. *Vafo attor: "Betavfiq, imonsiz", deya g'udranib, eski sholchasini ostiga to'shab, oldiga klyonkani yozdi* (N.Aminov, Qahqaha, 138-b.).

G'udullamoq aynan *g'udurlamoq*. *Qodirov o'ziga o'zi nimanidir aytib, g'udulladi-yu, jahli chiqib otiga qarab ketdi.* (Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli)

G'udungamoq aynan *g'udurlamoq*. *Ermat otning jilovini qo'yib, Qur'on kalimasini takrorladi.* (P.Tursun, O'qituvchi)

Fonetik variantlari:

1. *Do'ng'illamoq – to'ng'illamoq; po'ng'illamoq – g'o'ng'illamoq; g'o'ldiramoq – g'o'ldirlamoq – g'udranmoq* fe'llarida o' tovushi yo'g'on, qo'pol ovoz chiqarish, noaniq ovozda tushunarsiz gapirish ma'nolarini ifodalaydi. Erkaklar, balog'atga yetgan o'smirlar nutqini berishda qo'llanadi.

To'ng'illamoq. Kelib onamga to'ng'illadim: - kitobni yetti mahalla nariga tashlab keling! (O'.Hoshimov Dunyoning ishlari, 66-b.).

2. *G'ing'illamoq – g'ing'irlamoq* fe'llarida i tovushi orqali past, ingichka, uzluksiz tovush chiqarmoq, xirgoyi qilmoq, talaffuz qilmoq kabi ma'nolar ifodalanadi.

G'ing'illamoq g'ingshimoq fe'llari qaysarlik qilmoq ma'nosida qo'llanadi: *Aksincha, u uncha-muncha g'ing'illaganni og'ziga urib yurdi.* (Shuhrat, Oltin zanglamas)

G'ing'irlamoq fe'li past, ingichka, uzluksiz tovush chiqarib xirgoyi qilmoq ma'nosini anglatadi: *Elmurodning bir tekis g'ing'irlagan ovozi yoqimli nag'maday hammaning es-hushini qamrab oldi.* (P.Tursun, O'qituvchi)

3. *Ming'illamoq – ming'irlamoq – mingminglamoq* fe'llari i tovushi orqali ingichka, ming'irlagan tarzda, past ovozda tushunarsiz gapirish ma'nolarini bildiradi va ayollar, kichik bolalar nutqining talaffuz imkoniyatlarini ifodalashda qo'llanadi.

Ming'irlamoq 1. Dimog'da past ovozda tushunarsiz gapirmoq. *Yo'lchining salomiga ming'irlab javob qaytardi.* (Oybek, Tanglangan asarlar) 2. *Norozi ohangda gapirmoq. Ta'na qilaverib ham o'ldirdingiz, - dedi Baratov ming'irlab.* (S.Zunnunova, Yangi direktor)

Javramoq, vaysamoq, sannamoq, sayramoq 2, *qaqillamoq* 2, *shang'illamoq* fe'llari ayollar nutqiga xos bo'lib, baland ovozda tinmay gapiravermoq, shovqinli

ovozlar *chiqarmoq* ma'nolari bilan bir qatorga mansubdir. Ular, asosan, salbiy ma'noni ifodalaydi, so'zlashuv uslubida faol qo'llanadi.

Shang'illamoq. Talabalardan kimdir rubob chalib qo'shiq aytar, birov birov bilan shang'illab gaplashar, xullas, hammayoq shodlikka to'lgan edi (O'.Hoshimov. Shamol esaveradi)

Qaqillamoq fe'li *hadeb gapiravermoq, mahmadonalik qilmoq* salbiy ma'nosini ifodalaydi: *Xo'p, xo'p. Muncha qaqillaysan?* (O'.Umarbekov, Yulduzlar)

Bidirlamoq, bidillamoq, bijirlamoq, bijillamoq, vijirlamoq 2 fe'llari bolalar nutqiga xos bo'lib, juda tez, tinmay shovqinli ovoz chiqarib *gapirmoq, gapiraverib jonga tegmoq* ma'nolarida qo'llanadi: *Bidirlamoq, bijirlamoq* kichik bolalarning nutqini ifodalaydi. *Vijirlamoq* ko'chma ma'noda qushlarning ovoz chiqarishini bildiradi.

Bidillamoq. Qo'zivoy goh Sherzodga, goh menga qarab bidilladi (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 421-b.).

Bijillamoq. Yana bir qora qiz – Shoira bijillab tashladi (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 420-b.).

Mazkur sinonimik qatorga mansub fe'llar *bidillamoq – bidirlamoq – bijirlamoq; bijillamoq – vijillamoq. Bidillamoq, bidirlamoq* ayol nutqiga xos; *bijirlamoq, bijillamoq, vijillamoq* kabi fonetik variantlarda kichik bolalar nutqiga xususiyatlarni ifodalash bilan so'zlashuv va badiiy uslublarda qo'llanadi.

Insonning ovoz chiqarishi va talaffuz qilish jarayonini ifodalovchi tovush fe'llari o'ndan ortiq semantik qatorlarni hosil qiladi, ular orasida emotsional-ekspressivlik, uslubiy xoslanish hamda darajalanishi kabi hodisalar kuzatiladi; fonetik variantlari mavjud. Sinonimik qatorlar tarkibidagi leksemalar ma'lum ma'nolariga ko'ra darajalanadi:

1) ovozning pasayib borishiga ko'ra: *bo'kirmoq, shang'illamoq, baqirmoq, shovqinlamoq, gapirmoq, pichirlamoq, shivirlamoq;*

2) ovozning ko'tarilib borishiga ko'ra: *shivirlamoq, pichirlamoq, gapirmoq, shovqinlamoq, baqirmoq, shang'illamoq, bo'kirmoq;*

3) tovushning tushunarli eshutilishiga ko‘ra: *g‘o‘ng‘illamoq, ming‘irlamoq, pichirlamoq, shivirlamoq, gapirmoq*¹⁰⁴. Ma‘noning kuchayishi yoki torayishi sinonimik qatorlarda o‘z aksini topadi.

Insonning ovoz chiqarishi va talaffuz qilish jarayonini ifodalovchi tovush fe’llari emotsional-ekspressivlik xususiyatiga ko‘ra uch guruhga ajratiladi:

- 1) neytral tovush fe’llari;
- 2) ijobiy tovush fe’llari;
- 3) salbiy tovush fe’llari.

Neytral tovush fe’llari, odatda, leksik-semantik guruhning yadrosida turuvchi, dominant leksemalar hisoblanadi, ularga *baqirmoq, gapirmoq, talaffuz qilmoq, chaqirmoq* kabi fe’llarni kiritish mumkin.

Ijobiy tovush fe’llari bola nutqini ifodalaganda, ijobiy ma‘noni ifodalaydi: *bidirlamoq, bijillamoq, vijillamoq, qiyqirmoq, chug‘urlamoq, chug‘ur-chug‘ur qilmoq*.

Salbiy tovush fe’llari aslida, tovush fe’llarining ko‘pi xalq shevalarida, og‘zaki nutqda keng qo‘llanadi. Salbiy-emotsional ma‘nonini yaqqol jonli tarzda ifodalashda qo‘llanadi. Insonning asabiylashgan, norozilik bildirayotgan, bezovta yoki charchagan ruhiy holatini ifodalaydi. Bunday fe’llar tovushning noaniq, chiyillovchi, dag‘al yoki tartibsiz chiqishini bildiradi va shuning orqali salbiy ma‘noni yuzaga keltiradi. Masalan, *g‘iringlamoq, g‘iring-g‘iring qilmoq, g‘ing‘illamoq, do‘ng‘illamoq, vag‘illamoq, kakillamoq* 2 fe’llari inson nutqidagi yoqimsizlik, asabiylik yoki norozilik ohangini ifodalaydi. Shuningdek, tez va betartib gapiruvni bildiruvchi *bidirlab gapirmoq, bijillamoq, chug‘ullamoq, chug‘urlamoq, g‘ujurlamoq, bidir-bidir qilmoq, chug‘ur-chug‘ur qilmoq, vijillamoq* kabi fe’llar ham salbiy emotsional tusga ega. Ular semantik jihatdan shovqinli, beqaror, jizzaki yoki asabiy ohangdagi tovush chiqarish jarayonini ifodalab, insonning ichki ruhiy holatini tovush chiqarish orqali tasvirlaydi. Aynan, ushbu jihatlar tovush fe’llarining semantik tasniflari, leksik-semantik guruhlarini

¹⁰⁴ Отабоева М. Ўзбек ва инглиз тилларида феъллар градуонимияси. Филол.фан.номз. ... дисс. – Андижон – 2022.

ajratishda, komponent tahlil hamda daraja qatorlari bilan birga uslubiy xoslanishlarini yoritishda muhim hisoblanadi.

Insonning og‘iz harakatini ifodalovchi tovush fe’llari. Insonning og‘iz bilan bog‘liq ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe’llari ikki labning tegishi natijasida hosil bo‘ladi. Masalan, *chapillamoq, chapillatmoq, cho‘pillatmoq* kabi:

Chapillamoq suyuqliklarning urilishi natijasida chiqadigan tovush harakatini ifodalaydi. *Shoxdor ona bug‘uning go‘shini chapillab yeyayotganliklarini ... eshitib turardi.* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 150-b.)

Chapillatmoq fl.ort.n. *Bay-bay-bay, munchayam mazali-ya! – maqtardi Ko‘katoy labini chapillatib* (Ch.Aytmatov. Oq kema 150-b.).

Cho‘lpillatmoq “cho‘lp-cho‘lp” ovoz chiqartirmoq. *Opasining bo‘yniga osilib ikki yuzidan cho‘lpillatib o‘pdi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 240-b.)

Cho‘pillatmoq “cho‘lp-cho‘lp” ovoz chiqarmoq. *U [Nigora] onasining bo‘yniga osilib, u yuzidan bu yuzidan cho‘pillatib o‘pa boshladi.* (S.Ahmad, Poyqadam).

Insonning qo‘l bilan bog‘liq ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe’llari. Bunday fe’llar ikki qo‘l kaftlarining bir-biriga urilishi, ishqalanishi yoki biror yuzaga zarb bilan tegishi natijasida yuzaga kelgan ovoz harakatini ifodalaydi: *chapak chalmoq, qarsak chalmoq, shapaloqlamoq, shappalamoq, shap etmoq* kabi.

Qarsak chalmoq “qars-qars” ovoz chiqarmoq, chapak chalmoq. *Odamlar stul tagiga qo‘llarini tiqib qarsak chaldilar.* (S.Ahmad, Jimjitlik 10-b.).

Qiziq, hali o‘zining sha’niga qarsak chalinganida g‘ashi kelgan Abdurahmonov endi quvonib ketdi. (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 201-b.)

Chapak chalmoq. *Bir qo‘llab chapak chalolmagani uchunmi, nuqul chap qo‘lini “barakalla” degandek havoda silkitar, ko‘zlarida quvonch porlar edi* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 201-b.).

Insonning oyoq bilan bog‘liq ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe’llari. Bunday fe’llar oyoq harakati natijasida yuzaga keladi. Masalan, *dupillatmoq, dupurlamoq, dursillamoq, tapillatmoq, tipillatmoq* kabi.

Tapillatmoq tap-tap ovoz chiqartirmoq. *Oyoq qo‘lini tapillatib jon-jahdi bilan suzaverdi.* (O‘.Hoshimov Tushda kechgan umrlar 38-b.)

Tepmoq oyog‘ini yoki tuyog‘ini yerga urmoq va shu jarayonda tip-tip ovoz chiqishini bildiradi. *Koptok tepmoq. Eshikni tepib ochmoq. Itni qopmas deb bo‘lmas, otni tepmas deb bo‘lmas.* (Maqol)

Tiqillatmoq tiq-tiq ovoz chiqartirmoq. *U bo‘lsa, tuflisini tiqillatib atir taratib yursa* (Ch.Aytmatov. Oq kema 71-b.).

3.2-§. Insonning muayyan holatdagi ovoz bilan bog‘liq harakatini ifodalovchi tovush fe‘llari

O‘zbek tilshunosligida R.Rasulov tomonidan fiziologik holat fe‘llari semantik guruhi tuzilgan bo‘lib, unga *uxlamoq, charchamoq, shilpiqlanmoq, toliqmoq, istimalamoq, yig‘lamsiramoq, kulimsiramoq, ishshaymoq*¹⁰⁵ fe‘llari kiritilgan. Tilda inson organizmining tabiiy fiziologik jarayonlari natijasida, ixtiyorsiz, ixtiyoriy ravishda tovush chiqarishni ifodalovchi fe‘llar talaygina. Ular holatni bildiradi. Holat fe‘llari inson tabiatiga xos jismoniy va ruhiy holatni ifodalovchi fe‘llardir. Odatda holat to‘rtga bo‘linadi:

Holat fe‘llari inson tabiatiga xos jismoniy va ruhiy holatni ifodalaydi.

1) insonning ruhiy kechinmalari bilan bog‘liq ichki holat: *eslamoq, unutmoq, yodlamoq, xotirlamoq* kabi;

2) ichki holatning namoyon bo‘lishi tashqi holat: *shodlanmoq, kulmoq, yig‘lamoq, esankiramoq* kabi;

3) jismoniy holat – inson tanasi bilan bog‘liq: *tuzalmoq, kasallanmoq, zaiflashmoq, kuchaymoq* kabi;

4) ijtimoiy holat – jamiyat bilan bog‘liq: *boyimoq, kambag‘allashmoq, yashamoq, ko‘chmoq, haydalmoq, urilmoq*¹⁰⁶ kabi.

Insonning tashqi holati ichki holatning namoyon bo‘lishini, turli ovoz chiqarishni ifodalashi mumkin. Masalan, kulish va yig‘lash holatlarida *kulmoq,*

¹⁰⁵ Расулов Р. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. – Тошкент: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2008. – Б.142.

¹⁰⁶ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2023. – B.239.

*yig'lam*oq fe'llari o'zaro antonimlikni yuzaga keltiradi. Ushbu dominant fe'llar o'zida sinonimik qatorlarni hosil qiladi. Shunga ko'ra holat tovush fe'llarini ikki guruhga ajratildi:

1. Insonning tabiiy holati, jismoniy zo'riqish natijasida ovoz holatini ifodalaydigan tovush fe'llari.
2. Insonning ruhiy-psixologik holatini tashqi ovoz chiqarish orqali ifodalaydigan tovush fe'llari.

3.2.1-§. Insonning tabiiy holati, jismoniy zo'riqish natijasida ovoz holatini ifodalaydigan tovush fe'llari

Inson fiziologiyasida shartli va shartsiz ravishda ovoz chiqarish harakatini bildiradigan fe'llardan iborat bo'lib, nutqiy muloqotga qaratilmagan, balki sof biologik jarayonlarning lingvistik ifodasidir: *aksirmoq, duduqlanmoq, yo'talmoq, xirillamoq, xurrak otmoq, ping'illamoq, qaltiramoq, xarsillamoq, puflamoq, tufalamoq* kabilar. Ular yettita guruhga ajratiladi:

- 1) insonning himoya reaksiyasini ifodalovchi tovush fe'llari;
- 2) insonning tabiiy refleks holatini ifodalovchi tovush fe'llari;
- 3) nafas yo'llarining kasallanish holatini ifodalovchi tovush fe'llari;
- 4) ichki og'riq va jismoniy zo'riqishni ifodalovchi tovush fe'llari;
- 5) nafas olish-chiqarish holatini ifodalovchi tovush fe'llari;
- 6) organizmdan yot unurni chiqarish holatini ifodalovchi tovush fe'llari;
- 7) ichki organlar holatiga xos ovoz chiqarishni ifodalovchi tovush fe'llari.

Insonning himoya reaksiyasini ifodalovchi tovush fe'llari. Organizmning himoya reaksiyalaridan biri bo'lib, aksirganda burun bo'shlig'idagi yot jismlar: chang, shilimshiq va boshqalar chiqariladi hamda ularning nafas yo'liga tushishi oldi olinadi (*aksirmoq, chuchkurmoq, aksa urmoq, apshurmoq*)¹⁰⁷. Kishining dimog'i qichishi natijasida g'ayriixtiyoriy ravishda burundan havoni kuch bilan chiqarish harakatini ifodalaydi (*aksirmoq, aksa urmoq, chuchkurmoq*)¹⁰⁸. Masalan, *aksirmoq*

¹⁰⁷ Dadaboyev H., Abjalova M., Rashidova U. O'sha asar. – Toshkent: Bookmany print. 2023. – B.48.

¹⁰⁸ O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 1-jild. – B. 467.

– *aksa urmoq* – *chuchkurmoq* – *chushkirmoq* fe'llari bir-biriga ma'nodosh, lekin semantikasi, intensivligi hamda qo'llanish usuliga ko'ra farqli hisoblanadi. Bu fe'llar *tabiiy ovoz holatini ifodalash* semasi asosida bir semantik sinonimlar qatoriga mansubdir.

N.Mahmudov qayd etganidek, “tilning rivojlanganlik darajasini yuksakligini, demakki, uning zanginligi va ranginligini ta'min etadigan muntazam va betimsol omillardan biri unda lisoniy birliklarning ma'nodoshlik – sinonimiya munosabati imkoniyatlarining ko'lamdorligidir. O'zbek tili ana shunday qadimiy va rivojlangan boy tillardan biri sifatida salmoqli miqdordagi sinonimik munosabatlar asosida birlashgan yoki birlashadigan so'z gavharlari zacxxirasiga sohib tildir”.¹⁰⁹

Sinonimlar ketma-ketligi sinonimik qator deyiladi. Unga asos, tub so'z, yasama so'z, qo'shma so'z, so'z birikmasi, termin, juft yoki takroriy so'zlar kirishi mumkin. Sinonimik qatorda asosiy ma'no tashuvchi, unumli qo'llanadigan va uslubiy betaraf so'z – dominant (bosh so'z) sanaladi¹¹⁰. Sinonimik qatorlarda nafaqat ma'nodagi yaqinlikni, balki uslubiy farqlarni ham aniqlash imkoni bo'ladi.

Aksa urmoq ayni aksirmoq. Ermon buva tirnoqlari qiyshayib ketgan barmoqlarini hidlagan bo'ladi-da, ataylab aksa uradi (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 67-b.).

Aksirmoq aksa urmoq, chuchkurmoq. Mavlono Shahobiddin aksirib, rutubatdan shikoyatlandi. (Oybek, Navoiy). *Apshurmoq* kam qo'llanadi: shevaga xos.

Chushkirmoq, chuchkurmoq fe'llari variantdor bo'lib, shevaga xos: *Bilinear-bilinmas chushkirdi.* (P.Tursun, O'qituvchi) *Ilgari Ahmadali ustma-ust chuchkursi, “go'za gullayapti”, deb bashorat qilar edi.*

N.Mahmudov ta'kidlaganidek, “sinonimik qatorning miqdoran kattaligi ifoda aniqligi va ranginligini ta'minlashdagi muhim omillardandir”.¹¹¹ Yuqoridagi sinonimik qator ham ancha boy. Unga mansub fe'llardan *aksirmoq, chuchkirmoq,*

¹⁰⁹ Mahmudov N. Sinonimlar – til zanginligi va ranginligi ko'zgusi // O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.5. 504 b.

¹¹⁰ Dadaboyev H., Abjalova M., Rashidova U. O'zbek tili sinonimlarining o'quv lug'ati. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – B.14.

¹¹¹ Mahmudov N. Sinonimlar – til zanginligi va ranginligi ko'zgusi // O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.8.

aksa urmoq, apshurmoq, chushkurmoq kabilar badiiy va so‘zlashuv uslublarida faol qo‘llanadi. Publitsistik hamda ilmiy uslubda *aksirmoq, aksa urmoq* tovush fe‘llaridan foydalaniladi.

Insonning tabiiy refleks holatini ifodalovchi tovush fe‘llari: *esnamoq, esnoq bosmoq, homuza tortmoq* – inson organizmida tabiiy refleks holatiga xos ovoz harakatini ifodalaydi. Asosan, badiiy va so‘zlashuv uslublarida qo‘llanadi.

Esnamoq ixtiyorsiz holda og‘izni ochib, chuqur nafas olib chiqarmoq: *Anzirat xola og‘zini katta ochib esnadi.* (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari)

Nafas yo‘llarining patologiyasini ifodalovchi tovush fe‘llari ikki guruhga bo‘linadi:

a) tomoq patologiyasi bilan bog‘liq ovoz holatini ifodalovchi tovush fe‘llari;

b) burun kasallanishi bilan bog‘liq ovoz holatini ifodalovchi tovush fe‘llari.

Tomoq patologiyasi bilan bog‘liq ovoz holatini ifodalovchi tovush fe‘llariga *yo‘talmoq, hurmoq, tomoq qirmoq, xirillamoq, o‘xchimoq, g‘ijillamoq* kabilar kiradi. Ular nafas yo‘lining kasallanishi tufayli xirilloq va shovqin aralash kuchli zarb bilan ovoz chiqarish harakatini bildiradi. U inson organizmidagi fiziologik refleks ovoz harakatni bildiradi. Semantik jihatdan esa insonning ichki holatini, kasallik, allergiya, chang yoki sovuq ta’sirida yuzaga kelgan organizm reaksiyasini ifodalaydi. Tovush unsuri bu fe‘lning ma’nosini ajralmas tarzda to‘ldirib turadi, chunki yo‘tal harakati har doim ovozli jarayon bilan birga kechadi. Mazkur fe‘llar, asosan, so‘zlashuv va badiiy uslubda qo‘llanadi:

Yo‘talmoq. Maston ko‘zini ochib yana yumdi. Turg‘unoy yana uzoq yo‘taldi. (A.Qahhor, Maston)

Hurmoq tovush fe‘li insonga nisbatan qo‘llanganda, ko‘chma ma’noni: insonning uzluksiz yo‘talishini ifodalaydi: *Bola ertalabgacha hurib chiqdi.* Demak, *yo‘talmoq* fe‘li tovush fe‘llarining markaziy yadrosidan biroz chetroqda turadi.

Tomoq qirmoq 1) tomoqqa urilib o‘tadigan havo bilan ovoz chiqarmoq: *U tomog‘ini ora-sira qirib, entikib turib gapirdi.* (M.Ismoiliy, Farg‘ona t.o.)

2) shunday ovoz bilan nimagadir ishora qilmoq: *Keksa bir ulamo tomoq qirib o‘zidan xabar bermaganida kim biladi, u sukunat yana qancha davom etar ekan?* (M.Ismoiliy, Farg‘ona t.o.)

O'xchimoq ko'ngil aynib yo'talgansimon, g'ayriixtiyoriy tovush chiqarmoq. *Salimboyvachcha qorong'ida daraxtni quchoqlab uzoq o'xhidi.* (Oybek, Tanlangan asarlar)

Xirillamoq insonning nafas yo'llaridagi o'zgarish natijasida chiqadigan tovush harakatini ifodalaydi. 1. *Faqat sal xirillagan tovush bilan aytilgan ashula ovozi kelib turardi.* 2.– *Suv – dedi xirillab.* 3. *Bilagimdan tutib, xirillab kuldi* (O'. Hoshimov. Cho'l havosi 142-159-b.).

G'ijillamoq. Ammam yana jimib qoldi. Nafasining g'ijillashi kuchayib ketdi. (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 22-b.)

Burun kasallanishi natijasida ovoz holatini ifodalaydigan tovush fe'llari burun bitishi natijasida kishilar nutqida o'zgarish kuzatiladi. *B, p, m* tovushlarini aytish qiyinlashadi. Bu jarayon quyidagi tovush fe'llari bilan ifodalanadi.

Ping'illamoq dimog' bilan sekin ovoz chiqarib gapirmoq. *U dimog'ida gapirar edi. Uning ovozi ping'illab eshitilgani uchun Begimxon piqillab kuldi.* (I.Rahim, Chin muhabbat)

Pinqillamoq. Burni pinqillab, arang gapirdi.

Ping'illatmoq dimog'ida shu kabi ovoz chiqarmoq. *Soli sovuq...baqa burnidan ping'illatib shu so'zlarni chiqaradi: – Shunday sizni bir ko'rib chiqay, deb kiruvdim-da.* (M.Ismoilov, Farg'ona t.o.)

Pishillamoq burun orqali pishillagan ovoz chiqarmoq. 1. *Insonga xos. Hojimurod nihoyatda ochiqqan edi. Hech qayoqqa qaramay, pishillab lunjiga ovqat solar edi.* (S.Ahmad, Jimjitlik). 2. *Hayvonga xos. Sigir o'qtin-o'qtin yoniga burilib, buzoqni yalar, pishillardi* (O'.Hoshimov. Shamol esaveradi, 209-b.).

Ichki og'riq, jismoniy zo'riqishni ifodalovchi tovush fe'llari kishilarning ichki holati bilan bog'liq ovoz chiqarishni bildiradi: *inqillamoq, ingramoq, ingishlamoq, ihramoq, ihranmoq, xo'rsinmoq, g'ingshimoq* inson organizmida ichki og'riq, jismoniy zo'riqish natijasida vujudga keladigan ovoz harakatini bildiradi.

Inqillamoq kasallik va zaiflikdan qiynalib ovoz chiqarmoq. *Toshpo'latning dadasi yotgan joyida inqillab belini changalladi* (O'.Hoshimov. Sirli yulduz 189-b.).

Ingramoq. Oyim do'ppidagi suvdan ozgina ichib tag'in ingradi. – Jon bolam, yolg'izim... (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 98-b.)

Ihramoq og'riq va alamdanda ovoz chiqarmoq. Ikki yigit o'q yedi, shekilli, ihrab quladi. (H.G'ulom, Mash'al)

Ihranmoq aynan ihramoq. Jo' ravoy o'rnidan turdi. Og'riq va horg'inlikdan ihranib-ihranib, g'uslxonada yuvindi. ("Yoshlik")

Xo'rsinmoq og'ir nafas bilan ovoz chiqarmoq. Navoiy yashirin ichidan xo'rsindi. (Oybek, Navoiy)

G'ingshimoq. 1. Uvlash, vovullashdan ko'ra ingrashga yaqinroq tovush chiqarmoq (hayvon). Tumshug'ini oldingi oyoqlariga qo'yib yotgan it erinibgina g'ingshidi. (N.Aminov, Qahqaha) 2. Ma'nosiz, ingroq tovush chiqarmoq (inson). Choygum taraq-turuq qilib, tun sukunatini buzib yubordi. O'z karavotida yotgan Zoirjon g'ingshib qo'ydi. (O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol)

Nafas olish-chiqarish holatini ifodalovchi tovush fe'llari ichki organlar holatiga xos ovoz chiqarishni ifodalaydigan tovush fe'llari *hansiramoq, harsillamoq, halloslamoq, entikmoq, pishillamoq* nafas olish va chiqarish jarayonidagi "ha-ha-ha" degan ovoz harakatini ifodalaydi.

Hansiramoq yugurish, og'ir yuk ko'tarish, havo yetishmasligi, hayajonlanish va sh.k. tufayli tez-tez kuchli nafas olib ovoz chiqarmoq; *halloslamoq, harsillamoq. Oqsoqol og'zini kappa-kappa ochib hansirab turdi (O'.Hoshimov Ikki eshik orasi, 165-b.).*

Harsillamoq. Toshpo'lat hamon to'xtamas, harsillab yugurib borar, sirg'anib- sirg'anib ketardi (O'.Hoshimov. Sirli yulduz 205-b.).

Halloslamoq. Bir mahal Kimsan akam halloslab kelib qoldi. Xuddi shu payt "Po-vago-nam" degan asabiy qichqiriq yangradi. (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 95-b.)

Pishillamoq yengil va yuqori tonli tovush chiqarish jarayoni bo'lib, og'riq yoki noqulaylikda vujudga keladi, burun orqali ovoz chiqarib nafas olmoq. *Hojimurod nihoyatda ochiqqan edi, hech qayoqqa qaramay, pishillab, lunjiga ovqat tiqardi (S.Ahmad, Jimjitlik, 23-b.).*

Publitsistik uslubda: *hansiramoq, entikmoq*; ilmiy va rasmiy uslubda: *hansiramoq*; badiiy va soʻzlashuv uslublarida: *harsillamoq, halloslamoq, pishillamoq* kabilar qoʻllanadi.

Organizmdan yot unurni chiqarish holatini ifodalovchi tovush feʼllari organizmdan ortiqcha narsani chiqarish jarayoni shartli va shartsiz ravishda roʻy beradi hamda bu jarayon maʼlum tovush feʼllari bilan ifodalandi.

Kekirmoq feʼli oshqozonda ortiqcha ovqat toʻlishi natijasida tasodifan chiqariladigan qisqa, keskin tovush chiqarishni bildiradi. *Yongʻoqning yana bitta fazilati bor: qorinni toʻq tutadi. Toʻrttasini yeb olsangiz, yarim kun kekirib yurasiz.* (Oʻ.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 21-b.)

Puflamoq organizmdan ortiqcha narsani shartli tarzda chiqarish harakati. *Anvar choʻnqayib olgancha bor kuchi bilan puflayverib tomoqlari achishib ketdi* (Oʻ.Hoshimov. Bahor qaytmaydi, 14-b.).

Tuflamoq organizmdan ortiqcha narsani shartli tarzda chiqarish harakati. *Ana endi, tuflab tugadurgan pullar ham chiqdi...Otangga rahmat, dadasi koʻrgan!* (A.Qodiriy, felyeton).

Tupurmoq organizmdan ortiqcha narsani shartli tarzda chiqarish harakati. *Osmonga tupursang, betingga tushar.* (Maqol)

Ichki organlar holatiga xos ovoz chiqarishni ifodalovchi tovush feʼllari. Maxsus apparatlar yordamida eshitiladigan, ritmik ovoz harakatini ifodalaydi. Ular “shovqinli boʻlmoq” semasi bilan bir guruhga birlashadi hamda toʻrt guruhga ajraladi:

a) yurakning ritmik urishini ifodalaydigan tovush feʼllari: *dukullamoq, dukurlamoq, gupullamoq*;

b) ichaklardagi past ovoz holatini ifodalaydigan tovush feʼllari: *qurillamoq, quldiramoq*;

d) boshdagi holatni ifodalaydigan tovush feʼllari: *gʻuvullamoq, shangʻillamoq*;

e) quloqdagi holatni ifodalaydigan tovush feʼllari: *gʻuvullamoq, shangʻillamoq*.

Yurakning ritmik urishini ifodalaydigan tovush fe'llari kuchli hayajon, og'ir jismoniy harakat natijasida bilinar-bilinmas eshitiladi:

Dukillamoq. Uning [Mirvalining] yuragi dukillab ura boshladi (S.Ahmad, Jimjitlik 34-b.).

Gupullamoq I. Qirqkokil sochining yarmisi yelkasidan oshib yerga tegay-tegay deb turibdi. Yuzini aniq ko'rmasam ham yuragim gupillab ketdi. (O'.Hoshimov Ikki eshik orasi, 239-b.) omonimiya hodisasi ham kuzatiladi.

Gupullamoq II Isi kelmoq, anqimoq, hidlanmoq, hid taratmoq kabi fe'llar bilan sinonimik qatorni vujudga keltiradi, omonim fe'l hisoblanadi. *Atir hidi xonada gupullab ketdi.*

Ichaklardagi past ovozni ifodalaydigan tovush fe'llari kam sonli hisoblanadi: *qulduramoq, quldur-quldur qilmoq, chuvurlamoq, qurullamoq.*

Qulduramoq. Bashirjon qovun rastalari oralab ketar ekan, yangi chiqqan bodringga ko'zi tushib, qorni qulduradi. (N.Aminov, Qahqaha, 42-b.).

Boshdagi va quloqdagi holatni ifodalaydigan tovush fe'llari kasallik, qarilik, charchash, kaltak zarbi natijasida quloq va miya-da paydo bo'lgan shovqin (uvullash) kabi holatni ifodalaydi. Bu jismoniy jarayon insonda salbiy kayfiyat, noxushlik tug'diradi.

Shang'illamoq shang'i ovozli, shovqinli holatda bo'lmoq. Har yo'talganida nafas og'ziga tiqilar, ko'z o'ngida xira halqachalar pirpirar, quloqlari shang'illardi. (O'. Hoshimov, Bahor qaytmaydi).

G'uvillamoq g'uvillagan ovozli holatda bo'lmoq. Kunduz bo'yi suv ichaman, tomo'g'im qaqrab, boshim g'uvillaydi (R. Azizxo'jayev).

Zing'illamoq zing'illagan ovozli holatda bo'lmoq. Quloqlarim (qamchi zarbidan) juda qattiq zing'illadi (M. Ismoilij).

3.2.2-§. Insonning ruhiy-psixologik holatini tashqi ovoz chiqarish orqali ifodalaydigan tovush fe'llari

Ichki holat ham inson fiziologiyasiga bog'liq. Ichki holat ruhiy-psixologik jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Uning ifodalanishi, namoyon bo'lishi tashqi holatda ko'rinadi. Kishilar kulganda yoki yig'laganda ma'lum ovozni chiqaradi.

Aynan, ovoz chiqarish jarayoni ularning qanday holatda ekanini ifodalashga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, insonning ruhiy-psixologik holatini tashqi ovoz chiqarish orqali ifodalaydigan tovush fe'llari ikkiga bo'linadi:

1. Insonning kulish holatini ifodalovchi tovush fe'llari.
2. Insonning yig'lash holatini ifodalovchi tovush fe'llari.

Insonning kulish holatini ifodalovchi tovush fe'llari. Kulish holatini ifodalaydigan tovush fe'llari tilda insonning hissiy-fiziologik kechinmalarini aks ettiruvchi murakkab semantik birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Bu fe'llar inson organizmidagi tabiiy ovoz hosil bo'lish jarayoni (nafas, tomoq va lab harakati) hamda psixik-emotsional holat o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ifodalaydi.

Kulish holatini ifodalaydigan tovush fe'llari yuz, ko'z va lablar bilan ovoz chiqargan holda xursandchilik yoki mazahlashni bildiradigan fe'llar hisoblanadi. Shunga ko'ra, ikki guruhga ajratiladi:

- a) xursandchilikni ifodalaydigan tovush fe'llari;
- b) mazahlashni ifodalaydigan tovush fe'llari.

“O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati”da *kulmoq*, *hiringlamoq*, *xaxolamoq*, *qahqaha otmoq(urmoq)* sinonimik qatori berilgan va izohlangan. Mazkur fe'llarning barchasi yuz mimikasi va turlicha tovushlar bilan xursandchilikni ifodalaydi.¹¹²

Aslida mazkur sinonimik guruhga *kulmoq*, *qahqahlamoq*, *qah-qah otmoq*, *qah-qah urmoq*, *xandon otmoq*, *xaxolamoq*, *qiqirlamoq*, *sharaqlamoq*, *hiringlamoq*, *hingillamoq*, *hingillashmoq*, *xixilamoq*, *iljaymoq*, *ishshaymoq*, *irjaymoq*, *tirjaymoq* kabi fe'llar ham mansubdir. Mazkur tovush fe'llari *kulmoq* umumiy ma'nosini ifodalasa-da, qo'shimcha ma'no ottenkalari bilan farqlanadi. Yuz, ko'z va lablar bilan ovoz chiqargan holda xursandchilik yoki mazahlashni ifodalanadi.

Shunga ko'ra, mazkur guruh ijobiy va salbiy ma'noli tovush fe'llariga ajratiladi: *qiqirlamoq* ijobiy ma'noda, bola kulgisini; *hiringlamoq* salbiy ma'noda mazahlab kulishni ifodalaydi.

¹¹² O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.332.

Xursandchilikni ifodalaydigan tovush fe'llarida ijobiy ma'no ifodalanadi, ularda *baland ovoz chiqarib xursandchilikni ifodalash* semasi mavjud bo'ladi. Ularga *qahqahlamoq, qah-qah otmoq, qah-qah urmoq, xandon otmoq, xaxolamoq, qiqirlamoq, sharaqlamoq* kabilarni kiritish mumkin. *Qiqirlamoq* bola kulgisini ifodalaydi.

Sinonimik qatordagi *qahqahlamoq, qah-qah otmoq, qah-qah urmoq, xandon otmoq, xaxolamoq, qiqirlamoq, sharaqlamoq* kabilar ijobiy ma'noda qo'llanadi:

Qahqahlamoq. Hamma qahqahlab kuldi (N.Safarov, Saodatning qissasi, 67-b.).

Qah-qah urmoq, otmoq, solmoq. Shunaqa qah-qah solib, beg'ubor kulishardiki, daraxtlarda tunagan qushlar cho'chib qanot qoqadi. (Shuhrat, Shinelli yillar 89-b.).

Sharaqlamoq ko'chma ma'noda qattiq kulmoq ma'nosini ifodalaydi. *Shoir bo'lsa hamon sharaqlab kular, chiroyli ko'zlari suzilib ketgan edi* (O'.Hoshimov, Nur borki, soya bor, 90-b.).

Mazahlashni ifodalaydigan tovush fe'llari salbiy ma'noni ovoz harakati bilan ifodalaydi. Sinonimik qatorga mansub *hiringlamoq, hingillamoq, hingillashmoq, xixilamoq, iljaymoq, ishshaymoq, irjaymoq, tirjaymoq* fe'llari salbiy ma'noda qo'llanadi.

Bu fe'llar ovoz chiqarishning darajasiga, ya'ni past yoki baland ifodalanishiga ko'ra semantik farqlanishga ega: *qahqahlamoq, qah-qah otmoq // qah-qah urmoq, xandon otmoq, xaxolamoq, sharaqlamoq* kabilar *baland ovozda kulmoq* ma'nosini ifodalaydi: *Hamma qahqahlab kuldi* (N.Safarov, Saodatning qissasi, 67-b.).

Hiringlamoq, hingillamoq, hingillashmoq, xixilamoq, iljaymoq, ishshaymoq, irjaymoq, tirjaymoq fe'llari *past ovozda kulmoq* ma'nosini ifodalaydi: *Mamat hiringlab kuladi.* (O'.Hoshimov, Cho'l havosi, 189-b.).

Odamlar hingillab kulishar, kattalardek qo'llarini harakatga solib gaplashishar va yana kulib qo'yishardi. (Mirmuhsin, Umid 32-b.).

Kulish holatini ifodalaydigan tovush fe'llari tilda insonning hissiy-fiziologik kechinmalarini aks ettiruvchi murakkab semantik birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Bu fe'llar inson organizmidagi tabiiy ovoz hosil bo'lish jarayoni (nafas, tomoq va lab harakati) hamda psixik-emotsional holat o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ifodalaydi.

Uslubiy xoslanishi jihatdan sinonimik qatorga mansub fe'llar quyidagicha guruhlanadi:

1. Publitsistik uslubda: *kulmoq, qahqah otmoq, hingillamoq, xandon otmoq.*
2. Badiiy uslubda: *kulmoq, qahqahlamoq, qah-qah otmoq, qah-qah urmoq, qahqaha urmoq, qahqaha urib kulmoq, xandon otmoq, xandon otib kulmoq, xaxolamoq, hingillamoq, hingillashmoq, xixilamoq, he-helamoq, piqirlamoq, qiqirlamoq.*
3. So'zlashuv uslubi: *kulmoq, hiringlamoq, hingillashmoq, qiqirlamoq, xaxolamoq* kabilar qo'llanadi.

Insonning yig'lash holatini ifodalovchi tovush fe'llari. Yig'lash holatini bildiruvchi tovush fe'llari: *arillamoq, big'illamoq, bo'zlamog, ho'ngillamoq, ho'ngramog, ho'ngurak otmoq, ingalamog, ingillamoq, uvvos solmog (tortmog, ko'tarmog), piqillamoq, o'kirmog, o'kramog, chinqiramog* kabilardan iborat.

Til egalari tasavvurida yig'lamoq fe'li insonning ko'z yosh chiqarishi va tovush chiqarish orqali his-tuyg'ularini ifodalash bilan signifikativ ma'no hosil qilinadi. *Arillamoq, big'illamoq, bo'zlamog, ho'ngillamoq, ho'ngramog, ho'ngurak otmog* kabi tovush fe'llarida konnotativ ma'no yuzaga chiqadi.

Ushbu tovush fe'llari insonlarning yosh darajasiga xosligiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. Bola yig'isini ifodalovchi tovush fe'llari: *arillamoq, big'illamoq, ingalamog, ingillamoq, chinqiramog* kabi. Ular bir sinonimik qatorni hosil qiladi:

Bola big'illab yig'lar, Munisa esa bunga e'tibor bermasdi. (F.Musajonov, Himmat).

Birdan boshqa bir ovoz eshitildi: kimdir tez-tez gapirdi; dam erkakcha, dam xotinchacha so'zlaydi, dam chaqaloq bo'lib ingalaydi. (Oybek Tanlangan asarlar)

Bola dasturxonni olib ketayotgan onasiga qo'lini cho'zib ingilladi. (T.Murod, Ot kishnagan oqshom)

Bu fe'llar, asosan, so'zlashuv hamda badiiy uslubda faol qo'llanadi.

2. Ulg'aygan insonlar yig'isini ifodalovchi tovush fe'llari: *bo'zlamok*, *ho'ngillamok*, *ho'ngramok*, *ho'ngurak otmok*, *uvvos solmok* (*tortmok*, *ko'tarmok*), *piqillamok*, *o'kirmok*, *o'kramok*, *chinqiramok* kabi.

R.Qo'ng'urov *yig'lamoq* fe'lining quyidagi: *uv yig'lamoq* → *uvvos tortib yig'lamoq* → *piqqillab yig'lamoq* → *ho'ngrab yig'lamoq* → *o'krab yig'lamoq* → *ingalab yig'lamoq* → *bag'illab yig'lamoq* → *pix-pix yig'lamoq* → *chirillab yig'lamoq* ma'nolarini keltirgan¹¹³.

E.Qilichev sinonimlarning semantik darajasi, denotativ, konnotativ ma'nolarini tahlilga tortish bilan bir qatorda Alisher Navoiy ijodidagi 99 ta fe'lni tadqiq qilgan hamda "*yig'lamoq*" so'zining *ingramok* → *singramok* → *yig'lamsinmok* → *yig'lamoq* → *siqtamok* → *o'kirmok* → *hoy-hoy yig'lamoq* qatorlarini graduonimiya hodisasiga kiritadi¹¹⁴.

Gradual munosabatlar orqali sinonimik qatorlarda turuvchi leksemalar darajalanish ko'rsatkichi bilan o'zaro farqlanadi. Fe'llarda darajalanish harakat yoki holatdan anglashilgan bir necha ma'nolar yuzasidan graduonimik qatorlar hosil qilinadi. Nutqiy vaziyat egalari nutqiy vaziyatning maqsadiga mos tarzda so'z tanlashadi. Bunda ular ijobiy yoki salbiy ma'noli so'zlar bo'lishi mumkin. Ularning emotsional-ekspressivlik darajasi so'zlovchining lisoniy bilimiga bog'liqdir. Tovush fe'llarida ovoz chiqarish arxisemasiga ko'ra baland ovoz chiqarish salbiy ma'noni ifodalaydi.

0 daraja – dominant leksema *yig'lamoq* hisoblanadi. Odatda, baland ovozda *yig'lash* orqali salbiy ma'no hosil bo'ladi. Quyidagi tovush fe'llari nafaqat *yig'lash* holati, balki baland ovoz chiqarishiga ko'ra emotsional-ekspressivlikni oshirgan.

1-daraja: *arillamok*;

2-daraja: *ho'ngillamok*;

3-daraja: *ho'ngramok*;

4-daraja: *ho'ngurak otmok* (*tarixiy variant*);

¹¹³ Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.27.

¹¹⁴ Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Бухоро университети нашриёти: Бухоро, 2001. – Б.68.

5-daraja: *dodlamoq*;

6-daraja: *o'kirmoq*;

7-daraja: *uvvos solmoq*.

Mazkur fe'llar ovozning darajasiga ko'ra quyidagicha guruhlanadi:

Baland ovozda yig'lashni ifodalovchi tovush fe'llari: *bo'zlamok, ho'ngillamoq, ho'ngramok, ho'ngurak otmoq, uvvos solmoq (tortmoq, ko'tarmoq)* kabi. Bu fe'llar bir sinonimik qatorga mansub bo'lib, quyidagi ma'nolarni ifodalaydi va, albatta, uslubiy xoslanishiga ko'ra ham farqlanadi:

Bo'zlamok tovush fe'li *o'kirib, nolalar qilib, uvvos solib yig'lamoq* ma'nosida, asosan, badiiy uslubda qo'llanadi: *Har vodiyni bir-bir izladim, Yetim qo'zi yanglig' bo'zladim.* (H.Olimjon)

Ho'ngillamoq. Chidolmadim sira yig'lab yubordim, Maro ho'ngilladi. Bir azo turdi. (U.Nosir)

Ho'ngramok. Daraxtlar orqasidan ho'ngrab yig'lagan tovush eshitildi. (Oybek, Tanlangan asarlar)

Ho'ngurak otmoq tovush fe'li tarixiy bo'lib, aynan *yig'lamoq* ma'nosini ifodalaydi: [Sultonxon] *Umriniso bibining darchasidan hatlar-hatlamas ho'ngurak otib yig'lab yuborgan edi.* (Cho'lpon, Kecha va kunduz)

Past ovozda yig'lashni ifodalovchi tovush fe'llari: *hiqillamoq, hiqhiqlamoq, piqillamoq* kabi.

Hiqillamoq. Nurxon hiqillab ko'zlarini arta boshladi. (O.Yoqubov, Larza).

Piqillamoq fe'lli yig'laganda tomoqdan portlab chiqadigan qisqa, bo'g'iq tovush harakatini bildiradi: *Aziza yuzini kafti bilan yashirgancha, piqillab yig'lab yubordi.* (O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol)

O'kirmoq, o'kramok, uvvos solmoq, chirqiramoq, chinqirmoq sinonimik qatoridagi tovush fe'llari juda baland ovoz bilan *dod-faryod solmoq, qattiq yig'lamoq* ma'nolarida qo'llanadi:

O'krab yig'lab yubordim. – nega kutmas ekanman? Sizdan boshqa kimim bor! (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 90-b.)

O'kirmoq kuchli yig'i ovozini chiqarmoq, *ho'ngramok*: *Kutilmaganda Rixsi xolaning ko'ngli yumshadi-yu, o'kirib yig'lab yubordi.* (P.Qodirov, Qora ko'zlar)

Uvvos solmoq // uvvos tortmoq fe'llari *qattiq ovozda yig'lamoq* ma'nosini bildiradi: *Buvi jahldan uvvos sola boshladi.* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 32-b.)

Demak, holat tovush fe'llari insonning kulish va yig'lash emotsional jarayonlariga xos bo'lib, ular ichki ruhiy holatni ovoz chiqarish orqali ifodalashga xizmat qiladi. Til va tafakkur uzviy bog'liq. Tafakkur til mutanosibligi kishilarning emotsional holatlarini, harakatlarini shakllantiradi. Kishilar aynan holatga xos gapiradilar. Tildagi tushunchalar kishining lisoniy xotirasidan nutqiy aktga ko'chadi. Tovush fe'llari turli nutqiy aktlarda obrazlilik, nutqning jonliligini bildiradi.

3.3-§. Hayvonlarning ovoz harakatini ifodalayigan tovush fe'llarining leksik-semantik tahlili

Inson hayoti doimo tabiat va hayvonot olami bilan chambarchas bog'langan. Hayvonlar chiqaradigan tovushlarni ifodalashga ehtiyoj qadimdan mavjud bo'lgan. Shu jihatdan tovush fe'llari semantik maydonida hayvonga xos tovush fe'llari donor hisoblanadi.

Hayvonlarga xos tovush fe'llari qadimdan turkiy tillarda mavjud bo'lib, ular o'zaro fonetik motivatsiyaga ega. Tilda *itning vovullashi, mushukning miyovlashi, qo'y va echkinning ma'rashi, otning kishnashi, sigirning pishqirishi yoki qushlarning chug'urlashi, chirqillashi* kabi tovushlar bilan bog'liq harakatlarni ifodalovchi leksemalar talaygina. Ba'zi hayvonlar ovozini ifodalashda "o'xshash", lekin "ko'proq tanilgan" hayvonga xos tovush fe'li tanlanadi. Masalan, tulki va shoqol ovozini ifodalashda itlarga xos *hurmoq* yoki *akillamoq* tovush fe'llarini qo'llash mumkin. Zebraga nisbatan esa otlarga xos *kishnamoq* tovush fe'li qo'llanaveradi.

X.Muhitdinova hayvonlarga xos ovoz harakatini bildiruvchi tovush fe'llarini semantik jihatdan ikki guruhga ajratgan:

1. Uy hayvonlariga xos tovush fe'llari: *akillamoq, angillamoq, vangillamoq, vovullamoq, irillamoq, vingillamoq* (itga xos); *miyovlamoq* (mushukka xos); *babalamoq, ma'ramoq* (qo'y); *bo'kirmoq, pishqirmoq* (sigir, ho'kizga xos) kabi.

2. Yovvoyi hayvonlarga xos tovush fe'llari: *ulimoq, uvlamoq, uvullamoq* (bo'ri ovozi); qushlar va hasharotlarga xos tovush fe'llari: *chirillamoq, g'o'ng'illamoq, qiyqirmoq*¹¹⁵.

Til egasi (inson) ba'zan notanish hayvonlarning ovozini ifodalamasligi ham mumkin, ya'ni barcha hayvonlarga xos tovush harakatlari ifodalanavermaydi. Har bir til antroposentrik jihatdan umumiylikka ega bo'lib, faqat insonlar uchun ahamiyatli hayvonlarning tovush chiqarish harakatlari tilda o'z aksini topadi. Masalan, *akillamoq, angillamoq, miyovlamok, mo'ramok, ma'ramok, chirillamoq, chirqillamoq* kabi. Til tizimidagi tovushlarning qamrovi ko'proq inson bilan aloqadorlik darajasiga bog'liq. Yovvoyi hayvonlarga xos tovush harakatlari tilda muhim semantik yukni – xavf signalini bildirishda qo'llanadi.

Jahon tilshunosligida A.S.Virenkova ingliz tilidagi hayvonlarga xos tovush fe'llarini ularning nomi bilan guruhlashni taklif etadi va uch guruhga ajratadi.

the dog barks – it vovullaydi

the cat meows – mushuk miyovlaydi

*the cow moos – sigir mo'raydi*¹¹⁶.

Shu tasnif asosida tovush fe'llarining metaforik kengayishi hamda tipologik jihatlari tahlil qilingan. Ular kamdan kam hollarda murakkab sintaktik konstruksiyalarda yoki ko'chma ma'noda qo'llanadi. Shuning uchun ham ingliz tilidagi tovush fe'llari aniq ixtisoslashgan va pragmatik vazilari mavjud¹¹⁷. Demak, ingliz tilida hayvonlarga xos tovush fe'llari semantik jihatdan ixtisoslashgan, ular aniq hayvon turlariga bog'langan, fonetik jihatdan motivatsiyalangan, stilistik jihatdan neytral bo'lib, kam hollarda metaforik kengayishi mumkin va qat'iy chegaralangan.

E.S.Luchina va S.M.Baranova idish (hind-yevropa tillariga mansub) tilidagi hayvonga xos tovush fe'llarining tipologiyasi, shuningdek, onomatopeik asosi va yasash modellarini o'rgangan. Slayvan va german tillaridagi tovush fe'llarini qiyosiy tahlillarini bergan¹¹⁸.

¹¹⁵ Мухитдинова Х.С. Глаголы звучания в узбекском языке: Дисс. ... кандидат фил. наук. – Ташкент, 1979. – С. 101-105.

¹¹⁶ Выренкова А.С. Звуки животных в английском языке – М.: Language of Slavic Culture. 2015. – С.37-52.

¹¹⁷ Выренкова А.С. Звуки животных в английском языке. – М.: Language of Slavic Culture, 2015. – С.37-52.

¹¹⁸ Лучина Е.С., Баранова С.М. Глаголы звуков животных в идише. – М.: Language of Slavic Culture. 2015. – С. 88-96.

E.A.Kuzmenko norveg tilidagi hayvonga xos tovush fe'llarini uch guruhlarga ajratgan:

- 1) sodda tovush fe'llari: *qarsillamoq, sharaqlamoq, charsillamoq*;
- 2) cho'ziq tovush fe'llari: *guvullamoq, uvullamoq, shovullamoq*;
- 3) takroriy tovush fe'llari: *taq-taq qilmoq, xurq-xurq qilmoq, chiychiylamoq*¹¹⁹. Ushbu tahlil asosida tovush fe'llarining yasaliş modellari tuzilgan.

Tovush fe'llarining yasaliş modellari A.O.Maksimova tomonidan izohlangan. U arman tilidagi tovush fe'llarining uchta yasaliş modelini keltiradi:

1. Tub tovush fe'llari – kelib chiqishi bevosita tovush manbasiga xos bo'ladi. Masalan, *ma'ramoq, miyovlamoq, vovullamoq, vaqillamoq, chiriqlamoq* kabilar.

2. Affiksatsiya usulida hosil qilingan tovush fe'llari – arman tiliga xos yasovchi affikslar bilan yasash mumkin bo'lgan tovush fe'llari.

3. Qo'shma tovush fe'llari – tovushga taqlid so'z hamda yordamchi fe'ldan tashkil topadi: *ak-ak qilmoq, miyov-miyov demoq, chirq-chirq qilmoq*¹²⁰.

Turkiy tilshunoslikda E.G.Mustakimova va B.V.Orexovalar boshqird va tatar tillaridagi hayvonlarga xos tovush fe'llarini tahlil qilgan. Boshqird tilida unlilar garmoniyasi (uyg'unligi) fe'l yasashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tatar tilida esa tovush fe'llari qadimgi turkiy shaklga yaqin. Boshqird tilidagi tovush fe'llari rus tili manbalariga, tatar tilidagi tovush fe'llari turkiy manbalarga yaqinligi izohlangan¹²¹.

A.E.Kamarova qalmiq tilidagi hayvonlarga xos tovush fe'llari bevosita tabiiy tovushdan kelib chiqqan. Tarixiy ildizlari esa mongol tillaridagi shakllarga yaqin. Qiyosiy-tipologik jihatdan mongol tillari tizimi bilan solishtirilgan¹²². Qalmiq tilidagi tovush fe'llarining nafaqat adabiy shaklini, sinonimlarini hamda dialectal variantlarini ham ko'rsatgan. Ayniqsa, bu tilga oid tovush fe'llari O'rxun-Enasoy va eski mo'g'ul yodgorliklari matnlaridagi tovush fe'llariga juda yaqinligi isbotlangan.

¹¹⁹ Кузьменко Е.А. Глаголы звуков животных в греческом языке. – М.: Language of Slavic Culture, 2015. – С. 97-106.

¹²⁰ Максимова А.О. Армянские глаголы звуков животных. – М.: Language of Slavic Culture, 2015. – С.131-143.

¹²¹ Мустакимова Э.Г. Орехов Б.В. Глаголы звуков животных в башкирском и татарском языках. – М.; Language of Slavic Culture. 2015, стр. 199-217.

¹²² Камарова А.Э. Звуков животных в калмыцком языке. – М.; Language of Slavic Culture. 2015, стр. 218-234.

O'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan *hayvon* so'zi asli *tirik narsa, har bir tirik jon* lug'aviy ma'nosini anglatadi. O'zbek tilida *hayvon* so'zi quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1. zool. Harakat qilish va sezish qobiliyatiga ega bo'lgan har bir tirik mavjudot; jonivor. *Umurtqali hayvonlar. Sutemizuvchi hayvonlar. Sudraluvchi hayvonlar. Vahshiy hayvonlar. Uy hayvonlari.*

2. Insondan boshqa har qanday jonivor. *O'rgatilgan hayvonlar.*¹²³

Tabiatda va inson hayotida hayvonlar katta ahamiyatga ega. Hayvonlar – barcha ekosistemalarda oziqlanish zanjirining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Hayvonlar o'simliklar bilan oziqlanib, o'zlashtirgan moddalarining yana tuproqqa qaytarilishiga, binobarin o'simliklarning o'sishiga imkon beradi. O'simlik va hayvonlar qoldig'i bilan oziqlanadigan hayvonlar Yer yuzini organik qoldiqlardan tozalab, tabiiy sanitarlik vazifasini bajaradi. Yirtqich hayvonlar tabiatda zararkunanda hayvonlarning sonini cheklab turishga yordam beradi. Hayvonlar odam hayotida ham katta ahamiyatga ega. Ulardan bir qancha turlari ovlanadi; uy hayvonlari go'sht, sut, jun, teri va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari olish maqsadida va transport vositasi sifatida boqiladi.

Demak, hayvonot olami boy. Ular sirasiga qushlar va hasharotlar ham kiradi.

Tovuq (parranda) past tovushlarni chiqarganida yoki egilganida uning jo'jalari buni xavf haqidagi ogohlantirish ekanini tushunishadi. Ot (chorva moli) baland tovushda kishnaganida yoki deysinganida boshqalari buni ma'lum bir signal – xushyorlik sifatida qabul qilishadi. Ayrim hayvonlar arang sezilarli belgilar yoki tovushlarni tushunishlari mumkin. Qush atrofni ko'zdan kechirib olish uchun shoxga qo'nganida boshqalari harakat qilmay turishadi. Ammo u boshqa niyat bilan qo'nganida unga uchib ketishlari haqida bildirishlari mumkin va ehtimol qush ham boshqa maqsadda qo'nganini alohida belgilar bilan ifodalashi mumkin.

Itlar ham turli yo'llar bilan muloqot qilishadi. Ular nafaqat hurishadi, balki uvillab, akillab, g'ingshib, panjalarini ko'taradilar yoki irillaydilar. Boshqa itlar ham har bir holatda bu nimani anglatishini juda yaxshi bilishadi.¹²⁴

¹²³ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 2-j. – B. 367-368.

¹²⁴ Hayvonlar bir-birini tushunadimi? // <https://sinaps.uz/bilasizmi>

Shu nuqtai nazardan hayvonlarning tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe’llarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Uy hayvonlarining ovoz bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi tovush fe’llari.
2. Yovvoyi hayvonlarining ovoz bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi tovush fe’llari.
3. Hasharotlarning ovoz bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi tovush fe’llari.
4. Qushlarning ovoz bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi tovush fe’llari.

3.3.1-§. Uy va yovvoyi hayvonlarning ovoz harakatini ifodalayigan tovush fe’llarining leksik-semantik tahlili

Uy hayvonlarining ovoz bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi tovush fe’llari. Odam urchitadigan hayvon turlari uy hayvonlari hisoblanadi. Uy hayvonlariga *qoramol, qo‘y, echki, tuya, ot, it, mushuk, quyon, tovuq, o‘rdak, g‘oz, kurka, kaplar* va boshqalar kiradi.¹²⁵ Inson uchun muhim bo‘lgan hayvonlarning tovush chiqarishi tilda aniq ifodalanadi. Shunga ko‘ra, uy hayvonlarining tovushlari bilan bog‘liq harakatlarni ifodalovchi tovush fe’llarini quyidagicha guruhladik:

1. Mushukning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe’llari.
2. Itning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe’llari.
3. Tuyaning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe’llari.
4. Otning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe’llari.
5. Eshakning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe’llari.
6. Qo‘y va echkilarning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe’llari.
7. Sigir va ho‘kizlarning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe’llari.

Mushukning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe’llari o‘zbek tili leksik qatlamida kam sonli fe’l leksemalari bilan ifodalansa ham, mushuklar 100 ga yaqin turli xil tovushlarni talaffuz qilishlari mumkin.¹²⁶ *Miyovlamoq, miyov-miyovlamoq,*

¹²⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 9-ж. – Б.54. – 704 б.

¹²⁶ Hayvonlar haqida 160 ta qiziqarli ma'lumotlar // <https://uz.kuzminykh.org/1458-160-interesting-facts-about-animals.html>

“miyov” *demoq, pixillamoq, pishillamoq* kabilar tovush fe’llari mushukning ovoz harakatini ifodaladi.

Miyovlamoq (mushuk). *Devorlar orqasida, tomlar ustida kechasi mushuklar miyovlab chiqadi* (O‘.Hoshimov, Shamol esaveradi 206-b.).

Pixillamoq – hurpayib tomoq qirib “pix” degan ovoz chiqarmoq (mushuk).

Uy hayvoni hisoblangan itning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe’llari o‘zbek tilida o‘ndan ortiq fe’l leksemalar bilan ifodalanadi: *akillamoq, angillamoq, vovullamoq, hurmoq, hovullamoq, irillamoq, ulimoq, uvullamoq, vakillamoq* kabilardan iborat. Bunda *hurmoq* dominant tovush fe’li hisoblanadi. *Akillamoq* fe’li *davomli ak-ak* degan baland tovush chiqarmoq; *vovullamoq* katta itning baland davomli ovoz chiqarishini; *hovullamoq* kam qo‘llanadi; *angillamoq* og‘riq yoki kasallanishda itning ovoz harakatini bildiradi; *irillamoq, uvullamoq, ulimoq* tovush fe’llarida xavf-xatardan ogohlantirish, cho‘ziq baland ovoz chiqarishni; *vakillamoq* esa kichik itlarning ovoz chiqarishini ifodalaydi:

Akillamoq. Ko‘chaning ikki chetida shovullab turgan teraklar orasida oy ularga ergashar, olis-yaqinda itlar akillar edi (O‘.Hoshimov. Shamol esaveradi, 242-b.). *Hovli etagida yotgan buzoqdek ovcharka vahshatli akillab darvozaga yugurdi* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 232-b.).

Irillamoq. Devor panasidagi sharpa irilladi. Kattakon qop-qora it tupro q changitib birdan oldinga tashlandi (O‘.Hoshimov. Shamol esaveradi, 269-b.).

Uvlamoq. It qayrilib qaramadi... uvlayverdi. (O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar 121-b.)

Hovullamoq kichik itlarning ovoz chiqarishini bildiradi. *G‘azablangan kuchuklarning hovullashi, tomoshachilarning qiyqirishi ko‘kni qoplaydi.* (Oybek, Tanlangan asarlar)

Vovullamoq “vov-vov” *demoq, akillamoq. Biroq nariroq borib battar vovullashga tushdi.* (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 222-b.).

Uy hayvonlarining tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe’llar guruhida *sigir, ho‘kiz, qo‘y, echki, eshak, ot va tuya* kabilarning ovoz harakatiga oid fe’llar alohida o‘rin tutadi: *arqiramoq, aqirmoq, hangramoq, hangillamoq, mo‘ramoq, na‘ra tortmoq, ishqirmoq, pishqirmoq, g‘urg‘uramoq, o‘kranmoq* kabi.

Tuyaning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe'llarining qo'llanilishida tarixiy omillar ham muhim. Tuya qadimdan turkiy xalqlarning Buyuk Ipak yo'lida savdo-sotiq safarlarida, yuk tashishda, ulug'vorlik hamda boylik ramzi, sifatida boqilgan, parvarish qilingan. Tuyaning ovozi bilan bog'liq harakatlarni ifodalaydigan tovush fe'llari xalq og'zaki ijodi manbalarida keng qo'llanilgan. Bu ham tarixiy-madaniy talqinning ifodasi hisoblanadi. *Arqiramoq, aqirmoq, na'ra tortmoq, g'urg'uramoq, o'kramoq* kabi fe'llar sinonimik qatori *baland ovoz chiqarmoq* ma'nosi bilan tuyaning ovoz harakatini ifodalaydi: *G'urg'uramoq* o'kirgansimon ovoz chiqarmoq. *[G'irko'k] Tuya bo'lib g'urg'uraydi, ayiq bo'lib chirqiraydi.* ("Xushkeldi")

Otning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe'llari o'zbek xalq og'zaki ijodidagi manbalarda ot uy hayvoni kuch-qudrat, erkinlik, chopqirlik timsoli sifatida qadrlangan. Xalq dostonlarida ularning nomi bilan berilishining o'zi ularga nisbatan e'tibordan darak beradi, lekin biz ot nomlariga to'xtalmadik. Dostonlarda tovush fe'llarining qo'llanilishi orqali voqea jonlanadi, badiiylik oshadi, ma'no konkretlashadi; tovushlarning uyg'unligi esa dostonchilik uslubini belgilovchi lingvopoetik omillardan hisoblanadi: "Alpomish" dostonida: *Dubulg'a boshda do'ngullab, Kark qubba qalqon qarqillab; Shunda o'lan kechasi bo'ldi, har qizlar kelayotir echkiday dirkillab, semizi irkillab; Qaydan kelding, Qultoyqo'l Qaydan kelding, yoy-yoy, Ko'k qayg'aday qangqillab qaydan kelding yoy-yoy.* "Xoldorxon" dostonida: *Ot boradi arillab, Otgan o'qday sharillab; Go'ro'g'libek boradi, Och arslonday arillab; Qo'lman solsa oshirib, Mushti tegar tarsillab.*

Tasviriy so'zlar ma'noni kuchaytirganda so'z tarkibidagi bir tovush orttiriladi. U unli ham, undosh ham bo'lishi mumkin. *Tovoqlar taraqa-turuq etib sindi, yuragim shig'g' etib ketdi.* Misollarda *a* va *g'* tovushlarining orttirilishi ekspressivlikni kuchaytirgan.

Tabiat va jamiyat hodisalari obrazini berishga intilish, fizik tovushlarni nutqda ifodalash jarayonidagi taqlid istasak-istamasak muayyan subyektivizمنى vujudga keltiradi. Bu til birliklarini alohida bir ohangda talaffuz qilish orqali tinglovchi yoki o'quvchining e'tiborini aynan ana shu obraz yoki kuchaytirishga

harakat qilinadi. Zero, ana shu ekstremal holatlar soʻzlarning maʼnodorligiga, ifodaning taʼsirli chiqishiga, ekspressivlikka xizmat qiladiki, ularni stilistik jarayon sifatida baholash mumkin boʻladi¹²⁷.

Otning ovoz harakatini ifodalaydigan feʼllarni jamladik: *arillamoq, aqirmoq, ishqirmoq, pirqqillamoq, pirqiramoq, pishqirmoq, kishnamoq* kabilar bir sinonimik qatorni hosil qiladi. Masalan, *kishnamoq* burundan baland ovoz chiqarmoq; *kishnamoq* (ot). Sinonimik qatorda dominant tovush feʼli hisoblanadi:

Arillamoq, aqirmoq, ishqirmoq, pirqqillamoq, pirqiramoq, pishqirmoq, kishnamoq burundan baland ovoz chiqarmoq; *kishnamoq* (ot). Poetik nutqda qoʻllaniladi, bunda *kishnamoq* tovush feʼli dominant hisoblanadi.

Kishnamoq (ot). *Kechada otlarni kishnatmaslik uchun “sunbuloʻt toyyib” degan giyohdan askarlarga tarqatgan edimki, lozim vaqtda otlarning burniga shul giyohdan hidlatib qoʻyilsa, ot kishnamas edi.* (Muhammad Tursun. Dunyoni tebratgan yetti buyuk)

Arillamoq 1. Soʻzlashuv tilida: baqirib yigʻlamoq, hadeb yigʻlayvermoq, ar-ar qilmoq (bola haqida). *Bola arillayapti.* 2. Folklorda *pishqirmoq* (ot haqida). *Ogʻzini karrakday ochgan arillagan argʻimoq otlarning har qaysisi tomday keladi.* (“Avazxon” dostonidan).

Aqirmoq (ot). *Ayiqday boʻlib aqirdi...* (“Malikayi ayyor” dostonidan).

Ishqirmoq ayni *pishqirmoq* (ot). *Bu maydonda bedov otlar Ishqirar maydon ichinda.* (“Alpomish”)

Pirqqillamoq burundan pishqirgan ovoz chiqarmoq(ot). *Yoʻlga qirq botir, Bedov otlar pirqillab.* (“Xush keldi” dostoni)

Pirqiramoq ayni *pirqillamoq* (ot). *Gʻirkoʻk ot gʻirqiraydi, Oʻqtalib pirqiraydi.* (“Goʻroʻgʻlining tugʻilishi” dostoni)

Pishqirmoq (ot). *Ot pishqirdi. Boshqa xotinlar allaqchon oʻrnidan turib ketganini endi koʻrdim* (Oʻ.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 218-b.).

Eshakning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush feʼllari semantik guruhida *hangramoq, hangillamoq va xirq-xirq qilmoq, xurq-xurq qilmoq* tovush feʼllari

¹²⁷ Каримов С. Ўзбек тилининг фонетик стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2016. – Б. 107.

mavjud bo‘lib, ularda ovoz harakatini ifodalash, shu ovozga taqlid qilish kabi ma’nolar ifodalanadi. *Hangramoq* uslubiy betaraf leksema, *hangillamoq*, asosan, so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi, *xirq-xirq qilmoq*, *xurq-xurq qilmoq* tovush fe’llarida aynan ovozga taqlid qilish ma’nosi bilan birga davomli ovoz chiqarishni ham ifodalaydi:

Hangramoq baland cho‘ziq ovoz chiqarmoq. *Uz oqdan eshak hangragani eshitiladi.* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 48-b.)

Hangillamoq baland cho‘ziq ovoz chiqarmoq. *Bobomning eshagi ilgari boshqacha edi. Ko‘cha boshiga yetishi bilan “eshitib qo‘yinglar, biz kelyapmiz” degandek, ovozini baralla qo‘yib hangillardi.* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 130-b.)

Xirq-xirq qilmoq past ovoz bilan ketma-ket tovush chiqarmoq. *Eshak dik-dik qadam bosadi. Sahar salq inida sovigan tuproq hidi yoqadi shekilli, xirq-xirq qilib qo‘yadi* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 94-b.).

Qo‘y va echkinining ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe’llari semantik guruhida *babalamoq*, *ma’ramoq* tovush fe’llaridan iborat. Ushbu ikkala uy hayvoni shakli hamda ovoz chiqarishiga ko‘ra o‘zaro yaqin. Shuning uchun, ularning ovoz harakati bir xil leksema bilan beriladi:

Babalamoq ba-ba degan ovoz chiqarmoq (qo‘y). *Bu tomonda jimjitlik, u tomonda qo‘ylar tinimsiz babalamoqda.* (A.Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar)

Ma’ramoq 1 cho‘ziq, bo‘g‘iq ovoz chiqarmoq (echki). *Allaqayerda echki bo‘g‘ilib ma’raydi.* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 56-b.)

Ma’ramoq 2 cho‘ziq, ingichka ovoz chiqarmoq (qo‘y). *Pichoqni qinidan sug‘urishi bilan qo‘y jonivor iltijoli ma’rab yubordi.* (O‘.Hoshimov Ikki eshik orasi, 181-b.) *Suruvda bitta qo‘y ma’rasa, hammasi jo‘r bo‘ladi.* Maqol. *Qo‘y “ba” desa, baraka keladi.* Matal.

Qo‘y uy hayvononining boqilishida nafaqat milliy qadriyat, balki diniy qadriyat ham ustuvorlik qiladi. To‘y, ma’raka, Qurbon hayiti, aqiqa kabi marosimlarda jonliq so‘yish, qurbonlik qilish, atash kabi urf-odatlarida go‘шти uchun boqiladi. Lekin ayrim uy hayvonlarining ovoz chiqarish jarayoni ifodalanishida,

milliy va diniy tamoyillar muhim hisoblanadi. To'ng'iz, cho'chqa kabi hayvonlarning boqilishi, ularning ovoz harakatining ifodalanishi o'zbek tili leksik qatlamida kam uchraydi: *Hurq-hurq qilmoq* "hurq-hurq" ovoz chiqarmoq (cho'chqa). *Shundoq yotoqxonaning o'ziga olib kirilgan megajin hurq-hurq qilib, kechasi bilan uyqu bermaydi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 53-b.)

Sigir va ho'kizning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe'llari: *mo'ramoq, pishillamoq, pishqirmoq* kabilardan iborat.

Mo'ramoq (sigir). *Cholim bilan Robiya dalaga chiqib ketgan shekilli, sigir mo'rab, molxonani boshiga ko'taryapti.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 137-b.)

Pishillamoq (sigir). *Sigir o'qtin-o'qtin yoniga burilib, buzoqni yalar, pishillardi* (O'.Hoshimov. Shamol esaveradi, 209-b.).

Pishqirmoq (sigir). *Sigir katta ko'zlarini olaytirib, bir qaradi-da, pishqirib qo'ydi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 70-b.).

Yovvoyi hayvonlarining ovoz bilan bog'liq harakatlarini ifodalovchi tovush fe'llari. Yovvoyi hayvonlarga *sher, arslon, sirtlon, yo'lbars, ayiq, bo'ri, tulki, maymun* kabi hayvonlar kiradi. Bu kabi tovush fe'llari insonga xavf signalini, ogohlantirishni bildiradi. *Bo'kirmoq, hayqirmoq, na'ra tortmoq, ulimoq, uvullamoq, uvlamoq, ingramoq, o'kirmoq* – tovush fe'llari baland ovoz chiqarish ma'nosi bilan birga xavf-xatardan ogohlantirish kabi ma'nolarni ham ifodalaydi:

Ulimoq (bo'ri). *Qaydadir bo'ri ulidi* (S.Ahmad, Jimjitlik 48-b.).

O'kirmoq (yirtqich hayvon). *Yirtqich hayvonlar bo'kirib-hayqirib chakalakzorlarga chopib qolsin.* (Ch.Aytmatov. Oq kema 53-b.).

Yovvoyi hayvonlar turkumidan amfibiyalar guruhiga kiruvchi qurbaqaning ovoz harakati tilda *baqillamoq, vaqillamoq, vaq-vaq qilmoq, qurillamoq* kabi tovush fe'llari bilan ifodalanadi.

Vaqillamoq (qurbaqa). *Baqalarni aytmaysizmi? Bir-biridan qolsa, qulog'ini kesadigandek ovozi boricha vaqillaydi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 19-b.)

Qurillamoq (qurbaqa). *Pilik chirsillaydi, qurbaqalar hovlida qurillaydi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 38-b.)

3.3.2-§. Hasharotlarning tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi tovush fe‘llarining leksik-semantik tahlili

Tabiatda hasharotlar ham mavjud. Hasharot – uchta tana segmenti, oltita oyoq va odatda bir yoki ikki juft qanot bilan tavsiflangan kichik umurtqasiz hayvon. Ular Arthropoda filumidagi Insecta sinfiga kiradi va Yerdagi eng xilma-xil organizmlar guruhidir. Hasharotlar turli ekotizimlarda changlatuvchi, parchalovchi va boshqa hayvonlar uchun o‘lja sifatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.¹²⁸

Ilmiy manbalarga ko‘ra, hasharotlar hayvonlarning eng xilma-xil guruhidir, ularning milliondan ortiq turlari tasvirlangan; ular barcha hayvon turlarining yarmidan ko‘pini tashkil qiladi.¹²⁹

Hasharotlar turlarining umumiy sonining taxminlari sezilarli darajada farq qiladi, farazlarga ko‘ra 5,5 millionga yaqin hasharotlar turlari mavjud bo‘lib, ulardan bir millionga yaqini tasvirlangan va nomlangan.¹³⁰

Tabiat inson eshitish qobiliyatidan tashqaridagi noyob “signallar” bilan to‘lib-toshgan. Tel-Aviv universiteti olimlari o‘tkazgan ilmiy tadqiqot natijasida o‘simliklar stress holatida o‘zidan ovoz chiqarishi va bu ovozlar hayvonlarga ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Demak, hasharotlar o‘simliklar turli vaziyatlarda chiqaradigan ovozli signallarni eshitishi va ularga javob qaytarishi mumkin.

Ilmiy izlanish paytida o‘simliklar tomonidan chiqarilgan ovozlariga hayvonlar tomonidan javob qaytarilgani tasdiqlangan. Jumladan, urg‘ochi tut parvonasi pomidor o‘simligi stressda ekanligini ko‘rsatuvchi ovozlarni eshitib, unga tuxum qo‘ymaslikni ma’qul ko‘rgan. Ma’lum bo‘lishicha, parvonalar suvsizlanish sabab “nola qilayotgan” pomidor o‘simligidan qochadi.

Ko‘rinib turibdiki, tabiatda inson eshita olmaydigan tovushlar orqali amalga oshadigan yashirin “ekoaloqalar” mavjud.¹³¹

Hasharot [a. qurt-qumursqa; gazandalar] deganda *pashsha, ari, kapalak, chimoli, beshiktebratar, chigirtka, ninachi* kabi mayda umurtqasiz bo‘g‘imoyoqli

¹²⁸ <https://opentran.net/uz/dictionary/hasharot.html>

¹²⁹ https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-uz.ru.

¹³⁰ Stork, Nigel E. (7 January 2018). "How Many Species of Insects and Other Terrestrial Arthropods Are There on Earth?". *Annual Review of Entomology*. 63 (1): 31–45.

¹³¹ Hasharotlar o‘simlik ovozi eshitadimi? // <https://azon.global/uz/posts/zehniyat>

jonivorlar tushuniladi.¹³² Ularning ko‘pi muayyan tovush chiqaradi. Masalan, *bizillamoq, bozillamoq, jizillamoq, vizillamoq, g‘ing‘illamoq, chirillamoq* kabilar. Tilda insonlarga yoqimsiz va zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan hasharotlarning tovush harakatlari ko‘proq ifodalanadi.

Tilda insonlarga yoqimsiz va zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan hasharotlarning tovush harakatlari ko‘proq ifodalanadi. Ularni ovoz chiqarish obyektiga ko‘ra to‘rt guruhga ajratdik:

1. Qo‘ng‘izning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe‘llari.
2. Arining ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe‘llari.
3. Chigirtkaning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe‘llari.
4. Pashaning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe‘llari.

Qo‘ng‘izning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe‘llari *g‘o‘ng‘illamoq, g‘o‘ng‘irlamoq, g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir qilmoq* kabilardan iborat. Ovoz chiqarilishidagi *g‘, o‘* tovushlarining ishtiroki ovoz harakatining quloqqa yoqimsiz, noaniq ovoz chiqarilishini ifodalashda qo‘llanadi.

G‘o‘ng‘illamoq (qo‘ng‘iz). *Qo‘ng‘iz uzoq vaqt tipirchilab g‘o‘ng‘illab yotar edi* (Ertakdan).

Arining ovoz harakati *bozillamoq, bizillamoq, vizillamoq, viz etmoq, g‘o‘ng‘illamoq* tovush fe‘llari bilan ifodalanadi.

G‘o‘ng‘illamoq (qovog‘ari). *Allaqayerda qovog‘ari g‘o‘ng‘illaydi* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 90-b.).

G‘o‘ng‘illamoq (ari). *Ari aylanib, uzoq g‘o‘ng‘illadi*. (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 212-b.)

Viz etmoq (asalari). *Ko‘z ilg‘amas xartumchalari bilan shira emib oladilarda, yana viz etgancha kelib uylariga kirib ketadilar*. (H.Nazir, So‘nmas chaqmoqlar).

Chigirtkaning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe‘llari *chirillamoq, chir-chir qilmoq, churullamoq* kabilardan iborat. “Ch” undoshi bilan berilishida ham bu hasharotning kichikligini bildiradi.

¹³² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 2-j. – B. 375.

Chirillamoq (chigirtka). 1. *Chigiritkalarining chirillashi, hasharotlarning na'masi kuchli shamol tovushi bilan kesildi.* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon, 67-b.)
2. *Qayerdadir chigirtka chirilladi.* (O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi 12-b.)
3. *Chigirtkalar chirillar, osoyishta osmonda to'lin oy nur sochar edi* (O'.Hoshimov, Dunyoning ishlari, 91-b.)

Pashaning ovoz harakati *bizillamoq*, *vizillamoq* kabi tovush fe'llari bilan ifodalanadi. *Bizillamoq. Na bir qush sayraydi, na bir bizildoq bizillaydi.* (S.Nurov, Narvon)

3.3.3-§. Qushlarning tovushlari bilan bog'liq harakatlarini ifodalovchi tovush fe'llarining leksik-semantik tahlili

Umurtqalilarning tanasi par va patlar bilan qoplangan, uchishga layoqatli sinfi *qus*, *parranda* deb ataladi. Bu ikki so'z ma'nodosh bo'lib nutqda faol qo'llanadi.¹³³

Tarixiy-etimologik jihatdan *uchadigan narsalar, qanotlilar; qush* ma'nolarini anglatuvchi forscha o'zlashma *parranda* so'zi o'zbek tilida *qush zoti, qushlar; qush* ma'nolarini ifodalaydi.¹³⁴

O'zbekistonning geografik joylashuvi va iqlimi turli xil hayvonot va o'simlik dunyosining rivojlanishiga imkon beradi. Qushlar esa bu xilma-xillikning muhim qismi hisoblanadi. Bugungi kunda odamlar Yer yuzida yashaydigan qushlarning 10 694 turini bilishadi.¹³⁵ O'zbekiston faunasida qushlarning 19 turkumga oid 440 dan ko'proq turi ma'lum.¹³⁶

Boshqa manbalarda keltirilishicha, yurtimizda 500 ga yaqin qush turlari uchraydi, ulardan bir qismi butun yil davomida yashaydigan joylashib qolgan turlar bo'lsa, qolganlari esa migratsiya jarayonida muvaqqat yashovchi yoki ko'chib yuruvchi qushlardir. Bu qushlar orasida o'rmonlarda yashaydigan turfa xil kichik qushlardan tortib, katta yirtqich qushlargacha, masalan, *burgut, lochin* kabi qushlar ham bor.¹³⁷ Darhaqiqat, qushlar ham boshqa ko'plab hayvonlar singari bir-biri bilan

¹³³ O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – II j. – B.60. – 488 b.

¹³⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 3-j. – B. 661.

¹³⁵ Qushlar haqida qiziqarli ma'lumotlar // <https://www.samdu.uz/uz/news>

¹³⁶ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 5-ж. – Б.176. – 608 б.

¹³⁷ O'zbekiston qushlar duyosi // <https://ifazo.uz/>

“so‘zlashadi”. Tovuq jo‘jalarini xavf haqida ogohlantiradigan va ularni yerga egilishga undaydigan tovushlarni chiqaradi. Keyin ularni to‘planishga chaqiradigan boshqa tovush beradi. Yovvoyi qushlar tunda uchayotganda qichqirishadi, bu ularga birga bo‘lishlariga va adashib qolganlarining galaga qaytishiga yordam beradi. Ammo qushlarning tili bizning nutqimizdan farq qiladi. Biz fikrlarimizni ifoda etadigan maxsus so‘zlardan foydalanamiz.¹³⁸

Bir xil turdagi qo‘shiqchilar geografik hududiga qarab turli xil dialektlarga ega bo‘lishi mumkin. Ularning qo‘shiqlari yashash joyiga qarab bir oz farq qiladi, xuddi bir tilda so‘zlashadigan odamlar qayerda o‘sganiga qarab urg‘uga ega bo‘lgani kabi. Oq tojli chumchuq bunga ajoyib misol bo‘lib, aholining turli vakillari o‘zlarining “mahallalariga” qarab o‘z qo‘shiqlari uchun o‘ziga xos dialektlarga ega.

Chumchuq har biri 10 ta “qo‘shiq kuylaydi”, botqoq va masxara qushlari 200 tagacha turli qo‘shiqlarga ega, jigarrang qiruvchilar esa 2000 tagacha “qo‘shiq kuylaydi”, – deb yozadi The New York Times.¹³⁹ Demak, tilda qushlarning tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe‘llar ko‘p. Jumladan, o‘zbek tilida ham qushlarning tovushlari bilan bog‘liq harakatlarini ifodalovchi fe‘llar talaygina: *bitbildamoq, biyovbiyovlamoq, hakaklamoq, huhulamoq, huythuytlamoq, kakillamoq, kakirlamoq, kakkulamoq, kukulamoq, qaqaqlamoq, qaqillamoq, qaqirlamoq, qaqolamoq, qarillamoq, qag‘illamoq, qiqillamoq, qiyqillamoq, qiyg‘illamoq, qig‘illamoq, ququlamoq, qureylamoq, qurquramoq, sayramoq, g‘ag‘illamoq, g‘idg‘idlamoq, chaxchaxlamoq, chag‘illamoq, chag‘irlamoq, chag‘chag‘lamoq, chiriqlamoq, chirqillamoq, chiyovlamoq, chiyramoq, chiychiylamoq, churqullamoq, chug‘urlamoq* kabilar.

Ular uch guruhga bo‘linadi:

- 1) katta, yovvoyi qushlarning ovoz chiqarishi bilan bog‘liq tovush fe‘llari;
- 2) kichik, xonaki qushlarning ovoz chiqarishi bilan bog‘liq tovush fe‘llari;
- 3) parrandalarning ovoz chiqarishi bilan bog‘liq tovush fe‘llari.

Katta, yovvoyi qushlarning ovoz chiqarishi bilan bog‘liq tovush fe‘llari miqdoran kam hisoblanadi. Ularda baland, chinqiragan ovoz chiqarish, xaf-xatardan

¹³⁸ Qushlar nega sayraydi? // <https://sinaps.uz/bilasizmi/2905/>

¹³⁹ Qushlarning sayrashi haqida ajoyib faktlar // <https://uz.featuresbusiness.com>

ogohlantirish kabi ma'nolar ifodalanadi. Burgut, qarchig'ay, qarg'a kabi qushlarning ovoz harakati ifodalanadi:

Chag'-chug' qilmoq fe'li davomli, baland ovoz chiqarmoq (qarg'a): *Qorong'ida soyadek so'ppayib turgan traktor, muttasil chag'-chug' qilyotgan qarg'alar, osmonda zangori qilichdek yalt-yult qilib o'chyotgan chaqmoq – hammasi g'oyib bo'ldi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 205-b.).

Qurquramoq fe'li qurq-qurq ovoz chiqarmoq (turna). *Uzoqlarda turnalarning qurqurashi eshitilardi.* (T.Obidov, Yusufjon qiziq).

Qurqurlamoq (burgut). *Burgutlar bazo'r qurqurlab yolg'iz ucha boshladi* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 66-b.).

Qureylamoq fe'li query-quirey degan ovoz chiqarmoq (turnalar ovozi) ma'nosini bildiradi. *Osmoni zaminda qaychiga o'xshab turna karvoni qo'y haydagan cho'pondek qureylab o'tyapti.* (S.Ahmad, Ufq)

Qag'illamoq (qarg'a). *Baqaterak ustida bezovtalanib qag'illayotgan qarg'alarning ham uni o'chdi.* (O'.Hoshimov. Cho'l havosi 161-b.).

Qag'illashmoq (qarg'a). *Nimaga buncha qag'illashadi, nimaga aylanib qolishdi?* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 71-b.).

Chirqiramoq. Qarchig'ay chirqirar baland uyada... ("Erali va Sherali")

Kichik, xonaki qushlarning ovoz chiqarishi bilan bog'liq tovush fe'llari ovoz chiqarilishining yoqimlili, tovush harakatining past tembrda eshitilishi hamda insonlarga yaqinligi bilan ajralib turadi. Ular ovoz chiqarish obyektiga ko'ra quyidagicha guruhlandi va tavsiflanadi.

Chumchuqning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe'llari quyidagi misollarni keltirish orqali, uning kichik qanotli qush turiga mansub hamda ovoz chiqarishi past, chinqiragan sifatga egaligi bilan ajralib turadi. Chumchuqlar – qushlar urug'iga mansub bo'lib, o'n yettita turi mavjud. Rangi har xil: qora, oq, jigarrang va sariq tusi ko'proq. Narining tomog'i qora. O'troq, ko'chib yuruvchi va mavsumiy qushlardan hisoblanadi. O'zbekistonda hind chumchug'i, dala chumchuq, qora tomoq chumchuq, saksovul chumchug'i uchraydi¹⁴⁰. Qushning

¹⁴⁰ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Chumchuqlar>

nomlanishi ham uning onomatopeik asosga egaligi, bu uning ovoz harakatini ifodalashiga ham ko‘chganligini ko‘rishimiz mumkin.

Chirqillamoq. Deraza ortida oqshom tashvishi bilan jonsarak bo‘lib qolgan chumchuqlar tinimsiz chirqillar, yosh o‘rikning qizg‘ish novdalari hamon qattiq-qattiq silkinar edi (O‘.Hoshimov. Nur borki soya bor, 78-b.).

Churqullamoq. Shu sababli, bug‘doyzorni to‘rg‘aylarning vijirlashlari, sa‘valarning sayrashi, chumchuqlarning churqullashlari tutib ketgan ekan. (Sh.Bo‘tayev, Yulduzlarga eltar yo‘l)

Chig‘irlamoq sayramoq, tovush chiqarmoq (qush ovozi). Chumchuqlar zo‘r berib chig‘irlar edi. (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari)

Chiychiylamoq. Oyna opa... chiychiylab uchayotgan qaldirg‘ochlarni loqayd kuzatib turardi. (Sh.Xolmirzayev, To‘lqinlar)

Chiriqlamoq. G‘or oldidan o‘tib ketayotsam, bir gala chumchuq chirqillab yotibdi. A.Ko‘chimov, Halqa.

Chiqirlamoq. Chumchuqcha kelib ketdi. Ushoqlarni yeb ketdi. Chiriq-churuq chiriqlab, Erta kelay, deb ketdi. (U. Bahromova)

Kaklikning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe‘llari o‘nga yaqin fe‘llardan iborat. Kaklik – qirg‘ovulsimonlar oilasiga mansub qush. Rangi yashaydigan joyiga mos bo‘ladi. Tumshug‘i, oyoqlari qizil. Narining oyog‘ida kichkina to‘mtoq pixi bor. Juda hushyor, tez yuguradi, lekin uzoq masofaga ucholmaydi. Tog‘larda yashashga moslashgan. Go‘шти juda mazali, ovlanadi. Dekorativ sayroqi qush sifatida to‘rqafasda boqiladi¹⁴¹.

Kakillamoq aynan kakirlamoq. Kakliklar kakillab to‘rga ilindi.

Kakirlamoq. Kaklik kakirlaydi. Ola qanotli laylakning kakirlab, bahordan xabar berganiga ... anchagina bo‘ldi. Kakkulamoq. Kaklik kakkulaydi.

G‘idg‘idlamoq. Hoji do‘ppili Sulton puchuq takyada boqib yurgan kaklik g‘idg‘idlay boshlaydi. (G‘. G‘ulom, Shum bola)

Chig‘illamoq chig‘-chig‘ tovush chiqarmoq. Kakliklar chig‘illab, tom osha uchib ketishdi. (Sh.Xolmirzayev, Saylanma)

¹⁴¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kaklik>

Musichaning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe'llari. Musicha kaptarsimonlar oilasiga mansub qush hisoblanadi. Dumi uzun, boshqa kaptarsimonlarga nisbatan kichik. Tanasining orqa tomonidagi patlari bir xil kulrang, bo'yni orqasida qora rangli yarim halqasi bor.

Hu-hu tortmoq sayramoq (musicha). Musichalar hu-hu tortib, bulbullar qo'nib, zog'lar uchib, ko'rganlarning bahrini ochibdi. ("Ravshan" dostoni)

Huhulamoq qumri va musichalarning sayrashini ifodalaydi. Musichalar huhulaydi, daraxtlarda, devorlar ustida bir-birini quvlashadi. (A.Qahhor, Sarob).

Kukulamoq (musicha). Tashqarida musichalar kukular, yangi tong otgan edi. (O'.Hoshimov. Nur borki soya bor, 54-b.). *Sayramoq (zag'izg'on). Yong'oq shoxida zag'izg'on sayradi* (O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi, 5-b.). Kichik sayroqi qushlar insonlar tomonidan xonakilashtiriladi, insonning yashash tarziga hamohang tarzda tabiatda mavjud bo'ladi.

Parrandalarga tovuq, bedana, o'rdak, g'oz, kurka kabilar kiritiladi. Ular ovoz harakatining ifodalanishiga ko'ra quyidagicha guruhlanadi va tavsiflanadi:

1. Tovuqning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe'llari: *qaqalamoq, qaqolamoq, qaqillamoq* (makiyon); *qichqirmoq, qaqolamoq, qiyqirmoq* (xo'roz); *chip-chiplamoq, "chip-chip" demoq* (jo'ja) kabilardan iborat:

Qaqalamoq (tovuq). Chipor tovuq ham zo'r tashvish bilan qaqalab, taralib yurgan jo'jalarini qanoti ostiga chaqirardi. (A.Muhiddin, H.Tojiboyev, Otash qalbli qiz)

Qaqillamoq (tovuq). Chipor tovuq shu kunlarda yetilgan... qaqillab yuribdi. (S.Ayniy, Qullar)

Qaqolamoq (tovuq) ayn. qaqillamoq. Tuxum qo'ymagan tovuq ko'p qaqolaydi. (Maqol)

Ququlamoq (xo'roz). Shu asnoda barglari siyraklashgan gujum shoxidagi xo'rozlar ustma-ust ququlab yuborishdi. (M.M.Do'st, Darvoza yonidagi it)

Qichqirmoq (xo'roz). Xo'roz qichqirdi (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 38-b.)

Qaqalamoq – qaqolamoq; qaqillamoq – ququlamoq fe'llari o'zaro fonetik variantdor hisoblanadi. *Qaqillamoq, qichqirmoq* tovush fe'llari insonga nisbatan

qo‘llanganda, salbiy ma’noda *vaysamoq, baland ovoz chiqarmoq* ma’nolarini ifodalaydi.

2. Bedananing ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe’llari. Bedana – tovuqsimonlar turkumining qirg‘ovulsimonlar oilasiga mansub mayda parranda. Erkagining patlari sarg‘ish-qo‘ng‘ir, ko‘ndalang oq-sarg‘ish yo‘lli, tanasining ikki yoni bo‘ylab qizg‘ish yoki qora yo‘llar o‘tadi. Makiyoni qoramtir, ko‘kragida qora yoki qizg‘ish xollari bor bo‘lgan sayroqi qush. Uning ovoz chiqarishi, sayrashini quyidagi tovush fe’llari bilan ifodalanadi.

Bitbildamoq (bedana). *Mezonlar arg‘amchi soldi. Yakkaxon bedana juftini chorlab bitbildadi.* (T.Murod, Momo yer qo‘shig‘i)

Pitbildiq otmoq sayramoq. *To‘qay tomonda bedana pitbildiq otadi.* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 81-b.). Bedana sayroqi qush sifatida ovozinining jarangi, shiraliligi tufayli ham to‘rqovoqlarda uyda boqiladi.

3. G‘oz va o‘rdakning ovoz harakatini ifodalaydigan tovush fe’llari: G‘ag‘alamoq. *G‘ozlar g‘ag‘alaydi.* G‘ag‘illamoq. *Mashina jo‘naydi. G‘ozlar g‘ag‘illaydi.* (A.Qahhor, Og‘riq tishlar) G‘oqg‘oqlamoq. *G‘oz va o‘rdaklar g‘oqg‘oqlab qanot qoqishyapti.*

Parrandalarning (iste’mol maqsadida: go’shti, tuxumi, shuningdek, xonakilashgan, insonga yaqin jonivorlar) ovoz chiqarishi bilan bog‘liq tovush fe’llari insonlarga yaqin bo‘lgani uchun ularning tovushi tilda keng o‘z aksini topadi.

Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Hayvon, parranda va hasharotlarga xos tovush fe’llari onomatopeik kelib chiqishga ega bo‘lib, fonetik jihatdan tabiiy tovushlarga yaqin, yasalish asoslari tovushga taqlid so‘zlardan iborat. Bu fe’llar akustik jihatdan keng ma’noda hayvon va parrandalarga xos tabiiy tovushlar bilan bog‘liq ovoz harakatini ifodalaydi.

2. Til egasi (inson) ba’zan notanish hayvonlarning ovozinini ifodalamasligi ham mumkin, ya’ni barcha hayvonlarga xos tovush harakatlari ifodalanavermaydi. Har bir til antroposentrik jihatdan umumiylikka ega bo‘lib, faqat insonlar uchun ahamiyatli hayvonlarning tovush chiqarish harakatlari tilda o‘z aksini topadi.

O'zbek tilida yovvoyi hayvonlarning ovoz chiqarishi bilan bog'liq tovush fe'llarining soni o'ntacha ekanini aniqladik.

3. Inson uchun muhim bo'lgan hayvonlarning tovush chiqarishi tilda miqdoran ko'p ifodalanadi. Shunga ko'ra, uy hayvonlarining tovushlari bilan bog'liq harakatlarni ifodalovchi tovush fe'llarini quyidagicha guruhlandi: mushukning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari; itning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari; tuyaning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari; otning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari; eshakning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari; qo'y va echkilarning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari; sigir va ho'kizlarning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari.

4. Hasharotlarga xos tovush fe'llarida yoqimsiz shovqin, insonga zarar keltirish kabi ma'nolari ham tilda ifodalanadi. Shunga ko'ra, qo'ng'iz, ari, pasha kabi hasharotlarga xos tovush fe'llari tahlil qilindi.

5. Tilda qushlarning tovushlari bilan bog'liq harakatlarini ifodalovchi fe'llar ko'p. Jumladan, o'zbek tilida ham qushlarning tovushlari bilan bog'liq harakatlarini ifodalovchi fe'llar ellikdan ortiq. Ularni uch guruhga ajratildi: katta, yovvoyi qushlarning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari; kichik, xonaki qushlarning ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari; parrandalarga xos ovoz harakatini ifodalovchi tovush fe'llari.

XULOSA

1. Tovush fe'llarida so'zning tovush va ma'no tomoni uyg'unligi, mutanosibligi yorqin ifodalanadi. Bu tovush fe'llarining subyektiv jihatdan inson, hayvon, parranda, hasharot va narsa-buyum, tabiat hodisalariga xos ovoz harakati yoki holati natijasi sifatida yuzaga kelishi, harakat yoki holat mahsuli bo'lgan tovushni inson sezgi a'zolari orqali aynan ifodalashi bilan tavsiflanadi hamda ichki leksik-semantik guruhlariga bo'linadi.

2. Tovush fe'llari leksik-semantik guruhi tilning ichki manbalari va omillari asosida shakllangan bo'lib, tarixiy-etimologik jihatdan o'z qatlam, xususan, umumturkiy va o'zbekcha leksik qatlamga mansubdir.

3. Tovush fe'llari mazkur turkumga mansub boshqa so'zlar kabi mayl, nisbat, zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik, o'timli-o'timsizlik grammatik kategoriya va shakllarda qo'llanadi va umumiylik kasb etadi hamda ayrim grammatik jihatlari bilan farqlanadi.

4. Tovush fe'llarining salmoqli qismi nominatsion-motivatsion jihatdan onomatopeik xususiyatga ega bo'lib, muayyan harakat va holat natijasida yuzaga kelgan ovozga taqlidni ifodalovchi alohida so'zlardan, asosan, affiksatsiya usulida *asos + so'z yasovchi* modelida, qisman, sintaktik usulda yasaladi.

5. Insonga xos tovush fe'llari uning fiziologik holatlar bilan bog'liq tarzda nutq jarayoni, og'iz, tish, qo'l, oyoq va boshqa tana a'zolari bilan bog'liq shartli va shartsiz ravishda yuzaga keladigan ovoz harakatini, ichki va tashqi ta'sirlarni ifodalaydi. Insonga xos tovush fe'llari miqdoriy va ma'noviy boyligi, ranginligi hamda nutqda faol qo'llanishi bilan boshqa tovush fe'llari guruhidan ajralib turadi.

6. Insonga xos ayrim tovush fe'llari uning tashqi va ichki, xususan, tabiiy, jismoniy, ruhiy-psixologik holati bilan bog'liq tarzda yuzaga keladi va shu jarayonni ifodalaydi, *tabiiy ovoz holati* semasi ostida holat ifodalovchi tovush fe'llari leksik-semantik guruhiga birlashadi va muayyan holat turini bildirishiga ko'ra ichki guruhchalarga bo'linadi.

7. Hayvonlarga xos tovush fe'llari akustik jihatdan keng ma'noda hayvon, parranda va hasharotlarning tabiiy ovoz harakatini ifodalaydi. Hayvonlarga xos ovoz

bilan bog'liq harakatlarni ifodalovchi tovush fe'llari insonlarga nisbatan qo'llanganda, salbiy ma'noda ifodalanadi.

8. O'zbek tilining tovush fe'llar leksik-semantik guruhi boyligi va ko'pma'nolilik, ma'nodoshlik xususiyatlariga egaligi bilan tavsiflanadi. Ularda ko'pma'nolilik o'zaro konversiya, ya'ni hayvon va narsa-buyumlarga xos tovush fe'llarining insonga nisbatan qo'llanishi, aksincha, insonga xos tovush fe'llarining hayvon va narsa-buyumlarga nisbatan qo'llanishi, xususan, metafora usulida ma'no ko'chishi asosida yuzaga kelgan. Albatta, bu holatda tovush fe'llari, asosan, salbiy va ayrim hollardagina ijobiy ma'no ifodalaydi.

9. Tovush fe'llari fonetik jihatdan uslubiy, dialektal variantlarga ega. Tovush fe'llarining fonetik variantlari turkiy, jumladan, o'zbek tili, uning lahja va shevalariga xos $d - t$, $p - q$, $r - l$ kabi va boshqa undosh tovushlar mosligi qonuniyati natijasida yuzaga kelgan.

10. Tovush fe'llari uslubiy xoslanishga ega bo'lib, ijobiy va salbiy ma'no o'ttenkalarida, asosan, so'zlashuv va badiiy uslubda faol qo'llanadi. Ular badiiy uslubda obrazlilik, badiiylilik, ekspressivlik-emotsionallikni ifodalashga xizmat qiladi. Buni ilovada berilgan tovush fe'llariga doir materiallar ham yorqin tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 485 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019, 21 октябрь.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сон “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz
4. Ўзбекистон Республикасидаги маъмурий-худудий бирликлар, аҳоли пунктлари, ташкилотларга ва бошқа топонимик объектларига ном бериш ишларини тартибга солиш тўғрисида // Халқ сўзи. – Тошкент, 2004, 14 август.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

a) milliy nashrlar

5. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.
6. Замоновий ўзбек тили. Морфология / Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2008. – 468 б.
7. Каримов С. Ўзбек тилининг фонетик стилистикаси. - Самарқанд: СамДУ нашри, 2016. – 160 б.
8. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 145 б.
9. Махмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик ассиметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 148 б.
10. Миртожиев М. Ўзбек тилидаги феъл валентликлари. – Тошкент, 2007 – 64 б.
11. Муҳамедова С. Ўзбек тилида ҳаракат феъллари семантикаси ва валентлиги. – Тошкент: ФАН, 2013. – 120 б.

12. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: ILM ZIYO, 2015.
13. Нурмонов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – I ж. – 288 б.
14. Нурмонов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – III ж. – 288 б.
15. Нурмонов А. Ўзбек тили назарий грамматикаси. – Тошкент, 2010.
16. Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъли ва унинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989. – 142 б.
17. Расулов Р., Атиязов С. Ўзбек тили феълларининг маъно тузилиши. Тошкент. 2012. – 142 б.
18. Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. – Тошкент: Университет, 2002 – 142 б.
19. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси таъмоили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004 – 142 б.
20. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Бухоро: Бухоро университети нашриёти, 2006. – 226 б.
21. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966.
22. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари асосида). – Тошкент: Фан, 1977. – 168 б.
23. Ғуломов А.Ғ. Феъл. – Тошкент: Фан, 1954. – 88 б.
24. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаиши тизими. – Тошкент: O'qituvchi, 2007. – 168 б.
25. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. – Тошкент: Фан, 1966. – 190 б.
26. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида тўлиқсиз феъл. – Тошкент: Фан, 1966. – 226 б.
27. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – 190 б.
28. Ҳожиёв А.П. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – 192 б.

b) xorijiy nashrlar:

29. Aronoff M. Morfology now. – Albany, New York: Sunny Press, 1992. – 36 p.
30. Bybee J. The Evolution of Grammar: tense, aspect and modality in the languages of the world / Bybee Joan, Revere Perkins and William Pagliuca. – Chicago & London: The University of Chicago Press, 1994. – 398 p.
31. Дмитриев Н.К. Строй тюрских языков. – М., 1962. – С. 570-598.
32. Елмъслев Л. Прологомены к теории языка // Новое в лингвистике. – Вып. I. – М., 1960.
33. Fries Ch. The Structure of English. – London, 1963. – 214 p.
34. Филин Ф.П. О лексико-семантических группах слов // Языковедские исследования в чест на акад. Стефин Младенов. – София, 1957. – С.525.
35. Hill P. An Instant Approach to English Grammar. – Hong-Kong, 2002. – 241 p.
36. Huddleston R., Pullum J.K. Grammar of the English Language. – New York: Cambridge University Press, 2002. – 292 p.
37. Jespersen O. Essentials of English Grammar. – London: Allen & Unwin, 1933, – 210 p.
38. Joos M. The English Verb: Form and Meaning. – Madison: University of Wisconsin Press, 1964. – 262 p.
39. Камарова А.Э. Звуков животных в калмыцком языке. – М.; Language of Slavic Culture. 2015. – С. 218-234.
40. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1960. – 187 с.
41. Кузьменко Е.А. Глаголы звуков животных в греческом языке. – М.: Language of Slavic Culture, 2015. – С. 97-106.
42. Кулиев Г. Глагольное управление в азербайджанском и туркменском языках. – Баку, 1968. – С.9-13.
43. Кулиев Г. Звукоподражательные и изобразительные слова в туркменском языке. – Ашхабад: Ылым, 1969. – С. 37-45.

44. Clark A.M. Spoken English. – London: Oliver & Boyd, 1947. – 115 p.
45. Close R.A. A Reference Grammar for Students of English. – M., 1979. – 372 p.
46. Kemmer S. The middle voice // Typological Studies in Language, – Amsterdam: John Benjamin's Publishing company, 1993. – 155 p.
47. Лучина Е.С., Баранова С.М. Глаголы звуков животных в идише. – М.: Language of Slavic Culture. 2015. – 496 с.
48. Levin. B. English verb classes and alternations. University of Chicago Press, 1993. – 366 p.
49. Максимова А.О. Армянские глаголы звуков животных. – М.: Language of Slavic Culture, 2015. – 496 с.
50. Newings M. Advanced Grammar in Use. – New York: Cambridge University Press, 2002. – 240 p.
51. Osten Dahl. Tense and aspect systems. – Oxford: B. Blackwell, 1985. – 213 p.
52. Palmer F.R. A Linguistic Study of the English Verb. – London: Longmans, 1965. – 199 p.
53. Poustma H.A. Grammar of Late Modern English. Part II. – Groningen: P. Noordhoff, 1926. – 260 p.
54. Pulvermyuller, F. Brain mechanisms linking language and action. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 496 с.
55. Соссюр. Ф. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс. 1977.
56. Stork, Nigel E. (7 January 2018). "How Many Species of Insects and Other Terrestrial Arthropods Are There on Earth?". *Annual Review of Entomology*. 63 (1): 31–45.
57. Swan M., Walter K. English Grammar. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
58. Trier J. Einleitung // Der deutsche wortschaAts im sinnbezirk des Verstandes. – Heidelberg. 1931. – P. 417-425.
59. Васильев Л.М. Семантические классы русского глагола: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – М., 1971. – 296 с.

60. Выренкова А.С. Звуки животных в английском языке – М.; Language of Slavic Culture. 2015. – 496 с.
61. Выренкова А.С. Звуки животных в английском языке. – М.: Language of Slavic Culture, 2015. – 296 с.
62. Warriner John.E. English Grammar and Composition. – The USA: Harcourt, Brace and Company. Inc. 1958, – 655 p.
63. Харитонов Л.Н. Звукоподражательные глаголы якутского языка. – М.: Наука, 1982. – 296 с.
64. Харитонов Л.Н. Типы глагольной основы в якутском языке. – М.: Наука, 1954.
65. Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1962. – С.151–180.
66. Юлдашев А.А. Лексикографирование звукоподражательных и образных слов. – М.: Наука. 1972. – 163 с.

III. Lug‘atlar

67. Dadaboyev H., Abjalova M., Rashidova U. O‘zbek tili sinonimlarining o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Bookmany print. 2023. – 507 b.
68. Древнетюркский словарь. – Л., 1969. – 696 с.
69. Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: СЭ, 1990. – С.380.
70. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
71. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (Форсча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2009. – III ж. – 284 б.
72. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М., 1974. – I т. – 595 с.
73. O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – I j. – 502 b.

74. O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – II j. – 487 b.

75. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – I j. – 964 b.

76. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – II j. – 1036 b.

77. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – III j. – 844 b.

78. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – IV j. – 824 b.

79. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – V j. – 864 b.

80. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – VI j. – 864 b.

81. Ўзбек тилининг имло луғати / Тузувчилар: Э.А.Бегматов, А.П.Мадвалиев; Н. Маҳмудов таҳрири остида. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 520 б.

82. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – 8-ж. – 561 б.

83. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 9-ж. – 704 б.

84. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 5-ж. – 608 б.

IV. Badiiy adabiyotlar

85. Aytmatov Ch. Oq kema. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 164 b.

86. Hoshimov O‘. Bahor qaytmaydi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 280 b.

87. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 336 b.

88. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 749 b.
89. Имом Абу Ҳомид Ғаззолий. Ихёул-улум. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2014. – 512 б.
90. Имом Абу Ҳомид Ғаззолий. Ихёул-улум. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2014. – 512 б.
91. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. Алпомиш, I жилд. – Тошкент: 2015. – 568 б.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar

92. Абдуллаева Д. Семантик-синтактик валентлик ва ўзга гапли курилмалар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд: СамДУ, 2002. – 22 б.
93. Абузалова М.К. Субстанциал морфология, валентлик ва синтактик курилма: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – 32 б.
94. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан д-ри ... дисс. – Тошкент, 1997. – 251 б.
95. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 51 б.
96. Воққосова Д. В. Ўзбек тилидаги анемонимларнинг семантик таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Фарғона, 2005. – 29 б.
97. Воққосова Д.В. Ўзбек тилидаги анемонимларнинг семантик таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2005 ва бошқалар.
98. Жабборов Х. Ўзбек тилининг деҳқончилик лексикаси: Филол. фан. докт.... дисс. автореф. – Тошкент, 2017 – 32 б.
99. Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон асосида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 29 б.
100. Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон асосида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999.

101. Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний маъно сифатида ўрганиш (шахс микромайдони) Фил. фан. дис. –Тошкент 1999. – Б. 266

102. Каримжонова В.А. Ўзбек тилида ўрин келишликли бирикмалар семантикаси: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 24 б.;

103. Кучкартаев И.К. Семантика глаголов речи в узбекском языке (компонентный и валентный анализ): Дисс. ... д-ра. филол. наук. – Ташкент, 1977. – 168 с.

104. Қурбонова Б.Қ. Локаллиқ ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007;

105. Мирзақулов Т.Ў. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси: Филол. фанл. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 28 б.

106. Мирзақулов Т.Ў. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол. фан. докт. ... диссер. автореф. – Тошкент, 1996. – 145 б.

107. Мусаев Т.Т. Ўзбек тилидаги сезги феъллари: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1992. – 145 б.

108. Мухитдинова Х.С. Глаголы звучания в узбекском языке: Диссер. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1979. – 203 с.

109. Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида йўналма ҳаракат феълларининг предикативлиги ва валентлиги: Филол. фан. ном. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 22 б.

110. Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантикаси ва валентлиги: Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2007. – 325 б.

111. Нарходжаева Х.Ш. Ўзбек тилида жараён англатувчи терминларнинг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент, 2017.

112. Норбаева Ш.Х. Хоразм шеваларидаги кийим-кечак номларининг структур-семантик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс.автореф. – Тошкент, 2017.

113. Наримова Г.А. Ўзбек тилида феълларнинг объект аргументи: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005.
114. Неъматова Г.Ҳ. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадиий қўлланилиши: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998.
115. Нишоновна Н.Р. Ўзбек тилида “ҳайвон” архисемали семемалар майдонининг мазмуний тадқиқи: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.
116. Отабоева М. Ўзбек ва инглиз тилларида феъллар градуонимияси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Андижон – 2022. – 168 б.
117. Пазлиддинова Н.З. Ўзбек тили фитонимларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт.. дисс. автореф. – Фарғона, 2018.
118. Расулов Р. Глаголы состояния в узбекском языке и их валентность: Автореф. дисс. филол. наук. – Ташкент, 1989. – 34 с.
119. Собиров А. Ш. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифатида тадқиқ этиш: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – Б.11.
120. Сафаров Ф.С. Ўзбек тилида сон-микдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004
121. Сиддиқов З.У. Ўзбек ва турк тилларида қўрув лексемалари семантикаси: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 27 б.
122. Уракова З.С. Маскан отларининг луғавий-маъновий гуруҳи ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2011.
123. Ўринова О.Т. Ўзбек тилидаги қорамолчилик терминларининг лексиксемантик тадқиқи. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2007.
124. Ҳакимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари: Фил. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2004.
125. Ҳожиева Ҳ. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 2001;

126. Шарипова Ў. Ўзбек тилидаги юмуш феълларининг маъно валентликлари: Филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1996. – 152 б.

127. Элмурадова Л.Н. Ўзбек тилида даража функционал-семантик майдони (белги даражаси микромайдони): Филол.фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011.

128. Эргашова М.В. Ўзбек тилида локум ва локализация муносабати: Филол.фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011.

VI. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar:

129. Абдувалиев М. Тўсиқсизлик майдони ва уни ташкил этувчи синтактик бирликлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998. – №4. – Б. 62-66.

130. Балалаева Е.Ю. Лингвистические причины деэтимологизации звукоподражательных глаголов // Современные исследования социальных проблем. – 2020. – № 3(31).

131. Mahmudov N. Sinonimlar – til zanginligi va ranginligi ko‘zgusi // O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 504 b.

132. Мухитдинова Ҳ. Таклид сўзлар ва ундовдан ясалган феъллар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. – №3. – Б. 52-54.

133. Раҳматуллаев Ш. Лексика ва фразема маъноси компоненти таҳлилининг баъзи натижалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1979. – №2 – Б. 19-24.

134. Саидрахимов К. Ҳайвон ҳаракатини ифодаловчи феъллар семантикаси // Тилшунослик ва адабиётшуносликнинг долзарб масалалари. – Андижон: АнДУ, 2002. – Б. 183-185.

VII. Internet saytlari

135. <http://ziyouz.uz>.

136. <http://www.dissercat.com>.

137. Hasharotlar o‘simlik ovozi eshitadimi? //

<https://azon.global/uz/posts/zehniyat>

138. <http://grammar.about.com/od/tz/g/verbterm.htm>;
<https://www.thought.com/verb-definition>.
139. Hayvonlar bir-birini tushunadimi? // <https://sinaps.uz/bilasizmi>
140. Hayvonlar haqida 160 ta qiziqarli ma'lumotlar // <https://uz.kuzminykh.org/1458-160-interesting-facts-about-animals.html>
141. <https://opentran.net/uz/dictionary/hasharot.html>
142. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/rezonans>
143. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Tovush_\(musiqa\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Tovush_(musiqa))
144. Qushlar haqida qiziqarli ma'lumotlar // <https://www.samdu.uz/uz/news>
145. Qushlar nega sayraydi? // <https://sinaps.uz/bilasizmi/2905/>
146. Qushlarning sayrashi haqida ajoyib faktlar // <https://uz.featuresbusiness.com>
147. <https://opentran.net/uz/dictionary/hasharot.html>
148. https://translated.turbopages.org/proxy_u/en-uz.ru.
149. O'zbekiston qushlar duyosi // <https://ifazo.uz/>
150. <http://grammar.about.com/od/tz/g/verbterm.htm>;
<https://www.thought.com/verb-definition>.
151. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/rezonans>
152. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Tovush_\(musiqa\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Tovush_(musiqa))
153. [http://ziyonet](http://ziyonet.uz), uz.

O‘zbek tilidagi tovush fe’llarining izohli lug‘ati

~ A ~

Akillamoq itga xos baland, takroriy ovoz chiqarishini bildiradi. *Ko‘chaning ikki chetida shovullab turgan teraklar orasida oy ularga ergashar, olis-yaqinda itlar akillar edi* (O‘.Hoshimov. Shamol esaveradi, 242-b.). *Hovli etagida yotgan buzoqdek ovcharka vahshatli akillab darvozaga yugurdi* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 232-b.). **Ko‘chma**. Insonga nisbatan qo‘llanganda, javramoq, vaysamoq fe’llari bilan sinonim bo‘ladi. – *E – e, akillay berasanda. Safar, dedi buqoq, - biz nima deyapmiz-ki, sen nima deyapsan?* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon)

Aksa urmoq ayni aksirmoq. *Ermon buva tirnoqlari qiyshayib ketgan barmoqlarini hidlagan bo‘ladi-da, ataylab aksa uradi* (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 67-b.).

Aksirmoq, aksa urmoq, chuchkurmoq. *Mavlono Shahobiddin aksirib, rutubatdan shikoyatlandi.* (Oybek, Navoiy).

Apshurmoq kam qo‘llanadi, ayni aksirmoq.

Arillamoq 1. So‘zlashuv tilida: baqirib yig‘lamoq, hadeb yig‘layvermoq, ar-ar qilmoq (bola haqida). *Bola arillayapti.* 2. Folklorda pishqirmoq (ot haqida). *Og‘zini karrakday ochgan arillagan arg‘imoq otlarning har qaysisi tomday keladi.* (“Avazxon” dostonidan).

Arqiramoq folklorda: qudratli tovush chiqarmoq, na’ra tortmoq, pishqirmoq. *Arqiragan erday bo‘lib bordi devlarning ustiga* (“Malikai ayyor” dostonidan).

Ayqirmoq shiddatli hayqiriq chiqarmoq (suvning oqishi). *Sho‘xsoy qishloqning qoq belidan ayqirib oqadi* (H.Nazir, So‘nmas chaqmoqlar).

Angillamoq itning og‘riqdan chiqaradigan ovozini ifodalaydi: ang-ang qilmoq. *Jo‘raboshi yerdan kesak olib otgan edi, it angillab qochdi.* (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 182-b.)

~ B ~

Babalamoq ba-ba degan ovoz chiqarmoq (qo‘y). *Bu tomonda jimjitlik, u tomonda qo‘ylar tinimsiz babalamoqda.* (A.Obidjon, Ajinasi bor yo‘llar)

Baqirlamoq baqir-buqur ovoz chiqarib qattiq qaynamoq. *Choydosh baqirlab qaynab ketdi.* (P.Qodirov, Qora ko‘zlar)

Baranglatmoq urilish natijasida ovoz chiqartirmoq. *Shampan shishasini baranglatib yorib yubordi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 173-b.)

Bang‘illamoq shu kabi ovoz chiqarmoq. *G‘art-g‘urt... Nuqul bang‘illaydi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 45-b.)

Bibiblatmoq “bib-bib” ovoz chiqartirmoq. *U navbatdagi mashinani quvib o‘tarkan, signalni bibiblatdi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 178-b.)

Bidillamoq. *Qo‘zivoy goh Sherzodga, goh menga qarab bidilladi* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 421-b.).

Bilqillamoq ko‘pchib yoki qaynab “bilq-bilq” tovush chiqarmoq. *Bilqillab qaynayotgan dekchadan xushbo‘y hid dimog‘iga gup etib urdi* (H.Nazir, So‘nmas

chaqmoqlar). Ko'chma ma'noda: semiz, to'lishgan holda bo'lmoq. *Yo'llardagi tizza bo'yli tuproq bilqillab qaynaydi.* (J.Sharipov, Xorazm)

Bilchillamoq "bilch-bilch" ovoz chiqarmoq (suyuq loy, loy aralash suv yoki qotib ulgurmagan qon haqida). *Sho'rxok suv bilchillab yotgan to'qay ichidan yugurib borarkanman, chap oyog'im yerga muzdek tegayotganini payqadim.* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi 45-b.)

Biqillamoq uzuq-uzuq va bo'g'iq tovush chiqarmoq, biqillagan ovoz chiqarmoq (qaynab turgan quyuq narsalar haqida). *Biqillab qaynayotgan buloqqa uning chetlaridagi mayin o'tlarga tikilib xayolga toldim.* (O.Yoqubov, Ayamajuz)

Biqirlamoq ayni biqillamoq. Qozon qattiqroq biqiray boshladi (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 134-b.). *U ozroq o'tin terib hamrohlari yoniga kelganda, dekchada sho'rva qaynayotgan edi.* (M.Osim, Ibn Sino qissasi)

Bitbildamoq (bedana). *Mezonlar arg'amchi soldi. Yakkaxon bedana juftini chorlab bitbildadi.* (T.Murod, Momo yer qo'shig'i)

Biyovbiyovlam qushlarning "biyov-biyov" degan tovush chiqarishini bildiradi. *Bir sayroqqush o'rik tepasiga qo'nolib, shu biyovbiyovlayapti, laqovlaqovlayapti!* (M.Mansur, Judolik diyori)

Bizillamoq bizillagan tovush chiqarmoq (hasharotlar haqida). *Na bir qush sayraydi, na bir bizildoq bizillaydi.* (S.Nurov, Narvon)

Big'illamoq qattiq yig'lamoq. *Bola big'illab yig'lar, Munira esa bunga e'tibor bermasdi* (F.Musajonov, Himmat). – *Nima yomonlik qildi senga? – dedi big'illab.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 36-b.)

Bozillamoq boz-boz, viz-viz ovoz chiqarmoq, vizillamoq. Ko'chma ma'noda: juda ham qizimoq, isimoq. *Bozillagan tancha joniga orom berdi.* (Mirmuhsin, Umid)

Bulkullamoq. Shevada ovqatning sekin, mildirab qaynashini ifodalaydi. *Shavla bulkullab qaynab turibdi.*

~ D ~

Dang'illamoq dang'-dung' ovoz chiqarmoq. *Daxmazali devoriy soat ikki marta dang'illadi.* (A.Qahhor, Tanish basharalar)

Darang'lamoq ayni daranglamoq. *Devoriy soat darang'lab o'n birga jom urganda Saidiy o'rnidan turdi.* (A.Qahhor, Sarob)

Daranglamoq daranglagan ovoz chiqarmoq. *Tunuka tom daranglab ketdi.* (O'.Hoshimov. Qalbingga quloq sol). *Hovli tomondan paqir bandining daranglagani eshitildi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 226-b.)

Darillamoq dar-dar ovoz chiqarmoq (varrak haqida). *Boshamagi baquvvat bo'lsa, dardiragi darillaydi* (Maqol).

Depsamoq, depsimoq, depsinmoq oyoq harakati natijasida dup-dup ovoz chiqarmoq.

Dildiramoq inson sovuqqotganda titrash natijasida dir-dir ovoz chiqarmoq,-. *Qosh qorayganda yupun kiyingan odamlar qunishib, dildirashib, choyxona tomon kela boshladi.* (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari)

Ding'illamoq musiqa asbobidan chiqadigan ovoz harakatini ifodalaydi. *Do'mbirani chalganimda, undan ding'illab oqqan ovoz go'yo yuragimdan chirqirab chiqqan kuy singari sezildi* (Gazetadan).

Ding'irlamoq cho'ziq, titragan jarangdor tovush chiqarmoq. *Mana, shamol ham g'ivillab qoldi, – dedi choyxonachi chelakni barmoqlari bilan ding'irlatib.* (Oybek, Oltin v.sh.)

Dirillamoq titrash, tebranish natijasida dir-dir ovoz chiqarmoq. *Nazarov stolga bir musht tushirdi. Piyola dirillab ketdi* (A.Ko'chimov, Halqa).

Dodlamoq 1 ruhiy yoki jismoniy azobga chiday olmay, qattiq ovoz chiqarmoq, baqirmoq. *Xotin kishining dodlagani, erkak kishining so'kingani eshitildi.* (O'.Usmonov, Sirli sohil). 2 Qattiq ovoz chiqarib yig'lamoq. *Sanobar xola soch yulib dodladi, yig'ladi, siqtadi* (S.Zunnunova, Olov). 3 Yordamga chaqirib dod solmoq. *Dodlab yordam chaqirishga izzat nafsini yo'l qo'ymasdi* (M.Osim, Ibn Sino qissasi).

Dovul qoqmoq (chalmoq) qattiq, daxshatli ovoz chiqarmoq, gumburlamoq. *Ixtiyorim hech bir kasga bermadim, Dovul qoqib, shunqorimni chuymadim.* (“Erali va Sherali”)

Dovushlamoq xalq og'zaki ijodida qichqirmoq, tovush chiqarmoq, chaqirmoq ma'nolarida qo'llanadi. *To'xta, zolim! – dedi ham dovushladi.* (“Erali va Sherali”)

Dudulamoq dud-dud degan ovoz chiqarmoq. *Shu payt mashinada dudulab, ikki bola ura qochib qolishdi* (H.Ahmar, Kim haq?).

Dukullamoq “duk-duk” etgan ovoz chiqarmoq. *Uning [Mirvali] yuragi dukullab ura boshladi.* (S.Ahmad, Jimjitlik)

Duduqlamoq duduqlashish: tovush chiqarishning qiyin va davomiy holati, gapirishdagi titrash va to'xtashlarni, talaffuz qilishni ifodalaydi. *O-o-otim T-s-solijon... - dedi duduqlanib.* (“S”ga “T”ni qo'shib gapirmasa, tili aylanmas ekan) (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 240-b.). *O'rozqul duduqlanganicha Qulibekning oyog'iga yiqildi.* (Ch.Aytmatov. Oq kema 151-b.)

Dudulamoq dud-dud degan ovoz chiqarmoq. *Mashina sayrgohga kirib bordi va dudulaganicha odamlarni oralab daryo tomon yo'naldi.* (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari)

Dukurlamoq dukur-dukur ovoz chiqarmoq (yurak urishi). *Shu dukurlash sekin-sekin oyoq tovushiga mubaddal bo'lib, Anvarning quloqlari tikkaydi.* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon)

Dupullamoq “dup” etgan ovoz chiqarmoq. *Devor dupullab yiqildi.*

Dupurlamoq qattiq, baland va zarbli tovush chiqarishni ifodalaydi. *Pol birdan dupurladi.* (S.Nurov, Narvon)

Dursillamoq obyektlarning bir-biriga urilib, to'qnashishidan natijasida zarbli tovush chiqarishni bildiradi. *Tulpor boradi harsillab, tuyog'i yerga dursillab* (“Malikayi Ayyor”).

Do'ng'illamoq do'ng' etgan ovoz chiqarmoq. Ko'chma ma'noda esa noaniq yoki qo'pol gapirmoq. *Kampir yana do'ng'illadi* (M.Ismoilov, Farg'ona tong otguncha).

Do'pillamoq “do'p-do'p” ovoz chiqarmoq. *Uni hali ko'rmasdan butun gavdam o't bo'lib, yuragim chopqir otlar izidek do'pillaydi* (Hamza, Asarlar).

Do'pillatmoq qattiq keskin chiqadigan tovush chiqarishni ifodalaydi: *to'pni do'pillatmoq.* Ko'chma ma'noda ayovsiz tanqid qilmoq, kuchli koyimoq. *Meni do'pillatib qolsa-ya...* (A.Muhiddin, Ko'ngillar)

Do‘pirllamoq qattiq takrorlanuvchi tovush chiqarmoq, aynan do‘pillamoq.

Do‘qillatmoq qattiq, baland, birdaniga tovush chiqarishni bildiradi. *Tog‘am qo‘ltiqtayog‘ini do‘qillatib kirib keladi* (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 93-b.).

Do‘q etmoq zarb bilan urish natijasida chiqadigan tovush chiqarishni bildiradi. *Choynakni ko‘tarib chiqdi-da, do‘q etib qo‘ydi*. (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 278-b.)

Do‘rillamoq davomli, baland, gumburlagan tovush chiqarishni ifodalaydi. *Mana, urish! – dedi Zebi xola do‘rillab*. (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 180-b.)

~ G ~

Gijbanglatmoq baralla yangratib chalmoq (childirma). *Childirmani gijbanglatib o‘ynayman*.

Gudok bermiq signal chalmoq, ovoz chiqarmoq. *Parovoz uzoq gudok berib joyidan qo‘zg‘aldi*. (M.Muhamedov, Qahramon izidan)

Gulduramoq 1. Momaqaldiriq ovoz harakatini ifodalaydi. *Momaqaldiriq guldurlaydi*. 2. Momaqaldiriqqa o‘xshash ovoz chiqarmoq. *Oqsoqolning ovozi guldiradi* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 153-b.).

Gumburlamoq portlashga o‘xshash kuchli va davomli ovoz chiqarmoq. *Momaqaldiriq tag‘in gumburladi* (O‘.Hoshimov. Shamol esaveradi, 217-b.). *O‘sha zahoti yer-u ko‘kni titratib, momaqaldiriq gumburladi*. (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 207-b.)

Gumburlatmoq gumbur-gumbur ovoz chiqartirmoq. *Uning ovozi uy ichini gumburlatdi*.

Gupguplatmoq gup-gup ovoz chiqartirmoq. *Tomdagi g‘o‘zapoyani gupguplatib tushirdi*.

Gupullamoq gup-gup ovoz chiqarmoq. *Qirqkokil sochining yarmisi yelkasidan oshib yerga tegay-tegay deb turibdi. Yuzini aniq ko‘rmasam ham yuragim gupillab ketdi*. (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 239-b.). **Ko‘chma ma’noda** anqimoq, isi kelmoq. *Yaqinroq kelgan kishi og‘zidan arzon vino hidi gupillayotganini sezadi*. (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 219-b.).

Gupurlamoq gupur-gupur ovoz chiqarmoq. *Yorni ko‘rsa, yuragi gupurlaydi*.

Gursillamoq gurs-gurs ovoz chiqarmoq. *Yuragim gursillab urgancha xayolan shunday deb hayqirdim*. (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 33-b.)

Gurs etmoq yiqilish va urilish natijasida chiqadigan tovush harakatini ifodalaydi. *U muvozanatini yo‘qotib yonboshga gurs etib yiqildi*. (S.Ahmad. Jimjitlik 51-b.)

Gurullamoq “gur” etgan ovoz chiqarmoq. *Ko‘chaning ikki chetidagi uylar gurullab yonyapti*. (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 185-b.). *O‘choqda olov gurillayapti* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 472-b.). *Motor gurilladi*. (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 237-b.). **Ko‘chma ma’noda**: ravnaq topmoq, barq urib rivojlanmoq, taraqqiy etmoq. *Savdo gurullagan... Har kuni ulfatchilik, bazm*. (A.Qahhor, Og‘aynilar)

Guvlamoq guvvv degan ovoz chiqarmoq 1 Suv oqishi. *U qo‘lini shop qilib, guvlab oqayotgan soyni ko‘rsatdi-yu, birdan quvonch bilan qiyqirib yubordi*. (A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola) 2. Traktor ovozi. *Paxtazor oralab traktor guvlar, esh va inoq to‘p qiz peshona bog‘liq*. (Mirtemir)

Guvranmoq 1. Chaqaloqning noaniq ovoz chiqarishini ifodalaydi. *Chaqalog'im guvranyapti.* 2. Tushunib bo'lmaydigan ovoz chiqarmoq, g'o'ldiramoq. *Uchi to'ziq dumini tagiga yig'ib olgach: "Ha, jinqarchaxon, taxtga o'tirgilari kepqoldimi?" – deb guvrandi.* (A.Obidjon, Kezorgan Boychechak)

Guvullamoq 1. Guv etgan ovoz chiqarmoq (tabiat hodisalari, texnika asboblari h.k.) *Guvullab olov yonyotgan tandir tagidan teshani topib, yapasqi g'isht ustida danaklarni chaib yedim* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 23-b.). *Shamol guvullar, tashqarida havo ochilib ketgan edi* (O'.Hoshimov. Nur borki soya bor). 2. Kuchaymoq, balandlamoq ma'nosida qo'llanadi. *Yana qarsak guvulladi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 454-b.).

~ H ~

Hahalamoq 1. Hayvonlarni yurgazish va tezlatish natijasida ha-ha deb, tovush chiqarmoq. *Eshakni hahalab qishloqqa ketdi.* 2. Biror ishga rag'batlantirish, dalda berish ma'nosida: *Mo'rdak arava yana tepalikka ko'tarildi; aravakash bilan navkarlar hahalab, otga qamchi urishdi.* (Mirmuhsin, Cho'ri).

Hakaklamoq hakak-hakak deb ovoz chiqarmoq (hakka). *Sezdiki, u [hakka] eshik oldidagi gujum shoxida hakaklamoqda.* (E.Samandar, Jazo)

Halloslamoq qattiq harakat yoki yugurish tufayli tez-tez va chuqur nafas olmoq, hansiramoq. *Bir mahal Kimsan akam halloslab kelib qoldi. Xuddi shu payt "Po-vago-nam" degan asabiy qichqiriq yangradi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 95-b.).

Hansiramoq yugurish, og'ir yuk ko'tarish, havo yetishmasligi, hayajonlanish va sh.k. tufayli tez-tez kuchli nafas olmoq; halloslamoq, harsillamoq. *Oqsoqol og'zini kappa-kappa ochib hansirab turdi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 165-b.).

Harsillamoq hars-hars ovoz chiqarmoq. *Toshpo'lat hamon to'xtamas, harsillab yugurib borar, sirg'anib- sirg'anib ketardi* (O'.Hoshimov. Sirli yulduz 205-b.).

Hayhaylamoq 1. Hayvon va qushlarni haydash uchun "hay-hay" deb qichqirmoq; biror ishga yordamlashish maqsadida turli ovozlar chiqarmoq. *Seyalka haydovchilarining otlarga hayhaylagan ovozlari eshitilardi* (P.Tursun, O'qituvchi). 2. Biror nojo'ya ish-harakatdan qaytarish maqsadida baqirib chaqirmoq. *Marasul Nasibani urmoqchi bo'lganda, Zargarov hayhaylab qo'ymadi.* (A.Qahhor, Og'riq tishlar)

Hapillatmoq shosha-pisha yemoq, hap-hap ovoz chiqarmoq. *U (Abdullox) hamma bolalar kabi balxtutga o'ch, yarim chelagini hapillatib yevorar...edi.* (H.G'ulom, Toshkentliklar).

Hayqirmoq qattiq shiddatli ovoz chiqarmoq. *Hoji so'zini tugata olmadi, hojining ters so'ziga chidolmagan Azizbek vahshiylarcha hayqirdi.* (A.Qodiriy, O'tkan kunlar) *Dydaya Vasya hayqiradi: Beregis, eta nash!* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 181-b.). Ko'chma ma'noda: shiddatli harakat tufayli qattiq ovoz chiqarmoq (jonsiz narsalar haqida): *Dara ostida hayqirib, paravozday pishqirib soy oqmoqda.* (H.Nazir, So'nmas chaqmoqlar)

Hangillamoq 1. Eshakning "hang-hang" ovoz chiqarishini ifodalaydi: *Bobomning eshagi ilgari boshqacha edi. Ko'cha boshiga yetishi bilan "eshitib qo'yinglar, biz kelyapmiz" degandek, ovozini baralla qo'yib hangillardi.*

(O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 130-b.). 2. Bo'shab qolmoq, ship-shiydon bo'lmoq. *Uy o'g'ri tushgandek hangillab qolibdi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 186-b.).

Hangramoq 1. Hang-hang ovoz chiqarmoq (eshak ovozi). *Afandining eshagi ko'priikka yetganda hangrab yubordi* ("Latifalar"). *Uzoqdan eshak hangragani eshitiladi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 48-b.) 2. Eshak ovozigacha taqlid qilmoq, baqirmoq. *Bir kuni boyvachchalar menga, emaklab hangra, deyishdi.* (H.Tursunqulov, Hayotim qisqasi)

Hehelamoq he-he degan ovoz chiqarmoq (istehzoli kulgi). *Usta hehelab kuldi.*

Hihilamoq hi-hi degan ovoz chiqarmoq (yengil samimiy kulgi). *Kampir hihilab, nabirasiga qaradi.*

Hilpiramoq silkinib tebranish natijasida hilp-hilp ovoz chiqarmoq (yengil va mayin narsalar harakati). *Hamma derazalar lang ochiq. Yengil shabadadan darpardalar hilpiraydi.* (R.Azizxo'jayev, Yashil chayla)

Hiqhiqlamoq hiqhiq ovoz chiqarib yig'lamoq. *Bola hiqhiqlab turaverdi.*

Hiqillamoq 1. Hiq-hiq ovoz chiqarmoq. *Bir mahal eshikka yaqinroq joyda xotin kishi hiqilladi:* - *Ochilim, bolaginam.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 199-b.) 2. Yetishish talabida bo'lmoq, zorlanmoq. *Qumriniso o'lgur "Burushgan, tirishgan basharamizni ko'rgani kim hiqillab turgan ekan", deb qochib ketdi.* (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari)

Hiringlamoq "hiring-hiring" ovoz chiqarmoq, kulmoq. *Mamat hiringlab kuladi* (O'.Hoshimov. Cho'l havosi 189-b.).

Hingillamoq ayn. hiringlamoq. *Himngillab kulishar, kattalardek qo'llarini harakatga solib gaplashishar va yana kulib qo'yishardi.* (Mirmuhsin. Umid)

Hingirlamoq ayni hiringlamoq. *Nurillo og'zini kafti bilan to'sib hingirladi.* (U.Hamdani, Muvozanat)

Hovullamoq kam qo'll. ayn. vovullamoq. *G'azablangan kuchuklarning hovullashi, tomoshachilarning qiyqirishi ko'kni qoplaydi.* (Oybek, Tanlangan asarlar)

Hoholamoq baland ovoz chiqarib kulmoq. *"Dux" qancha o'kirsa, yigitlar shuncha zavqlanib hoholar edi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 101-b.)

Huhlamoq "huh" deb nafas chiqarmoq. *Buni ko'rib, "To'ymas" uyga kiradigan bo'ldik, deb sevindi; u ham qo'lini og'ziga tutib, huhlaganicha, eshik tomonga kelaverdi.* (Oydin, Hazil emish)

Hu-hu tortmoq sayramoq (musicha). *Musichalar hu-hu tortib, bulbullar qo'nib, zog'lar uchib, ko'rganlarning bahrini ochibdi.* ("Ravshan" dostoni)

Huhulamoq qumri va musichalarning sayrashini ifodalaydi. *Musichalar huhulaydi, daraxtlarda, devorlar ustida bir-birini quvlaydi.* (A.Qahhor, Sarob).

Hurq-hurq qilmoq "hurq-hurq" ovoz chiqarmoq. *Shundoq yotoqxonaning o'ziga olib kirilgan megajin hurq-hurq qilib, kechasi bilan uyqu bermaydi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 53-b.)

Huvhuvlamoq qumri, g'urrak kabi qushlarning ovoz harakatini ifodalaydi.

Huvullamoq I Ovoz chiqarib esmoq (shamol, izg'irin). *Allaqaysi eshikdan huvullab sovuq kiradi.* (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 106-b.).

Huvullamoq II kimsasiz, bo‘m-bo‘sh holda bo‘lmoq. *Hozir huvullab turgan cho‘l uni yutaman deytganga o‘xshardi.* (S.Ahmad, Ufq)

Hurmoq itning vovullashi. *It hurar, karvon o‘tar.* (Maqol)

Huythuytlamoq sa‘va, bulbul kabi qushlarning ovozi ifodalaydi.

Hushtak chalamoq “hshuuu” degan ovoz chiqarmoq. *Shamol hali ham tirqishlardan hushtak chalar edi.* (Ch.Aytmatov. Oq kema 119-b.)

Ho‘yho‘ylamoq ho‘y-ho‘y degan ovoz chiqarmoq. *Shodi aka imo qilgan tomonlarga alanglaymiz, chappa salom bersa – chappa boshimizni buramiz, o‘ngdan alik olsa, o‘sha yoqda odam bordek, o‘ngga qaraymiz, uv tortib ho‘y-ho‘ylagan paytlari g‘alati bir yengil vahmda badanlarimiz jimirlab ketadi.* (A.A‘zam, Soyasini yo‘qotgan odam).

Ho‘ngillamoq ho‘ngramoq, yig‘lamoq. *Ho‘ngillamoq tovush fe‘li. Chidolmadim sira yig‘lab yubordim, Maro ho‘ngilladi. Bir azo turdi* (U.Nosir).

Ho‘ngramoq tovush chiqarib yig‘lamoq. *Daraxtlar orqasidan ho‘ngrab yig‘lagan tovush eshitildi.* (Oybek, Tanlangan asarlar)

Ho‘ngurak otmoq ayni yig‘lamoq. [Sultonxon] *Umriniso bibining darchasidan hatlar-hatlamas ho‘ngurak otib yig‘lab yuborgan edi.* (Cho‘lpon, Kecha va kunduz)

~ I ~

Ihramoq og‘riq va alamdan ovoz chiqarmoq. *Ikki yigit o‘q yedi, shekilli, ihrab quladi.* (H.G‘ulom, Mash‘al)

Ihranmoq aynan ihramoq. *Jo‘ravoy o‘rnidan turdi. Og‘riq va horg‘inlikdan ihranib-ihranib, g‘uslxonada yuvindi.* (“Yoshlik”)

Inqillamoq kasallik va zaiflikdan qiynalib ovoz chiqarmoq. *Toshpo‘latning dadasi yotgan joyida inqillab belini changalladi* (O‘.Hoshimov. Sirli yulduz 189-b.).

Irillamoq hurmoq, akillamoq (it haqida). *Devor panasidagi sharpa irilladi. Kattakon qop-qora it tuproq changitib birdan oldinga tashlandi* (O‘.Hoshimov Shamol esaveradi 269-b.).

Izillamoq 1. Cho‘ziq chinqiroq ovoz chiqarmoq. *Shamol izillab esmoqda.* 2. Tirqiramoq, tiraqaylamoq, qochmoq. *G‘ayrating bor ekan, shunda sinadim. Yo‘liqsa izillab qochadi devlar.* (“Bahrom va Gulandom”) 3. shevada qattiq sovuqotmoq ma‘nosida: *Sovuqdan izillab ketdim.*

Izg‘irmoq (izg‘irin ovozi) kuchli esmoq.

Ishqirmoq ayni pishqirmoq. *Bu maydonda bedov otlar Ishqirar maydon ichinda.* (“Alpomish”)

Ingalamoq chaqaloq yig‘isi, tulki ovozi, shu ovozga taqlid qilish ma‘nolarida qo‘llanadi. *Birdan boshqa bir ovoz eshitildi: kimdir tez-tez gapirdi; dam erkakcha, dam xotinchacha so‘zlaydi, dam chaqaloq bo‘lib ingalaydi.* (Oybek Tanlangan asarlar)

Ingillamoq (chaqaloq yig‘isi). *Bola dasturxonni olib ketayotgan onasiga qo‘lini cho‘zib ingilladi.* (T.Murod, Ot kishnagan oqshom)

Ingramoq ingragan tovush chiqarmoq. *Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganda, Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushardi.* (A.Qahhor, Bemor). *Muzaffar qo‘li og‘riyotgan bo‘lsa kerak, ingraydi. Uyqusidan cho‘chib pinjimga kiradi* (O‘.Hoshimov Ikki eshik orasi, 37-b.).

~ J ~

Jaraqlatmoq jaraq-jaraq ovoz chiqarmoq. *Pulni jaraqlatib sanab oldi. – O‘tar bobo yasovulboshining yon berayotganiga suyunib, uning kissasiga jaraqlatib yana bir tillo tashladi.* (S.Siyoyev, Avaz)

Jaranglamoq narsalarning bir-biriga urilishi natijasida ovoz chiqarishi: *Tangalar bir-biriga urilib jarangladi. Quloqlari jaranglamoq kuchli hayajonda quloqqa jaranglagan ovozlar eshitilgandek tuyulmoq. Yo ‘lchining yuragi qattiq urib, quloqlari jarangladi, lekin ortiga qaramadi.* (Oybek, Tanlangan asarlar)

Jazillamoq jaz-juz ovoz chiqarmoq. *Shiypondan narida jazillab kabob pishardi.* (A.Qahhor, Sarob)

Jag‘illamoq jag‘ degan ovoz chiqarmoq. *Salmon aka samovar qaynab yotar jag‘illab.* (T.To‘la)

Jangillamoq jaranglagan ovoz chiqarmoq. *Hujraning devorlaridan chang yog‘di, tokchadagi mis lagan jangillab ketdi.* (A.Qahhor, Bashorat)

Jildiramoq oz miqdorda oqmoq, jildir-jildir ovoz chiqarmoq. *Samovar jo‘mragidan suv jildirab oqmoqda. – Ariqchalardan jildirab oqqan suv uzun tarnov orqali hovuzga tushadi.* (Sh.Rashidov, G‘oliblar)

Jing‘irlamoq qo‘ng‘iroq tovushini chiqarmoq. *Soat jing‘irladi. Telefon jing‘irladi.*

Jiringlamoq “jiring-jiring” ovoz chiqarmoq. *Zum o‘tmay eshik jiringladi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 49-b.). *Lampaning shishasi jiringlab ketdi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 135-b.).

Jizillamoq ayni jazillamoq. *Kabobpaz barraday non betiga jizillagan allaqancha sixlarni qalab, piyoz va garmdori bilan qo‘yib ketdi.* (Oybek, O.v.shabadalar)

Jingillamoq aynan jiringlamoq. *Tanga jingillab toshga tushdi.*

Jingirlamoq aynan jiringlamoq. *Oldida samovar pishqirib qaynar, Qo‘lida chinnisi jiringlab o‘ynar.* (“Oq olma, qizil olam”)

~ K ~

Kakillamoq aynan kakirlamoq (kaklik). *Kakliklar kakillab to‘rga ilindi.*

Kakirlamoq qushlarning ovoz chiqarish harakatini bildiradi. *Kaklik kakirlaydi. Ola qanotli laylakning kakirlab, bahordan xabar berganiga ... anchagina bo‘ldi.*

Kakkulamoq (kakku ovozi). *Kaklik kakkulaydi.*

Karillamoq ayni qarillamoq (qarg‘a). *Qarg‘alar karillaydi. Ortiq darajada maqtanmoq. Ukamiz olim bo‘ldi deb karillab yuraylik.* (A.A‘zam, Odamning olasi)

Karsillamoq kars-kars tovush chiqarmoq. *Sahar payti karsillaydi to‘rlama.* (Mirtemir)

Kasirlamoq kasir-kasir ovoz chiqarmoq. *Qattiq shamolda daraxtning bir shoxi kasirlab sindi. – [Tog‘larning] burganlari bo‘y taratar, Shuvog‘i tanni yayratar, Nar bedanaday sayratar Kavrangi kasirlab.* (H.Hasan. Sehr)

Kasirlatmoq kasirlatib ovoz chiqarmoq. *Eshikni kasirlatib boltaladi.*

Kavshamoq ovoz chiqarib yemoq (hayvonlar). *Sigir ertalabki yemni kavshayapti.*

Kemirmoq g'ajimoq, mujimoq, chaynamoq fe'llari bilan sinonimik qatorni hosil qiladi. Tish harakati natijasida ovoz chiqarishni bildiradi.

Kekirmoq ixtiyorsiz baland ovoz chiqarmoq. *Yong 'oqning yana bitta fazilati bor: qorinni to'q tutadi. To'rttasini yeb olsangiz, yarim kun kekirib yurasiz.* (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 21-b.)

Kishnamoq (ot). *Kechada otlarni kishnatmaslik uchun "sunbulo't toyyib" degan giyohdan askarlarga tarqatgan edimki, lozim vaqtda otlarning burniga shul giyohdan hidlatib qo'yilsa, ot kishnamas edi* (Muhammad Tursun. Dunyoni tebratgan yetti buyuk.) *Faqat... otlarning beda kavshab, depsingani eshitiladi.* (Sh.Toshmatov, Erk qushi)

Kirtillatmoq biror narsani yemirish, g'ajish, ishqalanish natijasida chiqadigan tovush harakatini ifodalaydi. *Qo'y o'tni kirtillatib yedi.*

Kisirlamoq kisir-kisir ovoz chiqarmoq. *"Kattaqo'rg'on"ni yesangiz, kisirlaydi.*

Kuhkuhlamoq kuh-kuh degan ovoz chiqarmoq. *Dam-badam kuhkuhlab kaftini isitadi.* (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 101-b.).

Kukulamoq ku-ku degan ovoz chiqarmoq (musicha). *Tashqarida musichalar kukular, yangi tong otgan edi.* (O'.Hoshimov. Nur borki soya bor).

Kursullamoq shu kabi ovoz chiqarmoq. *Patirni kursullatib o'zim yeyman.* (Oybek, O.v shabadalar)

Kurtullamoq kurt-kurt ovoz chiqarmoq. *Katta o'rik tagida kurtullab beda chaynayotgan otlar Ahmadni ko'rib, yerdan bosh ko'tardi.* (Y.Shukuruv, Birinchi parvoz)

~ L ~

Lovullamoq kuchli alanganmoq, "lov-lov" ovoz chiqarmoq. *Quruq o'tin bir zumda lovullab yonib ketdi.* (M.Ismoilov, Farg'ona t.o.) 2. Qattiq qizimoq. *Quyosh tik kelgan. Havo lovullab yonadi.* (Oybek, Tanlangan asarlar)

Lo'p etmoq yumshoq narsalarning zarb bilan urilishi natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Xuddi sarjin o'tindek [qo'] lo'p etib oldimga tushdi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 116-b.).

Lo'qimoq silkinmoq. Mashinaning silkinishi natijasida chiqadigan ovoz chiqishini bildiradi. *Men mashina lo'qiganda, mashinadan otilib ketayin dedim.* (T.Murod, Momo yer qo'shig 'i)

~ M ~

Ma'ramoq (mol, qo'y va echkilarning ovoz chiqarishi). *Allaqayerda echki bo'g'ilib ma'raydi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 56-b.). *Suruvda bitta qo'y ma'rasa, hammasi jo'r bo'ladi* (Maqol). *Pichoqni qinidan sug'urishi bilan qo'y jonivor iltijoli ma'rab yubordi* (O'.Hoshimov Ikki eshik orasi, 181-b.).

Qo'yga o'xshab ma'ramoq – yuvosh tortmoq: *Navbat o'zimizga yetganda qo'yga o'xshab ma'raymiz.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 206-b.).

Yeb turib ma'raydi. *Yeb turib ma'raverish insonga xos emas.*

Ming'irlamoq dimog'da past ovozda tushunarsiz gapirmoq. *Yo'lchining salomiga ming'irlab javob qaytardi.* (Oybek, Tanglangan asarlar) 2. Norozi ohangda

gapirmoq. *Ta'na qilaverib ham o'ldirdingiz, - dedi Baratov ming'irlab.* (S.Zunnunova, Yangi direktor)

Miyovlamoq “miyov” demoq (mushuk): *Devorlar orqasida, tomlar ustida kechasi mushuklar miyovlab chiqadi* (O'.Hoshimov. Shamol esaveradi 206-b.). *Ayniqsa, gala-gala mushuklarning bag'illab miyovlashi Hojimurodning etini muzlatib yuborardi* (S.Ahmad. Jimjitlik 50-b.).

Mo'ramoq sigir, ho'kizning tovush harakatini ifodalaydi. *Cholim bilan Robiya dalaga chiqib ketgan shekilli, sigir mo'rab, molxonani boshiga ko'taryapti.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 137-b.)

~ P ~

Papa qilmoq yashirmoq, bekitmoq (bola nutqi). *Koptokni papa qil.*

Pahpahlamoq obyektlarning havodagi harakatlari natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Pufaklar osmonga ko'tarilgani sari pahpahlab yorilaverdi.*

Papillatmoq. ...yong'oqning baland shoxida o'tirgan shohid janozaga kech qolmayin degandek qanotlarini papillatib uchib kelib, *Buvish enaning hovlisidagi ko'hna quduq g'altagiga qo'nibdi.* (Sh. Bo'tayev, Yulduzlarga eltar yo'l)

Pang'illamoq yorilish, otilish natijasida chiqadigan tovush harakatini ifodalaydi. *Bomba pang'illadi.*

Paqillamoq “paq” etgan ovoz chiqarmoq. *Avvaliga paqillagan, keyin vishillagan, so'ng qult-qult etgan ovozlar chiqdi.* (S.Mahkamov, Yostiqlik ichida igna)

Paqirlamoq I “paqir-puqur” ovoz chiqarmoq. *Qozonda sho'rva paqirlab qaynayapti.*

Paqirlamoq II paqir bilan o'lchamoq. *Sumalak har birimizga bir paqirdan tegadi.*

Parillamoq tez qanot qoqib, “par” degan ovoz chiqarmoq (parrandalar). *Kaptar parillab uchdi.* 2. Tez yugurib kelmoq. *Suvsiz cho'lda G'irko'k ot borayotir parillab* (“Ravshan”). 3. Qattiq ovoz chiqarmoq. *Pillapoya oldidagi taburetkada oppoq samovar parillab qaynab turibdi.* (S.Ahmad, Oq sut va oppoq nur)

Part etmoq part degan ovoz chiqarmoq. *Juvoldiz qopga part etib kirdi. Bedan aqo'ldan chiqib, part etib uchib ketdi.* (“Ertaklar”)

Partillamoq yorilish natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Mashina baloni partillab-partillab yorildi.*

Partpartlamoq davomli baland tovush chiqarmoq. *Motosiklni partpartlatib to'xtatdi.*

Patillamoq 1. Texnik asboblardan chiqadigan tovush harakatini ifodalaydi. *Mototsikl patillab o'tib qoladi-da... bir zunda yo'q bo'lib ketadi.* (S.Ahmad, Cho'l burguti) 2. Shoshmoq, bezovta bo'lmoq ma'nosida: *Xotin chars bedanaday patillab qochmoqchi bo'lganida yuzini karnaygulning poyasiga urib oldi.* (A.Qahhor, Mayiz yemagan xotin)

Patirlamoq 1. Keskin qanot qoqish, tez aylanish natijasida chiqadigan tovush harakatini ifodalaydi. *O'rmon shitirlab qoldi, Barglar patirlab qoldi.* (H.Olimjon).

Patirlatmoq 1. Texnika. *Yigitcha motosiklni patirlatib ... bir zunda g'oyib bo'ldi* (S.Ahmad. Jimjitlik 55-b.). 2. Qushlar. *Qanotini jonsarak patirlatgancha*

uchib qo'nyotgan tovuqlar ko'zga chalinib qolardi. (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 120-b.)

Patpatlamoq Dvijok patpatlab tarillab yubordi-yu, yorishib ketdi. (M.Mansurov, Yombi)

Pilchillamoq suyuqlik, loy kabilarning oqishi natijasida chiqadigan tovush harakati. *Havo iliq, oyoq ostida ataladek sarg'imtil qor pilchillar, yupun kiyingan bolalar u yoq-bu yoqqa yugurar, chollar, xotin-xalaj: hammaning ko'zida qandaydir sirli hayajon bor edi* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi, 195-b.)

Pinqillamoq burun bitganda chiqqanda tovush harakatini bildiradi. *Burni pinqillab, arang gapirdi.*

Ping'illamoq dimog' bilan sekin ovoz chiqarib gapirmoq. *U dimog'ida gapirar edi. Uning ovozi ping'illab eshitilgani uchun Begimxon piqillab kuldi.* (I.Rahim, Chin muhabbat)

Ping'illatmoq dimog'da shu kabi ovoz chiqarmoq. *Soli sovuq...baqa burnidan ping'illatib shu so'zlarni chiqaradi: -Shunday sizni bir ko'rib chiqay, deb kiruvdim-da.* (M.Ismoilov, Farg'ona t.o.)

Piqillamoq kulganda yoki yig'laganda tomoqdan portlab chiqadigan qisqa, bo'g'iq tovush harakatini bildiradi. *Aziza yuzini kafti bilan yashirgancha, piqillab yig'lab yubordi.* (O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol)

Piqirlamoq kulganda yoki yig'laganda, o'zini tuta olmay past ovoz chiqarmoq. *Mastura piqirlab kulib yubordi, yana kuldi, yosh boladay o'zini tuta olmay qiqlardi.* (A.Qahhor, Ming bir jon)

Pirillamoq 1. Tez qanot qoqmoq, aylanmoq, ovoz chiqarmoq. *Tolibjon ventilyator vilkasini rozetkaga tiqishi bilan urchuq pirillab aylanib ketdi* (S.Ahmad, Jimjitlik). 2. Titragannamo harakat qilmoq, hilpiramoq. *Mayin yel shivirlab, boshingdan essa, Ro'moling pirillab o'ynab ketadi.* (Uyg'un) 3. Pirpiramoq, uchmoq (qovoq, kiprik, mushak h.k.) *Salimboyvachchaning ko'zlari ola-kula bo'lib yuzidagi go'shtlari pirilladi.* (Oybek, Tanlangan asarlar) 4. Mayda qadam tashlab tez yurmoq, pildiramoq. *Bobomirzo yelkasida sochiq oldida fartuk, do'ppisini yarimta qilib, pirillab yuribdi.* (I.Rahim, Taqdir)

Pirillatmoq ayni pirillamoq: *Qush qanotini pirillatib uchib ketdi.* 2. Tez olib ketmoq, olib bormoq. *Alijon o'z kuchiga ishonib, bir obkash suvni pirillatib olib ketish bilan maqtandi.* (Mirmuhsin, Chiniqish)

Pirpiramoq 1. Ko'z ilg'amas darajada tez harakatlanib, silkinib, hilpiramoq, ovoz chiqarmoq. *Oyning dastlabki shu'lasi to'g'onning tepasida pirpirab turgan bayroqqa tushdi.* (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari) 2. Titragannamo harakat qilmoq. *Alimardon keskin burilib qaradi-yu, xotinining lablari boshlaganidan qo'pol gapirib yuborganini sezdi.* (O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi)

Pirqillamoq burundan pishqirgan ovoz chiqarmoq. *Yo'lga qirq botir, Bedov otlar pirqillab.* ("Xush keldi" dostoni)

Pirqiramoq ayni pirqillamoq. *G'irko'k ot g'irqiraydi, O'qtalib pirqiraydi.* ("Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni)

Pirsillamoq pirs-pirs tovush chiqarmoq. *Ho'l o'tin pirsillab yonyapti.*

Pirtillamoq uzuq-uzuq past ovoz chiqarmoq.

Pisillamoq past ohangda pis-pis ovoz chiqarmoq. *Asadbek qorong'u uyda pisillagan tanchada qunishib o'tirardi* (T.Malik, Shaytanat). *Ertalab ko'zimni*

ochsam uyda – pisillab qolgan sovuq tancha chetida yotgan bo'laman. (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 17-b.).

Pitbildiq otmoq sayramoq. *To'qay tomonda bedana pitbildiq otadi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 81-b.).

Pitillamoq aynan pitirlamoq. *Bola onasiga ko'zi tushishi hamon, belangan oyoq-qo'lini pitillatgancha, bo'shatishga urindi.* ("Yoshlik")

Pitirlamoq 1. Jon talvasasida o'zini har yonga urmoq, tipirchilamoq, ovoz chiqarmoq. *So'yilgan tovuqni ko'rganmisan? Pitirlaydi, ko'tarilib-ko'tarilib tushadi.* (A.Qahhor, Sarob). 2. Shoshilib hovliqmoq. *Ular ahvolni ko'rib pitirlab qolishdi.* (A.Muxtor, Opa-singillar).

Pixillamoq 1. Hurpayib tomoq qirib "pix" degan ovoz chiqarmoq (mushuk). *Mushuk pixilladi.* 2. Tomog'idan bo'g'iqlik tovush chiqarmoq, pixillagan ovoz chiqarmoq. *Amaki pixillab yo'taldi.*

Pizillamoq piz-piz ovoz chiqarmoq. *Darvozasidan qarasam, peshonasiga shohi belbog'ini tang'ib olib, hovlida yaktakchan pizillab yuribdi.* (I.Rahim, Hilola)

Pishillamoq burun orqali pishillagan ovoz chiqarmoq. 1. Insonga xos. *Hojimurod nihoyatda ochiqqan edi. Hech qayoqqa qaramay, pishillab lunjiga ovqat solar edi.* (S.Ahmad, Jimjitlik). 2. Hayvonga xos. *Sigir o'qtin-o'qtin yoniga burilib, buzoqni yalar, pishillardir* (O'.Hoshimov. Shamol esaveradi, 209-b.).

Pishnamoq issiq, sovuq yoki hayajon ta'sirida harsillamoq, pishillamoq. *Shoto'ra muallim pishnab, ko'zlarini pishpiratar edi.* (Sh.Xolmirzayev, Tanlangan asarlar)

Pishpishlamoq pish-pish ovoz chiqarmoq. *Pishpishlab uxlayapti.*

Pishqirmoq 1. Burundan kuchli bo'g'iqlik tovush chiqarmoq (ot, qoramol haqida). *Sigir katta ko'zlarini olaytirib, bir qaradi-da, pishqirib qo'ydi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 70-b.). *Ot pishqirdi. Boshqa xotinlar allaqchon o'rnidan turib ketganini endi ko'rdim* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 218-b.). 2. Pishqiriqqa o'xshash qattiq tovush chiqarmoq. *Parovoz xuddi charchagan otday pishqirib to'xtadi.* (J.Sharipov, Saodat) 3. *Ko'chma* shiddat bilan shovullamoq, vishillamoq. *Daryo pishqirib oqmoqda.* 4. *Ko'chma* hayqirib gapirmoq, baqirmoq. *Javob o'rniga boshini chayqab pishqirdi.* (S.Ahmad, Ufq) 5. *Ko'chma salbiy ma'noda.* Shoshilib ketmoq, bosar-tusarini bilmay qolmoq. *Pishqirgan boylar.*

Pichirlamoq past ovozda shivirlab gapirmoq. *Oyim oyga tikilib turib ohista pichirlar edi: Oymomaxon xulla, Qanotlari tilla...* (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 5-b.).

Pichir-pichir qilmoq ayni pichirlamoq. *O'rtancha ovsin ayvonni supurib bo'lib, savat ko'tarib, ko'chaga chiqib ketishi bilan olti ovsin supaga chiqishdi.* *Pichir-pichir qilib uzoq gaplashishdi.* (S.Ahmad, Saylanma)

Popillamoq "pop-pop" etgan tovush chiqarmoq. *Dakan yerga og'ir yukday popillab tushdi.* (M.Ismoiliy, Farg'ona t.o.)

Porillamoq 1. Kuchli nur sochmoq, gurullab yonmoq. *Mash'ala porillab ketyapti.* 2. *Ko'chma* ma'noda. Yaltiramoq, yarqiramoq. *Kasal ko'zlari porillaydi, qorong'u kulbaga qandaydir yorug' kirganday bo'ldi.* (M.Ismoiliy, Farg'ona t.o.) 3. Por-por ovoz chiqarmoq. *Ko'p o'tmay mototsikl motorining porillagan tovushi eshitildi.* (M.Xayrullayev, Ko'ngil)

Port etmoq birdan kuchli otilish, yorilish, natijasida ovoz chiqarmoq.

Portlamoq narsa yoki obyektlarning birdan otilishi, yorilishi natijasida kuchli ovoz chiqarishini bildiradi. *Ba'zan karvon endi o'tib bo'ldi deganingda to'satdan portlab qoladi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 113-b.).

Potirlamoq ayni patirlamoq. *Qushlar potirlab uchdi. 2. Bezovta bo'lmoq, shoshilib, hovriqmoq. Zaynabning esa yuragi potirlab joni halqumiga kelib qoldi.* (T.Malik, Shaytanat)

Povullamoq shiddatli jarayon yoki tez yonish natijasida kuchli ovoz chiqarmoq. *Sut chelakka povullab tushmoqda. – Primusning tinmay povullashi uning [Shirmonxonning] xayoliga qanot berganday, u atrofdagi hamma narsani unutganday edi.* (S.Zunnunova, Olov)

Puflamoq ikki lab orasidan kuchli bosim bilan havo chiqishi natijasida ovoz chiqarmoq. *Og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi.* (Maqol) *Ana o'sha "qo'li shirin" oshpazimiz hozir lunjini shishirib o'choq puflayapti* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 471-b.). *Anvar cho'nqayib olgancha bor kuchi bilan puflayverib tomoqlari achishib ketdi* (O'.Hoshimov. Bahor qaytmaydi).

Pufpuflamoq 1. Puflamoq. *Choyni pufpuflab sovutdim. 2. Avaylamoq, asramoq ma'nosida. Bolasini pufpuflab katta qilgan edi.*

Po'killamoq ichi bo'sh yoki kovak narsani urganda, qizdirilmagan childirmani chertganda, yurak urishi h.k.larda chiqadigan tovush harakatini ifodalaydi. *Qizlar bir-birini o'yinga tortadi, childirma po'killaydi.* (N.Fozilov, Oqim)

Yuragi po'killamoq bezillamoq. *Yuragim po'killab, hovliga kirdim. Oyim ochiq ayvonda xontaxta oldida o'tirgan ekan.* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

~ Q ~

Qahqahlamoq qattiq kulmoq. *O'rozqulning uyi derazasidan esa mast kishilarning qahqahlab kulishlari ... eshitilardi.* (CH.Aytmatov. Oq kema, 155-b.).

Qah-qah urmoq, otmoq, solmoq. *Shunaqa qah-qah solib, beg'ubor kulishardiki, daraxtlarda tunagan qushlar cho'chib qanot qoqadi.* (Shuhrat, Shinelli yillar).

Qaldiramoq qaldir-quldur ovoz chiqarmoq. *Oyog'imiz tagida yotgan uzum temir quvur qaldirar edi.* (Sh.G'ulomov, Inson qo'li gul)

Qaqalamoq qaqillamoq (tovuq ovozi). *Chipor tovuq ham zo'r tashvish bilan qaqalab, taralib yurgan jo'jalarini qanoti ostiga chaqirardi.* (A.Muhiddin, H.Tojiboyev, Otash qalbli qiz)

Qaqqlamoq aynan qaqalamoq. *Tovuq qaqaqalayapti.*

Qaqillamoq 1. Tovuqning ovoz chiqarishini bildiradi. *Chipor tovuq shu kunlarda yetilgan... qaqillab yuribdi.* (S.Ayniy, Qullar) 2. Hadeb gapiravermoq, mahmadonalik qilmoq. *Xo'p, xo'p. Muncha qaqillaysan?* (O'.Umarbekov, Yulduzlar)

Qaqirlamoq ayni qaqillamoq. *Qaqirlab kulmoq, qaqirlab sayramoq. Qori Mahmud qaqirlab kulgandan keyin jiddiy vaziyat oldi.* (S.Ayniy, Esdaliklar)

Qaqolamoq ayn. qaqillamoq. *Tuxum qo'ymagan tovuq ko'p qaqolaydi.* (Maqol)

Qarillamoq “qarr” etgan ovoz chiqarmoq. *Qayerdadir qizilishton qarilladi.* (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari)

Qarsillamoq “qars” etgan ovoz chiqarmoq. *Uzoq yoqda muz qarsillar...* (A.Oripov, Yillar armoni). *Ular sug‘urib olingan ildiz singari qarsillardi* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 147-b.).

Qarsillatmoq qars-qars ovoz chiqartirmoq. *Qamchingni qarsillatsang-chi!* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 30-b.)

Qartillamoq ishqalanish, urilish natijasida qart-qurt ovoz chiqarmoq. *Qor qotib qolgani uchun kurak har tekkanda g‘ashni keltirib qartillaydi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 65-b.)

Qars-badang qilmoq ham ovoz chiqarish, ham ovoza qilishni ifodalaydi: *To‘yni shunaqa qars-badang qilib o‘tkazamiz.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 200-b.)

Qarsak chalmoq “qars-qars” ovoz chiqarmoq, chapak chalmoq. *Odamlar stul tagiga qo‘llarini tiqib qarsak chalardilar.* (S.Ahmad, Jimjitlik 10-b.).

Qasirlamoq shu kabi ovoz chiqarmoq. *Ot boradi asirlab, Otgan o‘qday tasirlab, Tilla uzangi, mahsi kovush Tepsinganda qasirlab.* (“Ravshan”)

Qaynamoq 1. Kuchli qaynamoq, vaqirlamoq. *Ovqat qaynayapti.* **2.** *Ko‘chma* qaynagan holatni bildiradigan tovush harakatini bildiradi. *Tikilgan qozon qaynamas.* (Maqol) **3.** *Ko‘chma* xuddi qaynagan holda bo‘lmoq; otilib chiqmoq (buloq, daryo, ko‘z yosh). *Kumushning-da qaynab chiqqan ko‘z yoshlari ikki chekkasidan yostiqa oqib tusha boshladi.* (A.Qodiriy, O‘tkan kunlar) **4.** Pishmoq, yeyish holatiga kelmoq. *Ikki qo‘chqorning boshi bir qozonda qaynamas.* (Maqol) **5.** Achimoq, bijg‘imoq. *Bochkaga bosilgan uzum qaynay boshladi.* **6.** Kuchli xatti-harakatli, to‘lqinlangan holatda bo‘lmoq (ko‘p odamlar haqida). *Kun sovuq, lekin bozor qaynardi.* (Oybek, Tanlangan asarlar) **7.** Kuchli qizg‘in tus olmoq. *Avgust oyida bozorda odam qaynaydi.*

Qag‘illamoq (qarg‘a). *Baqaterak ustida bezovtalanib qag‘illayotgan qarg‘alarning ham uni o‘chdi.* (O‘.Hoshimov. Cho‘l havosi 161-b.).

Qag‘illashmoq qarg‘alarning ovoz chiqarishini bildiradi. *Nimaga buncha qag‘illashadi, nimaga aylanib qolishdi?* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 71-b.).

Qiqillamoq so‘zlashuvda qiqirlamoq ma’nosida. *Eshon qiqillab kuldi.* (I.Rahim, Taqdir)

Qiqirlamoq shu kabi tovush bilan kulmoq. *Sartarosh ko‘zini qisib qiqirlab kuladi.* (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 148-b.). *Ukam huzur qilib qiqirlaydi.* (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 67-b.).

Qirsillamoq qirs-qirs ovoz chiqarmoq. *Oyim qo‘llari qirsillagancha, xontaxta qirrasidan ushlab ko‘rpachaga cho‘kdi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 186-b.).

Qirtillamoq qirt-qirt tovush chiqarmoq. *Mirza chizdi qirtillatib qalamin.* (G‘.G‘ulom)

Qisirlamoq shu kabi tovush chiqarmoq. **1.** Qorning qisirlashi: *Bobom quloqchini qiyshayib ketgan telpagini bostirganicha eshak jilovidan tutib borar, arava g‘ildiragi ostida kechki sovuqda qaytadan muzlagan qor qisirlar, havo ochilib ketgan, qop-qora chuqur osmonda bodroqdek yulduzlar porlar edi* (O‘.Hoshimov.

Ikki eshik orasi, 202-b.). 2. Suyakning qisirlashi: *Suyagi qisirlab sinayotganini o'zi eshitsin.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 30-b.)

Qisirlatmoq. *Alioxun... kerishdi, barmoqlarini qisirlatdi.* (Oybek Tanlangan asarlar)

Qitillamoq aynan qitirlamoq. *Shoir qalamini qitillatib yoza boshladi.*

Qitirlamoq qitir-qitir tovush chiqarmoq. *Qalami yengil qitirlab, chiroyli harflar tushirmoqda.* (Oybek, Navoiy)

Qig'illamoq shu kabi ovoz chiqarmoq. *Yaqin yerdan chug'urchuqlar qig'illashi eshitildi.* (H.Nazir, So'nmas chaqmoqlar)

Qixqixlamoq qix-qix tovush chiqarmoq. *Jamolboy hammaga bir-bir qarab, qixqixlab kulib qo'ydi.* (Oybek, Tanlangan asarlar)

Qiyillamoq ingichka ovozda qichqirmoq. *Mirzacho'lga kekkayib kelib, qiyillab qochgan bunaqa jo'jaxo'rozlarni ko'p ko'rganman.* (A.Qahhor, Yangi yer)

Qiyqillamoq qiyqirmoq (parrandalar, tovuq ovozi). *Tovuqlar qiyqillab qochgan, gursullab devorlar yiqiladi, sharaqlab daraxtlar qulaydi.* (A.Qahhor, Bashorat)

Qiyqirmoq hayqirmoq, qichqirmoq. *Kimdir yo'lakda ko'ringan qizlar va juvonlarni qiyqiratib quvadi.* (A.Qahhor, Sarob)

Qiyqirishmoq qiychuvlashmoq, shu kabi ovoz chiqarmoq. *Uch bola dadasini ko'rib qiyqirishdi.*

Qiyg'illamoq aynan qiyqillamoq (parrandalar, burgut ovozi). *Burgut qiyg'illadi.*

Qiychuvlashmoq ayni qichqirishmoq. *Bolalar qiychuvlashyapti.*

Qig'illamoq qig'-qig' ovoz chiqarmoq (parranda va qushlarning ovozi). *Yaqin yerdan chug'urchuqlar qig'illashi eshitildi.* (H.Nazir, So'nmas chaqmoqlar)

Qichqirmoq 1. Baland ovozda baqirmoq, jarangdor ovoz chiqarmoq. *Poyezd qichqirganini eshitib yuragim orziqib ketdi* (Shuhrat, Shinelli yillar). 2. Qattiq ovoz bilan chaqirmoq. *"Kvazar!" dermish u qichqirib, "kvaza-a-r!" dermish yana qichqirib* (O'.Hoshimov Shamol esaveradi). 3. Chaqirmoq (xo'rozning ovozi). *Qo'ndoqdagi xo'roz cho'zib-cho'zib qichqirdi* (O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol). *Xo'roz qichqirdi. Salqin tushdi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 38-b.). 4. Ko'chma hamma yoqqa jar solmoq. *Mas'ul ishchilarning shu chiqishlari to'g'risida gazetalar bir necha haftagacha qichqirdi.* (A.Qahhor, Sarob). **Xo'roz hamma joyda bir xil qichqiradi** hamma joyda bir xil, degan ma'nodagi ibora.

Qoqmoq urib ovoz chiqarmoq, taqillatmoq. *Samandarov qalamning orqasi bilan stolni qoqib g'ovurni bosdi.* (A.Qahhor, Sarob)

Qulduramoq quldur-quldur ovoz chiqarmoq. *Bashirjon qovun rastalari oralab ketar ekan, yangi chiqqan bodringga ko'zi tushib, qorni qulduradi.* (N.Aminov, Qahqaha).

Qulqullamoq qulq-qulq ovoz chiqarmoq. *Qulqullab oqayotgan kanaldan esgan yoqimli shabada har qanday odamni ham mahliyo qilar edi.* (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari)

Qultullamoq qult-qult ovoz chiqarmoq. *Tomog'idan o'tgan konyak xush yoqdimi, ko'zlari sal jonlandi.* (T.Malik, Talvasa)

Qurquramoq qurq-qurq ovoz chiqarmoq (turnalar ovozi). *Uzoqlarda turnalarning qurqurashi eshitilardi.* (T.Obidov, Yusufjon qiziq).

Qurqurlamoq burgutning ovozi ifodalaydi. *Burgutlar bazo‘r qurqurlab yolg‘iz ucha boshladi* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 66-b.).

Qurullamoq shu kabi ovoz chiqarmoq (baqa ovozi). *Pilik chirsillaydi, qurbaqalar hovlida qurillaydi.* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 38-b.)

Ququlamoq shu kabi ovoz chiqarmoq. *Shu asnoda barglari siyraklashgan gujum shoxidagi xo‘rozlar ustma-ust ququlab yuborishdi.* (M.M.Do‘st, Darvoza yonidagi it)

Quraylamoq ayni qureylamoq. 1. “Quray-quray” deb undamoq. *Cho‘ponlar qurayladi.* 2. Shu kabi ovoz chiqarmoq (turnalar ovozi). *Osmoni zaminda qaychiga o‘xshab turna karvoni qo‘y haydagan cho‘pondek qureylab o‘tyapti.* (S.Ahmad, Ufq)

~ S ~

Sayramoq 1. Yoqimli ohangdor ovoz chiqarmoq (qushlar ovozi). *Yong‘oq shoxida zag‘izg‘on sayradi* (O‘.Hoshimov. Bahor qaytmaydi 5-b.). 2. Ko‘chma yoqimli, shirali ovozda qo‘shiq aytmoq. *Ashulachidek sayrab kuyladim.* 3. Yoqimli, jarangdor ovoz chiqarmoq. (musiq asboblari). *Dutor sayradi.* 4. Tinmay gapirmoq, vaysamoq, javramoq. *Jo‘ralari orasida “shirinsuxanlik” bilan tanilgan Olimxon sayraverdi.* (Oybek, Tanlangan asarlar) 5. Tez shiddatli ovoz chiqarmoq (pulemyot, minomyot, avtomat va h.k.) *Pulemyot sayrab ketdi.* 6. Ko‘zni quvontirmoq. *U tikkan mahsilarni qo‘lingga ol-u, tomosha qil – sayraydi-da.* (Oybek, Tanlangan asarlar) 7. O‘rinlatmoq, qoyillatmoq. *Oshni sayratib yuboribsiz.*

Sufkuflamoq duo o‘qib, dam solganda shu kabi ovoz chiqarmoq. *Mulla sufkuflab dam soldi.*

Signal bermoq ayni ovoz chiqarmoq. *Mashinalar nuqul signal berardi.* (Ch.Aytmatov. Oq kema 115-b.)

~ T ~

Takillamoq tak-tak ovoz chiqarmoq. *Oyoqdan zax o‘tib, tish takillay boshladi.* (T.Alimov, Xirgoyi)

Takir-tukur qilmoq shu kabi ovoz chiqarmoq. *Qulog‘iga tunuka tomning takir-tukur qila boshlagani eshitildi.*

Tapillamoq tap-tap ovoz chiqarmoq. *Tun sukunatini faqat vodokachkaning tapillashigina buzmoqda.* (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari)

Tapillatmoq U boshini bir yonga tashlagancha elakni tapillatadi. *G‘ij-g‘ij nafas oladi* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 21-b.).

Tapirlamoq shu kabi ovoz chiqarmoq. *Xo‘roz tapirlab, yerdan yarim metr balandlikka ikki-uch marta sapchib jon berdi.* (S.Ahmad, Taqdir, taqdir, muncha shafqatsizsan?)

Taqillamoq taq-taq ovoz chiqarmoq. *Eshik taqilladi. – U ko‘zini yumdi degunicha, xayolida qorabayir javlon qilar, taqalarning toshlarga urilib taqqillashi quloqlariga eshitalayotganday tuyulardi.* (H.G‘ulom, Mash‘al)

Taqillatmoq taq-taq ovoz chiqartirmoq. *U yerga nag‘alini taqillatib urib pishqirib borardi.* (Ch.Aytmatov. Oq kema 89-b.)

Taqirlamoq ayni taqillamoq. *Eshik taqirladi. Uzoqdan aravaning taqirlagan ovozi eshitildi. – Shu payt birdan eshik taqirlab, Alijon kirib keldi.* (Mirmuhsin, Chiniqish)

Taraklamoq shu kabi ovoz chiqarmoq. *Uzoqda goh-goh avtomat taraklab qo'yardi.* (Oybek, Quyosh qoraymas)

Taraqlamoq taraq-taraq ovoz chiqarmoq. *Deraza taraqlab yopilgani qulog'iga chalindi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 22-b.) 2. *Ish-faoliyat, narsa va sh.k.larning avjida bo'lishini bildiradi. Ish taraqlab, pul ko'paygandan keyin birvarakay ichki-tashqi dang'illama imorat solaman.* (Oybek, Tanlangan asarlar)

Taraqlatmoq *Eshikni taraqlatib yopib shoshgancha chiqib ketdi.* (Ch.Aytmatov. Oq kema 100-b.).

Taraq-turuq qilmoq. *Ertalabdan taraq-turuq qilib uyqumni buzadi, deyishibdi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 6-b.)

Tarillamoq tar-tar ovoz chiqarmoq. *Tank taqqa to'xtatadi, o'sha zahoti pulemyot tarilladi* (O'.Hoshimov Ikki eshik orasi, 458-bet). *Vahti-vaqti bilan avtomat tarillab qo'yar edi.* (O'.Hoshimov Tushda kechgan umrlar 89-bet)

Tarsakilamoq "tars" degan ovoz chiqarmoq. *Nima deding? – tarsakilab yubordi.* (O'.Hoshimov Tushda kechgan umrlar 39-b.). *Yugura keilib cholni tarsakilab yubordi.* (O'.Hoshimov Tushda kechgan umrlar 149-b.)

Tarsillatmoq tars-tars ovoz chiqarmoq. *Ot... qo'ldan chiqib qochish uchun ikki orqa oyoqlari bilan orqa-o'ngiga qaramay arava bormi, pishqirib, tarsillatib tepa boshlardi.* (Shukrullo, Kafansiz ko'milganlar). **Ko'chma** tanbeh ma'nosida gapirmoq. *Har gapini xuddi mix qoqqandek tarsillatib gapiradi.* (O'.Hoshimov Dunyoning ishlari, 158-b.).

Tasirlamoq tasir-tusur qilmoq. *Uzoqdan zambaraklar hayqirig'i, snaryadlarning portlashi eshitilmoqda. Allaqayerda pulemyotlar tasirlamoqda.* (I.Rahim, Chin muhabbat)

Tapillatmoq tap-tap ovoz chiqartirmoq. *Oyoq qo'lini tapillatib jon-jahdi bilan suzaverdi.* (O'.Hoshimov Tushda kechgan umrlar 38-b.)

Tepmoq oyog'ini yoki tuyog'ini yerga urmoq va shu jarayonda tip-tip ovoz chiqishini bildiradi. *Koptok tepmoq. Eshikni tepib ochmoq. Itni qopmas deb bo'lmas, otni tepmas deb bo'lmas.* (Maqol)

Tikillamoq bir maromda uzuq past ovoz chiqarmoq. *Devor soat go'yo Akramning qolgan umri hisobini qilayotganday... to'xtovsiz, erinmay tikkilar edi.* I.Rahim, Tinimsiz shahar.

Ting'illatmoq shu kabi ovoz chiqarmoq, torli musiqa asbobini chertmoq. *Muxtorxon tokchadagi dutorni olib ting'illatdi.* (H.G'ulom, Mash'al)

Tipillamoq aynan tipirlamoq, yengil harakat natijasida tip-tip ovoz chiqarmoq. *Oradan ko'p o'tmay, [imtihondan] "o'tolarmikinman, bilmaydigan qiyin savol tushib qolsa, nima qilaman", deb tipillab turgan Ra'no ham kirib, "to'rt" olib chiqdi.* (Mirmuhsin, Umid)

Tiqillamoq ayni tiqirlamoq, shu kabi ovoz chiqarmoq. *Eshik tiqqilladi.— Endi endi yotmoqchi bo'lib turganida, deraza tiqqilladi.*

Tiqillatmoq tiq-tiq ovoz chiqartirmoq. *U bo'lsa, tuflisini tiqillatib atir taratib yursa* (Ch.Aytmatov. Oq kema 71-b.).

Tiqirlamoq mayda va qattiq narsalarning bir-biriga tegishidan ketma-ket chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Xayol surish bilan tong otardagina endi ko'zim ilingan ekan, ko'cha eshik tiqirlab qoldi.* (A.Muhiddin, Chap cho'ntak)

Tirillamoq davomli qisqa-qisqa ovoz chiqarmoq. *Yaponcha kurtkasining zanjiri tirillab uzildi.* (O‘.Hoshimov Tushda kechgan umrlar 258-b.) **Tirsillamoq** “tirs” etmoq, keskin, kuchsiz ovoz chiqarmoq, chirsillamoq. *Sement solingan xalta tirsillab, yorilib ketdi. Quruq o‘tin tirsillab yona boshladi.*

Titramoq 1. Sovuqdan, qo‘rquvdan yoki hayajondan qaltirashdan ovoz chiqarmoq. *Sovuqdan oyoqlari titraydi.* 2. Qimirlamoq, tebranmoq, silkinmoq va shu kabi ovoz chiqarmoq. *Uy titrab ketdi.* 3. Titroqqa o‘xshash ovoz chiqarmoq. *Uyning yaqindagina sirlangan, bo‘yoq isi anqib turgan shifti ostida tor sadolari titrab ketdi.* (O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi)

Tizillamoq suyuqlik oqimining tovush harakatini ifodalaydi. *Oddiy qo‘l nasosidan tizillab otilayotgan suvni o‘t yamlab yutib yuboryapti.* (A.Muxtor, Chinor)

Tommoq tomchilab oqqanda chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Toma-toma ko‘l bo‘lur, Hech tommasa, cho‘l bo‘lur.* (Maqol)

Tiriqlamoq tiriq-tiriq ovoz chiqarmoq. *Eshik asta tiriqladi.*

Tomoq qirmoq 1) tomoqqa urilib o‘tadigan havo bilan ovoz chiqarmoq: *U tomog‘ini ora-sira qirib, entikib turib gapirdi.* (M.Ismoiliy, Farg‘ona t.o.) 2) shunday ovoz bilan nimagadir ishora qilmoq: *Keksa bir ulamo tomoq qirib o‘zidan xabar bermaganida kim biladi, u sukunat yana qancha davom etar ekan?* (M.Ismoiliy, Farg‘ona t.o.)

Torsillamoq tors degan ovoz chiqarmoq. *Toshib borib torsillab Ketayotir otlari.* (“Sharq yulduzi” jurnali)

Tuflamoq tfu degan ovoz chiqarmoq. *Sulaymonov qaymoqdan bir qoshiq olib ichdi-da, birdan afti burushdi. Tuflagani joy izladi, tufladi.* (A.Qahhor, Munofiq)

Tupurmoq. *Osmonga tupursang, betingga tushar.* (Maqol)

To‘ng‘illamoq yoqimsiz ohangda gapirmoq. *Kelib onamga to‘ng‘illadim: - kitobni yetti mahalla nariga tashlab keling!* (O‘.Hoshimov Dunyoning ishlari, 66-b.).

Topirlamoq palapartish ovoz chiqarmoq. *Katakda tovuqlar topirlab qolishdi.*

To‘pillamoq shu kabi ovoz chiqarmoq. *Olma to‘pillab yerga tushdi. – Yigitcha uyga to‘pillab kirib keldi-da, hech narsadan hech narsa yo‘q, stol ustiga kichkina bir tugunchani qo‘ydi.* (Y.Xaimov, M.Rahmon, Hayot-mamot)

To‘qillamoq to‘q-to‘q ovoz chiqarmoq. *Ombir to‘qillab yerga tushdi.*

To‘qillatmoq to‘q-to‘q ovoz chiqartirmoq. *U [Mo‘tilal] qo‘ltiqtayog‘ini to‘qillatib, vokzaldan chiqdi.* (Mirmuhsin, Mo‘tilal)

~ U ~

Uflamoq uf demoq, uf tortmoq. *Bu qarashida butun o‘tgan kimlarini yana bir qayta xotirlagandek bo‘ldi va ...uflab yubordi.* (A.Qodiriy, O‘tgan kunlar)

Ulimoq ayni **uvlamoq**. *Yaqindagi chiroq miltirab turgan qo‘rg‘onda it ulidi.* (S.Ahmad, Hukm). *Qaydadir bo‘ri ulidi* (S.Ahmad, Jimjitlik 48-b.).

Uf tortmoq ibora: ham ovoz chiqarish, ham norozilik holatini ifodalaydi. *Ota-onaga uf tortmang.*

Uvlamoq aynan **uvullamoq**. *It qayrilib qaramadi... uvlayverdi.* (O‘.Hoshimov Tushda kechgan umrlar 121-b.)

Uvullamoq cho‘ziq “uv” degan ovoz chiqarmoq. 1. Shamolning ovozi: *sovuq shamol muzlagan daryo ustida uvullab, qor supuradi* (O‘.Hoshimov Ikki eshik orasi, 461-b.). 2. Bo‘ronning ovozi: *Tashqarida bo‘ron uvullar, pastak derazani qor uchqunlari ayovsiz savalar edi.* (O‘.Hoshimov Tushda kechgan umrlar 55-b.) 3. Jonsiz narsalarning ovozi: *O‘choq mo‘risi uvullay boshlaydi* (Ch.Aytmatov. Oq kema 108-b.). 4. Ko‘chma ma’noda: *Bomba uvullagani loy aralash qor osmonga sachrab ketganini g‘ira-shira ko‘rdim.* (O‘.Hoshimov Ikki eshik orasi, 183-b.)

Uvvos solmoq, uvvos tortmoq qattiq ovozda yig‘lamoq. *Buvi jahldan uvvos sola boshladi.* (Ch.Aytmatov. Oq kema 32-b.).

~ V ~

Vadavanglatmoq ashula, musiqa kabilarning ovozini avjiga chiqarmoq. *Bodomxon chirmandasini vadavanglatib yubordi. Shakarxon “Yaxshi bor” qo‘shig‘ini boshladi.* (I.Rahim, Chin muhabbat)

Vakillamoq aynan akillamoq. 1. Hayvon. *It vakilladi.* 2. Insonga nisbatan qo‘llanganda vaysamoq, javramoq fe‘llari bilan sinonim bo‘ladi. *Boy otam mol-mulkini hujjatlab berishdan bosh tortgandan keyin Salim g‘azablandi, bolalik qilib vakilladi.* (Oybek, Tanlangan asarlar)

Vang‘illamoq harakatdagi narsalarning shovqinli ovoz chiqarishini ifodalaydi. *Xuddi shu payt pastda, qasrning ichida nimadir portlab bo‘sh xonalar vang‘illab ketdi.* (O.Yoqubov, Izlayman)

Vaqillamoq 1. “Vaq-vuq” ovoz chiqarmoq (qurbaqa). *Baqalarni aytmayisizmi? Bir-biridan qolsa, qulog‘ini kesadigandek ovozi boricha vaqillaydi.* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 19-b.). 2. Bo‘lar-bo‘lmasga gapiravermoq, valaqlamoq (inson). *Hadeb vaqillama.* 3. Oqayotgan yoki qaynayotgan narsalarning vaqillab ovoz chiqarishini bildiradi. *Choy vaqillab qaynadi.*

Vaqirlamoq ayni **vaqillamoq**. *Chol vaqirlab qaynab turgan qumg‘onga ko‘k choy solib damladi.* (S.Ahmad Iqbol chiroqlari)

Vaq-vaq qilmoq shu kabi ovoz chiqarib sayramoq; vaqillamoq. *Baqalar vaq-vaq qilib sayraydi.*

Varaqlamoq qaynayotgan yoki oqiyotgan narsalarning ovoz chiqarishini bildiradi. *Ergashev pulemyotidan shunchalik kuchli o‘t ochdiki, hatto pulemyot kojuhidagi suv samovardagidek varaqlab qaynab ketdi.* (N.Safarov, Qahramonning tug‘ilishi).

Varanglamoq qattiq jarangdor ovoz chiqarmoq. *Azmiddin cho‘ntagidan naganini olishga ulgurdi. O‘q varangladi.* (H.G‘ulom, Mash‘al)

Varillamoq davomli ovoz chiqarmoq. *Traktorlar churillab-varillab yovvoyi jiyda changal, do‘lana singari mayda daraxtlarni tag tomiri bilan qo‘porib tashlar edi.* (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari)

Vag‘illamoq 1. Vag‘ degan tovush chiqarmoq. *Tank vag‘illagancha orqasidan quyuq tutun, chang-to‘zon ko‘tarib sudrab ketdi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 114-b.) 2. Shunday tovush bilan gapirmoq. *Teshaboyning doim og‘zi gapda, vag‘illagani vag‘illagan.* (Oybek, Bolalik)

Vashillamoq vash-vash ovoz chiqarmoq. *...o‘g‘lining “Davotim qani?” deb, u yoqdan bu yoqqa yugurgani eshitildi, primus vashilladi.* (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari)

Vangillamoq aynan angillamoq. *It tipirchilar, vangillardi* (S.Ahmad. Jimjitlik 22-b.).

Varqiramoq uzluksiz, muntazam tebranishdan hosil bo'lgan tovush harakatini ifodalaydi. *Suv varqirab oqmoqda.*

Varanglatmoq miltiq otilgandagi ovoz harakatini ifodalashda qo'llanadi: *Birov qulog'ingni tagida varanglatib miltiq otadi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 177-b.).

Vartillamoq qattiq, kuchli urilish natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi.

Vag'illamoq 1. Betinim, yoqimsiz ovozda gapirmoq: *Ko'p vag'illama.* 2. Vag' degan ovoz chiqarmoq. *Buldozerlar biri olib, biri qo'yib vag'illadi. Orqaga tisariladi, oldinga intiladi.* (O'. Usmonov, Sirli sohil)

Vag'irlamoq tartibsiz, takrorlanuvchan shovqin chiqarmoq. *Vag'irlamang behuda, bu gal navbat bizniki.* (Oybek, Bolalik)

Vavaqlamoq baland, takroriy ovoz chiqarmoq, asosan, qushlarning ovozini bildiradi. *Bedana vavaqlab yotibdi.*

Vangvanglamoq uzluksiz, yoqimsiz chinqiroq tovush chiqarmoq. *It vangvanglab qochdi.*

Vijillamoq 1 (qaldirg'och) sayramoq. *G'ir-g'ir shabada yuzni siypaydi. Qaldirg'ochlar vijillaydi.* (N.Yoqubov, Xayolimdagi qiz). *Goh-goh shamning vijillagani eshitilib qoladi.* (Shuhrat, Shinelli yillar). 2 bola nutqini ham ifodalaydi.

Vijirlamoq shu kabi tovush chiqarmoq, chug'urlamoq. *So'ri yog'ochida turib olib vijirlab sayrayotgan qaldirg'och jimib qoldi.* (M.Mansurov, Yombi)

Viqirlamoq uzluksiz, past ovoz chiqarmoq. *Shavla viqirlab qaynab turibdi.*

Vizillamoq tezuchar hasharotlar, otilgan o'q yoki shamolning ovoz harakatini ifodalaydi. *Bemo'ljal otilgan bu o'qlar ancha naridan vizillab o'tdi.* (X.G'ulom, Mash'al). *Mana jinni! – havoda qamchi vizilladi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 234-b.)

Viz etmoq [Asalarilar] *Ko'z ilg'amas xartumchalari bilan shira emib oladilar-da, yana viz etgancha kelib uylariga kirib ketadilar.* (H.Nazir, So'nmas chaqmoqlar).

Vishillamoq cho'ziq "vishshsh" degan ovozni ifodalaydi (jonsiz jism harakati) *Abdulahad... goh olovga, goh burqigan idishlarda vishillagan moddalarni temir asbob bilan aylantiradi.* (Oybek, Navoiy). *Ko'chma ma'noda (insonga xos) "Kobra" seskanib ketdi. Hatto ikki lunji shishib ketgandek bo'ldi. – Siz... – dedi vishillab. Ilg'or boshqarmamizning umummaqsadiga ataylab bolta uryapsiz...* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 6-b.)

Vig'illamoq vig'-vig' ovoz chiqarmoq. *Bola vig'illayapti!*

Vorillab "vor" etgan ovoz chiqarmoq. *Qor erib tarnovlardan suv vorillab oqa boshladi.* (Oybek Tanlangan asarlar)

Vovullamoq "vov-vov" demoq, akillamoq. *Biroq nariroq borib battar vovullashga tushdi.* (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 222-b.).

Voshillamoq vosh-vosh ovoz chiqarmoq. *Bo'rijar dod solib voshillayapti* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 18-b.). *Traktor ovozi: Birov o'ldirib ketgan – o'ldirmagan, - Olimjon voshillab bug' ko'tarilib turgan traktorga suv quyarkan, yana iljaydi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 297-b.)

Vozillamoq hasharotlarning ovozini chiqarishini ifodalaydi. *Ari vozillab uchdi.*

~ X ~

Xaxolamoq qattiq ovozda kulmoq. *Temur Malik xaxolab kulib yubordi.* (Mirmuhsin, Temur Malik)

Xexelamoq xe-xe degan ovoz chiqarib kulmoq. *Qozi domla kulgidan chetda qolmadi, kallasini likillatib xexeladi.* (M.Ismoiliy, Farg‘ona tong otguncha)

Xirillamoq 1. Xir-xir ovoz chiqarmoq. *Alimardon To‘rayev pul uchun dunyoning narigi chekkasiga borishdan ham toymas, to‘ylarda tongotar ashula aytib xirillab qoldi.* (O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi). 2. Xirillamoq nafas yo‘llarining torayishi yoki ularda patalogik holat bo‘lishi natijasida yuzaga keladigan nafas shovqinlari. 1. *Faqat sal xirillagan tovush bilan aytilgan ashula ovozi kelib turardi.* 2. *–Suv – dedi xirillab.* 3. *Bilagimdan tutib, xirillab kuldi* (O‘. Hoshimov. Cho‘l havosi 142-159-b.).

Xirillashmoq ovoz chiqarib urishmoq, janjallashmoq. *Hozir uning nazarida uning nazaarida olamda eng past va razil ko‘ringan Mirzakarimboy bilan pul yuzasidan xirillashish, yoqa bo‘g‘ishishni o‘ziga or biladi.* (Oybek, Tanlangan asarlar)

Xirxirlamoq ayni **xirillamoq**. *Qari it xirxirladi.*

Xirqiramoq ayni **xirillamoq**. *Yonida Dadaqo‘zi ham inqillab ingrab, pichoq yegandek xirqirardi.* (A.Muxtor, Bo‘ronlarda bordek xalovat)

Xirq-xirq qilmoq. *Eshak dik-dik qadam bosadi. Sahar salqinida sovigan tuproq hidi yoqadi shekilli, “xirq-xirq” qilib qo‘yadi* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 94-b.).

Xixilamoq sekin bosiq tovush bilan kulmoq. *Xolmirza akaning xixilashidan ichagi uzildi.* (A.Qodiriy, Obid ketmon)

Xurullamoq xurrak tortib uxlamoq. *U xurullab yotgan hamxonalariga birpas tikilib turdi-da, kiyinib sekin tashqariga chiqdi.* (N.Eshonqul, Yalpiz hidi)

Xo‘rillamoq ayni **xurullamoq**. *Chol xo‘rillab yotibdi.*

Xo‘rillatmoq 1. **Xo‘rillamoq** fl.ort.n. 2. **Xo‘r-xo‘r** ovoz chiqarmoq. *Karavotga chiqdim-u, yonboshlab olib, achchiqqina ko‘k choyni xo‘rillatib icha boshladim.* (E.Raimov, Ajab qishloq)

Xo‘rsinmoq og‘ir nafas chiqarmoq. *Navoiy yashirin ichidan xo‘rsindi.* (Oybek, Navoiy)

~ Z ~

Zing‘illamoq. *Tepada zing‘illab uchgan snaryadlar ninalarning bad sadosi, olov va tutun aralash yer uyumlari...* (Oybek, Quyosh qoraymas)

Zirillamoq 1. Titrash, silkinish natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Chaqmoqdan derazalar zirillab ketdi.* 2. *Juda qo‘rqmoq, hayiqmoq. [Inobat] kelin ayalari ham, opalar ham undan zirillab turishadi.* (S.Ahmad, Asarlar)

Yuragi zirillamoq kuchli darajada qo‘rqmoq. *Uning [Muqaddam] qadam bosishga majoli qolmagan, ichkariga kirishi bilanoq pichoq ko‘tarib turgan dadasiga ro‘para bo‘ladiganday, yuragi zirillardi.* (O‘.Hoshimov, Bahor qaytmaydi)

Zumlamoq chillak o‘yinida nafasi yetganicha “zum” deb ovoz chiqarmoq. Yuz qadam joyga zumlab boradi.

Zuvullamoq 1. “Zuv-zuv” ovoz chiqarmoq. *Bolalar zuvullagan ovoz chiqarib yugurdi.* 2. Tez harakat qilmoq, juda tez chopmoq. [*Kolxoz raisi Qulmatga*] *Olish boshlandi, de! Chop, zuvullab borib, zuvullab kel!* (T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi)

Zuvlamoq “zuv” deb ovoz chiqarmoq. *Uning zuvlaganini bolalar eshitib turishardi* (S.Ahmad. Jimjitlik 59-b.).

~ O‘ ~

O‘kirmoq 1. Kuchli yig‘i ovozi chiqarmoq, ho‘ngramoq. *Kutilmaganda Rixsi xolaning ko‘ngli yumshadi-yu, o‘kirib yig‘lab yubordi.* (P.Qodirov, Qora ko‘zlar) 2. Baqirmoq, bo‘kirmoq (insonlar yoki yirik hayvonlarning kuchli ovozi) *Jadal kelyotgan qora ayiq juda xunuk o‘kirardi.* 3. Jonsiz narsalarning kuchli ovoz chiqarishi. *O‘kirib to‘xtatadi so‘nggi zambarak, Jahannam xudosi qahqahdan tindi.* (G‘.G‘ulom)

O‘kramoq aynan **o‘kirmoq**. *O‘krab yig‘lab yubordim. – nega kutmas ekanman? Sizdan boshqa kimim bor!* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi 90-b.)

O‘kranmoq sheva va folklorda pishqirmoq ma’nosida (ot haqida). *Qashlagani otga yoqib qolibdi, O‘kranib u gir aylanib turibdi.* (“Alpomish”)

O‘qranmoq tomog‘idan bo‘g‘iq tovush chiqarmoq (ot, sigir ovozi). *G‘irko‘k bedov bir o‘qranib kishnadi.* (“Hasanxon”)

O‘qchimoq kutilmaganda og‘riq yoki vahimadan qattiq ovoz chiqarmoq. *Xomiladorligi uchun yog‘ hidiga o‘qchidi.*

O‘xchimoq ko‘ngil aynib yo‘talgansimon, g‘ayriixtiyoriy tovush chiqarmoq. *Salimboyvachcha qorong‘ida daraxtni quchoqlab uzoq o‘xchidi.* (Oybek, Tanlangan asarlar)

O‘shqirmoq *Bobom oyimga o‘shqirib berdi: – Chiroqni yoqsang-chi, pakana!..* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 52-b.).

~ G‘ ~

G‘ajirlamoq narsalarning ishqalanishidan chiqadigan tovushni bildiradi. *Tishlari g‘ajirlab ketdi.*

G‘aldiramoq aynan qaldiramoq; shu kabi ovoz chiqarmoq. *Tovushi o‘z jussasiga qaraganda ham yo‘g‘on va ro‘za tutib, uzoq uyqudan turgan kishiniki singari g‘aldiragan edi.* (A.Qahhor, Sarob)

G‘aqillamoq parrandalar ovozi bildiradi. *Xolmatjon... allaqayerda tinimisiz g‘aqillayotgan o‘rdaklar ovoziga quloq solardi.* (S.Ahmad, Ufq)

G‘artillamoq “g‘art-g‘art” ovoz chiqarmoq. *Karnaylar quloqlarni batang qilib g‘artillardi.* (G‘.Rasul, Adolat)

G‘artillatmoq qattiq, birdan, portlovchi ovoz chiqarmoq. *Shundoq deraza tagida bittasi ikki quloch keladigan mis trubani g‘artillatyapti.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 46-b.)

G‘archillamoq sinish, ezilish, ezg‘ilanish natijasida keskin tovush chiqarmoq. *Tuflichasi g‘archillaydi, Diliyoyim achchiqlaydi.* (“Boychechak”)

G'archillatmoq sinish, ezilish, ezg'ılanish natijasida keskin tovush chiqartirmoq. *G'archillatib bodring chaynarkan, xayoliga alamli o'y keldi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 49-b.)

G'arsillamoq sinish yoki urilish natijasida qattiq ovoz chiqarmoq. *Shox g'arsillab sindi.*

G'arsillatmoq qattiq ovoz chiqartirmoq. *Shoxlarni g'arsillatib sindirdi.*

G'atillamoq "g'at-g'ut" ovoz chiqarmoq. *Karnay g'atillayapti.*

G'ag'alamoq qush yoki parrandanlarning bo'g'iq takroriy ovoz chiqarishini bildiradi. *G'ozlar g'ag'alaydi.*

G'ag'illamoq shu kabi tovush chiqarmoq (parranda). *Mashina jo'naydi. G'ozlar g'ag'illaydi.* (A.Qahhor, Og'riq tishlar)

G'achirlamoq mexanik jismlar harakatlanganda chiqadigan qattiq, yoqimsiz ovozni ifodalaydi.

G'idinglamoq shikoyat yoki nolish ohangida gapirmoq. Bunda gapirish emas, qanday ovoz ifodalanganini bildiradi. *Haydasangiz haydayvering, kolxozingizga zor emasman, deb g'idingladi.* (H.Tursunqulov, Hayotim qissasi)

G'idg'idlamoq uzuq-uzuq ovoz chiqarmoq, sayramoq (kaklik, bedana). *Hoji do'ppili Sulton puchuq takyada boqib yurgan kaklik g'idg'idlay boshlaydi.* (G'. G'ulom, Shum bola)

G'ijbanglamoq ma'lum usul yoki ritmda chalinmoq, jarangdor ovoz chiqarmoq (childirma). *Qayerdadir childirma g'ijbanglamoqda.* (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari)

G'ijillamoq aynan kasallik tufayli qiynalib nafas olib chiqarmoq; **g'ijirlamoq.** *Ammam yana jimib qoldi. Nefasining g'ijillashi kuchayib ketdi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 22-b.)

G'ijirlamoq 1. G'ijir degan ovoz chiqarmoq. *Aravaga go'ng rosa tepkilab bosilgan, g'ildiraklar yuk zo'rligidan g'ijirlardi.* (H.G'ulom, Feruza) 2. Shamollash yoki kasallik tufayli xirillashga yaqin ovoz chiqarmoq. *Tuzuklikka tuzuk. Lekin hali ham o'pkalari g'ijirlaydi.* (N.Aminov, Suvarak)

G'ijirlatmoq shu kabi ovoz chiqartirmoq. *U yonboshda turgan sumkaning zanjirini g'ijirlatib ochdi.* (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 196-b.).

G'ildiramoq aylanma harakat natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi (g'ildirak va doira ovozi). *Tanga qo'limdan tushib, g'ildirab ketdi.*

G'ildirlamoq s.t. 1. **G'ildirlamoq.** *Balon g'ildirladi.* 2. *Ko'chma* aylanmoq, aylanib yurmoq; parvona bo'lmoq. *Tevaragida g'ildirlab yurgan Zaynabning uyiga kiraberish uchun Kumushning mulohazasini qilar edi.* (A.Qodiriy, O'tkan kunlar)

G'ilqillamoq aynan qulqullamoq; shu kabi ovoz chiqarmoq.

G'ing'illamoq 1. G'ing'-g'ing' ovoz chiqarmoq (pasha, ari va qo'ng'iz). *Pasha g'ing'illadi.* 2. *Ko'chma.* So'zlarni tushunarsiz tarzda, past ovoz bilan aytmoq; xirgoyi qilmoq. 3. *Ko'chma.* G'ingshimoq, qaysarlik qilmoq ma'nosida. *Aksincha, uncha-muncha g'ing'illaganni og'ziga urib yurdi.* (Shuhrat, Oltin zanglamas)

G'ing'irlamoq past, ingichka, uzluksiz tovush chiqarmoq. *Elmurodning bir tekis g'ing'irlagan ovozi yoqimli nag'maday hammaning es-hushini qamrab oldi.* (P.Tursun, O'qituvchi)

G'iqillamoq tomoqqa bir narsa tiqilganda chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Shamol keskin guvullar, qari qayrag'ochlar hazing g'iqillar edi.* (Oybek, Oltin vodiyydan shabadalar)

G'irillamoq 1. Tez aylanish, harakat yoki boshqa sabab tufayli ovoz chiqarmoq. *Radiokarnay g'irillab turib, birdan gapira boshladi.* (S.Ahmad, Ufq) 2. G'ir-g'ir esmoq (shamol, izg'irin). 3. aynan **g'izillamoq**. *Katta yo'ldan g'irillab kelib, g'irillab ketavergan ekanman.* (S.Ahmad. Jimjitlik 14-b.).

Non deganda kesak g'irillaydi turmush sharoitining juda og'irligini bildiradi. *Azbaroyi xudo, shu xumsangiz eshigida kushod ikki oy bo'ynimni egib, non deganimda, kesak g'irillaydigan bo'ldi.* (A.Qodiriy, Kichik hikoyalar)

G'irqillamoq ishqalanish natijasida chiqadigan yoqimsiz tovush harakatini bildiradi.

G'irqiramoq ishqalanish natijasida chiqadigan yoqimsiz tovush harakatini bildiradi.

G'irtillamoq ishqalanish natijasida silliq bo'lmagan tovush chiqarmoq. *Eshik g'irtillab ochildi.*

G'irchillamoq "g'irch" deb ovoz chiqarmoq. *Beshik muttasil g'irchillaydi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 170-b.).

G'itillamoq qattiq narsa, predmetlarning surilishi, ishqalanishi natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Eshikning g'itillab, ochilganini eshitib qaradi.* (M.Ismoiliy, Farg'ona t.o.)

G'itirlamoq mexanik harakat natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi.

G'itg'itlamoq shu kabi ketma-ket, uzuq-uzuq ovoz chiqarmoq.

G'ivillamoq hasharotlarning ovoz chiqarib uchishi natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi.

G'iyqillamoq qattiq narsa, predmetlarning surilishi, ishqalanishi natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi. 1. Aravaning ovozi: *G'iyqillab borayotgan arava ustida tevaragi ufqqa tutashgan cho'lni tomosha qilib boraman.* (S.Ahmad, Cho'l burguti). 2. Garmon (musiqasi asbobi) ovozi: *Muttasil garmon g'iyqillarmish.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 96-b.)

G'iytillamoq keskin, birdan ovoz chiqarmoq. *Ko'cha eshik g'iytillab ochildi.* (P.Tursun, O'qituvchi)

G'iyt-g'iyt qilmoq ketma-ket shovqinli ovoz chiqarmoq. – *Voy-voy ovozinin xunukligi. G'iyt-g'iyt qiladi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 47-b.)

G'iych etmoq "g'iych" deb ovoz chiqarmoq. *Eshik oldin asta-asta taqilladi, keyin g'iych etib ochildi.* (H.Ziyoxonova, Qishloqi)

G'izillamoq 1. Juda tez uchayotgan narsalarning ovoz harakatini bildiradi. *Keyin mashinalar g'izillab borayotgan ko'chalar chetidan yuridik.* (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 134-b.). *Shoxdor ona bug'u bolalarni opichib, g'izillab uchayotgan o'qlarga yetkazmay borardi* (Ch.Aytmatov. Oq kema 60-b.). 2. Chaqqon va tez harakat bilan yurmoq. *Sabri chidamay, eshikka otildi. Zinalardan g'izillab tushdi.* (Shuhrat, Jannat qidirganlar).

G'ichillamoq aynan **g'ichirlamoq**. *"Nima qilib o'tiribsan?" deb g'azabli alam bilan o'rnidan turganida ko'cha eshigi g'ichilladi.* (A.Muxtor, Chinor)

G'ichirlamoq shu kabi ovoz chiqarmoq. *Beshik g'ichirlaydi. Ukam yig'lay boshlaydi.* (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 17-b.). **Ko'chma ma'noda:** *Butun qish bo'yi o'rmon daryo ortida shamoldan g'ichirlab ingrab chiqadi* (Ch.Aytmatov. Oq kema 39-b.).

G'ingillamoq aynan g'ing'irlamoq.

G'ingshimoq 1. Uvlash, vovullashdan ko'ra ingrashga yaqinroq tovush chiqarmoq. *Tumshug'ini oldingi oyoqlariga qo'yib yotgan it erinibgina g'ingshidi.* (N.Aminov, Qahqaha) **2.** Ma'nosiz tovushlar chiqarmoq. *Choygum taraq-turuq qilib, tun sukunatini buzib yubordi. O'z karavotida yotgan Zoirjon g'ingshib qo'ydi.* (O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol)

G'oqg'oqlamoq parrandalarning shu kabi ovoz harakatini bildiradi.

G'ovurlashmoq turli tartibsiz ovozlar chiqarmoq. *Bu g'ovurlashgan kambag'allar ham qulmi? – dedi Safarqul boyga.* (S.Ayniy, Qullar)

G'udurlamoq tushunarsiz ovozda nimalardir gapirmoq. *Zag'cha ko'z nimadir g'udurlab, Qur'on kalimasini takrorladi.* (P.Tursun, O'qituvchi)

G'udranmoq tushunarsiz ovozda gapiravermoq. *Vafo attor: "Betayfiq, imonsiz", deya g'udranib, eski sholchasini ostiga to'shab, oldiga klyonkani yozdi* (N.Aminov, Qahqaha, 138-b.).

G'udullamoq aynan **g'udurlamoq**. *Qodirov o'ziga o'zi nimanidir aytib, g'udulladi-yu, jahli chiqib otiga qarab ketdi.* (Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli)

G'udunglamoq aynan **g'udurlamoq**. *Ermot otning jilovini qo'yib, Qur'on kalimasini takrorladi.* (P.Tursun, O'qituvchi)

G'ujurlamoq 1. Mayda qushlarning ovoz chiqarishini bildiradi, shu kabi ovoz bilan sayramoq. *Qushlar bahorni olqishlab g'ujurlaydi, shoxdan shoxga uchib qo'nadi.* (N.Fozilov, Oqim) **2.** Boshqalar tushunmaydigan tilda gapirmoq (bola). *Bir yashar bolakay nimadir deb g'ujurladi.*

G'ulduramoq tushunarsiz ohangda, eshitilar-eshitilmas gapirmoq. *Zaynab o'zining xatosini angladi va gapirolmay g'ulduradi.* (A.Qodiriy, O'tkan kunlar)

G'urullamoq I g'ur-g'ur ovoz chiqarmoq. *Burayin qo'lim bilan g'urullab aylan, urchug'im.* ("Boychechak")

G'urullamoq II s.t. tabiat hodisalariga xos ovoz chiqarishni bildiradi. *Shamol g'urullaydi. Klubga yaqin orada odam kirmagani uchun zax bosib ketgan, katta-katta derazalarning siniq oynasidan shamol g'urillaydi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 197-b.).

G'urg'uramoq folklorda. O'kirgansimon ovoz chiqarmoq (tuya). *[G'irko 'k] Tuya bo'lib g'urg'uraydi, ayiq bo'lib chirqiraydi.* ("Xushkeldi")

G'uvullamoq shamol esishi, narsa yoki predmetlar uchishi, aylanishi natijasida hamda qushlarning tovush chiqarishini ham bildiradi. *Shamol g'uvullayapti. Kallasi g'uvullamoq, boshi g'uvullamoq* charchash, toliqish, depressiya natijasida boshda og'riq aralash shovqin sezmoq. *Nizomjonning kallasi g'uvullab, qo'llari mushtga aylandi.* (S.Ahmad, Ufq). *Bir zumda boshi g'uvullab ketdi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 48-b.)

G'uvurlamoq aynan **G'uvullamoq**. *Katta shahar g'uvurlaydi – har yon suron.* (Oybek, Zafar va Zahro)

G'uvg'uvlamoq aynan **G'uvullamoq**. *Ketma-ket davomli ovoz chiqarmoq. Qay kovak ichida g'urrak g'uvg'uvlar.* (X.Davron, Qaqnus)

G‘o‘ldiramoq tushunarsiz ohangda gapirmoq. *Hali ham g‘o‘ldirayapsanmi? – do‘q qildi O‘rozqul.* (Ch.Aytmatov. Oq kema 77-b.)

G‘o‘ng‘illamoq hasharotlarning ovoz harakatini ifodalaydi. 1. *Allaqayerda qovog‘ari g‘o‘ng‘illadi* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 38-b.). 2. *ko‘chma Shu payt osmonda samolyotlar g‘o‘ng‘illadi* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 183-b.).

G‘o‘ng‘irlamoq tushunarsiz ohangda gapirmoq.

G‘o‘lqillamoq suyuqlikni ichish natijasida chiqadigan tovushni bildiradi. *Ichimlikning g‘o‘lqillab yutilyotgani eshitildi.* (A.Obidjon, Oltin yurakli Avtobola)

G‘o‘rillamoq shiddat bilan yelmoq, esmoq va ovoz chiqarmoq (tabiat hodisalari va obyektlarning ovozini bildiradi). *Motor tovushi g‘o‘rillab quloqni qomatga keltiradi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 176-b.)

G‘o‘tillamoq narsa-predmetlarning mexanik harakati natijasida chiqadigan bo‘g‘iq tovush harakatini bildiradi.

G‘o‘ng‘illamoq hasharotlarning ovozini ifodalaydi. *Ari aylanib, uzoq g‘o‘ng‘illadi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 212-b.)

~ Sh ~

Shaldiramoq 1. Bir-biriga urilish, silkinish natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Qamishlar shaldiraydi. Qayoqdandir gumburlagan ovoz eshitildi.* (J.Abdullaxonov, Xonadon) 2. Urilish natijasida suyuqlikning pastga shaldirab oqishini bildiradi. *Ariq ixcham, uning suvi shaldirab oqar.* (S.Karomatov, Oltin qum)

Shaloplamoq suyuqlikka biror narsa tushganda yoki urilganda chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Suv qirg‘oqqa shaloplalab urilib, osilib qolgan novdalarni tortqilab oqmoqda.* (S.Ahmad, Ufq). *Soat Qonqusning qoq o‘rtasiga shaloplalab tushdi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 39-b.)

Shaloplatmoq suyuqlikka qattiq jism urilishidan chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Xusanxo‘ja uzun ishtonini shaloplatib yaqin keldi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 39-b.)

Shalpillamoq nam yuzaga asta urilishda sust, ketma-ket chiqadigan tovush harakatini ifodalaydi.

Shang‘illamoq baland ovozda gapirmoq. *Talabalardan kimdir rubob chalib qo‘shiq aytar, birov birov bilan shang‘illab gaplashar, xullas, hammayoq shodlikka to‘lgan edi* (O‘.Hoshimov. Shamol esaveradi).

Qulog‘i shang‘illamoq: *Shaxnozaning qulog‘i shang‘illardi* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 18-b.)

Shang‘imoq aynan **shang‘illamoq**; javramoq, vasamoq (ayol nutqi).

Shapaloqlamoq tarsaki tushirmoq va shap-shap ovoz chiqarmoq. *Qulmuhammadning basharasiga shapaloqlab solib yubordim.* (Sh.Xolmirzayev, Saylanma)

Shapillamoq yumshoq va ho‘l narsaga urilish, teginish natijasida chiqadigan tovushni bildiradi. *Suvning shapillashiga vujudim talpinib, qo‘raga kirdim.* (A.Muxtor, Davr mening taqdirimda). *Dadam hovlidagi ariqda ketmon chaydi, shekilli, suv shapilladi.* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 351-b.)

Shapillatmoq shap-shap ovoz chiqartirmoq. *Nurmat tog‘a peshonasiga shapillatib urib, gandiraklagancha chiqib ketdi* (S.Ahmad, Jimjitlik 38-b.).

Shapatilamoq qattiq yuzaga urilganda chiqadigan tovush, tarsaki ovoz harakatini bildiradi. *Vaqqos ota ... achinib, peshonasiga shapatiladi.* (S.Yunusov, Kutilmagan xazina)

Shappalamoq s.t. shapaloqlamoq, qattiq yuzaga urilganda chiqadigan tovush, tarsaki ovozini bildiradi. *Mezbonlardan biri mirzoning yelkasiga shappaladi.* (A.Qahhor, Mirzo)

Shappatilamoq aynan shapatilamoq. – *Olib kelgan odamlaringiz savodli chiqib qoldi-ku, – dedi mezbonlardan biri Mirzoning yelkasiga shappalab.* (A.Qahhor, Mirzo)

Shaqillamoq 1. Qattiq urilish va qaynashdan chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Hali ham shaqillab qaynab yotgan samovar yonidan ot choptirib o'tganida tashqariga otilib chiqqanlar... cholga bir gap bo'lganini fahmlashdi.* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 87-b.).

Shaqirlamoq suyuqlik qaynashi natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Oshxonada sariq samovar shaqirlab qaynab turibdi.* (A.Muhiddin, H.Tojiboyev, Otash qalbli qiz)

Sharaqlamoq 1. Urilish yoki teginish natijasida qattiq keskin tovush harakatini bildiradi. *Eshik sharaqlab ochildi* (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 197-b.) 2. *Ko'chma* qattiq kulmoq. *Shoir bo'lsa sharaqlab kular, chiroyli ko'zlari suzilib ketgan edi.* (O'.Hoshimov, Nur borki, soya bor).

Sharaqlatmoq shu kabi ovoz chiqartirmoq. *Bola temirlarni sharaqlatib hamma yoqni larzaga solib to'xtadi.* (Ch.Aytmatov. Oq kema 102-b.).

Sharillamoq suyuqliklarning quyilishi, oqishi, pastga tushishi natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Soy bir tekis sharillardi.* (S.Anorboyev, Oqsoy)

Sharillatmoq 1. **Sharillamoq** fl.ort.nisb. *U darhol kiyimlarini yechib jo'mrakdan suvni sharillatib yuvindi.* (Mirmuhsin, Umid) 2. *Ko'chma* tez va tutilmay bajarmoq. *Qani endi, men ham o'rischani sharillatib o'qiydigan bo'lsam.* (S.Ahmad, Hukm)

Sharqillamoq teginish va urilish, ishqalanish natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi.

Sharqiramoq aynan sharillamoq. *Eshigim oldida bir tup terak bor, yonidan o'tadi ariq sharqirab.* (Shuhrat)

Shartillamoq tez va keskin tarzda “shart” etib ovoz chiqarmoq. *Arqon shartillab uzildi.*

Shatillamoq ayn. **shatirlamoq**. *U yana oldinga intilib shatillaganicha yurib ketdi.* (Mirmuhsin, Cho'ri)

Shatirlamoq 1. “Shatir-shutur” ovoz chiqarmoq. *O'rmon shatirlab qoldi, burglar patirlab qoldi.* (H.Olimjon, Tanlangan asarlar) 2. s.t. *ko'chma* jadal, shiddat bilan harakat qilmoq. *Qirq yigit to'p bo'lib, shatirlab birdan kelib qoldi.* (“Xushkeldi”)

Shatirlatmoq “shatir-shutur” ovoz chiqartirmoq. *Jimjit xonada tarnovlardan tushayotgan suvning shatirlashi eshitilib turardi.* (P.Qodirov, Uch ildiz)

Shattalamoq tepib beriladigan zarb, tarsaki natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi.

Shag‘illamoq shag‘-shug‘ ovoz chiqarmoq. *Shag‘illaydi daryo, shag‘illaydi vodi, daralar.* (H.Olimjon)

Shildiramoq 1. Oqayotgan suv yoki suyuqlikning bir maromda oqishi natijasida chiqadigan ovozni bildiradi. *Otabek ayvonidan tushdi-da, shildirab oqib turg‘an ariq yonida tahorat olishka o‘lturdi.* (A.Qodiriy, O‘tkan kunlar). Suv ostida tashqaridagi hamma tovushlar tinib quluqalarda faqat suvning shildirashi qoladi (Ch.Aytmatov. Oq kema, 30-b.). 2. Yengil ovoz chiqarmoq (ishqalanish natijasida xas-xashak, qamish ovozi). *Shildirab yaproqlar kuylaydi qo‘shiq.* (Shukrullo).

Shilpillamoq “shilp-shilp” ovoz chiqarmoq. *Loy yo‘lakda qadamlar shilpillaydi.*

Shilqillamoq 1. Shilq-shilq ovoz chiqarmoq. *Ko‘p suv ichganimdan yurganimda qornim shilqillardi.* 2. Sirqib turmoq; ko‘lmak hosil qilmoq (suyuqlik va namlikning ko‘pligi). *Yog‘i shilqillagan palov.* 3. *Ko‘chma* Holdan toymoq, darmonsizlanmoq, bo‘shashmoq. *Qizcha yig‘lab charchagan, shilqillab tushgan edi.* (R.Fayziy, Hazrati inson)

Shiltillamoq yumshoq narsaga urganda hosil bo‘ladigan tovushni bildiradi. *Qor erib, ko‘chalar shiltillab ketdi.*

Shiltillatmoq sirg‘aluvchan yoki ho‘l narsaning urilishi yoki tushishidan chiqqan past tovush harakatini bildiradi. *Shiltillatib qor bosgan nari ketdik.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar, 95-b.)

Shimirmoq. *Azimjon shofyor, navbatlashib, ikki kosadan shimirdilar.* (A.Muxtor, Chinor)

Shing‘illamoq metall buyumlar bir-biriga urilganda hosil bo‘ladigan ovoz harakatini ifodalaydi; jiringlamoq. *Qo‘shni ko‘chada shing‘irlab, yerni dirillatib, tramvay o‘tib ketdi.* (A.Muhiddin, Ixtirochilar)

Shing‘irlamoq metall buyumlar bir-biriga urilganda hosil bo‘ladigan ovoz harakatini ifodalaydi; jiringlamoq. *Bellariga qadalgan qo‘ng‘iroqning shing‘irlashi shohning yurishiga tantanali tus berar edi.* (M.Osim, Sehrli so‘z)

Shipillamoq 1. Ship-ship qilmoq; shitirlamoq. *Vaqt allamahol bo‘lib qolgan, butun kasalxona uyquda. Faqat ahyon-ahyonda shipillagan oyoq tovushi eshitilib qoladi.* (X.To‘xtaboyev, Sadoqat) 2. Yengil va tez-tez yurmoq; zipillamoq. *U [Xayri xola] hasharchilarni alqay-alqay shipillagan nari qo‘rg‘onchaga kirib ketdi.* (M.Osim, Tilsiz guvoh)

Shipirlamoq ayn. **shipillamoq.**

Shipirmoq ham harakat, ham ovozni bildiradi. *Eshigimni shipirsin bu qo‘mondon..* (H.Olimjon)

Shipshimoq 1. Past ovoz bilan nimadir demoq; pichirlamoq. *Bas! – shipshidi Tohir juvorkash yigitga.* (P.Qodirov, Yulduzli tunlar) 2. Hech kimga bildirmay aytmoq, bildirib qo‘ymoq. *Vohidovga shipshib qo‘yishni men bo‘ynimga olaman.* (S.Zunnunova, Yangi direktor)

Shiqillamoq aynan shiqirlamoq. *Choyxonada odam ko‘p. ba‘zan choynaklarning qopqog‘i shiqillab qoladi.* (Shuhrat, Shinelli yillar). *Qoshiq shiqilladi* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 352-b.).

Shiqillatmoq ayn. **shiqillamoq.** fl.ort.ns. barmoqlarni shiqillatmoq. *U qulchasini shiqillatib portfelni u qo‘lidan bu qo‘liga oldi* (Ch.Aytmatov. Oq kema,

20-b.). **Tuyog‘ini shiqillatmoq** jo‘nab qolmoq ma‘nosida: *Endi tuyog‘ingni shiqillat* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 21-b.).

Shiqirlamoq shu kabi tovush chiqarmoq. *Nihoyat kimdir g‘arch-g‘urch qor bosib eshikka yaqin keldi. Zanjir shiqirladi* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 435-b.).

Shiqirlatmoq shu kabi ovoz chiqarmoq. *Qattiq pishqirdi-yu, suvlig‘ini shiqirlatgancha bir siltagan edi, jilov Dalavoyning qo‘lidan chiqib ketdi.* (Dunyoning ishlari, 223-bet).

Shir etmoq yupqa gazmol yirtilganda, suv oqqanda hosil bo‘ladigan tovush harakatini bildiradi. *Shu payt shir etgan tovush eshitildi-yu, qizning nazarini o‘ziga tortdi.* (J.Abdullaxonov, To‘fon)

Shirillamoq shu kabi ovoz chiqarmoq. *Bir joyda suvni tizginlashga ulgursa, nariyoqda shirillab urib ketadi.* (Oybek, O.v.shabadalar)

Shiriqlamoq shiriq-shiriq ovoz chiqarmoq. *Eshik bandi shiriqladi.*

Shirqillamoq ayn. **shirqiramoq**. *Belda bellik bilqillab, Mehtarada suv shirqillab, Yo‘lga tushdi qirq botir.* (Xushkeldi)

Shirqiramoq shirq-shiriq ovoz chiqarmoq. *Oqqan suvday shirqirab, shamolday bo‘p boradi.* (“Ravshan”)

Shitirlamoq “shitir” degan ovoz chiqarmoq. *Tashqarida teraklar shitirlaydi. Qayerdadir, yaqin joyda daryo shovullaydi.* (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 9-b.).

Shivalamoq bir tekis, bir maromda, kuch bilan yog‘moq (yomg‘ir haqida). *Shivalab turgan yomg‘ir kuchaya boshladi.* (R.Fayziy, Sen yetim emassan). *Tashqari chiqsak yomg‘ir shivalayotgan ekan.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 258-b.)

Shivillamoq ayn. **shivirlamoq**. *Suv shivillab, qandaydir sirli, vahimali ko‘rinish bilan oqadi.* (Oybek, Tanlangan asarlar)

Shivirlamoq *Ko‘rpani ko‘tarib qaradi-yu, Muqaddamga o‘girilib, shivirladi. – Uxlab qolibdi-ku... – Mayli, – dedi pichirlab* (O‘.Hoshimov. Bahor qaytmaydi).

Shig‘alamoq shig‘ degan ovoz chiqarmoq. *Yomg‘irlar shig‘alab yog‘ar bag‘rimga.*

Shig‘illamoq 1. “Shig‘” etgan ovoz chiqarmoq. *Devor tagida doshqozon, uning yonida qumg‘on-samovar shig‘illab qaynab turibdi.* (S.Siyoyev, Avaz) 2. Aynan **g‘izillamoq**. *Snaryadlar shig‘illab kelib, gumburlab, to‘fon ko‘tardi.* (Shuhrat, Shinelli yillar)

Yuragi shig‘illab ketdi ayn. **yuragi shuv etdi**. *Me‘morning yuragi shig‘illab ketdi. U yana miq etmay qoldi.* (Mirmuhsin, Me‘mor)

Shig‘illatmoq ishqalanish natijasida ovoz chiqartirmoq. *Yana shig‘illatib supurishga tushdi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 7-b.)

Shig‘-shig‘ qilmoq davomli ovoz chiqarmoq. *Supurgi shig‘-shig‘ qiladi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 6-b.)

Shig‘irlamoq ayn. **shig‘illamoq**. *Baland tog‘da shig‘irlagan tosh endi..* (“Hasanxon”)

Shopillamoq shop-shop ovoz chiqarmoq.

Shopirmoq 1. Idishdagi suyuq ovqat yoki ichimlikni cho‘mich bilan olib yana qayta quymoq (shu harakatni takrorlamoq). **Ayronni shopirmoq.** 2. Yanchilgan

g'allani tepadan to'kib, shamolga tutib, qipiq yoki cho'p-xaslardan tozalamoq; sovurmoq, shuningdek, paxta, shulxa, somon kabi narsalarni kurak, panxasha bilan irg'itib shamollatmoq. *Ko'z ilg'amas dala oppoq paxtazor, Ishlab horigan sirg'ilar oftob. Paxta bulutini shopirib bir chol, Quritadi uni, oltinni shu tob.* (Zulfiya) 3. Uchirmoq, to'zimoq. *Dashnobod bog'ida barglar sarg'ayib bo'lgan, kuz shamollari ularni shopirib ketgan.* (S.Ahmad, O'ylar)

Shov etmoq suyuqlikning shiddat bilan tez tushishida hosil bo'ladigan tovush harakatini bildiradi. *Shov etib, tarnovdan suv keldi.*

Shovdiramoq kam. *qo'll.* Shovullamoq; shaldiramoq. *Madrasaning keng, tekis chorburchak sahnidan kecha shovdirab o'tgan yomg'ir ko'zga ilinar-ilinmas bug' bo'lib, havoga ko'tarilmoqda edi.* (Oybek, Navoiy)

Shovqinlamoq baland ovoz bilan gapirmoq, baqirmoq. *Avtobus silkinib-silkinib borar, odamlar bir-biri bilan shovqinlab gaplashishardi.* (O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol).

Shovqin solmoq qiychuvlashmoq. *Baqirib-chaqirib shovqin solishdi* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 56-b.).

Shovullamoq "shov-shov" ovoz chiqarmoq. *Daryo shovullaydi. Mana shu shovullagan sukunat ichida dilni titratadigan iztirobli nido yangraydi...* (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 10-b.). *Qonqus toshqin suvlarini bag'riga sig'dirolmay shovullay boshladi.* (O'.Hoshimov. Bahor qaytmaydi 141-b.). *Chindan ham Alvastiko'prik shiddatli taraqlar, o'tib boryotgan yuk poyezdi bo'lsa kerak, chiroqlari ko'rinmas, biroq shovullab turgan yomg'irni ham, momaqalldiroq ovozini ham bosib ketgudek shodon shovqin solar, oldinga – urush bo'lyotgan tomonga yelar edi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 213-b.).

Shovurlamoq "shovur-shuvur" ovoz chiqarmoq.

Shuvalamoq shivalamoq. *Yaqindagina shuvalab o'tgan yomg'irdan keyin havo musaffo.* (S.Anorboyev, Oqsoy)

Shuvullamoq "shuv-shuv" ovoz chiqarmoq. *Yerto'la atrofidan zax tuproq shuvullab to'kildi.* (Shuhrat, Shinelli yillar). *Ustimga shuvullab qor yog'ila boshladi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 147-b.).

Yuragi shuvullamoq yoki **yuragi shuv etmoq**, qo'rqmoq ma'nosida. *Baland ovozdan yuragi shuvulladi.*

Sho'lp etmoq "sho'lp" degan ovoz chiqarmoq; qattiq jismning suyuqlikka tushishidan chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Bu lan'ati kalamushlar bochkaga sho'lp etib tushadi-da, yog'ga belanib oladi.* (S.Mahkamov, Shogird)

Sho'lqillamoq yopiq idishdagi suyuqlikning chayqalish natijasida chiqaradigan tovush harakatini bildiradi.

Sho'ldiratmoq sho'ldir degan ovoz chiqartirmoq: *Lekin piyolaga sho'ldiratib choy quyishidan, o'qtin-o'qtin xo'rsinib qo'yishidan hammasini bilib yotdim* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 470-b.).

Sho'ltillamoq suyuq narsalarning urilishi natijasida chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Deraza ortida sho'ltillagan qadam tovushi eshitildi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 262-b.)

Sho'ltillatmoq "sho'lt" degan ovoz chiqarmoq. *Etigining qo'njidan sho'ltillatib "sharbat" sachratgancha duch kelgan tomonga yugurib ketdi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 291-b.)

~ Ch ~

Chakillamoq tomchining tushishidan, urilishidan chiqadigan tovush harakatini bildiradi. *Sumalaklar chakillab, xayolni buzishyapti.* (B.Nuriddinov, Alvado bahor)

Chalp etmoq ovqat chaynaganda, loy kechganda chiqadigan tovushlarni bildiradi. *Chalp etib loyga tushmoq.*

Chapak chalmoq qo'llarni bir-biriga urilishi natijasida ovoz chiqarmoq. *Sher chapak chalaman deb qo'lidan ko'kchani tushirib yuborishiga sal qoldi.* (S.Anorboyev, Hamsuhbatlar)

Chapillamoq suyuqliklarning urilishi natijasida chiqadigan tovush harakatini ifodalaydi. *Shoxdor ona bug'uning go'shtini chapillab yeyayotganliklarini ... eshitib turardi* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 150-b.).

Chapillatmoq 1. **Chapillamoq** fl.ort.n. *Bay-bay-bay, munchayam mazali-ya! – maqtardi Ko'katoy labini chapillatib* (Ch.Aytmatov. Oq kema 150-b.). 2. Suvni kesib o'tish, suzish kabi harakatlarda chapillagan ovoz chiqarmoq.

Chaplamoq ham, harakat, ham "chap" etgan ovoz harakatini ifodalaydi. 1 ayn. **Chapmoq.** *Onasi uni cho'miltiradigan bo'lsa, ertalabdan boshiga qatiq chaplab qo'yardi.* (S.Ahmad, Saylanma) 2. Kaftiga olib yurib yopishtirmoq. *Loy chaplamoq.*

Chaqirlamoq kam qo'll. ayn. **shiqirlamoq.** *Mahalla choyxonasida odam tiqilinch, qayerdadir choynak chaqiraydi.* ("Mushtum" jurnali)

Chaqillamoq "chaq-chaq" tovush chiqarmoq.

Chaqmoq chalmoq *Ketma-ket chaqmoq chaqib, pastak derazalardan, eshikdan otilib kirgan nur uy ichini sutdek yoritib yubordi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi 210-b.).

Charsillamoq "chars-churs" ovoz chiqarmoq. *Tag'in chaqmoq charsilladi. Ust-boshi jiqqa suv bo'lib ketgan Olimjonning yig'idan titrab turgan lablarini aniq ko'rdim.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 208-b.)

Chaxchaxlamoq chax-chax ovoz chiqarmoq (bulbul sayrash). *Bulbul chaxchaxlab, birinchisiga javob qildi.* (H.G'ulom, Qoradaryo)

Chag'illamoq qushlarning ovoz harakatini bildiradi. *Bugun erta tongdanoq tog'lar boshida chag'illab bezovtalangan zag'chalar aylanib qoldi* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 66-b.).

Chag'irlamoq kichik qushlarning sayrashini ifodalaydi.

Chag'chag'lamoq shu kabi ovoz chiqarmoq, sayramoq. *Butun dunyoning bulbuli shu yerlarga yig'ilib kelganday, har shoxda chag'chag'laydi.* (Sh.Xolmirzayev, Saylanma)

Chag'-chug' qilmoq. *Qorong'ida soyadek so'ppayib turgan traktor, muttasil chag'-chug' qilyotgan qarg'alar, osmonda zangori qilichdek yalt-yult qilib o'chyotgan chaqmoq – hammasi g'oyib bo'ldi.* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 205-b.).

Chikillamoq chik-chik tovush chiqarmoq. *Soat chikillab turibdi.*

Chikirlamoq "chikir-chikir" tovush chiqarmoq.

Chikchiklamoq davomli "chik-chik" davomli tovush chiqarib turmoq. *Chikchiklagan soat millari bilan umr ham o'tmoqda.*

Chilpillamoq suyuqlikning oqishi, urilishi natijasida “chilp” tovushini chiqarmoq. *Yangi Namangandagi chilpillagan loy ko‘chalar hozirda qora asfaltga aylangan.*

Chinqirmoq ingichka va o‘tkir davomli tovush chiqarmoq, chiyillagan tovush chiqarmoq. *Pastak eshikni oyog‘i bilan tepib, hovli ichkarisiga g‘azabnok chinqirdi: Chaqqon bo‘l. Hoy! Katta uyni bo‘shat!* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 46-b.).

Chiqillamoq “chiq-chiq” davomli past ovoz chiqarmoq (texnika asboblari haqida). *Shu qadar jimki, dadamning hujrasidagi soatning chiqillayotgani ham eshitiladi.* (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 248-b.). *Nimadir chiqillayotganini eshitdi* (S.Ahmad. Jimjitlik 51-b.).

Chiqirlamoq kichik metal buyumlarning urilishidan chiqadigan ovoz harakatini bildiradi. *Chumchuqcha kelib ketdi. Ushoqlarni yeb ketdi. Chiriq-churuq chirqlab, Erta kelay, deb ketdi.* U. Bahromova.

Chirillamoq 1. Shu kabi ovoz chiqarmoq (hasharotlar haqida). *Qayerdadir chigirtka chirilladi* (O‘.Hoshimov Bahor qaytmaydi 12-b.). *Chigirtkalar chirillar, osoyishta osmonda to‘lin oy nur sochar edi* (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 91-b.). 2. Qattiq yig‘lamoq (go‘dak). 3. Qattiq azob bilan yig‘i aralash so‘zlam oq. *Chirillab akam deb tursa boshimda, Qaldirg‘och jigarim sho‘rlik bo‘lmadi.* (“Alpomish”)

Chirillatmoq 1. “Chir” degan ovoz chiqartirmoq: o‘z ma’nosida. 2. Tez va shiddatli burilmoq: ko‘chma ma’noda. *Komissar yuzini chirillatib o‘girdi-da burilib ketdi.* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar)

Chirqlamoq aynan chirqillamoq: qushlarning ovozini ifodalaydi. *G‘or oldidan o‘tib ketayotsam, bir gala chumchuq chirqillab yotibdi.* A.Ko‘chimov, Halqa.

Chirqillamoq 1. Chirq-chirq ovoz chiqarmoq (qushlarning sayrash). *Deraza ortida oqshom tashvishi bilan jonsarak bo‘lib qolgan chumchuqlar tinimsiz chirqillar, yosh o‘rikning qizg‘ish novdalari hamon qattiq-qattiq silkinar edi* (O‘.Hoshimov Nur borki soya bor). 2. Qattiq qichqirib, chinqirib yig‘lamoq (yosh bola haqida). 3. *ko‘chma* Zorlanib, iltijo qilib yoki kuyunib gapirmoq. *Oqsoqol bilan cholim poyiz tagida qolganda qandoq chirqillagan edi, bola bechora...* (O‘.Hoshimov Ikki eshik orasi). 4. *ko‘chma* Moddiy muhtoj holda yashamoq; qaram bo‘lmoq. *Uyimda sakkizta bola chirqillab turibdi, qanday boqaman ularni?* (X.To‘xtaboyev, Yillar va yo‘llar)

Arvohi chirqillamoq oh-u nola qilmoq; qattiq yig‘lamoq.

Chirqillatmoq yig‘latmoq, qiynamoq, baland ovoz chiqartirmoq ma’nosida. *Bolalarni chumchuqdek chirqillatib, uyga olib kirib ketdi* (X.To‘xtaboyev Uch sayyohning safari).

Chirqiramoq *Qarchig‘ay chirqirar baland uyada...* (“Erali va Sherari”)

Chirsillamoq “chirs-chirs” ovoz chiqarmoq. *Kattakon to‘nkadan chirsillab olov sachrayapti.* (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi) *Pilik chirsillaydi, hovlida qurbaqalar qurillaydi* (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 38-b.). *Kalla chirsillab yorilib, mayda suyaklar har tomonga uchib ketardi* (Ch.Aytmatov. Oq kema, 146-b.).

Chitillamoq uzilish yoki sinish natijasida chiqadigan keskin tovush chiqarishni bildiradi.

Chitirlamoq chitir-chitir ovoz chiqarmoq. *Tun og'ganda, Qumri o'rnidan asta turib, tokhada chitirlab yonayotgan chiroqni puflab o'chirdi.* (H.G'ulom, Mash'al)

Chixchixlamoq texnika yoki mexanik asboblarning davomli chiqaradigan ovoz harakatini bildiradi.

Chiyillamoq ingichka yoqimsiz ovoz chiqarmoq. *Turgan-bitganing vahimaya, Oqsoqol! – dedi chiyillab. – Shuni oldinroq aytsang o'lasanmi? Bitta uyni bo'shatib qo'yadim* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 46-b.). *Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, guvullaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalardan bosh urib uf tortadi.*(A.Qahhor, Daxshat)

Chiyovlamoq qushlarning sayrashini ifodalaydi. *Baliqchi qushlar chiyovlab uchib o'tdi.*

Chiychiylamoq sayramoq, tovush chiqarmoq (qush ovozi). *Oyna opa... chiychiylab uchayotgan qaldirg'ochlarni loqayd kuzatib turardi.* (Sh.Xolmirzayev, To'lqinlar)

Chig'illamoq chig'-chig' tovush chiqarmoq (qush ovozi). *Kakliklar chig'illab, tom osha uchib ketishdi.* (Sh.Xolmirzayev, Saylanma)

Chig'irlamoq sayramoq, tovush chiqarmoq (qush ovozi). *Chumchuqlar zo'r berib chig'irlar edi.* (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari)

Chopmoq zarb bilan urmoq va shuning natijasida kuchli ovoz chiqarmoq. *Biri xodalarning po'stlog'ini shiladi, biri poytesha bilan to'sin chopadi.*

Chuldiramoq ichaklardan chiqadigan ovozni, suyuqlikning chiqaradigan ovoz harakatini ifodalaydi. Shaldiramoq, shildiramoq. *Bahor chog'i chuldiragan irmoqlardan, Salom bo'lsin, saxovatli yil boshiga.* A.Oripov.

Chuldiratmoq chuldir degan ovoz chiqartirmoq. *Hushtakni chuldiratib chalmoq. Chilimni chuldiratib tortmoq*

Churqullamoq sayramoq, tovush chiqarmoq (qush ovozi). *Shu sababli, bug'doyzorni to'rg'aylarning vijirlashlari, sa'valarning sayrash, chumchuqlarning churqullashlari tutib ketgan ekan.* (Sh.Bo'tayev, Yulduzlarga eltar yo'l)

Churullamoq Hushtak churulladi. *Ismoil melisaning ovozi eshitildi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 140-b.). *Churullagan hushtak tovushi havoni titratdi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 45-b.)

Chuvullamoq tartibsiz so'zlam, qiy-chuv qilmoq. *Qalmoqlarning kelyotganini ko'rib, eliboilar chuvullab, besaramjon bo'lib, mollarini to'plab, har qaysisi o'z boshiga bo'p qoldi.* ("Alpomish")

Chuvullashmoq qiy-chuv qilib baland ovoz chiqarmoq: *Xotinlar kula-kula battar chuvullashdi. – Yo'q! Yo'q!* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 170-b.). *Bolalar tog'amning nonidan yeymiz deb chuvullashdi* (S.Ahmad. Jimjitlik, 56-b.).

Chuvlamoq tartibsiz so'zlam, qiy-chuv qilmoq. *Hammalari chuvlashdi, Bog'ga tezroq yetsak deb.* ("Malikayi ayyor")

Chuvurlamoq tartibsiz so'zlam, qiy-chuv qilmoq. *Qizlar kampirni alaxsitish uchun birdan chuvurlab yuborishdi.* (S.Ahmad, Onajonlar)

Chuvchuvlamoq baland, tartibsiz ovoz chiqarmoq.

Chuvvos solmoq baland ovoz chiqarishmoq. *Hamma chuvvos soldi. Dadam boshimni ko'ksiga bosgacha, xo'rsinib yig'ladi* (O'.Hoshimov. Ikki eshik orasi, 42-b.).

Chug'ullamoq 1. Gapirmoq ma'nosida. *Bolalar devorlar ostida chug'ullashdi.* (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari) 2. Qushlarga xos ovoz chiqarishni ham bildiradi: sayramoq. *Qushlar chug'ullaydi.*

Chug'urlamoq "Chug'ur-chug'ur" sayramoq. *Qushlar oshyon qurish tashvishida chug'urlyadi.* (O'.Hoshimov Ikki eshik orasi)

Chug'urlashmoq qushlarning sayrashini bildiradi. *Qushlar chug'urlashmoqda.*

Chushkirmoq shv. Aksa urmoq. *Bilinar-bilinmas chushkirdi.* (P.Tursun, O'qituvchi)

Chuchkurmoq ayn. Aksa urmoq. *Ilgari Ahmadali ustma-ust chuchkursa, "go'za gullayapti", deb bashorat qilar edi.*

Cho'lpillamoq suyuq narsalarning qattiq jismga tushishi natijasida chiqadigan tovush harakatini ifodalaydi. *Tosh suvga cho'lpillab tushdi.*

Cho'lpillatmoq "cho'lp-cho'lp" ovoz chiqartirmoq. *Opasining bo'yniga osilib ikki yuzidan cho'lpillatib o'pdi.* (O'.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar 240-b.)

Cho'pillatmoq "cho'lp-cho'lp" ovoz chiqarmoq. *U [Nigora] onasining bo'yniga osilib, u yuzidan bu yuzidan cho'pillatib o'pa boshladi.* (S.Ahmad, Poyqadam)